

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON
MILLIY UNIVERSITETI

IJTIMOIIY FANLAR FAKULTETI SOTSIOLOGIYA
KAFEDRASI

KOMIL KALANOV

MADANIYAT SOTSIOLOGIYASI
(oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik)

Tashkent – 2017

K.Kalanov. Madaniyat sotsiologiyasi: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik./ K.Kalanov, Toshkent: O'zMU, 2017.- 273b.

Ushbu darslikda madaniyat sotsiologiyasi fanining asosiy tushuncha va komponentlari to'risida o'quvchiga ma'lumotlar beriladi. Atrof-muhitni o'rab turgan sotsial dunyo, struktura va jarayonlar madaniyat sotsiologiyasining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib yoritilgan. Darslikning asosiy mavzulari mumtoz sotsiologiya va madaniyatshunoslik soxasi namoyondalari, mahalliy mutahassislar bildirgan fikr-mulohazalar, taklif va munosabatlarni inobatga olgan holda atroflicha bayon qilindi. Darslik keng kitobxonlar ommasi, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va talabalar uchun sotsiologik bilimlarni kengaytirish va boshqaruv faoliyatida foydalanish uchun xizmat qilishi mumkin.

MUNDARIJA

1. Madaniyat sostiologiyasining ob'ekti va predmeti
2. Madaniyat sostiologiyasining fanlar tizimidagi o'rni
3. Madaniyat sostiologiyasi tushunchasi va asosiy yo'nalishlari
4. Madaniyat morfologiyasi va tipologiyasi
5. G.Zimmel, M.Veber va K.Mangeym ijodida madaniyat muammosi
6. Madaniyat sostiologiyaning tadqiqot ob'ekti sifatida
7. Madaniyat va stivilizastiya
8. XX asrda madaniyat sostiologiyasi va sostiologik bilimlar
9. Madaniyat va xulq-atvor me'yorlari
10. Marosimlar, ramzlar, afsonalar
11. Madaniyat va kundalik xayot
12. Madaniyatda identiklik va mentalitet masalalari
13. Madaniyat va ijtimoiy isloxotlar
14. Madaniyat va ijtimoiy tuzilish
15. Shaxs va madaniyat
16. An'anaviy va zamonaviy jamiyatlarning xususiyatlari. Modernizastiya
17. Globallashuvning madaniy jixatlari
18. Madaniy ijodning sostial sub'ektlari

IZOXLI LUG'AT (GLOSSARIY)

Madaniyatshunoslik- madaniyat to'g'risidagi fan bo'lib, madaniyat tarixi va madaniyat nazariyasidan iborat.

Madaniyat– “Madaniy” “shaxarlik” degan ma'nolarni bildiradi. Keyinchalik “Ma'rifatli bo'lish”, “Tarbiyali”, “Bilimli bo'lish” ma'nolarida ishlatilgan.

Madaniyat– uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar, asori-atiqalar yig'indisi.

Ma'rifat – bilish, tanish, ya'ni bilim demakdir.

Mentalitet– insonning ijtimoiy-iqtisodiy madaniy dunyoqarashi.

Ma'naviy meros– Qadim zamonlardan beri ajdodlarimizdan bizgacha etib kelgan ma'naviy boyliklar-siyosiy, falsaviy, xuquqiy va diniy qarashlar, axloq-odob me'yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlari majmuidir.

Iqtisod - muloqot, gaplashish, kelishish, savdolashish, ikki tomonga to'g'ri keladigan umumiy narxni, raqamni, xulosani topish demakdir.

An'analar – jamiyat xayoti turli soxalarining moddiy va ma'naviy faoliyat shakllarining, kishilar o'rtasidagi aloqalar va munosabatlarning avloddan-avlodga o'tishi, ajdodlar xayoti belgilari va xususiyatlarining takrorlanish tarzi, dunyoda an'analar va urf-odatlariga ega bo'lmagan millat yoki elat yo'q.

Vatan – kishilarning yashab turgan, ularning avlod va ajdodlari tug'ilib o'sgan joyi, xududi, ijtimoiy muxiti, mamlakati.

Vatanparvarlik – kishining o'zi, tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lgan mexr-muxabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy xissiyotlari, fazilatlaridir.

Islom - so'zi arabcha bo'lib, «xudoga o'zini topshirish», «itoat», «bo'ysunish» ma'nosini anglatadi.

Ma'naviyat - insonni jamiki boshqa mavjudotlardan ajratuvchi ijtimoiy xodisa.

Ma'rifat - bilim va madaniyatning qo'shma mazmuni bo'lib, maorif esa ana shu mazmunni yoyish kurash, vositasidir.

Meros - insoniyatning har bir tarixiy bosqichda yashagan avlodlari tomonidan yaratilgan va keyingi avlodga etib kelgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar majmuidir.

Millat - «millat» so'zi «o'zak», «tub mohiyat», «negiz» degan ma'noni bildiradi.

Milliy g'oya - millatning o'tmishi, buguni, istiqboli, manfaat va maqsadini ifodalovchi ijtimoiy g'oya.

Milliy qariyatlar - milliy mafkuraning tarbiyaviy elementi.

Milliy mafkura - o'zligimizni, muqaddas an'alarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizni ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga qo'yilgan oliy maqsad va oliy g'oyadir.

Milliy ma'naviyat - muayyan elat, millatga, uning ajdodlariga xos bo'lgan g'oyat qimmatli ma'naviy boyliklardir.

Milliy tarbiya - u yoki bu millatni, elatni tashkil etuvchi kishilarni milliy madaniyatini meros, qadriyatlarni, urf-odatlarni, an'analarni o'zlashtirishdagi faoliyatni rivojlantirishdir, u milliy ong va milliy o'zlikni anglashning sub'ektidir.

Siyosat - yunoncha so'z bo'lib, mazmuni davlat yoki jamoat ishlarini anglatadi. Siyosat - katta ijtimoiy guruxlar, millatlar, davlatlar ichki va tashqi munosabatlari sohasidagi faoliyatni anglatadi.

Tasavvuf - sufiylik insonni o'rgatar ekan, avvalo, kishining ko'ngliga, diniga tayanadi, ko'ngilni, qalbni tarbiyalashga, ko'ngil kishisini voyaga etkazish va intilishdir.

Temur tuzuklari - Amir Temur tomonidan davlatning rivojlanishi uchun va davlatning taraqqiyoti uchun aytilgan fikr muloxazalar.

Umuminsoniy ma'naviyat - butun insoniyatga jaxon xalqlariga tegishli bo'lgan ma'naviy-axloqiy boyliklardir.

Foya - muayyan fikr, maqsad sari etaklovchi kuch.

Qadriyatlar– borliq va jamiyat, narsalar, voqealar, xodisalar, inson xayoti, moddiy va ma’naviy boyliklarning axamiyatini ko’rsatish uchun qo’llaniladigan tushuncha.

Qubbatul islom – Buxoro shaxri. Islom dinining gumbazi.

Qur’oni Karim- Islom dinining muqaddas kitobi.

Apostollar – Xavoroiylar. Iso payg’ambarning shogirdlari.

Artemida ibodatxonasi – Dunyoning etti mo’’jizalaridan biri Efes shaxrida qurilgan.

Bayt ul-Xikmat – “Donishmandlar uyi”. Bag’doddagi akademiya.

Barokko– Evropa me’morchiligi uslubi.

Bobil minorasi – dunyoning etti mo’’jizasidan biri balandligi 90 m.

Buddaviylik – Mil.avv. VI asrda Xindistonda paydo bo’lgan din.

Geostentrik g’oya– koinot markazida doira shaklida xarakatsiz yer turadi.

Gerodot – (er. avv. 490-430.) Yunon tarixchisi. “Tarix faning otasi” xisoblanadi.

Gumanizm – insonparvalik.

Zevs – Yunonlarning eng muqaddas bosh xudosi.

Maxobxorot, Ramayana– Qadimgi Xindistondagi xalq og’zaki ijodi.

Ikonagrafiya – O’rta asrlarda avliyolarni yog’och taxtalarda tasvirlash.

Ilmi nujum – Astronomiya fani.

Iso Masix – Xristianlik dinining payg’ambari. (1-33 yillar).

Katolik cherkovi– Xristianlik dinidagi oqim. Markazi Vatikan.

Kolizey amfiteatri – Milodning 1 asrida Rimda qurilgan. Gladiatorlik janglari o’tkazilgan.

Leonardo da Vinchi (1452-1519 yy.) – Italiyadagi uyg’onish davri madaniyatining eng buyuk arbobi. Olim, muxandis, etuk rassom.

Liturgiya –Cherkov kuyi.

Ma’mun akademiyasi – Xorazmda tashkil etilgan akademiya.

Mikelaejelo Buanarotti (1475-1564 yy.) – Buyuk rassom, xaykaltarosh, xarbiy muxandis, shoir.

Misr exromlari– Qadimgi Misr davlatida podsho-fira’vnlarga atalib qurilgan maqbaralar, qabrlar, inshootlar.

Modernizm– Yangi san’at.

“Oltin meros” – Xayriya jamg’armasi 1996 yilda tashkil etilgan.

Rakono– rassomchilikdagi uslub. Bu uslub o’zining engilligi to’g’ri chiziqlarning simmetriyasi yo’qligi bilan xarakterlanadi.

Rasadxona – observatoriya. Osmon jismlarini kuzatadigan ilmiy dargox.

Renessans – Uyg’onish davri.

Reformastiya – O’zgarish, qayta qurish ma’nolarini anglatadi.

Rober de Sarbon– Franstiyadagi Sarbonna universitetining asoschisi.(1257 y.)

Suqrot, Platon, Aristotel – Yunon falsafasining yuksak namoyondalari.(er. avv. V-IV asrlar).

Fidiy – Yunon xaykaltaroshi. Zevs, Afina, Promaxos xaykallarini muallifi.

Fobizm – San’at yo’nalishidagi yangi oqim bo’lib, predmet narsalarning ajabtovur, yorqin ko’rinishda aks ettirishni ifodalaydi.

Xattotlar – Kitob ko’chiruvchi xusnixat egalari.

Xuanxe - Sariq daryo. Markaziy Xitoy tog’laridan Tinch okeaniga quyiladigan daryo.

Shumerlar– Qadimgi Messopatamiya davlatida yashab o’tgan qabila. Er. Avv. 3 minginchi yillar.

Ellada– Qadimgi Yunonistonning nomi.

KIRISH

Kitobxonga taqdim qilinayotgan ushbu darslik «Madaniyat sostiologiyasi»ni o’rganuvchi va **bazaviy** sostiologik tushunchalar va konstepstiyalar bilan tanish bo’lgan talaba va magistrLAR uchun mo’ljallangan. Darslik muallif tomonidan

“Sostiologiya” mutaxassisligi bo’yicha ta’lim olayotgan talabalar, magistratura talabalari uchun o’qilgan “Madaniyat sostiologiyasi” o’quv kursining keng yoritib berilgan ma’lumotlarni taqdim qiladi. Kursning mohiyati oliy kasbiy ta’lim Davlat standartlariga muvofiq keladi.

Mazkur darslikni ishlab chiqish zarurati asosan, sostiologiya fani bo’yicha o’quv adabiyotlarining etishmasligi bilan bog’liq. Agar umumiy sostiologiya bo’yicha darsliklar oxirgi ikki yil davomida etarli darajada nashr qilingan bo’lsa, madaniyat sostiologiyasi bo’yicha chop etilgan darsliklarni barmoq bilan sanab chiqsa bo’ladi, va ular har doim ham talabalarga etib bormaydi. Madaniyat sostiologiyasi bo’yicha oxirgi yillarda nashrdan chiqqan darsliklar va o’quv qo’llanmalari orasida L.G.Ioninning bir necha marotaba qayta nashr qilingan va xaqli ravishda mashxurlikka erishgan kitobini, shuningdek, F.I.Minushev va A.I.Shendriklarning o’quv qo’llanmalarini aytib o’tish mumkin. O’quv qo’llanma va darsliklar bilan (shuningdek, mazkur fan bo’yicha L.D.Gudkov va B.V.Dubin, S.A.Erofeev, A.V.Zaxarov va boshqa mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan o’quv dasturlari bilan) tanishganda mualliflar yondashuvining, qarashlarining, shuningdek, madaniyat sostiologiyasi ilmiy bilim va ta’lim fani sifatida nimani aks ettirishi xaqidagi tasavvurlarining xilma-xilligi e’tiborni tortadi. Bu kabi xilma-xillik tasodif emas – u mamlakatimiz (va xorij) fanida madaniyat sostiologiyasini, uning sostiologik bilim tuzilmasida va madaniyat xaqidagi fanlar tizimida tutgan o’rnini o’rganish predmeti xaqida olib borilayotgan munozaralarni aks ettiradi. Bu kabi vaziyatda o’quv materialini tizimlashtirish maqsadida amalga oshirilgan xar bir yangi vaziyat, garchi yakunlanganlik maqomiga da’vo qila olmasa-da, to’laqonli ravishda asoslangan xisoblanadi.

Kitobxonga taklif etilayotgan darslikning maqsadi – nafaqat madaniyatni, uning mavjudligining ijtimoiy shakllarini va rivojlanishini, madaniyatning ijtimoiy vazifalarini taxlil qilishning sostiologik yondashuvlarining o’ziga xos xususiyatlari xaqida tasavvur xosil qilish. Balki madaniyat sostiologiyasining sostiologik tadqiqotlar soxasi sifatidagi o’ziga xos xususiyatlarini xam ochib berishdan iboratdir.

Muallif kitobxonlarning e'tiborini madaniyatni taxlil qilish yondashuvlarining xilma-xilligiga qaratishga, madaniyat sostiologiyasi – madaniy xodisalarni o'rganishning qadimiy sostiologik an'anasi mavjud ekanligiga qaramasdan yangi shakllanib borayotgan bilim soxasi ekanligiga jalb qilishga intiladi. Darslikni yaratish aynan shu maqsadlar bilan bog'liq. Darslikning dastlabki bo'limlari turli nazariy yondashuvlar doirasida “madaniy-ijtimoiy” problematikani ta'riflashga bag'ishlangan. Keyingi bo'limlar esa madaniyatning ijtimoiy mavjudligi jixatlarini: madaniyaning ijtimoiy xodisa ekanligidan va uning shaxs shakllanishidagi o'rnidan tortib madaniyatning tarixiy dinamikasi muammolari, madaniy omillarning ijtimoiy o'zgarishlar va XX asr oxirlarida madaniyat mavjudligining o'ziga xos xususiyatlariga qadar bo'lgan jixatlarini ochib beradi.

1. MADANIYAT SOTSILOGIYASINING OB'EKTI VA PREDMETI

“Madaniyat sostiologiyasi” – sostiologik fikrning eng paradoksal yo'nalishlaridan biri xisoblanadi. Madaniyatning sostiologik taxlili sostiologiya paydo bo'lganidan boshlab uning asosiy vazifalaridan biri bo'lganligiga qaramasdan, bugungi kunga qadar “madaniyat sostiologiyasi”ning o'rganish predmeti va ushbu fanning sostiologik bilim tuzilmasidagi o'rnini xaqida bir turli fikrga kelinmagan.

Madaniyat sostiologiyasini “madaniyat soxasi”, “madaniy jarayon”larni o'rganuvchi, u yoki bu darajadagi keng qamrovli “soxa sostiologiyasi” sifatida o'rganiladi. Bu jixatdan madaniyat sostiologiyasi bir tomondan san'at, fan, ta'lim sostiologiyasi kabi soxa fanlari bilan bir qatorda turuvchi soxa sifatida ta'riflansa, boshqa tomondan esa ularni subdisziplinalar sifatida o'z ichiga qamrab oluvchi soxa sifatida ifodalanadi. Agar madaniyat sostiologiyasini o'rganilayotgan xodisalarni u yoki bu darajada qamrab oluvchi tarmoq fani sifatida o'rganadigan bo'lsak, u xolda muqarrar ravishda “madaniyat” chegaralarini aniqlab olish masalasi ko'ndalang turadi. Madaniyat sostiologiyasini ijtimoiy voqelikning qaysidir bir “bo'g'ini” yoki “soxasi”ni o'rganuvchi yo'nalish sifatida emas, balki

umuman ijtimoiy voqelikni ko'rishga bo'lgan aloxida yondashuv sifatida ifodalovchi nuqtai nazar xam mavjud. Mazkur yondashuv ijtimoiy xodisalarning ma'noviy tabiatidan kelib chiqadi. Bu xolatda madaniyat sostiologiyasi deyarli sostiologiyani tushunishga yaqin bo'lgan sostiologiyaning mustaqil loyixasiga aylanib boradi.

L.Koganning ta'kidlashicha, madaniyat sostiologiyasi xolatida sostiologik taxlil predmeti "qiyinchilik bilan qamrab olinadi: yo ko'plab predmetga oid subdisstiplinalarga bo'linadi, yoki aksincha, jamiyatni ijtimoiy-madaniy taxlil qilishning yaxlit nazariyasi sifatida belgilanadi". L.Koganning o'zi madaniyat sostiologiyasini "tuzilmaga oid, funkstionalistik va tizimli yondashuvlar doirasidagi metsostiologik fan" sifatida o'rganishni taklif qiladi, bu kabi yondashuvni u ijtimoiy voqelikning xar bir elementi qaysi soxaga – iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy soxalarga tegishli bo'lmasin, o'zining madaniy tarkibiy qismiga ega ekanligi bilan asoslaydi.

Madaniyat sostiologiyasi predmetini aniqlash yondashuvlari o'rtasidagi farqlar ko'p jixatdan "madaniyat" nimani aks ettirishini turlicha tushunish bilan bog'liq, deb xisoblanadi. Ma'lumki, "madaniyat" – bu ta'riflari soni yuzdan ortiq bo'lgan ko'p ma'noli tushunchalardan biri xisoblanadi. Extimol, aynan shu noaniqlik, shuningdek, "madaniyat" tushunchasining qadriyatga oid va dunyoqarashga oid ravishda ulkan yukka egaligi sababli ko'plab tadqiqotchilar undan foydalanmaslikka xarakat qiladilar.

Madaniyat sostiologiyasi predmetini ta'riflashda vujudga keladigan qiyinchiliklar, madaniyat nafaqat sostiologiyaning, balki boshqa fanlarning xam – jumladan, madaniy antropologiya va madaniyat falsafasi fanlarining taxlil ob'ekti bo'lganligi bilan xam bog'liq bo'lishi mumkin. Nisbatan yaqinda "madaniyat" o'rganish soxasining asosiy ob'ekti bo'lgan fan – madaniyatshunoslik vujudga keldi. Bundan tashqari madaniyatning turli soxalarini o'rganuvchi ko'plab fanlar mavjud. Shu sababli sostiologlar oldida madaniyatni o'rganuvchi boshqa fanlar bilan predmetga oid chegaralash muammosi vujudga keladi va ushbu muammoni oddiygina xal qilish mumkin emas. Aniq chegara tortish imkoni ko'pincha mavjud

emas. O'ta murakkab va ko'p turli xodisa bo'lgan madaniyat tadqiqotlari "tabiiy ravishda" fanlararo fanga moyillikni namoyon qiladi. Madaniyatni sostiologik taxlili xech qachon falsafa, madaniy va ijtimoiy antropologiya, psixologiya va boshqa gumanitar fanlar ta'siridan chetda bo'lmagan. O'z navbatida mazkur fanlar xam sostiologiyani ta'sirini o'zlarida xis qilganlar.

Nafaqat o'rganish predmeti, balki madaniyat sostiologiyasining vujudga kelish vaqti xam turlicha izoxlanishi mumkin. A.Sogomonov jumladan, "aloxida yo'nalish sifatida madaniyat sostiologiyasi dunyo ijtimoiy fikrida konseptual va kategorial jixatdan 60-70 yillardan boshlab sekin-astalik bilan rasmiylashtira boshladi, mamlakatimiz fanida esa undan xam kechroq, sof ijtimoiy nazariya kabi, chegaradosh soxalardan xam ajralib olgan xolda, madaniyat sostiologiyasi to'laqonli va qat'iyyan ilmiy loyixa sifatida faqatgina postmodernistik sostiologik paradigma rivojlanishi bilan parallel ravishda amalga oshdi".

Biroq bu kabi nuqtai nazarga e'tiroz bildirish mumkin. Madaniyat sostiologiyasining yirik loyixalari XX asrning birinchi yarmidayoq Alfred Veber va Karl Manxeymlar tomonidan taklif qilingan. Boshqa tomondan esa, A.Sogomonov fikriga ko'ra madaniyat sostiologiyasining "konseptual va kategorial" davri va uning "yondosh dissiplinalari bilan chegaralanishi" davriga aylangan postmodern davri aynan fanlar o'rtasidagi chegaralarning ajratilishi, fanlararolikka moyilik, shuningdek xayratlanarli darajadagi tushunchaga oid noaniqlik va ko'p ma'nolilik bilan xarakterlanadi. Biroq postmodern davri va shu davrda paydo bo'lgan postmodernistik sostiologik nazariya xaqiqatan xam madaniy problematikaga yuqori qiziqish bilan ifodalanadi, bu xaqda biz quyida aloxida to'xtalib o'tamiz. Shunday qilib, madaniyat sostiologiyasining aloxida dissiplina sifatida paydo bo'lish vaqtini biz aniqlik bilan ko'rsata olmaymiz. Biroq shunga qaramasdan, to'liq aniqlik bilan ta'kidlash mumkinki, madaniy xodisalarning taxlili – sostiologiyani Ogyust Kont davridan buyon ajralmas qismi xisoblanadi, va shu ma'noda madaniyat sostiologiyasi – sostiologiyani tengdoshi xisoblanadi.

O'zbek tilidagi ko'plab ensiklopedik lug'atlarda "Madaniyat" arabcha – madina (shaxar, kent) so'zidan kelib chiqqanligi yozilib, u tabiat va o'zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o'ziga xos usulidir, degan ma'noda talqin qilinadi. "Madaniyat aloxida shaxs (indivud), sostial gurux yoki jamiyatning xayot faoliyati usulini aks ettiradigan tushunchadir. Dastlab, madaniyat tushunchasi insonning tabiatga nisbatan maqsadga muvofiq ta'siri (erga ishlov berish, ya'ni kultivastiya qilish, lotincha "*culture*" so'zidan olingan), xamda insonning o'zini tarbiyalash, o'ziga ishlov berish ma'nolarida ifodalagan. Keyinchalik madaniyat tushunchasi vositasida "stivilizastiya" (taraqqiyot) bilan bog'liq mazmun tushunila boshlandi. Madaniyat inson faoliyatining maxsuli va sifat ko'rsatkichi sanaladi. Insonning o'zi xam pirovard natijada madaniyat maxsulidir. Jamiyatdagi madaniy muxit qanday bo'lsa, inson xam shunday shakllanadi."¹

"Madaniyat" so'zining tarixiga e'tibor qaratilsa, u ijtimoiy xayotda ma'no jixatidan murakkab talaffuzga ega mazmun kasb etib, ilmiy amaliy va kundalik xayotda keng qo'llaniladi. Turli ijtimoiy-gumanitar fanlarda ong va tafakkur bilan bog'liq turli sostial tizimlardagi murakkab tushunchalarning izoxini ta'riflashda xam unga murojaat qilinadi.

Madaniyat atamasining ma'nosi fanga qanday qilib kirib kelgani va shakllanganligi to'g'risida tilshunos tadqiqotchi R.Uilyams² bildirgan fikrlar aloxida axamiyatga ega. Ushbu atama "*colere*" so'zidan olingan bo'lib, uning turli Evropa tillari talaffuziga o'rnashishida lotincha "*cultura*" so'zining ta'siri yuqori bo'lgan. Ijtimoiy fanlarda *solere* atamasi "o'rnashib olmoq", "madaniylashtirmoq", "otaliqqa olmoq", "bo'ysunmoq", "amal qilmoq" kabi ma'nolarda keladi. Ushbu jummalarning ayrimlari vaqt o'tishi bilan o'zining mustaqil ma'nosiga ega bo'lib bordi va ilmiy atamashunoslikda keng qo'llanilib, ayrim xolatlarda joyi kelsa ma'no jixatdan bir-birini to'ldirib turadi. Jumladan, "o'rnashib olmoq" so'zi ma'nosi lotin tilidagi "*colonus*" so'zidan olingan bo'lib,

¹ Falsafa qomusiy lug'at. (Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov). – T.: Sharq, 2004. - 230 b.

²

keyinchalik *koloniya* so'zining kelib chiqishi uchun sabab bo'lgan. "Amal qilmoq", "bo'ysunmoq" fe'llari esa lotincha "*cultus*" so'zidan olingan bo'lib, xozirgi adabiyotlarda "*sig'inish*" (kult) ma'nosida ishlatiladi.

"*Sulture*" atamasi dastlab "xizmat qilmoq", "amal qilmoq" so'zlariga mazmun jixatidan yaqin bo'lgan "rivojlantirish", "kultivastiya qilish" ma'nolarini berib, o'rta asrlardagi ingliz tilida u to'g'ridan to'g'ri "xizmat ko'rsatish" ma'nosini anglatgan. Qadimgi fransuz tilida "*couture*" so'zi qisman biomadaniyat izoxida qo'llanilib, kundalik xayotda aloxida mazmun kasb etgan va keyinchalik "*culture*" shaklida talaffuz qilina boshlandi. Fransuzlarda *sulture* so'zining arxaik foydalanilgan jumlarining barchasida nimanidir, masalan, xayvonot yoki o'simliklar dunyosini madaniylashtirish (kultivastiya qilish) jixatlari tushunilgan. Bu esa o'z navbatida ushbu atamaning boshqa evropa xalqlari laxjasida qo'shimcha ma'nolarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Xususan, ingliz tilidagi "*coulter*" – (plug, so'qaning tishi ma'nosida keladi) so'zi lotin tilidagi mexnat qurolini anglatuvchi "*culter*" so'zidan kelib chiqqan. Uning keyingi evolyustiyasi madaniylashtirish (kultivastiya qilish), tabiiy xodisa va jarayonlarni insoniyat bilan bog'lash, odamlarni unga o'rgatish va madaniy rivojlantirish bilan bog'liq tasavvurlar bilan izoxlanadi. Shunday bo'lsada ushbu so'zning qishloq xo'jaligi bilan bog'liq ma'nosi ko'p asrlar davomida saqlanib qolgan. Agrokultura, kultivastiya kabi so'zlar shular jumlasidandir.

XVIII asrning o'rtalarida Evropa mamlakatlari, xususan Angliyada madaniyat yoki ilmiy ma'noda kultura atamasi aql va tarbiya bilan uyg'unlashtirildi. Ingliz faylsasufi F.Bekon o'z qarashlarida "madaniyat va aqlni parvarishlash" xaqida fikrlaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqilsa, parvarishlash – bu kultivastiyaning sinonimi o'rnida keladi. Shu davr ruxoniylari "zodagon kishilarning o'z farzandlarini tarbiyalash uchun cherkovga topshirishni istamayotganlari va buning o'rniga "bola tug'ilganidan uning aqlini madaniyatlashtirib borililayotganligi" (persons of either birth or culture) to'g'risida

noliydilar”³. Bunda ikki jihatga to’xtalib o’tish muxim. Birinchidan, metafora, ya’ni majoziy ma’noda madaniyat bilan tarbiyaning uyg’unlashuvi odatiy bo’lib bora boshladi va unda aql (ong va tafakkur) inson ma’naviy yuksalishini shu ikki omil bilan parvarishlab bordi. Ikkinchidan, insonning ruxiy erkinligi va uning individual sotsial imkoniyatlari ijtimoiy xayotda rivojlanish va takomillashib borish uchun madaniyat atamasidan unumli foydalanishga sabab bo’ldi. Bu esa ushbu atamaning fanlar tizimida yanada universallashtiruviga olib keldi.

XVIII-XIX asrlarda zamonaviy madaniyat so’zining ko’pqirrali, ammo chalkash ma’noli tarixi boshlandi. Bu davrda madaniyatning izoxini ifodalovchi “*culture*” talaffuzi yoniga “*civilis*”, ya’ni “fuqaroga taalluqli”, “fuqaroga oid” ma’noni beruvchi atama qo’shildi. U lotincha “*civis*” – fuqaro so’zi bilan qo’shilgan xolda “stivilizatsiya” jamlanmasining o’zagini tashkil qiladi. XX asrning 90 yillarida (keyinchalik xam) o’zbek tilidagi ilmiy adabiyotlarda ayrim tadqiqotchilar ushbu atamani forsiyadagi “*tamaddun*” so’zi bilan izoxlashga xarakat qildilar. Ta’kidlash mumkinki, bu izox o’zbek tilida o’zining to’liq lug’aviy ifodasini bera olmadi. Xususan, sotsiolog va siyosatshunos tadqiqotchilari orasida keng munozarali asar xisoblangan S.Xantingtonning mashxur asari ingliz tili (*The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*)dan tarjima qilinganda “Tamaddunlar yoki stivilizatsiyalar to’qnashuvi...” deb emas, balki “Madaniyatlar to’qnashuvi...” deb talaffuz qilinmoqda (K.K.).⁴

Ijtimoiy fanlarning uzoq muddatli evolyustiyasi davomida “stivilizatsiya” atamasi dunyodagi tarixiy jarayonlar va uning yutuqlarini, insonning jismoniy, ma’naviy va ruxiy kechinmalaridagi axloqiy tarbiyaning poklanishi, qonunchilik ustuvorligi xamda jamiyatdagi sotsial tartib ma’nolarini anglatib keldi. XIX asrning oxirlarida dastlab Fransiya, keyinchalik Angliya va boshqa Evropa mamlakatlarida stivilizatsiya so’zi ko’plik ma’nosida qo’llanila boshlandi. Mustamlakachilik siyosati bir vaqtning o’zida yangi madaniyatlar bilan to’qnash

Bu xususda qarang:

⁴ Asar rus tiliga “Stolknovenie sivilizatsiy i preobrazovanie mirovogo poryadka” deb tarjima qilingan. Qaralsin:

keldi va buning natijasida turli xil stilizatsiyalar to'g'risida fikr-muloxazalarga oid asarlar paydo bo'la boshladi.

Sobiq ittifoq paytida madaniyat atamasiga berilgan izoxlar tabiiyki, rus tilidagi manbalardan olib izox berilardi. Shu vaqtlarda madaniyat so'zini "Madina" shaxriga qiyoslab yozilgan kitob yoki maqolalar qariyb uchramasdi. "Kultura" fe'li rus tilida N.Kirillovning 1845 yili chop etilgan "Xorijiy tillar cho'ntak lug'ati"da ilk bor iste'molga kiritilgan. Lekin unga shu vaqtlarda jamiyatshunos mutaxassis va davlat arboblarning aloxida e'tibor qaratmaganligi ma'lum. Rus mutafakkir olimi I.Pokrovskiy o'zining "Rus tilidagi xatolar bo'yicha qaydlar varog'i" asarida xattoki ushbu so'zni muloqot uchun keraksiz deb e'lon qiladi. Faqatgina XIX asrning 80 yillariga kelib kultura, ya'ni madaniyatning zaruriyati xususida G'arb tillarida berilgan ma'no bo'yicha iste'molga kiritilishiga ruxsat etiladi. Atoqli tilshunos rus olimi V.Dal tomonidan yozilgan to'rt jildlik lug'atning ikkinchi qismida "kultura" so'ziga qisqagina to'xtalib o'tadi.⁵ Bunda madaniyat ma'nosi Evropa tillarida qanday shaklda bo'lsa, shu xolatda beriladi. Stilizatsiya atamasi esa jamiyatning umumiy xolatidan kelib chiqib, aloxida shaxslarning tarbiyasi va xulq-atvori darajasida tushunilib, yovvoyilik va varvarlikka to'la-to'kis qarshi xolatda tasvirlanadi.

Zamonaviy Evropa tillarida ijtimoiy fanlarga qo'llab madaniyat so'zining to'rtta asosiy ma'nosi qiyoslab ko'rsatiladi: 1) umumiy jarayonlarning intellektual, ma'naviy, estetik rivojlanishidagi mavxum ma'nolar (masalan, oliy ma'lumotlilar madaniyatli kishilar; ammo barcha oliy ma'lumotlilarning intellektual darajasi baland bo'lmasligi, estetik didi yuksak darajada shakllanmagan bo'lishi xam mumkin va x.z.lar); 2) jamiyatning sotsial taraqqiyotida xuquq, tartib, axloq tolerantligiga asoslangan ma'noda keluvchi madaniyat (ushbu vaziyatda madaniyat so'zi stilizatsiya so'zining ma'nosi bilan mos keladi); 3) qaysidir bir jamiyat yoki insonlar guruxining ma'lum bir tarixiy davrga xos bo'lgan mavjudlik usuli yoki xayot tarzining xususiyatlariga mavxum ishora (masalan, sug'dlar madaniyati,

⁵Даль В. Тольковый словарь живого великорусского языка. М.:Издание книгопродавца-типографа М.О.Вольфа, 1881. – С. 217.

maya madaniyati va b.); 4) aqliy-intellektual madaniyat, bunda dastavval badiiy faoliyat shakllari va maxsulotlarining mavxum tavsifini ifodalovchi musiqa, adabiyot, rangtasvir, teatr, kino va shu kabilarni anglash mumkin. Asosan madaniyat vazirligi tasarrufiga kiruvchi ushbu jarayonlarni katta extimol bilan axoli “madaniyat” sifatida talqin etilishi ko’p kuzatiladi.

Yuqorida keltirilgan ta’riflardan kelib chiqib “madaniyat” so’zining ma’nosi umumiy jixatdan bir-biriga qisman bog’liq bo’lib, insonning jamiyatda tutgan o’rnini belgilashda yuksak tuyg’ularni ifodalovchi atama sifatida shakllandi. Lekin madaniyat talaffuziga faqat ijobiy jixatdan yondashilgan, deyish xato bo’ladi. Tarixda bir madaniyatning ikkinchisi ustidan bo’lgan tazyiqi tufayli, unga salbiy dushmanlik munosabati xissiyotlar orqali shakllangan davrlar bo’lgan. Dastlabki ko’rinish Angliyada XIX asrda vujudga kelib, unda muxtasham “estestizm” va “lirik xayot” o’rtasidagi qarama-qarshilik M.Arnold⁶ asarlarida paydo bo’ladi. Bu davrda estestizm tanqidchilari iste’moldagi “culture” so’zi o’rniga raqiblari tomonidan “kashf qilingan” masxaromuz o’xshatish shaklidagi “culchah” so’zidan foydalanganlar. Madaniyatga nisbatan salbiy istexzoli qarashlar keyinchalik boshqa xalqlarning turmush tarzlarida xam tez-tez ifodalanadigan bo’lindi.

Madaniyatga nisbatan dushmanona kayfiyatni shakllanishi mustamlakachilik va ikkita jaxon urushini vujudga keltirdi. XX asrning dastlabki o’n yilliklarida nigilizm va avangardchilar, 60-70 yillardagi yoshlar xarakatlari esa G’arbda madaniyatni an’ana tayanchi xamda insoniyat kelajagi yo’lidagi asosiy to’siq sifatida ko’rib, uni butkul bartaraf qilish uchun bo’lgan turli xil ziddiyatlarni paydo qildi. Madaniyatga nisbatan doimiy dushmanlik munosabati bir tomondan ma’lum toifa ziyoli kishilarning tanadagi aql va qalb xaroratini baxolashda o’zlarini xaddan ziyod yuqori baxolovchi nisbatan asossiz da’volari bilan bog’liq edi. Ikkinchidan, oddiy insonlarga nisbatan kamtarona munosabatning xamma vaqt xam etishmasligi “madaniyatli xisoblangan” kishilarga norozi munosabatlarni keltirib chiqarardi. Shu tipda tushuniladigan madaniyatni ta’riflash uchun, turli millatlarda kamsituv ma’nosidagi ba’zi bir maxsus atamalar yuzaga keldi. Jumladan Amerikada *culture-*

⁶Qarang:

vulture, Rossiya va rusiyzabon MDX davlatlarida shunga yaqinroq *kultur-multur* jumlasini ishlatilsa, o'zbeklar orasida ko'pincha *madaniyat-padaniyat* kabi norozi oxanglar qo'llanilib turadi. Masalan, "... yo'qot-e madaniyat-padaniyatingni", degan e'tirozli jummalarni hozir ham uchratish mumkin.

Madaniyat sostiologiyasi soxaning tarmoq yo'nalishi xisoblanib, u madaniyatning vujudga kelishi, zamonaviy xolati va istiqbolini tarixiy va sostiial tadqiqotlar yordamida o'rganadi. Madaniyatning jamiyat xayotidagi roli xaqida tasavvurlar jiddiy ravishda o'zgarib borar ekan, shunga mos ravishda fanning predmeti, maqsadi, tuzilmasi va usuli xaqidagi tasavvurlar ham yangitdan shakllanmoqda. AQSh universitetlarida madaniyat sostiologiyasi fani o'rniga madaniy antropologiya yoki sostiial antropologiya o'qitilib, asosan madaniyatning etnik jixatlariga aloxida e'tibor qaratiladi.

Sostiial antropologiya va madaniyat sostiologiyasi umuman olganda madaniyat falsafasining ilmiy metodologiyasi va taxliliy apparatini keng qo'llaydigan, xamda o'z oldiga sostiomadaniy o'zgarishlar qonuniyligini aniqlash va taxlil etishni asosiy maqsad qilib belgilaydi. Ko'p xolatlarida u sostiomadaniy taxlil deb ham ataladi. Sostiomadaniy taxlil – bu ilmiylikka qo'yiladigan keskin intizomdan ko'ra ko'proq nazariy tadqiqot yo'nalishi bo'lib, o'zida ob'ektivlik va sub'ektivlik jarayonlarini ham gavdalandiradi.

“Sostiial madaniyat” atamasi sostiologiyada “sostiial munosabatlardagi madaniyat”⁷ deb ham nomlanishi mumkin. U kishilarning jamiyatdagi xulq-atvorlari va sostiial o'zaro munosabatlari asosida shakllangan qadriyatlar tizimi bo'yicha tartibga solinib kelingan. Sostiial madaniyatning asosiy o'zagi jamiyati, davlat va boshqa sostiial institutlarning (O'zbekistonda maxalla instituti aloxida axamiyat kasb etadi) faolyatida namoyon bo'ladi. Shulardan kelib chiqqan xolda, sostiial madaniyatning asosiy shakllari o'zida axloqiy, xuquqiy va siyosiy madaniyat turlarini qamrab oladi.

Kishilik jamiyatining insoniyat dunyosi va tabiatga nisbatan aynan to'g'ri kelmasligida biz sostiial tarix qonuniyatlari xamda sostiial taraqqiyotning o'ziga xos

⁷Qarang: Фролов С.С. Социология. М.: Гардарки., 1999. – С. 125.

jixatlari mavjudligini qayd etamiz. Shuningdek, bunda biz sostiumning faqat insonga xos bo'lgan faoliyat shakli, ya'ni madaniyatning yuzaga kelish va mavjud bo'lish jarayonlarini xisobga olamiz, umumlashtiramiz.

Insoniyat turining tabiiy yashash muxiti – bu organik butunlik, insonlar mavjudligining zaruriy asosidir. Inson va uning yashash muxiti bu butunlikning o'zaro tobe' qismi sanaladi. Biroq insoniyat dunyosi va aniq insonning o'z tabiati yoki o'zga kishilarga aynan to'g'ri kelmasligida insonning o'z tabiiy organik butunligiga moslashish jarayoni “fojeaviy” o'rin tutgani yo'q. O'ziga o'xshaganlar bilan muloqotga kirishish zarurati – sostial tarix, ijtimoiy taraqqiyot va kulturogenezning xarakatlantiruvchi kuchi bo'lib chiqdi⁸. XXI asrning so'nggi o'n yilligida sostiallik bilan bog'liq masalalar dunyo xamjamiyatining diqqat markazida turadigan bo'ldi. Uning axamiyati shundaki, taraqqiy etib borayotgan jamiyatda mazkur masala, ya'ni “sostiallik”ga nisbatan qo'shimcha o'zlashtirilgan yoki o'zgartirilgan, ammo natijasiz “sayqal” berish yuqorida ta'kidlaganimiz sostiumda kutilmagan tug'yonlarga olib kelishi mumkin.

Sostiologik nuqtai-nazardan xar qanday madaniyatning sostial munosabatlar tizimini taxlili qiladigan bo'lsak, fan nuqtai nazaridan mutaxassislar, ushbu jarayonni “madaniyat”, “ijtomiyat”yoki “siyosat” deb aloxida talqin qilishdan ko'ra, ilmiy asosda “sostiomadaniy” deb fikr bildirishga odatlanganlar. Shundan kelib chiqib, sostial madaniyatni “sostiomadaniy” jarayon sifatida qarash xam mumkin. XX asrning taniqli mutaffakiri S.Xantington fikricha “yangicha shakllanayotgan dunyoda moxiyatan mavjud nizolarning asosini yo mafkura va yoki iqtisod tashkil etmaydi. Insonlarning bir-birlaridan uzoqlashuvi va ular o'rtasidagi nizolarning manbalari madaniyat orqali sodir bo'ladi”.⁹

Axborot kommunikasion madaniyat bo'yicha jiddiy tadqiqotlar olib borgan Kanadalik antropolog va madaniyatshunos tadqiqotchi G.Maklyuen insoniyat tarixida muloqot va madaniyatning uchta shakli bo'lib o'tganligiga aloxida e'tibor

⁸ Культура, культурология и образования (Материалы «Круглого стола»). Выступления В.А. Лекторского // Вопросы филоиофии, 1997. № 2. С.4

⁹Qarang: Грачев Г.В. Информационные технологии политической борьбы в российских условиях // Полис. 2000. № 3. С. 10

beradi. Demak, bular a) og'zaki an'analarga asoslangan madaniyat, b) yozuv va bosma yozuv an'alariga asoslangan madaniyat, v) madaniyatning elektron shakli¹⁰. Bundan kelib chiqqan xolda, biz O'zbekiston sharoitida G.Maklyuen tomonidan keltirilgan izoxning uchinchisi, ya'ni madaniyatning elektron shakli tobora rivojlanib borayotganligini e'tirof etmoqchimiz.

Sostiomadaniy jarayonlar ichida keng tarqalgan xodisalardan biri – “madaniy talvasa”, aniqrog'i madaniy talvasaga tushish xisoblanadi. Ushbu atamani ilk bor 1960 yili amerikalik tadqiqotchi Kalervo Oberg ([Kalervo Oberg](#)) ilmiy muxitga kiritgan. Madaniy talvasaning paydo bo'lishi oddiydan murakkabga qarab boradi va insonda pessimistik, ya'ni noxushlik kayfiyati darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, u shunchalik ko'p madaniy talvasaga tushadi. Bunda eski bilan yangi o'rtasidagi to'qnashuv, kechagi kun bilan bugunning bir-biriga mos tushmasligi, avlodlar o'rtasidagi ziddiyatlar, geografik xududning o'zgarishi asosida psixologik va sostial kayfiyatdagi tushkunlik xolatlarini kuzatishimiz mumkin.

Boshqa bir amerikalik mutaxassis F.Bok fikricha “madaniy talvasa insonda o'zga dunyo bilan o'zaro faoliyatga kirishish natijasida o'zi uchun notanish bo'lgan belgi va ramzlar bilan to'qnash kelish oqibatida vujudga keladigan tashvishli xolat, xadiklar asosida paydo bo'ladi”.¹¹ U o'zining madaniy antropologiya bo'yicha maqolalar to'plamining kirish qismida(bu qism Culture Shock, ya'ni Madaniy talvasa deb nomlangan) muammoga quyidagicha ta'rif beradi: “Madaniy talvasa so'zining keng ma'nodagi mazmuni – bu, aytaylik kimdir o'z uyini tark etayotganida, keyinchalik shu uyga o'zining begona bo'lishidir. Inson madaniy talvasa xolatida xuddi iblisning vasvasasiga tushgandek, mutlaqo o'ziga notanish bo'lgan, ammo mavjud makonda xamma vaqt bayon etib kelingan ishonchli va qabul qilingan xodisalarning guvoxi bo'ladi. Siz tasodifan kirib kelgan guruxda odamlar xar kuni ijro etadigan umumiy madaniy rollarga sherik bo'lishingizga to'g'ri keladi. Bunda o'zingiz o'ylab ko'rgandek so'z va

¹⁰ McLuhan M. Understanding Media: The Extensions of Man. - Cambridge, 1994. – P. 92.

¹¹ Ph.K.Bock. Culture Shock.A reader in modern cultural anthropology.New York, 1970. – P. 23.

muomalangizni loyixalashtirishning iloji bo'lmaydi. Chunki barcha, shu jumladan siz xam ko'pchilik qatori dunyoni amalda bir xil ko'rasizlar, bir birlaringizdan nimani kutishni bilasizlar. Shunday bo'lsada, begona jamiyatga o'tib, siz qiyinchiliklarga duch kelasiz, tanangizda ojizlik va adashish xissini tuyasiz va buni ilmiy tilda madaniy talvasa deyish mumkin".¹²O'quvchimizga muammoni yanada tushunarli bo'lishi uchun quyidagi misolni keltirish o'rinli bo'ladi. Tabiatan xisob-kitobli va o'ziga xos tartibga amal qilib yashaydigan G'arb kishisi uchun o'zbeklar turmush tarzida aloxida axamiyat kasb etadigan naxorgi osh marosimi madaniy talvasa xolatini keltirib chiqarishi aniq. Erta tong saxardan muzika sadolari ostida to'kin dasturxon ustida issiq somsa va yog'li palovni 200 tadan 500 tagacha odamga tekinga tarqatilayotganini ko'rib, u o'zida diskomfort sezadi. Shuningdek, uning ertalabki nonushta vaqtida bir chashka kofe yoki apelsin sharbatini ichib, ish joyiga ketishini xisobga olinsa, ushbu marosim jarayoni bilan ilk to'qnash kelgan xar qanday odamdagi noqulaylikni xis etish oson. O'z navbatida boshqa jamiyat kishisining o'zga madaniy dunyoga tushib qolganda shu kabi marosim yoki odatlar oldida dezorientastiya, ya'ni ajralib qolish xolatini zamonaviy dunyoda tez-tez kuzatish mumkin.

Madaniy talvasaning mazmuni eski va yangi o'rtasidagi madaniy me'yor va orientastiyalar to'qashuvida namoyon bo'ladi. O'tmishga aylangan davrning ishtirokchisi va guvoxi bo'lgan shaxs avval shu jamiyatga xos bo'lib, keyinchalik uni tark etishi natijasida yangi bir ijtimoiy xayotni ifodalovchisiga aylanishi mumkin. Buni biz sobiq ittifoq davrida ta'lim olib, butun xayotini mustaqillikka baxshida qilgan odamlar misolida ko'rishimiz mumkin. Umuman olganda, madaniy talvasa – bu individual (shaxs) ong darajasidagi ikki madaniyat to'qnashuvidir. Zinxor uni etnik yoki diniy madaniyatlardagi kelishmovchilik omillari bilan bog'lash kerak emas. Qaysidir bir insonning madaniy talvasa xolatiga tushishi, uning o'zga muxitdagi madaniyat bilan to'qnash kelib, shuning natijasida o'zida diskomfort, ya'ni noqulaychiliklarni xis etishi bilan bog'liq.

¹²O'sha joyda.

Madaniy talvasa faqat bir shakl bilan uzoq muddatli davom etmaydi. Buning uchun individ o'zida mujassam bo'lgan stereotip (ongda qotib qolgan odat)larni qaysidir tartibda sindirib boradi. Jumladan, XX asr ta'lim tizimida erkak va ayol jinsiga mansub bo'lgan kishilarning bir sinfda bilim olishi madaniy talvasa sifatida paydo bo'lgan bo'lsa, bugun bu jarayon oddiy xolatga aylanib ulgurdi. Yoki ayol kishining avtomobil rulini boshqarishini bundan 15-20 yil oldin ko'rib, o'zida noqulaychiliklarni xis etgan qanchadan-qancha odamlarni uchratish mumkin edi.

Dunyoning globallashuvi va axborotlar ko'lamini tarqalishi avj olib borayotgan bugungi davrda xar qanday odam bir necha bor u yoki bu darajadagi madaniy talvasa xolatini o'z tanasida xis etishi mumkin. Bunga milliy yoki diniy farqlar, kiyinish, ovqatlanish, musiqa, oilaviy muxit tarbiyasi kabi omillar ta'sir o'tkazadi. Tanganing ikki tomoni bo'lganidek, ta'kidlash kerakki, bir jixatdan madaniy talvasa xolatida kimdir tezda o'zini o'nglab olsa, ikkinchidan, unda insonlar og'ir noqulayliklar ichida qolib ketishi mumkin.

F.Bok fikricha, talvasa xolatidagi madaniy to'qnashuvli nizoni echishning besh usuli mavjud. Birinchi usulni u shartli ravishda "gettolashgan" ("getto" so'zidan olingan) deb ataydi. Zamonaviy jamiyatda migratsiya jarayonlarining avj olishi gettolashish omilini kuchaytirmoqda. Shaxsning o'zga jamiyatga kelib qolganida maxalliy tilni bilmasligi, tortinchoqlik, o'zga dinga e'tiqod va boshqa shu kabi sabablar tufayli o'ziga notanish bo'lgan madaniyat bilan muomalaga kirishishga majbur bo'ladi. Shunday sharoitda u o'zining shaxsiy madaniy muxitini yaratishga xarakat qiladi. Boshqa xamyurtlari, qarindosh-urug'lari, qabiladoshlari bilan o'zlariga mos bo'lgan muxit yaratib, mavjud "begona" madaniyat ta'siridan o'zini o'rab oladi, ya'ni ximoya vositasini yaratadi.

Ko'plab G'arbdagi katta, o'rtacha va xatto kichik shaxarlarda maxalliy madaniyatdan keskin farq qiladigan getto madaniyatlari paydo bo'ldi. Bularga xind, xitoy, turk, arab va shu kabi kvartallarni misol qilish mumkin. Masalan, Berlining Kroysberg tumaniga bir necha o'n yilliklar davomida turk migrantlari va qochoqlari kelib joylasha boshladilar. Nemis olami va turmush tarzini qabul qilishni istamagan turklar o'zlarining sostial dunyosini ajdodlar an'analari asosida

davom ettirib, butunlay yopiq tizim yaratadilar. Natijada turk disporasi o'rniga o'ziga xos getto paydo bo'ldi. Bu kabi tumanlarda istiqomat qiluvchilar nafaqat turkcha talaffuzda gaplashishadi, unda xatto ko'chalarning nomlari va qiyofasi, undagi reklama va e'lonlar xam turk tilida bitilgan. Turkcha tamaddixonalar va restoranlar, turk banklari va sayoxat byurolari, turk partiyalari vakolatxonalari va devorlarda turk tilidagi siyosiy shiorlarni xar qadamda uchratish mumkin. Kroysbergda butun umr nemis tilida biror so'z gapirmasdan yashab o'tish mumkin. Bunday getto – arman, gruzinlar xam revolyustiyadan oldin Moskvada bo'lgan. Kanadaning Toronto shaxrida gettolashgan tumanlar shu darajada o'ziga xos milliy axamiyat kasb etganidan, amerikalik kinorejissyorlar Kalkutta, Bangkok yoki Shanxayda olinishi kerak bo'lgan saxnalarni Torontodagi kvartallarda olishni ma'qul ko'rishadi.

Madaniy to'qnashuvga oid nizolar echimini xal etishdagi ikkinchi usul – assimilyastiya, ya'ni “qorishib ketish” bo'lib, u o'z mazmuniga ko'ra, gettolashgan jarayonning aksi sanaladi. Assimilyastiya jarayonida shaxs o'zining asriy madaniyatini rad etib, o'zi uchun yangitdan o'zlashtirilgan vatanning madaniy-ma'naviy boyliklarini to'lig'icha o'zlashtirishga xarakat qiladi.

Talvasali xolatdagi madaniy to'qnashuv nizosini echishning uchinchi usuli “oraliq masofali” bo'lib, unda madaniy aloqalar o'zaro xamkorlikda mujassam bo'ladi. Aloqalar to'g'ri amalga oshishi va xar ikki tomonga foydali bo'lishi uchun o'zaro xayrixoxlik va oshkoralik bo'lishi shart. O'zaro munosabatlarda tomonlarning biri “avtoxton” (maxalliy) va ikkinchisi “muxojir” (qochoq) bo'lsada tarixda muvaffaqiyatli madaniy aloqalar ko'p uchragan. Masalan, ikkinchi jaxon urushi davrida O'zbekiston, xususan Toshkent shaxriga juda ko'p sonli turli millat vakillari evakuastiya qilinadi. Odamlar bilan birga yirik sanoat korxonalari, ilmiy akademik tashkilot va muassasalarning ko'chirib kelinishi fan va ta'limning rivojlanishiga muxim xissa qo'shadi. O'zbek va turli millatga mansub madaniyatlarning yaqinlashuvi o'ziga xos madaniy simbiozni shakllantirdi. Axoli orasida ko'ptillilik paydo bo'ldi, jamiyatning intellektual iqlimi o'zgarib, dinlararo va millatlararo totuvlik kuchaydi. Umuman olganda o'zaro madaniy aloqalarning

natijalari birdaniga amalga oshishi bilan ko'zga ko'rinmaydi. Ular vaqt o'tishi bilan o'z ahamiyatini namoyon qilib, ijtimoiy, siyosiy, xuquqiy jihatdan jiddiy tus olib boradi.

To'rtinchi usul qisman, yoki "vaqtinchalik assimilyastiyalashuv" deb nomlanib, unda shaxs ijtimoiy xayotning qaysidir bir tarmoqlarida o'zga madaniyat foydasiga o'z madaniyatini qisman qurbon qiladi. Masalan, xizmat joyida o'zga madaniyat muxiti me'yor va talablariga moslashsa, oilasi va qarindosh urug'lari davrasi, ma'naviy-maishiy soxalarda o'zi mansub madaniyat normalariga amal qiladi. Madaniy talvasani bartaraf etishning ushbu usuli bugungi zamonaviy jamiyatning eng ommalashgan ko'rinishi xisoblanadi. Ko'pincha muxojirlar o'zga dunyoga qisman assimilyastiyalashadi va o'z turmush tarzini ikkita, lekin bir-biriga teng bo'lmagan qismga ajratishga majbur bo'ladi. O'zga xududda gettolashgan madaniyat to'liq shakllanmasa, unda shaxsning mavjud muxitga qorishib ketishi qisman yuz beradi. Lekin qisman assimilyastiya jarayoni keyingi avlodlarga o'tganda to'liq assimilyastiyalashuvga o'tib ketishi mumkin.

Davriy o'zgarishlar natijasida XX asr tadqiqotchilarining e'tibori ko'proq "konstant" madaniyatlar, ya'ni barcha xalqlarning turmush tarzidagi doimiy barqaror elementlarni ozmi ko'pmi darajada o'zgartirmagan xolatda o'rganishga qaratiladi. Bunda insonning borlig'ini madaniy bezovchi rango-ranglikdagi farqlar aloxida ajratib olinadi. Natijada madaniyatshunoslikka oid tadqiqotlarning mavzusi xam o'zgarib boradi. Sostiologiyada asosiy mavzu sifatida insoniyatning tarixiy madaniyati emas, balki aniq mavjud madaniyatlar tadqiqot ob'ektiga aylandi. Astasekinlik bilan bunday yondashuvlar global-evolyusionizmga oid qarashlardan voz kechishga olib keldi. Yakunda ta'kidlash mumkinki, zamonaviy jamiyatda taraqqiyot omili etakchilik qilar ekan xech bir jabxa madaniyat mavzusi e'tirof etilmaydi. Biz buni dolzarb tadqiqot muammolariga aylangan "axborotlar olish madaniyati", "intellektual madaniyat", "kasbiy madaniyat", "ekomadaniyat", "tafakkur tarzi madaniyati", "e'tiqod madaniyati" kabi ko'plab jumalalarda uchratmoqdamiz.

Nazorat savollari:

1. L.Koga madaniyat sostiologiyasini qaysi fanlar doirasida o'rganishni taklif qiladi?
2. Madaniyat sostiologiyasi predmeti qaysi qaysi fanlarning ob'ekti bo'lganligi bilan bog'liq bo'lish mumkin?
3. Qaysi yillardan boshlab madaniyat sostiologiyasi to'laqonli rivojlana boshlandi?
4. "Madaniyat" qaysi so'zdan kelib chiqqan va nima ma'noni anglatadi?
5. Zamonaviy Evropa tillarida madaniyat so'zining nechta asosiy ma'nosi qiyoslab ko'rsatilgan?
6. Kanadalik antropolog va madaniyatshunos tadqiqotchi G.Maklyuen insoniyat tarixida muloqot va madaniyatni nechta shaklga bo'lib o'rgangan?

2. MADANIYAT SOSTIOLOGIYASINING FANLAR TIZIMIDAGI O'RNI

Madaniyat sostiologiyasiga shubxasiz qiziq bo'lgan xolat mamlakatni u yoki bu darajada qamrab olgan diniy faollik to'liqlini xisoblanadi. U shaxsiy madaniy ildizlariga bo'lgan qiziqishning ortib borishida, an'anaviy konfessiyalarga bo'lgan e'tiborning ortishida va yangi diniy xarkatlarning yaratilishida, va nixoyat, fundamentalistlarning xavotirga soluvchi faolligida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda sobiq "Ikkinchi" va "Uchinchi dunyo"larning iqtisodiy va texnologik qoloqligi, ko'plab zamonaviy siyosiy nizolarning madaniy determinantalari aniq namoyon bo'lmoqda. Shunday qilib, postzamonaviylik bosqichida madaniyat sostiologiyasi oldida keng tadqiqot istiqbollari paydo bo'lmoqda. Bunda avvalgidek metodologik muammolar, jumladan, tadqiqot predmetining aniq ta'riflanishi, tushunchaga oid apparatning ishlab chiqilishi, bilimning boshqa soxalari bilan chegaraning aniqlab olinishi kabi masalalar

dolzarb bo'lib qolmoqda. Biroq, ko'p turlilik va ichki ziddiyatlar bilan ifodalanuvchi postzamonaviylik davri "madaniy konteksti"ning o'zi mazkur vazifalarni xal etishni ahamiyatli darajada murakkablashtiradi.

Ushbu bo'lim xulosasi sifatida zamonaviy tadqiqotchi Dayna Kreysning madaniyat sosiologiyasining istiqbollari haqidagi muloxazalardan parchalar keltirib o'tamiz.

Madaniyat sosiologiyasining rivojlanish istiqboli qator mustaqil muammolar bilan bog'liq. Unda xar qanday aloxida muammo (masalan, siyosiy madaniyat muammosi yoki fanning bugungi dunyodagi o'rni va roli muammosi) turli nazariy konstepstiyalar nuqtai nazaridan va tadqiqotning turli usullardan foydalangan xolda o'rganilishi mumkin.

Madaniyat sosiologlari sosiologiyaning quyidagi asosiy masalalarini qayta tafakkur qilish masalalri bilan bandlar: 1) madaniyat va uning o'rnini va rolini uning zamonaviy ko'rinishlarni e'tiborga olgan xolda qanday qilib belgilash mumkin; 2) tuzilma va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar qanday; 3)madaniyatni uning jamiki ijtimoiy kontekstlarida tizimli o'rganishlarni qay tarzda amalga oshirish lozim, ijtimoiy sabab va oqibatlar haqidagi an'anaviy tasavvurlar qachon eskirgan bo'lib ko'rinadi.

Ko'plab madaniyat sosiologlari o'z tadqiqot predmetini o'zaro bog'liq bo'lmagan, murakkab tarkibli va beqaror sifatida ifodalaydilar. Madaniyat va ijtimoiy madaniyat tuzilmalari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib ko'rinadi, "aks ettirish"ning eski modeli esa o'z nufuzini yo'qotadi. Shu bilan birga tadqiqotchilarning madaniyat va ijtimoiy tuzilma bir-biriga qay tarzda ta'sir ko'rsatishi masalasi bo'yicha to'laqonli kelishuvlari mavjud emas. Ta'riflovchi yondashuvlar izoxlovchi yondashuvlar bilan birga mavjud bo'ladi, biroq unisi xam, bunisi xam madaniyatni o'rganish vazifalariga mos kelmasligi haqidagi fikrlar xam bayon qilingan.

Madaniyat sostiologiyasi muayyan ma'noda umuman sostiologi doirasida anklav (yoki aniqroq aytadigan bo'lsak, anklavlar to'plami) sifatida rivojlangan. Bunda u madaniyatning xamda madaniyat va ijtimoiy tuzilma o'rtasidagi munosabatlarning metodologik qoidalarga ko'ra muvofiqlashtirilmagan, boshqa sostiologik soxalarda qabul qilingan ta'riflarining rivojlanishiga imkon yaratgan. Biroq madaniyat sostiologiyasi chegaralari o'ta o'tkazuvchan bo'lganligi sababli u turli mamlakatlar kabi, ijtimoiy fan va gumanitar bilimning eng turli soxalarida rivojlantirilgan eng turli nazariy yo'nalishlarni inkorporastiya va assimilyastiya qila oldi. Shu sababli madaniyat sostiologiyasi umuman sostiologiyaga yangi nafas baxsh etish imkoniyatiga ega ekanligiga umid qilish uchun asos mavjud.

3. MADANIYAT SOTAIOLOGIYASI TUSHUNCHASI VA ASOSIY YO'NALISHLARI

Ilmiy adabiyotlarda madaniyatni moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'lish rasm bo'lgan. Madaniyatni moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'lish inson faoliyatining ikki asosiy soxasi – moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liqdir. Moddiy madaniyat moddiy faoliyatning barcha soxalarini va natijalarini o'z ichiga oladi. Moddiy madaniyatning muxim elementlari ishlab chiqarish, transport, aloqa vositalaridir. Moddiy madaniyatga uy-joy, kiyim-bosh, uy-ro'zg'or buyumlari, iste'mol vositalari deb ataladigan xodisalar xam kiradi. Bularsiz ma'lum bir xalq madaniyati, uning tarixiy taraqqiyotining turli bosqichlaridagi o'ziga xosliklari xaqida to'g'ri fikr yuritish mumkin emas. Albatta, moddiy madaniyatni faqat ishlab chiqarish va iste'mol vositalariga taqab qo'yish to'g'ri bo'lmaydi.¹³

Umuman olganda ijtimoiy xayotda moddiy ishlab chiqarish soxasi bilan birgalikda ijtimoiy soxa, siyosiy soxa, ma'naviy soxa faoliyatlari xam mavjud. Kishining bu soxadagi faoliyatlari madaniyat klassifikastiyasining asosi sifatida qabul qilinadi. Bunday klassifikastiya tizimining birinchi bosqichiga bir qarashda

¹³Qarang: Фалсафа: (Ўқув қўлланма) / Э.Юсуповнинг ум. тахр. ост. – Т.: Шарқ, 1999. 304 б.

mustaqil ko'ringan, lekin bir-birlari bilan chambarchas bog'langan quyidagi madaniyat soxalari kiradi:

- moddiy madaniyat;
- ijtimoiy madaniyat;
- siyosiy madaniyat;
- ma'naviy madaniyat.

Moddiy madaniyatga moddiy madaniyat elementlari – texnika madaniyati, ishlab chiqarish madaniyati, rejalashtirish madaniyati, taqsimlash va ayirboshlash madaniyati, kitob, uy, mashina san'at asarlari ya'ni insonlar tomonidan yaratilgan va jismoniy jixatdan mavjud bo'lgan barcha buyumlar kiradi. Lekin, shuni unutmaslik kerakki, sostiologlarni moddiy madaniyat elementlari kishilar ta'siri ostida bo'lgan vaziyatdagina qiziqtiradi.

Ijtimoiy madaniyatga – oila va nikox masalalari madaniyati, ijtimoiy-demografik guruxlar madaniyati, maishiy madaniyat, maorif va ta'lim madaniyati, shaxslararo muloqot madaniyati, ekologik madaniyat kiradi.

Siyosiy madaniyat soxasiga - xuquqiy madaniyat, fuqarolik madaniyati, siyosiy faoliyat yuritish madaniyati, ya'ni sinflararo muloqot, ijtimoiy guruxlar, davlat, xalq kiradi.

Ma'naviy madaniyat soxasiga – dunyoqarash, mafkura, ilm-fan, din, badiiy madaniyat, san'at, milliy an'analar, axloqiy madaniyat, estetik madaniyat, an'ana, shaxslararo aloqalar, munosabatlar, urf-odatlar va x.k. kiradi. Man'aviy madaniyat, sostiologlar tomonidan ijtimoiy aloqalarning boshqaruvchisi sifatida qabul qilinadi. Masalan, qo'l berib so'rashish – salomlashishning do'stona ko'rinishidir. Salomlashishning yanada qaynoq ko'rinishi bu – quchoq ochib salomlashishdir. Boshni qisqagina egib qo'yish ko'proq rasmiy salom-alikni bildiradi. Biz bu xolatlarga, ularning ma'naviy mazmuniga kam e'tibor beramiz, lekin, ular bizning ko'pgina xarakatlarimizga ta'sir ko'rsatadi va jamiyat orasida o'zimizni qanday tutishimiz lozimligini belgilab beradi.

Ma'naviy madaniyat kishilar ongida o'z ahamiyatini yo'qotmaguncha saqlanadi. Madaniyatni moddiyga va ma'naviyga bo'lishning o'zi shartli xolat xisoblanadi. Bir tomondan moddiy madaniyat elementlari bo'lgan kitoblar, ibodatxonalar, tasviriy san'at va x.zo. ma'naviy g'oya natijasi sifatida vujudga kelgan bo'lsada, ikkinchi tomondan ular moddiy mavjud bo'lishga ehtiyoj sezadilar. Masalan, etiket qoidasiga binoan erkaklar galustuk taqib yurishi talab qilinadi.

Demak, ma'naviy madaniyat avvalo g'oya sifatida ijodkor tasavvurida vujudga keladi, so'ng ushbu g'oya moddiy madaniyat sifatida yaratiladi va dunyo yuzini ko'radi. Bu jarayon qish faslining tosh oynada o'zidan iz qoldiradigan ayozli shamoliga o'xshaydi. Ayozli shamol bu – ma'naviy madaniyat, tosh oyna bu – voqelik va atrof-muxit, iz esa – ma'naviy madaniyatdan qolgan moddiylik, ya'ni moddiy madaniyatdir. Avvaliga shamol bor edi, endi esa u yo'q lekin undan qolgan iz mavjuddir. Biz shamol bo'lganini eslaymiz, xis etamiz va undan qolgan izga qarab uning qay darajada kuchli yoki kuchsiz bo'lanini o'rganamiz. Ma'naviy madaniyat bilan moddiy madaniyat o'rtasidagi munosabat xam shunday ifodalanadi.

“Ma'naviy madaniyat ma'naviy ishlab chiqarish, ijtimoiy ong shakllarini yaratish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatning barcha soxalarini qamrab oladi. Ma'naviy madaniyat namoyon bo'lishining turli ko'rinishlari mavjud: xar xil tasavvurlar va g'oyalar, nazariyalar va ta'limotlar, ilmiy bilimlar va san'at asarlari, axloqiy va xuquqiy normalar, falsafiy, siyosiy qarashlar, mifologiya, din va x.k. Bularning barchasi o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki, tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichida turgan va o'zaro muayyan munosabatlarga kirishgan kishilar tomonidan yaratiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, ma'naviy madaniyat ma'naviy faoliyat natijasi sifatida kelib chiqayotgan xodisalarnigina emas, balki ularni yaratish jarayonida kishilar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni ifodalash uchun xam xizmat qiladi.”¹⁴

¹⁴Фалсафа: (Ўқув қўлланма) / Э.Юсуповнинг ум. тахр. ост. – Т.: Шарқ, 1999.

Ma'naviy madaniyatning moddiy madaniyatga nisbatan o'ziga xosligi nimada ko'rinadi? Birinchidan, ma'naviy madaniyat nafaqat narsa shaklida, balki faoliyat shaklida xam namoyon bo'ladi. (Vrach, o'qituvchi, qo'shiqchi, raqqos faoliyati; ma'ruza, aktyor o'yini faoliyati va x.k.). Ikkinchidan, ma'naviy qadriyatlar – eng uzoq yashaydigan qadriyatlar xisoblanadi, ya'ni ma'naviy madaniyatning betakror asarlari mazmun-moxiyati jixatidan xech qachon qarimaydi. Bunga Xorazmiy, Farg'oniy, Farobiy yaratgan buyuk ulug' asarlar misol bo'la oladi. Uchinchidan, ma'naviy madaniyat o'z yaratuvchisi va ijodkori xaqida moddiy madaniyatga nisbatan ancha ko'proq ma'lumot bera oladi. To'rtinchidan, ma'naviy madaniyatning birgina kategoriyasining o'zida bir qator boshqa ma'naviy madaniyat kategoriyalari yotgan bo'ladi. Masalan, biron-bir badiiy madaniyat asari nafaqat estetik jixatni namoyon qilibgina qolmay, balki axloqiy, xulqiy, dunyoqarashni o'stiruvchanlik kabi bir qator ma'naviy qadriyatlarni ko'rsatadi.

Ma'naviy qadriyatlar jamiyatda insonlar tomonidan iste'mol qilinmasa edi, ular yaratilishi xaqida gap xam bo'lmasdi. Ma'naviy qadriyatlar mavjudligi jamiyat a'zolari, insoniyat tomonidan unga nisbatan talab borligini bildiradi. Lekin, bunday "talab" va "iste'mol" moddiy narsalarga bo'lgan talab va iste'moldan farqlanadi. Agarda moddiy narsalarda maxsulot (oziq-ovqat, kiyim-kechak va x.k.) tezda tugatilsa, ma'naviy qadriyatlar esa insonlar tomonidan bir necha marotaba foydalanilishi mumkin. Axamiyatli jixati shundaki, vaqt o'tgan sayin ma'naviy madaniyat sayqallashib, yanada qadri oshib boradi.

Ma'naviy madaniyatning jamiyatda to'la-to'kis mavjud bo'lishini ijtimoiy institutlar ta'minlaydi. Bu ijtimoiy institutlarning asosiy vazifasiga aynan ma'naviy boyliklarni ishlab chiqazish, taqsimlash va ayirboshlash kiradi. Ular tarkibiga turli tashkilot va muassasalar kiradi, ya'ni: birinchidan, ma'naviy madaniyatni ishlab chiqazishni yo'lga qo'yish (ijodiy uyushma, ilmiy-tadqiqot institutlari, xalq ijodiy jamoalari, kinostudiyalar, nashriyot va x.k.); ikkinchidan, ma'naviy qadriyatlarni taqsimlab chiqish (kinoteatrlar, stirk, konstert uyushmalari, ma'ruzaxonalar, maktablar, kutubxonalar, muzeylar va x.k.); uchinchidan, madaniyatni ishlab

chiqazish va taqsimlash jarayonini sintetik ravishda bir–biri bilan birlashtirish orqali (klublar, teatrlar, filarmoniyalar, radio, televideniya, oliy ta’lim muassasalari kafedralari va x.k.).

“Uzoq vaqtlar fanda madaniyat deganda faqat ma’naviy madaniyat nazarda tutildi. Negaki, borliqni xaqiqat, yaxshilik, go’zallik belgilaydi deb xisoblashgan. Shuning uchun, birinchi o’rinda ilmiy tadqiqotlarning asosi axloq, nafosat bo’lib keldi. Natijada, jamiyatning moddiy xayotini, uning iqtisodiyotini o’rganishga e’tibor berilmadi. Moddiy madaniyat tadqiqot uchun qiziqarsiz xisoblandi.

Industrial jamiyatning vujudga kelishi, uning texnikaviy taraqqiyoti va texnologiyalarini tezda almashishi madaniyatshunoslarni insoniyatning barcha moddiy madaniyatini o’rganishga majbur qildi.”¹⁵ Shuningdek, xozirgi kunda madaniyat tizimlaridan bo’lmish moddiy va ma’naviy madaniyat bir-birlariga shunday ta’sir qilishyaptiki, bir tomondan ma’naviy madaniyat moddiy madaniyat yaralishiga sabab bo’lsa, ikkinchi tomondan moddiy madaniyatning boyishi ma’naviy madaniyatning yangi qirralarini ochilishiga sabab bo’lmoqda. Eng qiziqi bo’lmish uchinchi tomondan esa, moddiy madaniyatda ma’naviy madaniyat va aksincha ma’naviy madaniyatda moddiy madaniyatni uchratish mumkin. Masalan, ilmiy-texnik progress bo’lmish ommaviy axborot vositalari, radio, televideniya, kino, magnitafon, videotexnika, kompyuter – moddiy madaniyat bo’la turib ma’naviy madaniyat oshishiga xizmat qilishadi. Ma’naviy madaniyat bo’lmish ilm-fan esa texnikaning rivojiga xizmat qiladi. Xattoki, texnikani ma’naviylashtirish asri boshlandi. (Masalan, texnika estetikasi...).

Moddiy madaniyat deb insoniyat mexnati bilan yaralgan, uning barcha moddiy extiyoj va talablariga javob beradigan bir necha moddiy qadriyatlar yig’indisiga aytiladi. Moddiy madaniyatga avvalo, mexnat qurollari va ishlab chiqarish, ijtimoiy-maishiy xizmat turlari (bular: transpot, aloqa vositalari, kommunal uy-joy xo’jaligi xizmati va x.k.), kiyim-bosh, uy-ro’zg’or buyumlari

¹⁵Э.Гулметов ва бош. Маданиятшунослик: Маърузалар матни. Т., 2000. 23 б.

kiradi. Demak, moddiy madaniyat – insonning tabiatni qay darajada egallay olganligini va unga ta'sir qilib uni qanchalik o'zgartira olganligini ko'rsatadi.

Jaxon xalqlari madaniyatining ko'pgina elementlari bir-birlari bilan umumiylik xususiyatiga egadirlar. Ushbu masala bilan shug'ullangan D. Merdok 70 ga yaqin shunday elementlarni ajratib ko'rsatib o'tgan. Umumiylikka ega bo'lgan bu elementlar sostiologiyada – madaniy universalialar deb yuritiladi. Madaniy uneversaliyalarga: til, etiket qoidalari, tug'ilish va o'lim bilan bog'liq bo'lgan marosimlar, sovg'a berish va olish qoidalari, kishi yoshi o'rtasidagi tafovutlar va undan kelib chiqadigan munosabatlar, mexmonga borish qoidasi, qarindosh-urug'chilik munosabatlari, qarindosh-urug' o'rtasidagi instest xolatini taqiqlash, xonani jixozlash, gigiena qoidalariga amal qilish, ob-xavoni kuzatish va shu kabi barcha madaniyatlarda uchraydigan va asosan bir xil ko'rinishda ifodalanadigan xodisalar kiradi.

Lekin, insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, jaxon xalqlari madaniyati negizida madaniy uneverasaliylaradan ko'ra madaniy tafovutlar va madaniy rang-barangliklar ko'proq uchramoqda. Insoniyat madaniyat-larining turli-tumanligi qadriyatlar, xulq me'yorlari orqali ko'rinadi. Masalan, ayrim xalq vakillari ustristalarni tansiq taom sifatida iste'mol qiladi lekin, mushuk va kuchuklarni emaydi. Musulmonlar cho'chqa go'shti emaydilar xindular esa eydilar, ammo ular mol go'shti emaydilar. G'arb erkaklari bir-birlari bilan o'pishib so'rashsa bu tabiiy xolat sifatida qabul qilinadi, Sharq erkaklari uchun bu jarayon or-nomusning buzilishi belgisi sifatida qayd etiladi. Bu xususiyatlarining barchasi bir jamiyatni ikkinchi jamiyatdan ajratib turadigan keng madaniy tafovutlarning bir jixati, xolos. Insoniyat madaniyatlari bir-birlaridan jiddiy farq qilganliklari uchun, bir madaniyat vakillariga boshqa madaniyatda qabul qilingan xulq-atvor va tasavvurlar juda yoqimsiz ta'sir qiladi. Demak, xar bir madaniyatda o'ziga xos, betakror xulq shakllari qabul qilingan bo'lib, boshqa madaniyat vakillariga ular g'alatiroq tuyilishi mumkindir. Xar qanday madaniyatni uning o'z ma'no belgilari va qadriyatlaridan kelib chiqib o'rganmoq kerak. Aks xolda, begona madaniyat to'g'ri tushunilmay qolish xavfi tug'iladi va bu madaniyatga ob'ektiv

yondoshishning ilojini qoldirmaydi. Shuning uchun sostiologiya bir madaniyatni o'zga madaniyat nuqta nazari bo'yicha baxolashdan uzoqlashishga intilinadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Madaniyat klassifikastiyasini izoxlang?
2. Moddiy madaniyat tushunchasini izoxlang ?
3. Ijtimoiy madaniyat tushunchasini izoxlang?
4. Ma'naviy madaniyat tushunchasini izoxlang?

4. MADANIYAT MORFOLOGIYASI VA TIPOLOGIYASI

Inson jamiyatlari tomonidan yaratilgan madaniyatlar cheksiz ravishda xilma-xildir. Ularning xar biri dunyoni qabul qilishning va unga moslashishning o'ziga xos va betakror usulini namoyon qiladi. Mamlakatimiz tadqiqotchisi F.I.Minushev, YuNESKO ma'lumotlariga tayangan xolda, bugungi kunda dunyoda 749dan ortiq madaniyatlar "xarakatlanadi". Keltirilgan raqamning ahamiyatli darajada kattaligiga qaramasdan, u insoniyatning madaniy ko'p turliligini to'liq aks ettira olmaydi, chunki shakllanib ulgurgan madaniyatlar doirasida doimiy ravishda madaniy ijod sodir bo'ladi, yangi madaniy shakllar, yangi submadaniyatlar vujudga keladi. Agar biz insoniyat tarixi va tarix saxnasidan chiqib ketgan xalqlarning madaniy merosini yodga oladigan bo'lsak, u xolda madaniyatlar soni cheksiz darajada ortib ketadi. Va nixoyat, kelajak insoniyatning madaniy xilma-xilligini yanada oshiradi, chunki inson o'z moxiyatiga ko'ra – ijodkor va arbobdir (garchi uning ijodiy faoliyati faqatgina ijobiy masara bermaydi).

Extimol, inson madaniyatlarining mavjud ko'p turliligida ularning turlarga ajaratilishi (tipologiyasi) – o'ta murakkab vazifadir. Bugungi kunda chet el, va mamlakatimiz tadqiqotchilari tomonidan madaniyatlarni turlarga ajratishning ko'plab variantlarini taklif qilganlar, va tabiiyki, ularning xech birini mukammal, deb bo'lmaydi. Xar qanday tipologiya atrof dunyoning betartib xodisalarini muayyan tartibga keltirish, uni tuzilmalashtirish, uni tushunish vazifasini osonlashtirish imkonini beradi.

Madaniyatni turlarga ajratishning ko'p turliligi nafaqat madaniy xilma-xillik bilan, balki turlarga ajratishga asos bo'lgan mezonlarni tanlash muammosi bilan xam bog'liqdir. Aslida, madaniyatning xar qanday elementi turlarga ajratish uchun mezon bo'lib xizmat qilishi mumkin: xo'jalik faoliyati turi – va bolalarni tarbiyalash usuli; din va – spritli ichimliklarni iste'mol qilish usuli; sopol idishlar shakli – va ko'mish turlari va x.k. inson madaniyatlarining boyligini, ular tashkil topgan elementlarning ko'p turliligini e'tiborga olgan xolda ta'kidlash mumkinki, turlarga ajratish uchun mezonlarni izlash cheksizlikka qadar davom etishi mumkin. Aftidan, mazkur muammo bilan shug'ullanishni boshlagan olim eng muxim, va eng axamiyatli mezonlarni ajratib oishi lozim.

Biroq xar bir olim u yoki bu xodisani o'rganishga to'plangan tajriba, qarashlarning shakllanib ulgurgan tizimiga tayangan xolda kirishadi. Mazkur fikrlar taxminiy tipologiya uchun mezonlarni tanlashga katta ta'sir ko'rsatadi. Kingadir xo'jalik yuritish usuli muxim bo'lib ko'rinadi, kingadir arxitektura turi. Tanlov olim shug'ullanayotgan faoliyat turi qanday ekanligiga bog'liq bo'ladi. Agar u o'z e'tiborini xo'jalik tarixiga qaratgan bo'lsa, moddiy ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan madaniyat elementlari uning uchun birinchi o'rinli axamiyat kasb etadi. Agar tadqiqotchi xattoki g'oyalarni o'rganish bilan band bo'lsa-da, demak uning uchun muvofiq ravishda u yoki bu madaniyatda ustun bo'lgan dunyoqarash turi muxim bo'lib qolishi mumkin.

Turlarga ajratish doimo qandaydir sxemashtirishni, voqelikni soddalashtirishni talab etadi. Madaniyat turlarining ajratib ko'rsatilishi – bu real madaniyatlarning ta'rifi va ularni ma'lum jixatiga ko'ra “saralash” xamdir. Turlarga ajratish – bu o'zida tipologik jixatdan muxim jixatlarni qamrab oluvchi “ideal ob'ektlar”, “ideal turlar”ni (tabiiyki, empirik materiallarni anglash asosida) tuzilmalashtirishdir. Olim voqelikni mazkur ideal andozalar bilan qiyoslagan xolda ta'riflaydi. Shu sababli voqelikda, odatda xodisalarning olimlar tomonidan ajratib ko'rsatilgan turlari “sof xolatda” uchraydi.

Mazkur qisqacha kirishdan so'ng madaniyatning ayrim mavjud tipologiyalarini o'rganishga o'tamiz.

P.A.Sorokinning madaniyat tipologiyasi

P.Sorokinga ko'ra, xar bir madaniyat uning elementlarining birligiga intiladi (gari xech qachon to'liq birlikka erishmasa-da). Birlik qandaydir "umumiy prinstip" yoki "ustunlikka ega bo'lgan qadriyatga" asoslanadi. Ustunlikka ega qadriyat madaniy va ijtimoiy xayotning barcha jabxalarida o'z ifodasini topadi.

Sorokinning konstepstiyada madaniyatning asosiy prinstipi dunyoga bo'lgan munosabat xisoblanadi. Sorokin madaniyatning uch turini ajratib ko'rsatadi: ideastional, idealistki va xissiy. Bunda ikkinchi tur ko'proq o'zida birinchi va ikkinchi turlarning prinstiplarini birlashtiruvchi o'tuvchi tur xisoblanadi.

Madaniyatning ideastional turi asosida "o'ta xissiy voqelik"ning ustunligiga ishonch yotadi. Insonning erdagi xayoti mustaqil qadrga ega emas va mavjudlikning o'ta yuqori xissiyotli muxiti bilan qiyoslash vositasidagina anglanadi. Madaniyatning bu kabi turiga misol qilib, 12 asrga qadar bo'lgan o'rta asr Evropasining madaniyati xisoblanadi.

Madaniyatning xissiy turi "ob'ektiv voqelik va uning ma'nosi xissiy" ekanligiga ishonchga asoslanadi. Erdagi xayot o'z-o'zidan qadrga ega. Oliy xissiy voqelik xaqidagi tasavvurlar o'zining ishonchliligini yo'qotmoqda. Madaniyatning bu kabi turi Evropada 16 asrdan 20 asrga qadar xukmronlik qilgan, vaxolanki, Sorokinning fikriga ko'ra, madaniyatning mazkur turi jiddiy inqiroz davrini boshdan kechirmoqda. Madaniyat inqirozi jumladan, ijtimoiy o'zgarishlar – urushlar va inqiloblar, diktatorlik tuzumlari va boshqalarning yaratilishida namoyon bo'ladi.

Madaniyatning idealistik turi voqelikning iloxiy xissiyliigi va xissiyliigi jixatlarining teng axamiyatini tan olishga asoslanadi. Madaniyatning mazkur turi Evropa jamiyatlarining 12-16 asralarida, ya'ni kechki O'rta asr va tiklanish davriga xosdir.

Madaniyatning ustun prinstipi, masalan, san'at va xuquq soxasida o'zini qay tarzda namoyon qilishini ko'rib chiqamiz.

Ideastional madaniyatning san'ati asosan diniy syujetlarga bag'ishlangan. U

xudolar, qaxramonlar, afsonaviy mavjudotlarning faoliyatini tasvirlab beradi. San'atning qvazifasi insonni sakral muxitga qamrab olish, uning qalbini takomillashtirishdan iborat. Insonning kundalik tashvishlari bilan bog'liq bo'lgan syujetlar ideastional san'atda deyarli mavjud emas. Agar ular paydo bo'lsa xam, ko'pincha diniy nuqtai nazardan yoritiladi. Masalan, o'rta asr Evropasi san'atida juda ko'p tasvirlangan ko'plab injilga oid syujetlar - sovchilik, to'y, oilaviy nizolar, alodov, sotqinlik kabi "erga oid" tabiatga ega bo'ladi. Biroq Injilda xam, o'rta asr san'atida xam mazkur syujetlar faqatgina muqaddas tarixga, insonning Xudo bilan bo'lgan munosabatlari tarixiga kirib ketgan bo'lsagina ma'noga ega bo'ladi.

Xissiy madaniyatga oid san'at esa, aksincha, "erga xos" syujetlarga yo'naltirilgan. Inson xayotining xursandchiligi va xami, tabiatning go'zalligi, inson tarixining buyukligi va xalokati diniy syujetlardan ko'ra ommabopdir. Agar diniy syujetlar san'atda qo'llanilsa-da, faqatgina erkin izoxda qo'llaniladi (ideastional san'at doirasida buni amalga oshirish imkoni mavjud emas). Xissiy san'atning asosiy maqsadi - zavq baxsh qilish, odamlarni xursand qilish. Vaxolanki madaniyatning ushbu turi mavjudligining ilk bosqichlarida san'at insonni takomillashtirish, uni kundalik tashvishlardan ustunligini ta'minlash vazifasini saqlab qolgan. Pasayish bosqichida esa xissiy san'atga inson xayotining anomal va patologik xodisalariga bo'lgan qiziqish ustun bo'lgan. (Bu o'yin-kulguga bo'lgan intilishning ortib borishi natijasida syujetlarning tugab borayotganligi bilan bog'liq).

Idealistik san'at xissiy voqelik kabi iloxiy xissiy voqelikka bo'lgan qiziqishni o'zida birlashtiradi. Bu kabi san'atga misol qilib, diniy problematikani erdagi turmush va erlik insonning go'zalligidan zaqlanish bilan birlashtiruvchi Italiyaning Tiklanish davrining o'ziga xos rassomlik san'atini ko'rsatish mumkin. Idealistik san'atning vazifasi - inson imkoniyatlarining cheksiz ekanligining isboti (Italiya Tiklanish davri xolatida) va uni takomillashtirilishi, ma'naviy o'sishining vositasidir. Iloxiy xissiy qadriyat xech qanday shubxaga o'rin qoldirmaydi, biroq xissiy dunyo qadrli va axamiyatli, zavqlanishga munosib, tan olingan.

Endi ideastional, idealistik va xissiy madaniyatlardagi axloq va xuquqqa

murojaat qilamiz.

Ideational madaniyatda xuquqiy va axloqiy me'yorlar manbai, oxirgisi qanday ta'riflanmasin, ilohiy ibtido xisoblanadi. Me'yorlar yoki yagona Xudo, yoki afsonaviy personajlar, qaxramonlar va muqaddas (sakral) maqomga ega bo'lgan ajdodlar tomonidan o'rnatilgan tartib, deb xisoblangan. Shu sababli me'yorlarning buzilishi muqaddas narsalarni toptash xisoblangan. Me'yorlarning o'zgartirilishi va qayta anglanishi mumkin emas. Xuquqiy va axloqiy me'yorlarga amal qilish utilitar maqsadlar bilan bog'liq emas, mazkur me'yorlar o'z-o'zidan, ularning muqaddasligi sababli qadrlidir. Intentional etikaga amal qilar ekan, inson ilohiyotga daxldor bo'ladi.

Xissiy madaniyatda axloqiy va xuquqiy me'yorlar boshqacha tarzda asoslanadi. Xuquq faqat insonga xos bo'lgan tartib xisoblanadi, uning masadi insonning umumiy xayoti uchun qulayliklarni ta'minlashdan iborat. Xuquqiy me'yorlarga amal qilmaslik jazolanadi, biroq muqaddas narsalarni toptash emas, balki faqagina tartibni buzish xisoblanadi. Xuquqiy me'yorlar odamlar tomonidan yaratilganligi bois, ular muqarrar ravishda nisbatlanadi, va ideational xuquqiy me'yorlar kabi nufuzga ega bo'lmaydi. Etika xissiy madaniyatda ilohiy yozuvlarga emas, balki odatda, qulaylik va o'ziga xoslikka asoslanadi. Xuddi shu kabi, grek mutafikkiri Epikur mo'l-ko'lchilikdan, jumladan, o'ta ortiqcha lazzatlardan xam o'zini tortib turishni maslaxat bergan, chunki ular azob chekishga, ya'ni noqulayliklarni keltirib chiqarishga sabab bo'lishi mumkin. Xuquqiy me'yorlar kabi, xissiy madaniyatning axloqiy me'yorlari xam muqarrar ravishda nisbiydir.

Idealistik madaniyatda xuquq va axloq xam ideational, xam xissiy qadriyatlarga asoslanadi. Inson tabiati va e'tiqod haqiqati talablarini birlashtirishga urinishlar amalga oshirilmoqda. Inson faqatgina qandaydir ilohiy ibtidoga amal qilgan xolda baxtli bo'lishi mumkin. Bunga inson shaxsiy xayotda xam, ishlarida xam faqatgina "Iso Masixga murojaat qilgan xoldagina" omadli bo'lishi mumkin, deb fatvo beruvchi ayrim zamonaviy xristian tashkilotlari vakillarining fiklari misol bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shunday qilib, ilohiy xissiyga murojaat qilish utilitar asosga (foydalilikka) ega bo'ladi, biroq shunga qaramasdan baribir u zarur,

deb xisoblanadi.

San'at va etika kabi ijtimoiy-madaniy voqelikning boshqa soxalari madaniyatning ustun, asosiy prinstipining ta'siri ostiga tushib qolgan.

P.A.Sorokin tomonidan ajratib ko'rsatilgan madaniyat turlari - bu bir vaqining o'zida madaniy o'sishning izchil bosqichlaridir. Xar qanday madaniyat (agar uning tabiiy mavjudligi qandaydir sabablar tufayli uzilib qolmasa) o'z rivojlanishi davrida uchta bosqichni bosib o'tadi: ideastional, idealistik, xissiy. Bunda ajratib ko'rsatilgan madniyat turlarining xech biri "ko'proq rivojlangan" yoki "kamroq rivojlangan" bo'lishi mumkin emas - ularning xar biri mustaqil axamiyatga ega. Madaniyat yuqorida keltirib o'tilgan bosqichlarni bir necha marotaba bosib o'tishi mumkin - Sorokin konstepstiyasi davriydir.

Nima sababdan bir madaniyat turi ikkinchisi bilan almashinadi?

Birinchidan, madaniyatning xech bir turi real dunyoning to'laqonli ta'rifini yaratish va inson ijodining barcha extimoliy yo'llaridan foydalanish imkoniyatiga ega emas. Qandaydir asosiy prinstipga asoslangan xolda madaniyat boshqa imkoniyatlarni to'sib qo'yadi. Qat o'tgani sayin mazkur prinstipning ijodiy rivojlanish imkoniyatlari muqarrar ravishda tugaydi, va yangi mqsadlarga o'tish zarurati tug'iladi. Agar madaniyat mazkur vazifani bajara olmasa, u yo'qolib ketadi.

Ikkinchidan, xech bir madaniyat to'laqonli ravishda rivojlanmaydi. Xuddi shunday, ideastional madaniyatda, uning "chekka qismlarida" xissiy va idealistik madaniyatning elementlari mavjud bo'ladi. Shuningdek, ustunlikka erishgan xissiy madaniyat xam ideastional madaniyat elementlarini yo'q qilib yuborishni taqozo qilmaydi. Va ushbu chetki elemantlar, avvalgi tur o'zining ijodiy imkoniyatlarining barchasini tugatib bo'lgandan so'ng, madaniyatning yangi turining shakllanishi uchun zamin bo'lib xizmat qilishi mumkin.

L.G.Ioninning madaniyat tipologiyasi

Zamonaviy rossiyalik sostiolog va faylasuf L.G.Ionin madaniyat tipologiyalarini turli (G.Zimmel, F.Tenbruk, T.Veblan, Yu.Lotman va B.Uspeskiy) konstepstiyalarga tayangan va "xayot shakli" va "usuli" tushunchalariga asoslangan

xolda quradi. U madaniyatning ikki turini - monostilistik va polistilistik madaniyatni ajratib ko'rsatadi. Aytish mumkinki, madaniyatning mazkur turlarining mohiyatini aniqlash uchun asosiy tushunchalar sifatida bir turlilik va ko'p turlilik tushunchalari xizmat qiladi.

Bir turlilik va gomogenlikka mos keluvchi **monostilistik madaniyat**, L.Ionin tomonidan quyidagi xususiyatlar vositasida ta'riflanadi.

1. Ierarxiya.

Madaniyat asarlari ierarxiyasi kabi, "madaniy ekspertlar" ierarxiyasi ham nazarda tutiladi. Monostilistik madaniyat doirasida xar doim qanday g'oya xaqiqiy, va qanday g'oya yolg'on ekanligi, kim fikr va baxo berish xuquqiga ega, va kim mazkur fikrlarni e'tiborga olishga majbur ekanligi tushunarli. Masalan, monostilistik madaniyat doirasida faqatgina xaqiqiy din mavjud bo'lishi mumkin va kimning qarashlari mazkur dinga mosligini faqatgina ruxoniylar belgilab berishi mumkin.

2.Kanonlashtirish

Monostilistik madaniyat doirasida madaniy tajribaning ustaxkalanib qolgan shakllari ham mavjud. Masalan, san'at kanonlashtiriladi. Rassom muayyan an'anaga amal qilishga majbur. Misol sifatida qadimgi rus ikonalarini chizishni keltirish mumkin. Ikonalar turli mualliflar tomonidan chizilgan. Biroq mualliflar muayyan qoidalarga amal qilganliklari sababli barcha ikonalar nimasi bilandir o'xshab ketadi. Rus ikonchiligini masalan, diniy mavzusiga ko'ra bir xil bo'lgan, biroq stilistikasiga ko'ra farq qiluvchi italiyaning Tiklanish davri rassomchiligi bilan almashtirib yuborish mumkin emas. Muayyan vaziyatlarda odamlarning o'zini tutishi ham kanonlashtiriladi (marosimlashtiriladi). Kanonlashtirish ijtimoiy-madaniy faoliyatning xar qanday sohasida ham individual tanlov uchun kenglikning to'liq mavjud emasligini anglatadi.

3. Tartibga solinganlik.

Monostilistik madaniyat ahamiyatga ega bo'lgan u yoki bu madaniy xarakterlar qayerda, nima va kim tomonidan amalga oshirilishi lozimligini aniq belgilab beradi. Masalan, Xudo bilan muloqot cherkovda, ma'lum vaqtda amalga

oshirilishi lozim. Bunda ibodat qilish, uning ishtirokchilarining o'zini tutishi va xattoki ularning cherkov ichida joylashuvi xam qat'iy belgilab qo'yilgan.

4. Totalizastiya.

Totalizastiya - bu monostilistik madaniyatning "barcha narsani qamrab oluvchanligi", barcha narsani qamrab oluvchi, voqelikning barcha ko'rinishlarini ta'riflashning umumiy tizimini yaratuvchi yagona universal madaniy shaklini qurishga intilishidir. Bunga misol qilib ibtidoiy xalqlarning mifologiyalari xizmat qilishi mumkin - ular universumning bir butun ta'rifini, ularning turmushining barcha jihatlarini: kundalik mashg'ulotlaridan tortib, dunyoning kelibchiqishining izoxlariga qadar barcha narsalarni qamrab oladilar.

5. Istisno.

"Istisno" tushunchasini L.Ionin monostilistik madaniyatning tasavvurlarning mavjud tizimiga mos kelmaydigan elementlarini siqib chiqarish tendensiyasini belgilash uchun qo'llaydi.

6. Soddalashtirish.

Agar yuqorida aytib o'tilgan chiqarib tashlash "jarayoni"ni amalga oshirish imkoniyati mavjud bo'lmaganida begona va tushunarsiz element soddalashtiriladi, ch'ni uning ma'lum va odatiy atama va formulalar yordamida ta'riflanishi sodir bo'ladi.

7. Rasmiy konsensus.

Monostilistik madaniyatning ko'plab tashuvchilari unga xos bo'lgan g'oyalarni, tasavvurlarni va e'tiqodlarni yoqlaydilar, ulardan shubxalanmaydilar.

8. Ijobiylik.

Monostilistik madaniyat tashuvchilari narsalarning mavjud xolatini saqlab qolishga yo'natirilganlar va uni tabiiy va to'g'ri narsa sifatida qabul qiladilar.

9. Teologiya.

Monostilistik madaniyat, odatda, mavjudlik maqsadi xaqidagi uning barcha tashuvchilari tomonidan qo'llab-quvatlanuvchi tasavvurlarning mavjudligini talab etadi. Masalan, monostilistik sovet madaniyati kommunizmni qurishga

yo'naltirilgan.

Ko'p turlilik prinsipini qonuniylashtirgan polistilistik madaniyat - monostilistik madaniyatning to'liq qarama-qarshisidir. Unga quyidagi jixatlar xos.

1. *Ierarxizastiyalamaslik*

Madaniy ma'nolar kabi, madaniy ekspertlarning xam barqaror ierarxiasining mavjud emasligi. Bu aynan bir madaniyat doirasida turli qarashlarning, usullarning, dunyoqarashlarning, xulq namunalarining birgalikdan, teng xuquqli tarzda mavjud bo'lishida namoyon bo'ladi.

2. *Kanonlashtirilmaslik (tartibga solmaslik)*

Madaniy faoliyatning barqaror tartiblarining mavjud emasligi.

3. *Tartibga solinmaganlik.*

Polistilistik madaniyat madaniy faoliyatning u yoki bu turlari kechishining vaqti va joyini aniq belgilab bermaydi. Savdo bozordagi kabi magazinda, "uyda" yoki Internetda xam amalga oshirilishi mumkin. Mashxur qo'shiqchi konstert qo'yish uun maxsus belgilangan konstert zalida emas, balki malakatning bosh "rasmii" maydonida xam qo'shiq kuylashi mumkin.

4. *Bir turlilikka keltirilmaslik.*

Polistilistik madaniyat o'ta xilma-xilligi va xattoki o'z moxiyatining qarama-qarshiligi bilan ajralib turgan xolda ichki birlikdan maxrum bo'lgan. U "total", barcha narsani qamrab oluvchi dunyoqarashni shakllantirmaydi.

5. *Qamrab olish.*

Polistilistik madaniyat, monostilistik madaniyatdan farqli ravishda xech nimani inkor qilmaydi, u yangi va avval ma'lum bo'lmagan narsalarga ochiq. Bu jixat madaniyatning murkaablashtirilishga va uning ichki ziddiyatlarining ortib borishiga imkoniyat yaratadi.

6. *Diversifikastiya.*

Bir madaniyat doirasida turli uslublarning birlashtirilishi, uning murakkablashtirilishi.

7. *Ezoteriklik.*

L.Ionin polistilistik madaniyatning - monostilistik madaniyatning rasmiy

konsensusiga ezoterikligini qarshi qo'yadi. Ezoteriklik bu erda madaniy o'ziga xosliklarga ega bo'lgan, atrofdagilardan begonalashuvchi, o'z doirasiga "begonalar"ni kiritmaydigan yopiq guruxlarni tashkil qilish tendensiyasi sifatida tushuniladi.

8. *Salbiylik.*

Polistilistik madaniyat tashuvchilari ko'pincha mavjud madaniy moxiyatlarga yoki ularga befarq bo'lgan ma'nolarga nisbatan salbiy munosabatda bo'ladilar.

9. *Ateleologiya.*

Polistilistik madaniyat na jamiyat uchun va na inson uchun mavjudlikning xech qanday maqsadini taqozo qilmaydi.

Tabiiyki, real xayotda monostilistik va polistilistik madaniyatlarning "sof" misollarini topish qiyin. Yuqorida turlarga ajratish - bu doimo ideallashtirish, voqelikning soddalashtirilishi demakdir. Voqelikda to'laqonli monostilizm kabi, kelgusidagi polistilizm xam bo'lishi mumkin emas: birinchisi qotib qolish va yo'q bo'lib ketishga, ikkinchisi esa - dezintegratsiya va betartiblikka olib kelar edi. Biroq real madaniyatlar u yoki bu andozaga mos kelishi mumkin. Xuddi shu kabi, sovet jamiyati madaniyati monostilistik turga mansub bo'lgan. Ko'plab qadimgi stivilizatsiyalar madaniyati shu turga mos keladi. Zamoanviy Rossiya madaniyati esa zamoanviy g'arb jamiyatlari madaniyati kabi polistilistik turga yaqinroqdir. shuningdek, ta'kidlash mumkinki, aynan bir jamiyat doirasida yuqorida ta'riflangan xar ikki tur xam birgalikda mavjud bo'la olishi mumkin. Polistilistik madaniyaning mavjudligi monostilizm "anklavlari"ning mavjudligini inkor qilmaydi, - masalan, yoaiq diniy yoki etnik uyushmalar ko'rinishida.

Nazorat savollari:

1. P.A. Sarokinning madaniyat tipologiyasiga izox bering
2. L.G. Ioninning madaniyat tipologiyasiga izox bering
3. Diversifikatsiya nima?

4. Ateleologiyani?

5. *G.ZIMMEL, M.VEBER VA K.MANGEYM IJODIDA*

MADANIYAT MUAMMOSI

Georga Zimmel madaniyat mohiyati, dinamikasi va inqirozi haqida

Georg Zimmel (1858-1918) – sosiologik fikr rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan nemis faylasufi va sosiologi. Zimmel E.Dyurkgeym, M.Veber va K.Marksler bilan bir qatorda sosiologiya klassiklaridan biri hisoblanadi. XX asrning ikkinchi yarmida G'arb sosiologiyasida Zimmel ijodiga bo'lgan qiziqish ortib ketdi. Ayrim zamonaviy mualliflar unda postmodernistik tafakkurning alomtlarini ko'ra oldilar. Zimmel ilk amerika sosiologiyasining, ayniqsa o'ta mashhur Chikago maktabi va ramziy interaktsionizmining shakllanishiga ahamiyatli ta'sir ko'rsatdi.

Yirik nazariy asarlar bilan bir qatorda Zimmel ijtimoiy hayotning shaxsiy, biroq muhim jihatlariga (modaga, ayollarning jamiyatdagi o'rniga, avantiyuristik xulq va boshqalarga) bag'ishlangan kichik hajmli ocherk va esselar ham yozgan. Ushbu ocherklarning ayrimlari rus tiliga tarjima qilingan. G.Zimmelni mikrososiologiyaning asoschisi deb hisoblash mumkin, chunki u shaxslararo o'zaro munosabatlarni, odamlarning guruxlardagi o'zaro aloqalarini o'rganishga katta e'tibor qaratgan. Uning “diad” va “triad” (ikki va uch kishidan iborat guruxlar) ta'riflari bugungi kunga qadar ham sosiologiya bo'yicha darsliklarda keltiriladi.

Zimmelni savollarning keng doirasi qiziqtirgan: jamiyatning zamonaviy turining o'ziga xos xususiyatlaridan tortib, shaxar turmush tarzi, xo'jaligi va din sosiologiyasiga qadar. Uning uchun barcha sosiolog-klassiklarga xos bo'lgan bilim va qiziqishlarning ma'lumotga oydirliligi to'laqonli ravishda xosdir. Madaniyat problematikasiga shuningdek, uning ko'plab ishlari bag'ishlangan, vaxolanki

madaniyatni G.Zimmel xam sosiolog, xam faylasuf sifatida o'rganadi. Madaniyatning mohiyatini u o'z falsafasining asosiy g'oyalaridan kelib chiqqan xolda o'rganadi.

Zimmelda madaniyatning aniq ta'rifini topish qiyin. Biroq shunga qaramasdan, ushbu xodisaning mohiyatini u o'z falsafasi uchun markaziy bo'lgan, betartib, ijodiy ibtidoni anglatuvchi, yangi shakllarni yaratishga va yaratilgan va "shakllanib ulgiran"ning doirasidan chiqishga intiluvchi "xayot" tushunchasi bilan bog'lydi. Zimmelga ko'ra madaniyat – bu xayotning inson faoliyati, ijodiy ong, ma'naviyat va ideallarga intilish bilan bog'liq bo'lgan aloxida shaklidir. Madaniyatning asosiy xususiyatlari dinamizm (o'suvchanlik) va unda qamrab olingan shakl va ijod prinsiplari o'rtasidagi ichki qarama-qarshiliklar xisoblanadi. Zimmel tomonidan taklif qilingan madaniy dinamika konstepstiyasi K.Marksning tarixiy-iqtisodiy g'oyalarining qandaydir ta'siri ostida ekanligi iziq masala xisoblanadi. Zimmelning o'ziga so'z beramiz.

Xayot o'limdan mavjudlikka va mavjudlikdan o'limga tomon siljiydi. Tarixiy madaniy jarayonning bu kabi tabiati birinchi marotaba dunyo xo'jaligi tarixi ustidan amalga oshirilgan kuzatuvlar ma'lumotlarida qayd qilingan. Xar bir davrning iqtisodiy kuchlari o'ziga mos bo'lgan ishlab chiqarish shakllarini yaratilishi aloxida ta'kidlab o'tilgan. Qulchilik va stexga oid tartib, krepostnoylik va yollanma mexnatning erkin savdosi, shuningdek mexnatga oid tashkillashtirishning xar qanday boshqa usullari o'zining vujudga kelishining tarixiy davrida mazkur dvr nimaga intilganligi va unda nimaga erishish mumkin bo'lganligini to'g'ri ifodalash xisoblangan. Biroq mavjud me'yor va cheklovlarning tor doirasida belgilangan chegaralar doirasidan chiqib ketgan xolda o'zidan... ustun shakllarning ortib boruvchi tayziqini uloqtirib tashlagan xolda, ularni ishlab chiqarishning yangi iqtisodiy kuchlari tabiatiga mos keluvchi boshqa turlari bilan o'rnini almashtirgan xolda yangi iqtisodiy kuchlarga aylanib

borgan. Madaniyat xayot unsurlarining oqibati sifatida shakllarni yaratadi va o'zi ularni o'zining o'sish va o'zgaruvchanlikka bo'lgan cheksiz intilishi tufayli parchalab yuboradi. Marks tomonidan iqtisodiyotda ta'riflangan jarayonlar ma'naviy muxitda yanada aniqroq namoyon bo'ladi.

Zamonaviy madaniyatni o'rganar ekan Zimmel bu – uzoq tarixga ega bo'lgan va o'zida madaniy shakllarning mo'l-ko'lligini qamrab oluvchi “etuk (barkamol)” madaniyat deya ta'kidlaydi. “Etuk”, “oliy” madaniyatlarga madaniyatning “ob'ektiv” va “sub'ektiv” jixatlari o'rtasidagi uzilish xosdir. Madaniyatning ob'ektiv jixati – bu jamiyat ega bo'lgan madaniy shakllarning boyligi va xilma-xilligidir. Ob'ektiv madaniyat individga uning uchun tashqi voqelik sifatida qarshi turadi. Madaniyatning sub'ektiv jixati – bu madaniyatning individ o'zlashtirib oladigan qismidir. Va tabiiyki, ob'ektiv madaniyat qanchalik boy bo'lsa, insonga uning madaniy mohiyatini qamrab olish shunchalik qiyin bo'ladi. Ob'ektiv va sub'ektiv jixatlar o'rtasidagi uzilish “maqsad” va “vositalar” o'rtasidagi uzilishlarda namoyon bo'ladi.

Zimmel quyidagicha yozadi:

Bizning faqatgina moddiy soxadagi texnika bo'lmagan texnikamizning ulkan, jadal va ekstensiv ravishda o'sishi bizni o'zimizning asl yakuniy maqsadlarimizdan tobora uzoqlashtirib boradigan vositalar tarmog'iga va ushbu vositalarning vositalariga tortib oladi. Xayotning barcha jabxalari bir-biri ustiga qurilgan vositalar maksimumi bilan qamrab olingan, yuqori darajada rivojlangan barcha madaniyatlarning ulkan ichki xavfi aynan shundan iborat. Bu kabi qator vositalarning yakuniy maqsadlarga qadar ulug'lanishi ushbu xolatni xuddi psixologik jixatdan ko'tarib bo'lmaslik darajasiga olib chiqadi, biroq aslida unga yanada ko'proq ma'nosizlikni baxsh qiladi.

Zimmelning fikriga ko'ra murakkab, etuk madaniyatda individ va uning maqsadlari o'rtasida madaniy “vositalar”ning tobora o'sib boruvchi tizimi

shakllanadi. Natijada bir tomondan, individning maqsadlardan begonalashishi, boshqa tomondan esa – “vositalar”ni “maqsadlar”ga aylantirish tendenstiyasi vujudga keladi. Xuddi shu tarzda “san’at uchun san’at”, “bilim uchun bilim” va xokazolar vujudga keladi.

“Maqsad” va “vositalar”ning Zimmel tomonidan ifodalangan nomuvofiqligi R.Mertonning nisbatan kechroq vujudga kelgan konstepstiyasini yodga soladi. Zimmel individ va madaniyatning o’zaro bir-biriga tenglashtirib bo’lmasligi sababli vujudga keladigan muayyan qarama-qarshiliklarni aloxida ta’kidlab o’tadi. Inson tomonidan yaratilgan madaniy shakllar individga tushunarsiz bo’lgan rivojlanishning shaxsiy mantig’ini kasb qiladi.

Sanoat yoki fan, san’at va tashkilotlarning rivojlanish mexoriyati va sur’atiga befarq yoki o’zlarining shaxsiy takomillashuvi, ya’ni madaniyatning takomillashtirilishi uchun ular qo’yishi kerak bo’lgan talablarga qarshi bo’lgan sub’ektlar jalb qilinadi.

Madaniy xayot tomonidan qamrab olinadigan va uni tashuvchilari bo’lgan ob’ektlar o’ziga xos ravishda mukammal va nozikta’b bo’lgan, xar doim xam sub’ektlarning rivojlanishiga immanent mantiqqa ergashadilar... Bizga ruxning cheksiz ob’ektivastiyalari, san’at asarlari va ijtimoiy me’yorlar, institutlar va o’z qonunlariga ko’ra boshqariluvchi podshoxliklar kabi, bizning individual mavjudligimizning mexoriyati va me’yori bo’lgan, o’z mexoriyatiga ko’ra ular bilan nima qilishni bilmagan, va ko’pincha uni ortiqcha yuk va unga qarshi turuvchi kuchlar sifatida qabul qiladigan anglashlarga qarshi turadi.

Zamonaviy madaniyatga nafaqat yuqorida ta’riflangan, nafaqat unga, balki barcha etuk madaniyatlarga xos bo’lgan tendenstiyalar xos. Zamonaviy madaniyatning o’ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, u nafaqat shakllanib ulgurgan shakllarni yoki madaniy ob’ektlashtirishlarni, balki umuman shakl prinstipini parchalashga intiladi.

Shakl prinsipiga qarshi kurash, jumladan, o'ziga xoslik, noyoblik – ayniqsa badiiy ijodni ximoya qilishga intilishda namoyon bo'ladi. Rassom o'zini erkin namon qilish xuquqi uchun kurashadi, go'zallik xaqidagi xar qanday shakllanib ulgurgan ta'sirlarni cheklovchi me'yor, qarash, tasavvurlarni cheklovchi ta'sirlarni inkor qiladi. Ijod erkinligi shaxsiy qadriyatga aylanadi. Ijod "unsur"lari uni cheklovchi shakllar ustidan g'alaba qozonadi.

Tafakkur soxasida, jumladan falsafiy tafakkur soxasida shakl prinsipining inkor qilinishi xaqiqatning absolyutligiga bo'lgan fundamental shubxa sifatida ifodalanadi. Xaqiqat nimadir nisbiy, jumladan, ta'riflashga, ijtimoiy kontekstga bog'liq bo'ladi. Zimmel tomonidan XX asr boshlarida qayd qilingan ushbu tendensiyalar yuz yillikning ikkinchi yarmida yanada aniq tabiat kasb qildi va postmodernistlar tomonidan bayon qilindi. Biz nisbiy dunyoda yashatganligimiz bugungi kunda umumiy joy xisoblanadi. Biroq Zimmel (boshqa qator mutafakkirlar kabi) madaniyatdagi dunyo etarl darajada barqaror bo'lgan davrdagi relyativlashtiruvchi tendensiyani ajratib ko'rsatgan.

Zamonaviy madaniyatning shakl prinsipiga uning xar qanday ko'rinishlarida dushmanligining sababi nimada? Zimmelning fikriga ko'ra bunga sabab – madaniy xayotni tashkillashtiruvchi umumiy g'oyaning mavjud emasligidir. Axir xar qanday barqaror madaniy shakl shubxasiz voqelik xaqidagi va uni ifodalovchi, tan olinuvchi tasavvurga tayanadi. Biroq zamonaviy madaniyat bu kabi tashkillashtiruvchi g'oyaga ega emas.

...oxirgi o'n yillar davomida biz qandaydir bir g'oya atrofiga birlashgan xolda yashamayapmiz, xatto undan xam ortiqroq, – o'zining cherkov-xristianlik g'oyasiga ega bo'lgan o'rta asrga, va er tabiatini xech qanday transstendent kuchlar tomonidan xech qanday tan olinishga muxtoj bo'lmagan qadriyat sifatida zabt etilishini nazarda tutgan Tiklanishga, yoki umuminsoniy baxt g'oyasi bilan yashagan XVIII Ma'rifat asriga qarama-qarshi bo'lgan g'oyaning ustunligiga

bo'ysunmagan xolda yashab kelmoqdamiz... Bizning davrimizning madaniyatimizning aloxida soxalariga nisbatan o'ziga xos jixati shundan iboratki, xayot o'zining sof samimiyatida o'zini xodisalarda namoyon qilishga intiladi va ...ularning nomukammalliligi sababli asosiy sabab, xar qanday shaklga qarshi kurashni namoyon qiladi. Shunday qilib, nafaqat madaniyatning organik g'oyasi uchun ma'lumot mavjud emas, balki u qamrab olishi lozim bo'lgan xodisalarning o'zi xam ularning bu kabi g'oyaviy birlashtirilishini amalga oshirish uchun o'ta ko'p turli va xilma-xildir.

Zimmel uning uchun zamondosh bo'lgan madaniy xayotning xususiy jixatlarini o'rganishga xam katta e'tibor qaratgan. Masalan, uning "ayollar madaniyati"ni ayniqsa bugungi kunda tobora rivojlanib borayotgan genderli tadqiqotlardagi ommaviyligi katta qiziqish uyg'otmoqda.

Zimmel ayollarning teng xuquqlilikka bo'lgan kurashlarining guvoxi bo'lgan va bu kabi axamiyatli xodisani e'tibordan chetda qoldira olmasdi. O'z davrining aloxida "ayol" va "erkak" xususiyatlarining mavjudligi xaqidagi fikrlarga qo'shilgan xolda u aslida ayollar jamiyatda ko'pincha erkaklarniki deb xisoblangan vazifalarni bajarish imkoniyatiga egaligiga shubxa qilmagan. Biroq uni boshqa narsa qiziqtirgan – ayollar o'zlariga xos bo'lgan nimanidir yarata oladilarmi?

Zimmel adolatli ravishda g'arb (va nafaqat g'arb) jamiyatlarining "ob'ektiv madaniyati" – bu erkaklar madaniyati ekanligini; erkaklar tomonidan yaratilgan madaniyat va dunyoga bo'lgan munosabatning aloxida erkaklarga xos madaniyat. Ayollar, teng xuquqlilikka erishiga xarakat qilar ekanlar, erkaklarga o'xshab ketadilar. Biroq bunda nima ma'no? Zimmel extiyotkorlik bilan aynan ayollar ob'ektiv madaniyatini yaratish, o'ziga xos ayollar xususiyatlari va xislatlaridan kelib chiquvchi yangi madaniy shakllarni yaratish xaqida extiyotkorlik bilan gapiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, ayollar bilan bog'liq bo'lgan mazkur vazifa bugungi kunda xam xal etilmagan. Va bu mumkinmi, degan savol ochiq qolmoqda.

Zimmel g'oyalarining qisqacha ma'lumotiga xulosa qilar ekanmiz, uning sostiologik fikrning kelgusidagi rivojlanishiga ta'siri nimadan iborat ekanligini aloxida ta'kidlab o'tish lozim. Mazkur ta'sir xar doim xam aniq anglanmagan bo'lsa-da, axamiyatli bo'lgan. Zimmel merosini taxlil qilar ekan Yurgen Xabermas uning ijodining dunyoqarashga oid axamiyati xaqida quyidagilarni yozgan:

Zimmelning ta'siri nafaqat oson tushuniladigan, masalan, shaxsiy madaniyatning narsalar madaniyatining ortib borishi bilan qiyoslaganda ortda qolishi formulalari sababli namoyon bo'lmagan. Uning xayotning zamonaviy usulini fenomenologik jixatdan aniq ta'riflashi xam ta'sir ko'rsatgan: "Sub'ekt va uning yaratgan narsalari o'rtasida tobora ortib borayotgan begonalikni yaratuvchi madaniyat moxiyatini ob'ektivlashtirish jarayoni oxir oqibatda kundalik xayotning ichki kechinmalariga kirib boradi". Katta shaxarlarda shakllangan muloqot shakllarida Zimmel xuddi tabiatdagi kabi reklama yoki er-xotinlar o'rtasidagi munosabatlarga tuzilmaviy jixatdan o'xshash bo'lgan siljishlarni aniqlaydi. Ijtimoiy xayot munosabatlari moddiylashtirilgan munosabatlar darajasida sub'ektivizm qalb energiyalarini ozod qiladi. Sub'ektlarning bu kabi fragmentlashtirilgan, shaklsiz ichki xayotida madaniy va ijtimoiy ob'ektlar begonalashgan va bir vaqtning o'zida avtonom kuchlarga aylanadi.

Shunday qilib, Georg Zimmel zamonaviy davrning dunyoni xis qilishini va mazkur dunyoni xis qilishning shakllanishiga imkon yaratuvchi asoslarni aniq ifodalab bergan. Shuni ta'kidlash lozimki, XX asrning oxiriga kelib Zimmel tomonidan ajratib ko'rsatilgan ob'ektiv va sub'ektiv madaniyat rivojlanishi tendenstiyalari faqatgina chuqurlashib ketdi.

Sostiologiya madaniyat xaqidagi fan sifatida – Maks Veber

Sostiologiya tan olingan klassigi, g'oyalari bugungi kunda xam eskirmagan va ko'plab zamonaviy nazariyachilar uchun qo'zg'alish nuqtasi bo'lib

xizmat qilgan Maks Veber madaniyat sosiologiyasi loyixasi sifatida o'rganilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy loyixani taklif etdi. Axir M.Veber uchun sosiologiya madaniyat xaqidagi empirik fan bo'lishi lozim.

Agar madaniyat xaqidagi fan sifatida inson xayoti xodisalarini ularning madaniy qiymati nuqtai nazaridan o'rganuvchi fanlarni sanab o'tadigan bo'lsak, u xolda ijtimoiy fan bizning fikrimizcha, ushbu toifaga kiradi.

Sosiologiya vazifalariga Veberga oid qarashlar uning davrida keng tarqalgan, "qonun"larni izlashga yo'naltirilgan va ijtimoiy xodisalarni tabiiy ob'ektlarga o'xshash tarzda o'rganuvchi pozitivistik yondashuvdan ahamiyatli darajada farq qilgan. M.Veber uchun ijtimoiy xodisalar – bu avvalambor madaniy, "moxiyatga oid", qiymatlar bilan to'ldirilgan xodisalaridir. Va sosiologiyaning vazifasi aynan umumiy qonunchiliklarni izlash emas, balki ijtimoiy xodisalarni tushunish bo'lishi lozim (ularni izlash imkoni mavjud bo'lgani bilan baribir asosiy vazifa tushunishga nisbatan tobe tabiatga ega bo'ladi).

Biz shug'ullanuvchi bo'lgan ijtimoiy fan, voqelik xaqidagi fandır. Biz xaqiqiy xayotni uning o'ziga xosligida anglashga – uning alohida xodisalarini ularning ayni vaqtdagi ko'rinishida, shuningdek, ular tarixida boshqacha emas, balki aynan shunday sodir bo'lganligining sabablarini qayd qilishga intilamiz³².

Biroq madaniy xodisani "anglash" nimani bildiradi? Ushbu tushunish qay tarzda sodir bo'lishi lozim? Bu erda Veber uchun "qadriyat" tushunchasi asosiy tushuncha xisoblanadi. Tushunish – madaniy xodisani, tarixiy fakti uning qiymatini belgilab beruvchi qadriyatlar bilan qiyoslash demakdir. Aynan qadriyat bilan qiyoslash xodisaga biz uchun xam ahamiyatga ega bo'lgan qiymat taqdim qiladi.

Biz madaniyat xaqidagi fan deb, xayotiy xodisalarni ularning madaniy qiymatida anglashga intilgan fanlarni nomlashimizni belgilab oldik. Madaniyat xodisalari qiymati va ushbu qiymatlar sabablari, u qanchalik mukammal bo'lmasin qonunlar va tushunchalar yordamida keltirib chiqarilishi, asoslanishi va izoxlanishi mumkin emas, chunki ushbu qiymat madaniyat xodisalarining qadriyatlar g'oyalari bilan nisbatlanishini taqozo qiladi. Madaniyat tushunchasi

qadriyatga oid tushunchadir. Empirik voqelik biz uni uning qadriyatga oid g'oyalar bilan qiyoslaganimiz uchun madaniy xisoblanadi; madaniyat voqelikning faqat va faqatgina qadriyatga tegishli bo'lgani uchungina biz uchun qadrlil bo'lishi mumkin bo'lgan tarkibiy qismlarini qamrab oladi. Individual voqelikning eng kam qismi bizning qadriyatga oid g'oyalar bilan bog'liq bo'lgan qiziqishimiz bilan bog'lanadi, va faqatgina u biz uchun axamiyatga ega, va bu unda biz uchun ularning qadriyatga oid g'oyalari bilan qiyoslanganligi uchungina axamiyat kasb etuvchi aloqalar namoyon bo'lishi bilan bog'liq. Faqat shuning uchungina –va bu o'rinli bo'lgani uchun – voqelikning ushbu tarkibiy qismi o'zining individual o'ziga xosligida biz uchun bilishga oid axamiyatga ega... Voqelikning unga qiymat taqdim qiluvchi qadriyatga oid g'oyalar bilan qiyoslanishi, voqelikning bu bilan bo'yalgan tarkibiy qismlarining ularning madaniy qiymati nuqtai nazaridan aniqlanishi va tartibga solinishi – voqelikni qonun va uning umumiy tushunchalarida tartibga solinishi vositasida unga xos bo'lgan geterogen taxlil bilan o'zaro muvofiq kelmaydigan nimadir.

Xodisani tushunish uchun zarur bo'lgan jarayon sifatidagi qadriyatga kiritish shaxsiy afzalliklar, u yoki bu xodisani shaxsiy baxolashga teng emas. "Qadriyatga kiritish" ostida Veber xodisaning shaxsiy ta'b bilan emas, balki davrning ustun qadriyatlari bilan qiyoslanishini tushunadi. Biz barchamiz madaniyatga singib ketganmiz, va uning chegarasidan tashqariga chiqish go'yoki imkonsiz. Biroq, Veberga ko'ra, – to'siq emas, balki ijtimoiy va madaniy anglash uchun zarur asosdir, chunki madaniyatli bo'lish (insonning ajralmas xususiyati) – atrof voqelikka moxiyat olib kirish imkoniga ega bo'lish, u xaqida u yoki bu muloxazalarni bayon qilish demakdir. Moxiyat esa xar doim qadriyatlar bilan bog'liq.

Bu xolatda voqelikni "ob'ektiv anglash" mumkinmi? Mazkur savolga javob berish uchun "ob'ektivlik" nimani anglatishini tushunib olish zarur. "Ob'ektiv bilim" – bu faqatgina muayyan tarixiy davrda, ya'ni aynan ilk zamonaviylik davrida, tabiatning "ob'ektiv qonunlari"ni namoyon qiluvchi tabiiy fanlar gullab-yashnagan pallada vujudga kelgan qadriyatga oid g'oyadir.

"Ob'ektiv bilim" – bu o'z mohiyatiga ko'ra shaxssiz bo'lgan, inson irodasiga bog'liq bo'lmagan qandaydir "qonun"larni bilish demakdir. Bu kabi tushunilgan "ob'ektiv bilim" – muayyan madaniyatning elementidir va u "qadriyatga kiritish" yo'li bilan ta'riflangan (aytish lozimki, ilmiy fikr rivojlanishining zamonaviy bosqichida ushbu tushuncha qayta anglanadi va qayta baxolanadi). Madaniyat xaqidagi fan sohasidagi qandaydir "qonun"larni o'rnatish sifatidagi "ob'ektiv anglash" mumkin emas, bu esa o'z navbatida ushbu fanlarning zarurligini bekor qilmaydi. Axir inson xar doim anglashga – o'z-o'zidan ma'nosiz bo'lgan ma'no olib kirishga intiladi. Va tarixiy voqelikni anglash sohasida "ob'ektivlik" mumkin bo'lsa, u xolda bu madaniy voqelikning aniq anglanishi, ushbu tabiat tomonidan anglash jarayonining o'ziga qo'yiladigan muqarrar cheklovlar bilan bog'liq bo'lgan ob'ektivlikdir.

O'lchash imkoni bo'lmagan xodisalarning cheksiz oqimi abadiylikka tomon yo'naltirilgan. Madaniyatning odamlarni tashvishga soladigan muammolari bir birining o'rnini egallagan xolda yangi obraz va ranglarda vujudga keladi. Individual xodisalarning cheksiz va abadiy oqimida biz uchun ma'no va qiymat kasb etgan narsalarning chegaralari beqaror bo'lib qoladi, "tarixiy individuum"ga aylanadi. Doirasida tarixiy individuum ilmiy jixatdan o'rganiluvchi va anglanuvchi tafakkur aloqalari o'zgaradi. Madaniyat xaqidagi fanlarning boshlang'ich nuqtalari bundan keyin xam o'zgarib boradi... Madaniyat xaqidagi fanlarda tizim, xattoki to'laqonli va ob'ektiv muammo va soxalarning belgilab qo'yilgan tizimlashtirilishi – bularning bari ma'nosizdir.

M.Veberning madaniyat sostiologiyasiga qo'shgan xissasi nafaqat mazkur voqelikning o'ziga xos, ma'noviy tabiatga ega bo'lgan tabiatidan kelib chiquvchi ijtimoiy voqelikni taxlil qilishga bo'lgan o'ziga xos yondashuvni shakllantirish bilan bog'liq. Veber o'tmish kabi zamonaviylikka xam tegishli bo'lgan qator tarixiy xodisa va voqealarni tushunish imkonini beruvchi samarali konstepstiya va g'oyalarni shakllantirdi. Madaniyat rastionalizastiyasi va zamonaviylik davrining o'ziga xos jixati bo'lgan ijtimoiy xayot shakllarini to'liq taxlili aynan M.Veberga tegishli.

Zamonaviy amerikalik sosiolog Djordj Ritster XX asrning turli sosiologik nazariyalarning eng ahamiyatli fikrlarini sanab o'tar ekan Djordj Ritster Veberning rasionallik konseptiyasidan boshlaydi va quyidagicha yozadi: "Zamonaviy dunyo rasionall tizimlar uchun undan chiqish imkoni bo'lmagan temir qafasni anglatadi".

Zamonaviy jamiyatda xayot rasionallizatsiyasi nimada namoyon bo'ladi? Tajriba va ishlab chiqilgan metodologiyaga, matematik hisob-kitoblarga asoslangan ilmiy bilimning tarqatilishida; dinning va jamiki "irrasional", "sirlilik"ning din bilan qiyoslanishida; daromad va xarajatlarning qayd qilinishi talab etuvchi zamonaviy rasionall kapitalistik xo'jalikni shakllantirishda, samaradorlikning oshishiga intilishda; ijtimoiy xayotning barcha soxalarida byurokratik boshqaruv tizimining tarqalishida; siyosiy hukmronlikning a'nalarning ilohiyligi va qabila boshi va monarxning sakral maqomiga e'tiqodga emas, balki shaxssiz qoidalar va o'sha samaradorlik muloxazalariga asoslangan oqilona-rasmiy turining paydo bo'lishida.

Aloqida shaxsning o'zini tutishiga keladigan bo'lsak, u xam nisbatan oqilona bo'ladi. M.Veber quyidagicha yozgan:

Xarakatni "rasionallashtirish"ning eng muxim tarkibiy qismlaridan biri odatiy tartib va odatlarga ichki sodiqlikning extiyojga oid muloxazalarga bir tekisda moslashish bilan almashinishi hisoblanadi. Albatta mazkur jarayon xarakat "rasionallizatsiyasi" tushunchasini inkor qilmaydi. Vaxolanki, oxirgisi bundan tashqari, ijobiy ravishda - ongli ravishdagi qadriyatga oid rasionallizatsiya yo'nalishida, salbiy ravishda esa - xulqning buzilishi, shuningdek, affektiv ta'sirning siqib chiqarilishi, va nixoyat qadriyatga oid-rasionall xulqni qadriyatga ishonmaydigan maqsadli rasionallik tomonga o'zgarishi hisobiga kechishi mumkin.

Zamonaviy jamiyatlar xayotini rasionallashtirish murakkab yirik madaniyatlar tuzilmalari - insondan begonalashgan, xuddi "mashina" kabi formallashtirilgan rasionall qoidalar asosida xarakat qiluvchi byurokratik tashkilotlar, tijorat tashkilotlar, texnik tizimlar kabi murakkab yirik tuzilmalarning

shakllanishida namoyon bo'ladi. Inson o'z xayotini ko'p xollarda o'ziga xam tushunarsiz bo'lgan mazkur tuzilmalarning xarakatlanish mantig'iga bo'ysundirishga xarakat qiladilar. Veberga ko'ra rastionalizm, "zamonaviy xo'jalik tuzumining qudratli koinoti"ning o'zagi bo'lgani xolda, "xar bir aloxida shaxsning xayot uslubini shakllantirgan xolda uni engib bo'lmas majbulashga duchor qiladi, bunda u nafaqat o'z faoliyatiga ko'ra u bilan bevosita bog'liq bo'lgan odamlarni emas, balki o'z tug'ilish davridan boshlaboq ushbu mexanizmga qamrab olingan barchani qamrab oladi".

Rastionalizastiya sabablari qanday? Veberga ko'ra zamonaviy rastionallashtirish qadimiy tarixiy ildizga ega va qator tarixiy vaziyatlarning o'ziga xos "konstellyastiyasi" natijasi xisoblanadi. P.Gaydenko va Yu.Davidovlar Veberning rastionallashtirishning tarixiy asoslari xaqidagi muloxazalariga quyidagicha xulosa qiladilar:

Shunday xolat vujudga keldiki, muayyan davrda va muayyan makonda o'zida rastional ibtidoni qamrab olgan bir nechta xodisalar uchrashdi: antik fan, ayniqsa Tiklanish davrida tajribalar asosida to'ldirilgan va Galiley davridan boshlab yangi, tajribaga asoslangan fan tabiatiga ega bo'lgan, o'zining metodologik asosida texnika bilan chuqur bog'liq bo'lgan matematika; jamiyatning avvalgi turlarida mavjud bo'lmagan va o'rta asrlarda Evropa zaminida rivojlanishda davom etgan rastional Rim xuquqi; xo'jalik yuritishning rastional usuli. Bu elementlarning barchasini tanlab olish imkonini bergan xolat, Veberning fikriga ko'ra, xo'jalik yuritishning rastional usulini amalga oshirish uchun dunyoqarashga oid asoslarni yaratgan protestantizm xisoblanadi..., chunki iqtisodiy muvaffaqiyat protestantlik tomonidan dinning yutug'i darajasiga olib chiqilgan.

Natijada Evropada birinchi navbatda yangi... va tarixda o'xshashi bo'lmagan jamiyat turi vujudga keldi, zamonaviy sostiologlar uni industrial jamiyat deb ataydilar. Jamiyatning avvallari mavjud bo'lgan turlarini Veber zamonaviy jamiyat turlaridan farqli ravishda an'anaviy, deb nomlagan. An'anaviy

jamiyatlarning eng muxim jixati - bu ularda formal-rastional ibtidoning xukmronligi mavjud emasligidir...

Formal (rasmiy) rastionallik Veber talqinida, - bu avvalambor kalkulyastiyalanish demakdir, ya'ni, miqdoriy xisobga bo'ysunuvchi, miqdoriy xususiyatiga ko'ra oxirgacha yakunlanadigan narsadir.

XX asrning boshidayoq Veber tomonidan zamonaviy jamiyatga qo'yilgan "tashxis" bugungi kunga qadar xam to'g'ri bo'lib qolmoqda. Rastionallashtirish jarayoni G'arb jamiyatlaridan tashqariga chiqib ketgan va o'z madaniy mantig'iga barcha insoniy jamiyatlarni bo'ysundirgan xolda amalga oshirilishda davom etmoqda.

Ko'plab tadqiqotchilar XX asr davomida g'arb madaniyatini vag'arb jamiyatlarining o'zini tutishdagi o'ziga xos xususiyatlarini taxlil qilgan xolda rastionallik (oqillik) konstepstiyasiga murojaat qiladilar. Masalan, neomarksistik "tanqidiy maktab" vakillarini, jumladan, Gerbert Markuzeni misol sifatida keltirish mumkin. U rastionallashtirishni insonni g'arb madaniyatiga bo'ysundirish omili sifatida ifodalagan, va "irrastionallik"ni formal, texnik rastionallik, deb atagan.

Yuqorida ismi keltirib o'tilgan Djordj Ritster Veberning rastionallik konstepstiyasi asosida o'zining "makdonaldlashtirish" konstepstiyasini ishlab chiqdi. Amerikalik restoran xo'jayinlari ushbu konstepstiyada, bugungi kunga qadar xam zamonaviy jamiyatlarning xayotini "boshqarib kelayotgan" rasmiy rastionallikning asosiy prinstiplarining odatiy ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladilar: *bu sifat, inson texnologiyalarini jarayonlarni bir xillashtirish bilan almashtirish vositasida nazoratni amalga oshirish emas, balki samaradorlik, kelajakni ko'ra olish, miqdorga e'tibor qaratishdir.* Ritster shuningdek, ushbu prinstiplarning keng ko'lamda ustunlikka erishishi oqibatida kelib chiqdigan irrastionalizastiya, xayotning ma'nosizlanishi tendenstiyasini xam ajratib ko'rsatadi. "Ma'no" toifasini esa ular oddiygina, e'tibordan chetda qoldiradilar. Biroq, shunga qaramasdan, ushbu prinstiplar zamonaviy ijtimoiy xayotning asosiy tartibga soluvchilari bo'lib qolishda davom etmoqda - xar xolda ijtimoiy tuzilma jixatidan.

Karl Manxeymning bilim sostiologiyasi va madaniyat sostiologiyasi

Karl Manxeym (Mangeym, Mannxeym) - mashhur nemis sostiologi, bilim sostiologiyasi asoschisi. Mazkur soxada olib borilgan tadqiqotlar uni ma'naviy xodisalarni, madaniyat sostiologiyasi soxasida olib borilgan ishlarni taxlil qilishga kenroq yondashish zarurligini anglashga olib keldi. O'zining madaniyat sostiologiyasiga bag'ishlangan ishlarida Manxeym uning predmet soxasini va metodologiyasini aniqlashga uringan, intellegenstiya(ziyolilar)ning o'rni va turi, dunyoqarashlar genezisi, fikrlarning ijtimoiy kontekst bilan o'zaro aloqasi, ilmiy va falsafiy tafakkurda madaniyat problematikasining paydo bo'lishining asoslari kabi bir qator aniq muammolarni o'rgangan. Manxeym ijodida Veber va K. Marks, V. Diltey va M. Sheler, shuningdek qator boshqa mutafakkirlarning ta'sirini ko'rish mumkin.

K.Manxeym o'zining ko'plab o'tmishdoshlari va zamondoshlari singari insoniyat jamiyatining rivojlanishida g'oyalar ulkan o'rin tutganligini tan olgan. Biroq u "g'oya"larni ijtimoiy kontekstga nisbatan qandaydir aloxida xodisa sifatida o'rganishga moyil bo'lmagan. Aksincha, Manxeym xuddi Marks singari, g'oyalarni vujudga keltiruvchi inson tafakkuri xar doim aniq tarixiy, ijtimoiy sharoitlarga bog'liq ekanligiga va mazkur sharoitlar tomonidan belgilab berilishiga ishongan. Inson tafakkuri uning ijtimoiy xolati, guruxga oid tegishliligi, turmush tarzining o'ziga xos xususiyatlari va uning guruxining taqdiriga bog'liq bo'ladi. Manxeym quyidagicha yozgan: "o'z-o'zidan odamlar va aloxida individlar emas, balki ular uchun umumiy qarashlarni ifodalovchi tipik vaziyatlarga nisbatan amalga oshirilgan cheksiz javob xarakatlar davomida tafakkurning o'ziga xos uslubini ishlab chiqqan aloxida guruxlardagi odamlar fikrlaydilar".

Manxeymning ijtimoiy genezisga bag'ishlangan tadqiqotlar soxasidagi eng mashhur asari "Mafkura va utopiya" xisoblanadi. Mazkur asarning vazifasi "odamlar xaqiqatda qanday fikrlashlarini ko'rsatish bo'lgan". Manxeym qarashlari kontekstida bu - tafakkurning ijtimoiy ildizlarini ko'rsatib berishni anglatgan.

Manxeym "mafkura" va "utopiya"ni ijtimoiy jixatdan belgilangan, o'z yo'nalishiga ko'ra farq qiluvchi ikki shakl sifatida ajratadi. Mafkura – mavjud ijtimoiy tartib bilan bog'liq bo'lgan tafakkur shaklidir. Aftidan mafkuraning tashuvchilari sifatida asosan ijtimoiy tuzilmadagi o'rni nufuzli yoki xech bo'lmaganda barqaror bo'lgan ijtimoiy guruxlar, mavjud ijtimoiy tuzumni saqlab qalinishidan manfaatdor bo'lgan guruxlar namoyon bo'ladi.

Manxeymga ko'ra utopiya, – mavjud xayot sharoitlaridan norozi bo'lgan ijtimoiy guruxlarga xos bo'lgan tafakkur shaklidir. Utopiyalar o'zida yangi, nisbatan "mukammalroq" (utopik fikrlar tashuvchilari nuqtai nazaridan) ijtimoiy tuzum obrazini ilgari suradilar. Utopiyalar g'alaba qozongandan so'ng mafkuraga, mafkuralar esa qayta anglangandan so'ng utopiyalarga aylanishi mumkin, chunki ular orasida axamiyatli darajadagi farqlar mavjud emas. "Utopiya" "mafkura"dan faqatgina o'zining mavjud tartibni o'zgartirish qobiliyati bilangina farq qiladi. "Mafkura" va "utopiya" tafakkurning buzilgan shakli sifatida tarixda juda kam uchraydigan, voqelik xaqidagi "to'g'ri" tasavvurlarga qarshi turadi.

Tarixiy mavjudlikning xar bir bosqichi ushbu mavjudlikni o'zgartirgan tasavvurlar bilan bog'liq bo'lgan, biroq bu xolat ular "organik" (ya'ni o'zgartiruvchi ta'sir ko'rsatmagan xolda) tarzda mazkur davrga muvofiq bo'lgan dunyo manzarasiga kirib borgunlariga qadar davom etgan...xuddi tarixiy rivojlanishning mazkur bosqichiga xos bo'lgan mafkuralar kabi. Feodal davlat va o'rta asr cherkov tashkiloti jannat ne'matlarini va'da qilishni mavjud ijtimoiy tuzilma bilan emas, balki qandaydir transtendent muxit, o'zga dunyo va shu bilan bog'lashga va b bilan ularni o'zgartiruvchi kuchlardan ximoya qila olishga erisha olgan davrlariga qadar ular aynan shu ijtimoiy tartibga tegishli bo'lganlar. Odamlarning muayyan guruxlari ushbu istaklarni amalga oshirishga xarakat qilgan xolda ularni o'zlarining bevosita faoliyati soxasiga olib kirganlaridagina ushbu ideologiyalar utopiyalarga aylandi...

Xar bir aniq "xarakatlanuvchi xayotiy tartib" eng yuqori aniqlik bilan tushunilishi va iqtisodiy va siyosiy tuzilmaning uning asosini tashkil etuvchi turi vositasida ifodalanishi mumkin; biroq u shuningdek, mazkur tuzilma talab etuvchi

barcha inson munosabatlarini (sevgi, muloqot, kurash va xokazolarning o'ziga xos turlarini), va nixoyat, – kechinma va tafakkurlarning mazkur xayot tuzumiga muvofiq bo'lgan va mazkur ma'noda ularga mos bo'lgan barcha shakl va usullarini talab etadi...

...Biroq xar bir "real mavjud bo'lgan xayot tartibi" "noreal" "mavjudlikka transstendent", deb nomlash lozim bo'lgan tasavvurlar bilan qoplanadi, chunki bu kabi ijtimoiy tartibda unga muvofiq tarzda yashash va xarkat qilish mumkin emas. ...Aniq mavjud bo'lgan... ijtimoiy tartibga muvofiq bo'lgan tasavvurlarni biz mavjudlikka muvofiq bo'lgan "adekvat" tasavvurlar, deb nomlaymiz. Ular nisbatan kam uchraydi... Mavjudlikka muvofiq, mos keluvchi tasavvurlarga mavjudlikka transstendent bo'lgan ikki katta gurux qarshi turadi: mafkura va utopiya...

Manxeymga ko'ra, tafakkur ijtimoiy jixatdan determinastiya qilinganligi sababli tabiiy savol tug'iladi – ijtimoiy voqelikni aniq, ob'ektiv anglash mumkinmi? Voqelikni "to'g'ri" anglashga qanday erishish mumkin? Manxeym mazkur savolga qoniqarli javob topa olmadi. Mustaqil intelligenstiyaga – uning fikriga ko'ra, tafakkurning ijtimoiy jixatdan bog'liq bo'lgan stereotiplaridan ustun bo'lishi mumkin bo'lgan ijtimoiy qatlamga xam ayrim umidlar xam bog'lagan. Biroq, tarixiy tajriba ko'rsatishicha, ziyolilarning manfaatlari ko'pincha jamiyatning u yoki bu sinflarining manfaatlari bilan chambarchas bog'liq, va uning tafakkurlari ijtimoiy tobelikdan boshqa qatlamlar vakillari tafakkuriga nisbatan erkin emas. "Mafkura" kabi "utopiyalar"ni xam yaratish ishida intelligenstiya ayniqsa faol. Shuni ta'kidlash lozimki, tafakkur ob'ektivligi muammosi, "ob'ektiv xaqiqat"ning mavjudligi muammosi nafaqat Manxeymda, balki tafakkurning ijtimoiy va madaniy asoslarini o'rganuvchi barcha mualliflarda qiyinchiliklar tug'diradi.

Bilimning sostiologik taxlilidan Manxeym nisbatan keng ko'lamli vazifalarga o'tadi – u madaniyat sostiologiyasi loyixasini ishlab chiqdi. Biroq ushbu loyixa uzoq vaqt davomida ilmiy jamoatchilikka noma'lum bo'lib kelgan. Mazkur fanning o'z variantini ishlab chiqar ekan Manxeym uni "madaniyat

sostiologiyasi", va "rux sostiologiyasi" deb nomlaydi, va uning predmetini quyidagicha belgilaydi:

*Jamiyat o'zaro munosabatlarning, g'oya va kommunikastiyaning shakllanishining umumiy maydoni bo'lganligi sababli rux sostiologiyasi amaliy faoliyat kontekstida manaviy vazifalarni o'rganishni bildiradi*⁴².

Manxeym o'zining sostiologiyada bayon qilingan maqsadni bilishidan – tafakkurni ijtimoiy taxlil qilishdan bosh tortmaydi, biroq u mazkur vazifani kengaytiradi. Rux sostiologiyasi vazifasi deb u "ma'naviy jarayonlarning ijtimoiy tabiatini belgilash"ni xisoblaydi. Manxeym ma'naviy xodisalarning uch bosqichni qamrab oluvchi sostiologik taxlilining metodologik sxemasini chizib bergan.

Birinchi bosqich. Xayol, xissiyot yoki ta'bning belgilab qo'yilgan ifodalarida mavjud bo'lgan yoki taqozo qilingan qiymat taxlil qilinadi, vaxolanki uning xaqiqiy asoslanganligi yoki xaqiqiylikini aniqlan tadqiqotning uchinchi bosqichiga qadar saqlab turiladi.

Ikkinchi bosqich. Kontekstida mazkur muloxazalar vujudga keluvchi va amalga oshiriluvchi ijtimoiy o'zaro munosabatlarning jamiki diapazoni kuzatiladi va aniqlanadi. Aloxida e'tibor mazkur vazitlarning ishtirokchilari xarakatlarida noaniq tarzda ifodalanuvchi baxolar, qarorlar va ustunliklar tizimiga aloxida e'tibor qaratiladi.

Uchinchi bosqich. Dastlabki o'zaro munosabat kontekstida qayta tiklangan muloxazalarning ma'nosining taxlili qayta tiklanadi va ularning to'liq vaziyatga oid qiymati qayta tuzilmalashtiriladi.

Manxeymning madniyat sostiologiyasining organik qismi madaniy-sostiologik anglash xodisasining o'zini sostiologik taxlil qilish xisoblanadi. U madaniyat sostiologiyasining (va madaniyat xaqidagi boshqa fanlarning) vujudga kelishini Yangi va eng yangi Evropa davrining o'ziga xos ijtimoiy vaziyatining natijasi sifatida o'rganadi. Mazkur vaziyatning o'ziga xos jixati madaniyat xodisasining o'zini muammolashtirish, madaniyatni tadqiqot ob'ekti sifatida ajratib ko'rsatilishi bo'ldi.

Boshqa so'zlar bilan aytganda, madaniyat "madaniyat sifatida" – voqelikning aloxida soxasi sifatida anglangan, uning maxsuloti esa – o'z-o'zidan mavjud bo'lishi va shubxasiz nimadir emas, balki "madaniyat xodisalari" sifatida anglangan. Bu kabi qiziqishning sababi, Manxeymga ko'ra madaniy va ijtimoiy xayotning differentsiastiyasi, bir vaqtlar yagona bo'lgan dunyoqarashning qiymatlar va qadriyatlarning shaxsiy dunyolarini shakllantiruvchi ko'plab avtonom madaniy soxalarga parchalanishi bo'ldi. Yaxlitlikning yo'qolishi va qarama-qarshilikning ortib borishi bilan madaniy qiymatlar o'zining absolyutligi va o'zgarmasligini yo'qotib bordi, bu esa o'z navbatida ularning muammolashtirilishiga olib keldi. Boshqa tomondan esa, madaniy qiymatlarning, g'oyalar, qadriyatlar, dunyoqarashlarning xilma xilligi qandaydir birlashtiruvchi prinsipni izlashga imkoniyat yaratdi, bu prinsip sifatida umumiy tushuncha bo'lgan "madaniyat" namoyon bo'ldi. Madaniyat barcha narsani qamrab oluvchi, ko'plab turli tuman ma'naviy xodisalarni birlashtirish imkonini beruvchi voqelik sifatida qabul qilina boshladi.

Manxeym madaniyat xaqidagi zamonaviy tasavvurlarning shakllanishiga imkoniyat yaratgan omillarni sanab o'tadi.

- madaniyatning aloxida soxalarini bir biriga nisbatan relyativizastiyasi, bunda qadriyatga oid jixat ularning o'zaro birgaligida amalga oshiriladi;
- madaniyat xodisasining xar qanday tarixiy shaklining nisbiyligini va o'tuvchi tabiatini tushunish;
- madaniyatning prinsipial proqessual tabiatini anglash;
- madaniyat xodisasini ta'limga muvofiq ravishda boshdan kechirish, ta'lim ideali;
- madaniyat tushunchasining va tabait tushunchasining antogonistik jixatdan chegaralanishi;
- madaniyat fenomenining ijtimoiy tabiatini anglash.

Madaniyat sostiologiyasining shakllanishida yuqorida sanab o'tilgan jixatlarning eng oxirgisi muxim ahamiyatga ega. Madaniyat sostiologiyasi

madaniyat xodisasini "sostiologik tushunchaga oid daraja" nuqtai nazaridan, madaniy xodisalarning ijtimoiy belgilanganligi nuqtai nazaridan, ularning "ijtimoiy funkstionalligi" nuqtai nazaridan o'rganuvchi fan xisoblanadi. Vaxolanki, madaniyat xodisasining "funkstionalligi" ostida uning "vazifasi" emas, balki uning ijtimoiy vaziyatga bog'liqligi tushuniladi. Madaniy xodisa ijtimoiy vaziyatning "vazifasi"dir va u tadqiqotchi tomonidan mazkur vaziyatni taxlil qilish natijasida keltirib chiqariladi.

Madaniyat sostiologiyasining madaniy xodisalarning ijtimoiy asoslarini o'rganuvchi fan sifatida zarurligini Manxeym jamiyat "tabiati"ning o'zidan keltirib chiqaradi. Jamiyat faqatgina odamlarning o'zaro munosabatlarining barqaror shakllarini aks ettirmaydi (agar G.Zimmelning terminologiyasidan foydalanadigan bo'lsak, "ijtimoiylik" shakllari). U shuningdek, o'zaro munosabatlarni bog'lovchi, odamlarni birlashtiruvchi yoki ajratib yuboruvchi qiymatlarda xam namoyon bo'ladi. Ijtimoiy xayotning "ma'naviy" jixatining mavjudligi va uning jamiyat xayotidagi fundamental roli jamiyatni o'zaro munosabatlarning tuzilmasi sifatida o'rganuvchi umumiy sostiologiya bilan bir qatorda qiymatlarni, ma'naviy xodisalarni ularning "ijtimoiy funkstionalligi"da o'rganuvchi madaniyat sostiologiyasining "yoki rux sostiologiyasining" xam mavjud bo'lishini zarurat qilib qo'yadi.

Nazorat savollari:

1. Maks Veberning madaniy sostiologiyasiga qanday ta'rif beradi?
2. "Ijtimoiy xarakat nazariyasi" kim tomonidan yaratilgan?
3. Parsons madaniyat tizimini qanday ta'riflaydi?

6. MADANIYAT SOTAILOGIYaNING TADQIQOT OB'EKTI SIFATIDA

Madaniyat – turli fanlar tomonidan o'rganiladigan murakkab va ko'p qirrali xodisadir. Madaniyatni o'rganishga sostiologik yondashuvning o'ziga xos

xususiyati nimadan iborat? Madaniyatni o'rganishga bo'lgan sostiologik yondashuvning mohiyati xarakterlanish qonuniyatlarini ochib berish va jamiyatdagi madaniy hodisalarning rivojlanishini tadqiq qilish, madaniyatning ijtimoiy vazifalarini aniqlashdan iborat. Sostiologiya madaniyatning o'zaro munosabatlarni tartibga solishdagi rolini, odamlarning ijtimoiy hayotining "madaniy" va "ijtimoiy" jihatlarining o'zaro ta'sirini o'rganadi. Ushbu maqsadlar turli nazariy yondashuvlar qatori doirasida amalga oshiriladi (mazkur yondashuvlarning ko'p turlicligi xaqida ularning avvalgi bo'limlarda keltirilgan qisqa ta'riflari asosida xam bilib olish mumkin). Shuni ta'kidlash lozimki, sostiologiya ko'pincha boshqa fanlar doirasida shakllangan nazariy yondashuvlardan – masalan, semiotik yoki psixotaxliliy ndashuvlardan xam foydalanadi... Tabiiyki, turli nazariy yondashuvlar doirasida madaniyatning turli ta'riflari xam mavjud. Biz sostiologiya bo'yicha ko'plab darsliklarda ko'p uchraydigan ta'riflarga yaqin bo'lgan eng sodda ta'rifdan kelib chiqamiz. Mazkur ta'rifga ko'ra, *madaniyat ijtimoiy o'zaro munosabatlarni bog'lovchi, u yoki bu gurux yoki uyushmalar a'zolarining tafakkuri va xulqini belgilab beruvchi qadriyatlar, me'yorlar, tasavvurlar va xulq namunalari majmuini ifodalaydi.*

Madaniyat mohiyati. Madaniyat va inson tabiati

Eng keng qarashlarda "madaniyat " odamlar tomonidan yaratilgan barcha narsalarni, – fan va diniy e'tiqodlardan tortib tosh yo'ng'ichlarni tayyorlash usullariga qadar. Agar "madaniyat" atamasini mazkur ma'noda qo'llaydigan bo'lsak, u xolda insonning ijtimoiy hayoti shakllari madaniyat maxsuli sifatida ifodalanishi mumkin. Axir oila xam, din xam, xo'jalik faolligi va siyosiy xukumat shakllari xam – bularning bari tabiat tomonidan taqdim qilinmagan, balki inson faoliyati va o'zaro munosabatlar natijasida vujudga kelgan. Hayvonlarning ijtimoiy hayoti shakllari instinktlar bilan belgilab berilgan, va shu sababli, deyarli o'zgarmaydi. Odamlarning ijtimoiy hayot shakllari esa ko'p xollarda betartib va aniq maqsadga yo'naltirilmagan xolda odamlar tomonidan tuzilmashtiriladi; va ko'p variantlilik va o'zgaruvchanlik bilan ajralib turadi. Bo'rilar to'dasi va

chumolilar bugungi kunda yuz yil avvalgi qonunlarga ko'ra yashamoqdalar. Inson jamiyatlari mazkur davr davomida ko'plab o'zgarishlarni boshdan kechirdilar.

Aytish mumkinki, inson xayotining ijtimoiy shakllari madaniyat maxsulidir. Biroq madaniyat xam – jamiyat maxsulidir, inson faoliyati maxsulidir. Aynan u yoki bu inson uyushmasini tashkil etuvchi individlar madaniy namunalarni yaratadi va ishlab chiqaradi. Inson mavjudligining "ijtimoiy" va "madaniy" jixatlarining ajratilishi faqatgina nazariyada mumkin. Amalda esa ular ajralmas birlikda mavjud bo'ladi. Madaniyatni jamiyatning bir qismi sifatida, yoki jamiyatni madaniyatning bir "qismi" sifatida o'rganish mumkin emas.

"Ijtimoiy" va "madaniy"ni aniq ajratish mumkin emas, biroq shuningdek ularni to'liq tenglashtirish imkoni xam mavjud emas. Madaniyat – bu avvalambor odamlar o'z xayotida ularga amal qiluvchi moxiyatlar va qimatlar majmuidir. Inson faoliyati – xar doim qiymatlar bilan bog'liq bo'lgan faoliyatdir, bu turli tadqiqotchilar tomonidan bir necha marotaba qayd qilib o'tilgan. Atrof muxitning xar bir elementini (tabiiy va ijtimoiy) inson muayyan ma'no bilan to'ldiradi. Va faqatgina ushbu ma'nolarga tayangan xolda u muxit bilan o'zaro munosabatga kirishishi, unga moslashishi, uni o'zgartirishi mumkin. "Ijtimoiy"ga esa aynan, odamlar orasidagi kechishi davomida qiymatlar va ma'nolar qo'llaniluvchi va shakllanuvchi o'zaro munosabatlar jarayonining o'zini kiritish mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda, madaniyat sostiologiyasining o'rganish ob'ekti sifatida inson mavjudligining moxiyatga oid muxiti va ijtimoiy o'zaro munosabatlar soxasining o'zaro ta'sirini ifodalash mumkin.

Madaniyat sarchashmalarini "inson tabiati"ning o'ziga xos xususiyatlarida izlash lozim. Inson o'z moxiyatiga ko'ra madaniy mavjudotdir. Eng yirik zamonaviy antropolog Klifford Girst quyidagicha yozadi:

Bir xujayrali xayvonlarning o'zini tutish patternlari axamiyatli ravishda ularning fiziologiyasi bilan bog'liq; axborotning genetik manbalari ularning xarkatlarini o'zgarishlarning axamitli darajadagi kichik soni bilan modellashtiradi, va ular qanchalik kichik bo'lsa va ular qanchalik kam miqdorda izchil bo'lsa, ushbu xayvonlar rivojlanishning shunchalik past pog'onasida joylashadi. Insonda

esa ichki jixatdan garchi axamiyatli ravishdagi plastiklik mavjud bo'lsa-da, eng umumiy javob xarakatlar mavjud... ular uning xarakatlarini faqatgina taxminan tartibga soladilar... bunda ular madaniyat patternlari bilan – belgilovchi ramzlarning tartibli tizimlari bilan boshqarilmaganida – inson o'zini boshqarilmaydigan tarzda tutgan bo'lar edi, uning xulqi ma'nosiz xarakatlarni va betartib xissiyotlarni anglatgan, uning tajribasi esa umuman tartibga solinmagan bo'lar edi. Madaniyat, bu kabi patternlarning to'plangan yig'indisi, – bu nafaqat inson mavjudligining bezagi, balki bu – va bu uning o'ziga xos xususiyatini aniqlash uchun o'ta muxim – muxim shartidir.

Bu kabi qarashni qo'llab-quvvatlashning eng ishonchli argumenti... insonning kelib chiqishi deb nomlash qabul qilingan narsani: ya'ni aynan boshqa primatlardan Homo sapiensni ajratib ko'rsatilganligini anglashni aniqlab bergan kashfiyotlardir. Uchta kashfiyot o'ta muxim axamiyatga ega bo'lgan: 1) jismoniy evolyusti va insonning madaniy rivojlanishi o'rtasidagi munosabatlar tabiatiga izchil jarayon sifatida qarashdan voz kechish va mazkur jarayonning birlashtirishi yoki o'zaro munoabati sifatida tan olinishi; 2) zamonaviy insonni yaratgan biologik o'zgarishlarning asosiy omili markaziy asab tizimida, ayniqsa bosh miyada sodir bo'lganligini aniqlash; 3) inson fiziologiya nuqtai nazaridan to'liq bo'lmagan, tugallanmagan xayvon ekanligini tushunish; va eng asosiysi, uni xayvondan ajratib turuvchi narsa, bu uning o'qish qobiliyati emas (bu xaqiqatan xam g'aroyib), balki, uning mustaqil ravishda xarakatlanishi uchun qanchalik ko'p narsani va aynan nimani o'rganishga majbur bo'lishidir.

7. MADANIYAT VA STIVILIZASTIYA

Madaniyat va stivilizastiya bir – birlari bilan chambarchas bog'liq tushunchalardir. XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida “stivilizastiya” termini mustaxkam ravishda oyoqqa turib oldi va shu asrlarning o'zidayoq ilk bor ko'plik ma'nosida ishlatila boshlandi (stivilizastiyalar, avvaliga Franstiyada so'ngra esa Angliyada amalda qo'llanila boshlandi). “Iqivilizastiya” termini lotin tilidagi *civis* – *grajdanin* va *civilis* – *tegishli* so'zlaridan olingan bo'lib “grajdanlik”,

“grajdanlikka oid”, “grajdanlikka doir”, “grajdaninga tegishli” degan ma’nolarni bildiradi. Uzoq tarixiy rivojlanish bosqichini boshidan o’tkazgan *stivilizastiya* tushunchasi bugungi kunga kelib, biron bir kishilik jamiyati rivojini yoki qachonlardir o’z rivojida ma’lum bosqichga erishgan jamiyatni nazarda tutadi. Shuningdek, bu termin “madaniyat” termini bilan bog’lanib kelganda qarashlar sofliğini, xuquqiy va ijtimoiy tartibning o’rnatilganligini, jamiyat osoyishtaligini bildiradi. Taxminan 5 ming yil burun er sharining ayrim xududlaridagina *stivilizastiya*, ya’ni kishilarning ilk birlashuvi va ularning qonun-qoidasi asosidagi muloqot yuzaga kela boshlagan.

Ijivilizastiya sharoitida madaniyat rivojlanishi yuqori pog’onaga ko’tariladi, natijada yangidan-yangi moddiy va ma’naviy madaniy qadriyatlar yaratiladi.

Xozirda bu tushuncha: “1. Ijtimoiy rivojlanishning yovvoyilik va varvarlikdan keyin keladigan bosqichini;

2. Umuman, kishilik jamiyati rivojlanishining ma’lum bir bosqichini (masalan, neolit davri, kapitalistik yoki hozirgi zamon *stivilizastiyasini*);

3. Ma’lum bir ijtimoiy-iqtisodiy formastiyani (masalan, quldorlik yoki kapitalistik *stivilizastiyalar*);

4. Geografik jixatdan farqlanuvchi xududlarni (masalan, Evropa, Osiyo yoki Yaqin Sharq *stivilizastiyasi*);

5. Diniy mansubligi bilan farqlanuvchi madaniy birliklarni (xristian yoki islom *stivilizastiyasi*);

6. Kelib chiqishi va planetar mansubligiga ko’ra ajraluvchi birliklarni (er *stivilizastiyasini* va erdan tashqari *stivilizastiyalarni*);

7. Etnik mansubligiga ko’ra farqlanuvchi ijtimoiy-madaniy birliklarni (arab yoki xind *stivilizastiyasi*);

8. Makon va zamondan cheklangan jamiyatlarni (qadimgi Misr yoki Vavilon *stivilizastiyasi*) va shu kabi ma’nolarni ifodalash uchun qo’llaniladi.

Ijivilizastiya tushunchasini ijtimoiy rivojlanishning yovvoyilik va varvarlikdan keyin keladigan bosqichini ifodalash uchun ishlatish ma’lum ma’noda o’rinli. Chunki bunday ma’noda ishlatilganda, *stivilizastiya* tushunchasi kishilik

jamiyati rivojlanishining ibtidoiy xolatidan keyingi davrdagi butun xolatini to'raligicha qamrab oladi.”¹⁶ “Bunday yondashuvda stivilizastiya tushunchasi ijtimoiy – iqtisodiy formastiya tushunchasiga nisbatan keng mazmun kasb etadi. Konkret bir xalqqa yoki millatga tegishli bo'lgan va aynan ushbu xalq yoki millat madaniyatini, rivojini bildirayotgan *stivilizastiya* tushunchasini geografik jixatdan o'zga xududda yashovchi xalq yoki millatga nisbatan ishlatish o'rinli emas. (Bu masalaga biz yuqorida, madaniyat shakllari va elementlarini bayon etganimizda to'xtalib o'tganimiz). Masalan, Osiyoda rivojlanishning turli bosqichlarida turgan xalqlar mavjud. Albatta, bir-biriga yaqin bo'lgan geografik makonda yashash ijtimoiy – madaniy xayotda qandaydir o'xshash, umumiy tomonlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ammo, bu vaziyat xar bir xalqni yoki millatni o'z dini, tili, madaniyati, turmush tarziga ko'ra bir – biridan farqlanuvchi mustaxkam birlik, yaxlitlik deb baxolash uchun asos bo'la olmaydi. Stivilizastiya tarixning, jamiyatning sifat jixatidan o'sishining o'ziga xosligini, u yoki bu mamlakat doirasida amal qiladigan, ishlab chiqarish kuchlari, inson faoliyati, madaniyati tomonidan belgilanadigan umumiy ijtimoiy qonuniyatlarning spetifikasini ifodalaydi. Bunday sifat jixatidan o'sish xususiyatlarning yo'qolishi stivilizastiyaning xalokatini anglatadi. Stivilizastiyaning mohiyatini tushunishda unga mansub bo'lgan madaniyatning rolini anglash muximdir. Agar ishlab chiqarish kuchlari stivilizastiyaning moddiy asosini tashkil etsa, madaniyat ijtimoiy xayotning barcha soxalarini qamrab oladi, uning qiyofasini, o'ziga xos rangini belgilab beradi. Xatto, ishlab chiqarish kuchlariga xam o'ziga xos bo'lgan xususiyatni, axamiyatlilik darajasini inom etadi. Bu bilan madaniyat ijtimoiy xayotning tashkiliy vazifasini, ya'ni stivilizastiyaning shakllanishini, mavjud bo'lishi va rivojlanishini belgilab beruvchi o'ziga xos negiz, “matrista” (“matrista” tushunchasi mualliflardan) vazifasini bajaradi. Demak, stivilizastiya madaniyatning konkret namoyon bo'lishini, uning real mavjud xayotini aks ettiradi. Stivilizastiya falsafiy qarashlarida asosiy urg'u axloq – odob va siyosiy nazariya

¹⁶Фалсафа: (Ўқув қўлланма) / Э.Юсуповнинг ум. тахр. ост. – Т.: Шарқ, 1999. 309 б.

muammolariga berilgan bo'lib, insonning axloqiy va fuqarolik burch – vazifalari mutanosibligi ta'limotiga asos soldi.”¹⁷

“*Madaniyat*” tushunchasi bilan “*stivilizastiya*” tushunchasini ko'p xollarda sinonim sifatida yonma-yon ishlatiladi. Bunda, stivilizastiya tushunchasi ostida yaratilgan moddiy va ma'naviy yutuqlar nazarda tutiladi. Lekin, stivilizastiya xaqida yuqoridagi fikrga qarama-qarshi bo'lgan qarashlar xam mavjud. Stivilizastiya va madaniyatni tushunchalarini bir-biriga ilk bor qarama-qarshi qo'ygan olimlar XVIII – XIX asrlarda Germaniyada yashab ijod etishgan.

1919 yilda “Evropaning so'nishi” asarini chop etgan nemis faylasufi Osvald Shpengler stivilizastiya jarayonida G'arbni qat'iy xalokat kutayotganligini bayon etadi. Shpengler nuqtai nazari bo'yicha, stivilizastiya bu – rivojlanishning eng oxirgi pog'onasigacha ko'tarila olgan insonlar tomonidan yaratgan “sun'iy olam” yig'indisidir. Stivilizastiya bu – xalokatning boshi va madaniyatning yakunidir. Stivilizastiya – xayotning izidan o'lim kelganidek, yoshlik ketidan qarilik quvganidek, gullab-yashnash o'z nixoyasi etganidek madaniyatning ketidan quvib yuradigan xodisa va uni bartaraf etib bo'lmaydi.

Madaniyat bu – insoni ma'naviyati, ichki olami, ijodiy qobiliyati, ilxomi va mexr-muxabbatidir. Stivilizastiya esa – bu, noijodiyot, tabiiy bo'lmagan quruqlik va sun'iylikdir. Demak, Shpengler uchun stivilizastiya – bu ijodiyot, ilxomlanish, rivoj va ravnaq belgisi bo'lmish ma'naviy boyish davri o'rniga jamiyatning ma'naviy toshqotishi, ijodining tang xolatga kelishi, ma'naviy bo'shliq davri bilan almashuvidir.

Stivilizastiya – jamiyatning texnik rivojlanishini, progressini bildirsada lekin, bu jarayon quruq, sun'iy, barcha narsani xisob – kitob bilan o'lchaydigan jarayondir. Shuning uchun Shpengler, stivilizastiyani xar qanday madaniyat yakuni, xulosasi deb bilgan. “Shpengler Osvald - nemis idealist – faylasufi, xayot falsafasi vakillaridan biri. U konservativ – millatchilik yo'nalishida publististik chiqishlar qilgan, ammo nemis nastistlarining xamkorlik qilish to'g'risidagi takliflarini rad etgan. Shpengler o'z qarashlarida cheksiz

¹⁷Фалсафа қомусий луғат. (Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров). – Т.: Шарқ, 2004. 246 б.

kengayishga qaratilgan organik xayot tushunchasidan kelib chiqadi. Madaniyatni u “organizm” sifatida talqin qiladi. Uningcha, bu yagona umumiysoniy madaniyat yo’qligini va bo’lmaganligini ko’rsatadi. Shpenglarning ta’kidlashicha, xar bir madaniy “organizm” tarixi uning ichki xayotiy stiklidan kelib chiqqan xolda, ming yilcha oldin belgilanadi. Madaniyat xalokatga uchrashi jarayonida stivilizastiyaga aylanadi. Madaniyatdan stivilizastiyaga o’tish esa ijodkorlikdan maxsulsizlikka, shakllanishdan qotib qolishga, qaxramonona tashabbuslardan mexanik “ishga” o’tish bo’ladi. Olim fikricha, stivilizastiya oqibatida badiiy va adabiy ijodga ejtiyoj qolmaydi.”¹⁸

2. Madaniyat kelib chiqishi jixatidanyaxlit xodisadir. Lekin, u xamisha izlanishda, rivojlanish-da bo’ladi. Demak, madaniyat o’z xususiyatiga ko’ra o’zgaruvchandir. Ming yil ichida madaniyat shu darajada o’zgaradiki, bemalol avval vujudga kelgan madaniyat bilan keyingi vujudga kelgan madaniyat o’rtasidagi farqni ko’rish mumkin. Bu davrda yuz bergan o’zgarishlarga qarab xattoki bemalol, bir-birlari bilan o’zaro o’rin almashgan madaniyat shakllarini ajratsak bo’ladi. Shu bilan birgalikda, bir vaqtning o’zida, birgalikda parallel ravishda yashagan turli madaniyat turlari va shakllari xam mavjud bo’lgan. Er.av. V asrda mavjud bo’lgan qadimgi Grestiya madaniyati bilan shu davrda sayyoramizning boshqa nuqtasida umuman boshqa yo’sinda rivojlanayotgan o’zgacha madaniyatning o’rtasida farq bo’lishi tabiiydir.

Umuminsoniy madaniyatning birligini ta’kidlash bilan bir qatorda turli xil madaniyat turlari xam mavjudligini tan olish mumkin. Jaxon madaniyati xam, turli madaniyat turlari xam bir-birlarini inkor etmaydilar, aksincha, ular bir vaqtning o’zida parallel ravishda yashab kelishgan. Insoniyat rivojining qaysidir davrlarida madaniyatning bir necha turga bo’linishi tabiiy bo’lgan: bir madaniyatning ikkinchi madaniyatdan diniy, axloqiy qarashlar sistemasi, moddiy va ma’naviy madaniyat shakllari orqali farqlangan. O’tmish orqali davr jaxon madaniyati xaqida gap ketganda uni turli xil madaniyatlar yigindisi, majmuasi sifatida tasavvur qilish xaqiqatga yaqinroq bo’ladi.

¹⁸Фалсафа қомусий луғат. (Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров). – Т.: Шарқ, 2004. 454 б.

Shpengler g'oyalari "Evropani so'nishi" (1918 yil) asaridan so'ng mutaxassislar orasida mashxur bo'lib ketdi. Danilevskiy g'oyalari xam Shpenglernikiga yaqin bo'lsada bu olinga mashxurlik yulduzi kam kulib boqdi. Sababi, Danilevskiy o'z qarashlarini Shpenglarga nisbatan yarim asr avval bayon qilgan bo'lib, bu davrda esa Evropa axolisining ongi, dunyoqarashi xali bu g'oyalarni qabul qilishga tayyor emas edi.

Shunga qaramay Danilevskiy nazariyasi xam ziyolilar tomonidan e'tiborsiz qolmadi. Olimning "Rossiya i Evropa" (1871) asari chop etilgandan so'ng ayrim mutafakkirlar ijobiy, ayrimlari esa tanqidiy fikr bildirishdi.

Danilevskiy nazariyasining boshlang'ich prinstipi bu – mustaqil madaniy-tarixiy shakllarni o'rganish davomida ularni biologik organizmga o'xshatish va bu o'xshatish orqali madaniy-tarixiy shakllarning rivojlanganlik darajasini kuzatish bo'lgan. Ya'ni, madaniy-tarixiy shakllar tirik organizm kabi xamisha bir-birlari va atrof-muxit bilan o'zaro kurashda bo'ladilar; biologik turlar kabi ular xam oldindan belgilangan kuchga to'lish, qarish va o'lish kabi bosqichlarni bosib o'tadilar. Danilevskiy fikricha tarixning xayot yo'li – bu madaniy-tarixiy shakllarning o'zaro kurashib, bir-birlarini siqib chiqazishdan iborat bo'lgan yo'ldir. Danilevskiy quyidagi madaniy-tarixiy shakllarni yoki boshqacha aytganda, ilk stivilizastiyalarni ajratib ko'rsatadi; 1. Misr, 2. Xitoy; 3. Vavilon (Bobil); 4. Xind; 5. Eron; 6. Evropa; 7. Grek; 8. Rim; 9. Arab; 10. German-roman yoki Evropa deyish xam mumkin. Bu asosiy madaniy-tarixiy yoki ilk stivilizastiya shakllarga Danilevskiy yana ikkita amerikacha shakllarni xam qo'shadi. Bular: Meksika va Peru tarixiy-madaniy shakllari yoki ilk stivilizastiyalari. Oxirgi ikki madaniyatning tugatilishi XVI asrga kelib ro'y bergan va buning asosiy sababi Amerikaga ispan bosqinchilari kirib kelishi bo'lgan.

Shpengler nazariyasi Danilevskiy g'oyalari bilan ko'p jixatdan bir-birlariga mos tushsada, lekin Shpengler o'z nazariyasida madaniy-tarixiy shakl tushunchasini ishlatmaydi, aksincha, u stivilizastiyani rivojlanish natijasida vujudga keladigan bosqich deb, ya'ni uni madaniyat ketidan keladigan xodisa, jarayon deb biladi. Shpengler yoshini yashab bo'lgan yoki rivojlanishda to'xtab,

qotib qolgan 8 ta stivilizastiyalarni ko'rsatib o'tadi. Shpenglarning fikricha, aynan bugungi kunda g'arbiy Evropa o'zining ma'naviy - madaniy rivoji yo'lidagi ijodiy bosqichini yakunlab, tugallab bormoqda, shuning uchun u XX asrni Evropa nixoyasining boshlanishi, deb izoxlaydi.¹⁹

Nazorat uchun savollar

1. Madaniyat va stivilizastiya tushunchalariga izox bering?
2. "Evropaning so'nishi" asarida kim tomonidan G'arbni qat'iy xalokat kutayotganligi bayon etildi?
3. Shpengler nazariyasini izoxlang?

8. XX ASRDA MADANIYAT SOʻIIOLOGIYASI VA SOʻIIOLOGIK BILIMLAR

XX asrning ikkinchi yarmida ko'plab tadqiqotchilar zamonaviy, iqtisodiy va texnologik jixatdan eng rivojlangan jamiyatlar yangi sarxadlarga etib kelganligini aloxida ta'kidlab o'tganlar. Klassik "modern" davri - zamonaviylik o'rniga yangi davr keldi, bunda turli tadqiqotchilar uni belgilash uchun turlicha atamalardan foydalanadilar. Deniel Bell "postindustrial jamiyat" xaqida gapirgan. Olvin (Alvin) Toffler - "ustunindustrial" jamiyat xaqida gapirgan. Ular uchun yangilikning asosiy omili texnologiya va iqtisodiyotdagi o'zgarishlar (jumladan, ishlab chiqarish, sanoat bo'g'ini bilan qiyoslaganda xizmat ko'rsatish bo'g'inining o'sib ketishi) bo'lgan. Zbigneu Bjezinskiy "texnotron" atamasini qo'llagan. Axborot texnologiyalarining axamiyatini va mazkur texnologiyalarning tarqalishi bilan bog'liq bo'lgan axborot xajmining ortib ketayotganligini aloxida ta'kidlovchi "axborot jamiyati" atamasi keng tarqalmoqda. Axborot jamiyatining eng ko'p o'rganilgan konstepstiyasi Manuel Kastels tomonidan taklif qilingan. Va nixoyat, qator tadqiqotchilar (J.F.Liotar, Frederik Djeymson (Djeymison), Zigmunt Bauman va boshqalar) zamonaviylikning o'rniga kelgan "zamonaviylikdan keyingi jamiyat" yoki "postmodern xolati" xaqida gapira boshladilar.

¹⁹Qarang: Э. Ахмедова, Р. Габидулин. Культурология. Мировая культура. Т.: Акад. Худ. Узб. 2001.

"Postindustrializm", "postmodernizm", "axborot jamiyati" aynan bir davrga mansub bo'ladi: XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrning boshlariga. Biroq bu atamalar - sinonimlar emas. Aynan shu davrni belgilash uchun yuqorida sanab o'tilgan atamalar bilan bir qatorda "xavf jamiyati (Ulrix Bek)", "yuqori yoki kechki zamonaviylik" (Entoni Giddens) kabi tushunchalar xam qo'llaniladi. Agar ayrim tadqiqotchilar zamonaviylik va zamonaviylikdan keyingi davr o'rtasidagi uzilishni aniq ta'kidlasalar, boshqalari - uzilish faktini inkor qiladilar, va "kechki zamonaviylik"ning shubxasiz yangi jixatlarini tan olgan xolda ikki davrning izchilligini ta'kidlab o'tadilar. Boshqa nuqtai nazarlar xam mavjud. Yurgen Xabermas, masalan, "modern loyixasining yakunlanmaganligi" xaqida gapiradi.

Ushbu tadqiqotchilikdagi "kelishmovchiliklar" o'z-o'zidan etarli darjada ko'rgazmalidir. U zamonaviy ("kechki zamonaviy" yoki "postzamonaviy") jamiyatlar o'zlarining shaxsiy moxiyatiga nisbatan noaniqlik xolatini tasvirlash uchun xizmat qiladi. Noaniqlik esa - birinchi navbatda madaniyat muammosidir.

Sostiologiya doimo multiparadigmali fan bo'lgan. XX asr oxirlarida ijtimoiy fanning mazkur o'ziga xos xususiyati yanada aniqroq namoyon bo'la boshladi, chunki ilmiy fan bir qismi bo'lgan madaniyat tabiatining o'zi o'zgarib bora boshladi.

Daniel Bell postindustrial jamiyat madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari xaqida

D.Bell postindustrial jamiyating ta'sir kuchi eng yuqori bo'lgan konstepstiyasini ishlab chiqqan. U mazkur jamiyatning quyidagi asosiy jixatlarini ajratib ko'rsatgan:

1. Nazariy bilimning markaziy roli.
2. Bilim tashuvchilari sinfining o'sishi (mutaxassislar va professionallar).
3. Maxsulotlarni ishlab chiqarishdan xizmatlarni ishlab chiqarish tomongan.
4. Mexnat tabiatidagi o'zgarishlar. Agar industrial jamiyatda mexnat - bu "ko'rinishi o'zgargan" tabiat bilan o'zaro munosabat bo'lsa, postindustrial jamiyatda mexnat boshqa odamlar bilan, avvalambor, xizmat ko'rsatishning ustun

soxasida boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatga aylanadi.

5. Fanning institutstionallashtirilishi, uning "etuk" xolati.

6. Texnologik o'sish, axborot texnologiyalarining aloxida axamiyatga egaligi (mazkur jixat bilan bog'liq ravishda postindustrial jamiyatni shuningdek, "axborot" yoki "texnotron" jamiyat deb xam ataydilar).

7. Tengsizlik tuzilmasining o'zgarishi.

Bell boshqa qator jixatlarni xam ajratib ko'rsatadi, biroq bu erda bizni asosan postindustrial jamiyat madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari qizqtiradi. Bell postindustrializmga o'tish jarayonida sodir bo'ladigan madaniyat o'zgarishlari ijobiydan ko'ra ko'proq salbiy tabiatga ega bo'ladi, deb xisoblaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, Bell madaniyat soxasini texnik-iqtisodiy va siyosiy soxalardan nisbatan uzoqroq soxa, deb xisoblaydi. Tabiiyki, mazkur soxalar o'zaro bir-biriga bog'liq va bir-biriga ta'sir ko'rsatadi, biroq ular shaxsiy o'ziga xos prinstiplariga muvofiq ravishda rivojlanadi. Texnik-iqtisodiy soxa yaxlit bir tizimni aks ettiradi, chunki ning barcha elementlari o'zaro bir-biri bilan bog'liq va o'zaro aloqador...

Siyosiy tuzum tizim xisoblanmaydi. Bu qoidalarning konstitustiyada, yoki teokratik davlatlarda, - muqadas yozuvlarda yoki an'ana va marosimlarda rasmiylashtirilgan majmuidir...

Madaniy soxa – bu qiymatlar soxasidir: adabiyot va san'atda, diniy va falsafiy ta'limotlarda kodlashtirilgan ma'naviy va axloqiy tushunchalarda o'z ifodasini topgan tasavvurlardir.

Bellning fikricha ko'plab sostiolog-klassiklar uchun (ular orasida Bell K.Marks, M.Veber, P.Sorokin va T.Parsonslarni ajratib ko'rsatadi) jamiyatni ijtimoiy tuzilma va madaniyat birligi sifatida qabul qilish xosdir. Biroq Bellning fikriga ko'ra XX asr davomida kapitalistik jamiyatlarda "ijtimoiy tuzilmaning (iqtisodiyot, texnologiya va bandlik tizimining) va madaniyatning (ma'nolarni ramziy ifodalanishi) bo'linib ketishi" xolati ortib bormoqda. Ijtimoiy tuzilma formal rastionallik va samradorlik prinstipiga asoslanadi, madaniyat ildizlari esa "shaxs rivojlanishini antinomik oqlash"ga borib taqaladi. Madaniyat, shaxsning

istaklari va talablariga e'tibor qaratar ekan, shaxsning rasmiyatchilik, samaradorlik, kalkulyastiyalan va xokazolarga bo'ysunishini talab etuvchi tuzilmaga oid prinstiplar bilan qarama-qarshilikka kirishadi. Shaxs jamiyatning tuzilmaga oid o'lchamlarini raqib va begona narsa sifatida qabul qiladi. XIX asrda Bellning fikriga ko'ra, mazkur ajralish mavjud bo'lmagan.

Madaniy qiymatlar va qadriyatlar ijtimoiy tuzilmaning asosini xosil qiluvchi prinstiplarini inkor qilmagan, balki qo'llab-quvvatlagan (ramiylashtirgan). Biroq kapitalizmning moddiy farovonlikka olib keluvchi va iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri sifatidagi lazratlar orqasidan quvishga majbur qiluvchi rivojlanishining o'zi insonni o'zini cheklashni istamaydigan gedonistga aylantirib qo'yadi. Muammo shundan iboratki, iqtisodiyotga nafaqat beparvo iste'molchi emas, balki avvaldagidek intizomlilik, oqilona fikrlaydigan xodimlar talab etiladi.

Madaniyatning "antinomikligi" faqatgina XX asr G'arb madaniyatlarining o'ziga xos xususiyati xisoblanmaydi. U muayyan tarixiy davrlardagi ko'plab madaniyatlarga xos va "Men"ning "chegaradan chiqishga intilishi" tafayli vujudga keladi": "men"ni cheksizlikka etkazish yoki uni butga sig'inish ob'ektiga aylantirish"; "abadiylik yoki qudratlilikni tasdiqlash". Mazkur istaklarning manbalari, Bellning fikriga ko'ra, o'lim xaqiqatini engib o'tishga urinishlarni keltirib chiqaruvchi inson tabiatining cheklanganligida yotadi.

Mazkur kayfiyatlar o'zini qadimgi davrlarda dionisiy bazmlarida namoyon qilgan, ilk xristianlik davrida, o'zini axloqiy qonunlar oldidagi majuriyatlardan erkin deb xisoblagan gnostistizm da namoyon qilgan. Zamonaviy jamiyatda mazkur psixologik solipsizm burjuaziya jamiyatining impulsiv istaklarni ixtiyoriy ravishda ifodalashga repressiv cheklovlar qo'yishga bo'lgan urinishlariga juda g'ijinib ta'sir ko'rsatgan. XIX asrning antinomik impulsi o'zining madaniy ifodasini romantizm "maqtanchoqlik", "estetizm" va tabiiy insonni, va xattoki "men"ni jamiyatga qarama-qarshi qo'yuvchi boshqa ko'rinishlari sifatidagi burjuaziyag qarshi oqimlarda topdi... XIX asrda o'ta shaxsiy va yopiq bo'lgan narsalar XX asrning modernizmi shu'lasida ijtimoiy va mafkuraviyga aylandi. Modernizm g'alabasi bilan zamonaviy madaniyat antiinstitutional va antinomik madaniyatga aylandi...

Bell bu kabi qarashlarning tasdiqlanishini “tanqidiy g’oyalar”ning kelib chiqishiga sabab bo’luvchi intellektuallar sinfining o’sishi, shuningdek, “o’z-o’zini namoyon qilish va o’z yo’lini aniqlashni tafakkurning o’zgargan shakllarida, madaniy qo’zg’oloni va cheksiz shaxsiy erkinlikda izlashi” bilan bog’laydi. Bell XX asrning 60-yillarida barcha g’arb mamlakatlarini, biroq ayniqsa AQShda o’ta faol bo’lgan Madaniyatga qarshi mashxur xarakatni nazarda tutadi.

Madaniyatga qarshi xarakat davri qaysidir ma’noda G’arb jamiyatlarining keskin o’zgarishiga sabab bo’ldi. Aynan madaniyatga qarshi xarakat shaxsning o’z-o’zini namoyon qilishning avvallari faqatgina “iloxiy” zodagonlar va intellektuallar qismiga xos bo’lgan qadriyatdan, postindustrializm davri madaniyatiga xos bo’lgan asosiy qadriyatlardan biri bo’lgan “ommaviy” qadriyatga aylantirdi. Postindustrializ davrida avvalroq “madaniyat” va “tuzilma” o’rtasidagi uzilish sifatida namoyon bo’lgan xolat xalokatli tabaitga ega, chunki jamiyat tuzilmasi xar qanday madaniy asosni yo’qotadi. Boshqa so’zlar bilan aytganda, madaniyat o’zining asosiy ijtimoiy vazifalaridan biri bo’lgan ijtimoiy tartibni rasmiylashtirish vazifasini yo’qotadi.

Insonni xarakatga keltiruvchi asosiy kuchlardan biri xayot mazmunidan xabar beruvchi va o’limning ma’nosizligini inkor qilish imkonini beruvchi e’tiqodlar tizimi va ijtimoiy institutlarini yoritishga intilish xisoblanadi. Postindustrial jamiyatlar o’zini fanga xizmat qilishga baxsh etgan kamchilikdan tashqari, transstendental axloqni ta’minlash imkoniyatiga ega emas.

Antinomik kayfiyatlar esa, jamiyat bilan bog’lab turuvchi alqoalarni parchalab yuboradigan, va o’ziga o’xshashlar guruxiga mansublik xissini yo’q qiqilib yuboradigan, erdagi barcha lazzatlardan keskin voz kechishga olib keladi. Ma’naviy asoslarning mustaxkam o’rnashib ketgan tizimi mazkur jamiyatning madaniy ziddiyati, unga tomon qaratilgan eng kuchli da’vat xisoblanadi.

D.Bell tomonidan ishlab chiqilgan postindustrial jamiyat konstepstiyasi postindustrial davrning nisbatan ertaroq davrga – industrial jamiyatga nisbatan meros qilib olishlik munosabati mavjud ekanligini tan olgan. Postindustrial jamiyatning madaniy o’ziga xos xususiyatlari shuningdek, kapitalizm davrida g’arb

madaniyatining rivojlanishi bilan organik bog'liq. Biroq XX asrning ikkinchi yarmida XIX asr oxirlarida va XX asr boshlarida shakllangan jamiyat turlari (zamonaviylik, modern) va taxminan XX asrning o'rtalarida paydo bo'lgan (zamonaviylikdan keyingi, postmodern) jamiyat o'rtasidagi uzilishni ochib beradigan nazariy yo'nalish katta ta'sir kuchiga ega bo'ldi.

Postmodernistik nazariyashtirish doirasida madaniy problematika birinchi o'ringa iqib qoladi. Chunki zamonaviylik va zamonaviylikdan keyingi davr o'rtasidagi farqlar aynan madaniyat soxasida namoyon bo'ladi.

Postmodernizmning qisqacha ta'rifi

Postmodernizm ijtimoiy xayotni madaniyatshunoslik nuqati nazaridan o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqot yo'nalishi sifatida vujudga keldi va u ob'ektiv ravishda chiqib kelgan madaniyat soxasi o'zining boshqa ijtimoiy soxalar orasidagi nafaqat aloxida, balki ustun o'rni xaqida e'lon qilganda keng ravishda qo'llanila boshladi.

Madaniyatshunoslikka oid tuzilmalarga bog'lanib qolganligiga qaramasdan postmodernizmni faqatgina u tomonidan yaratilgan, deb xisoblash unchalik to'g'ri emas. "Postmodernizm" tushunchasining o'zi madaniyatshunoslikka oid va sostsiologik asarlarda deyarli bir vaqtning o'zidayoq paydo bo'lgan. 1934 yilda, Frederiko de Oniz birinchi marotaba "postmodernismo" atamasini qo'llaganda tarixchilar va sostsiologlar butun zamonaviy davrni post-modern davri sifatida qabul qilishga tayyor bo'lib qoldilar.

Urushdan keyingi yillarda adabiyot va san'atda positmodernistik an'analarni o'rganish... mazkur tushunchaning faylasuflar va sostsiologlar tomonidan keng tarzda qo'llanilishi bilan birga kechgan...

Postmodernizm ijtimoiy fanlarning turli yo'nalishlarining va san'atning turli soxalari vakillarining, inson faoliyatining tor shakllarini ajratib ko'rsatish endi maqsadga muvofiq bo'lmay qolgan sostiumning kompleksligining ortibketishiga tabiiy munosabati bo'lgan.

Postmodernizmning kelib chiqishining mavjud qarashlaridan biri shundan

iborat. Boshqa nuqtai nazarlar xam mavjud. Qarashlarning xilma xilligi, postmodernizm ijtimoiy-madaniy muxitning o'zgarib ketganligi sababli paydo bo'lgan ko'plab ijtimoiy-madaniy omillarning o'zaro birikishi oqibati bo'lgan, va "postmodernizm" atamasini kim va qachon birinchi bo'lib qo'llaganligi u qadar muxim emas.

Postmodernizm – bu avval boshdanoq jamiyatning turli soxalari va "tarmoq tizimlari"ning mustaqilligiga katta axamiyat bermaydigan ijtimoiy-madaniy voqelik xaqidagi yangi tasavvurlar bilan bog'liq bo'lgan gumanitar bilim doirasidagi fanlar orasidagi aniq chegaralarni tan olmaydigan nazariy yondashuvdir. Mazkur yondashuv, jumladan, "madaniy" va "ijtimoiy" o'rtasidagi aniq chegaralarning yuvilib ketishida xam namoyon bo'ladi. Bu kabi yondashuv Bellning yuqorida ta'riflab o'tilgan, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy kabi soxalarning mustaqillik prinsipini ximoya qilagn yondashuviga zid. XX asrning ikkinchi yarmida postmodernizm qator o'ziga xos xsusiyatlarga ega bo'lgan, o'zining dunyoqarashini "klassik zamonaviylik" dunyoqarashiga keskin ravishda qarama-qarshi qo'yadigan o'ziga xos dunyoqarashga aylanib ketdi.

Postmodernizm fikr yo'nalishi sifatida zamonaviylikning ildizlari Ma'rifat davriga borib taqaluvchi rastionalistik dunyoqarashiga qarshi turadi. Postmodernistlar inson xulqiga oqilona izoxlar topishdan bosh tortadilar, dunyoni izoxlashning qandaydir universal modelini yaratish imkoniyatini inkor qiladilar. Keng ko'lamli, tarixiy jarayonni izoxlashga da'vogar bo'lgan ijtimoiy nazariya, va ayniqsa, kelajakni avvaldan ko'ra bilish mumkin emas. Mark yoki Parsonsning nazariyalariga o'xshash bo'lgan ijtimoiy nazariyalarni postmodernizm tarafdorlari, asl dunyoni ta'riflashdan ko'ra ko'proq uni ustun fikrlardan, yoki tadqiqotchilarga tegishli bo'lgan fikrlardan kelib chiqqan xolda yaratuvchi, "tuzilmalashtiruvchi" "buyuk rivoyatlar", "metanarrativlar" (J.Liotar atamasi) sirasiga kiritadilar. XX asr tarixi barcha "buyuk rivoyatlar"ning xatoligini ko'rsatdi. Xaqiqatan xam dunyo urushlari, inqiloblar va totalitar rejimlar, mantiqsiz millatlararo va dinlararo nizolar, terror – bularning barchasi u yoki bu miqyosdagi ijtimoiy loyixalarga yoki mazkur loyixalar qansidir "buyuk rivoyatlar" yoki mafkuralarga bog'lanib

qolishning xalokatli ekanligini ko'rsatadi.

Postmodernistlar ob'ektiv haqiqat va universal ta'riflovchi modellarni izlashdan bosh tortadilar. Ular relyativizm tarafdorlari sifatida namoyon bo'ladilar. Biroq haqiqiy va mantiqan yakunga etkazilgan relyativizm postmodernizmning o'zini xam ma'nosizlantiradi. Ular voqelikning to'liq izoxiga talabgor emas, biroq uning xilma xil, o'zgaruvchan va qo'nimsiz xodisalar bilan shug'ullanadilar.

Postmodernistlar zamonaviy dunyoning ulkan madaniy xilma xilligiga o'z e'tiborlarini qaratadilar. Aynan zamonaviylikdan keyingi davr insonining ramziy yashash muxitini tashkil etuvchi g'oyalar, namunalar va qiymatlar ko'p jixatdan postmodernistlarning voqelikni to'g'ri izoxlarini izlashdan bosh tortishlarini izoxlab beradi. Ular oldida – voqelikning o'ta ko'p varinatlari mavjud. Ularning qaysi biri “to'g'ri” ekanligini kim aniqlab berishi mumkin? Postmodernistik dunyoqarashning o'ziga xosligi voqelik tabiatining o'zini tushunib olishdan iborat. Voqelik “o'z-o'zidan” mavjud bo'la olmaydi. Uning faqatgina qiymatlar vositasida, ya'ni til vositasida yaratiluvchi ko'p sonli turlari mavjud.

Frenk Uebster postmodernizmning intellektual oqim sifatidagi quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatgan:

- Yangi davrga, uning qadriyatlari va urf-odatlariga xos bo'lgan fikrlash namunalarini qabul qilmaslik;
- haqiqatni o'rnatishga nisbatan xar qanday tanqidlarni qabul qilmaslik, chunki faqatgina uning turlari mavjud;
- asliga muvofiqlikka (autentiklik) intilishni qabul qilmaslik, chunki barcha narsalar autentik emas;
- ma'noni aniqlashga intilishni qabul qilmaslik, chunki ma'nolar xisobsiz darajada ko'p, va bu ma'noni izlashning o'zini noto'g'ri ekanligini ko'rsatadi;
- sub'ektlar orasidagi farqlarni tasdiqlashning o'zidan qoniqish: ta'riflarda, qadriyatlarda va usullarda;
- lazzatlanishga, refleksiyalanmagan xayot tajribasini orttirishga aloxida e'tibor qaratish;
- yuzaki narsalardan, tashqi ko'rinishdan, xilma-xillikdan, o'zgarishlardan,

taqlid va uslubiylashtirishlardan lazzatlanish;

- oddiy odamda ijodiy ibtido va tasavvurlar o'yinining maqjudligini va mazkur xolatga asoslangan inson xulqining deteministik nazariyalarini e'tiborga olmaslikni tan olish.

"Zamonaviylikdan keyingi" yoki "postmodern" atamasi sostiologiyada bir nechta ma'nolarda qo'llaniladi. Birinchidan, "zamonaviylikdan keyingi davr", "zamonaviylikdan keyingi jamiyat" ta'riflanadi va taxlil qilinadi. Ikkinchidan, nazariy yo'nalish va madaniyat xodisasi sifatidagi "postmodernizm" ta'riflanadi. Uchinchidan, o'ziga xos "postmodernistik sostiologiya" yoki "postmodernistik ijtimoiy nazariya" shakllanadi, uning vazifalari va usullari uni "zamonaviy sostiologik nazariya" yoki "klassik sostiologiya" ajratib turadi.

Zamonaviylikdan keyingi davrning madaniy jixatlari

Brayan Tyorner zamonaviylikdan keyingi davr jamiyatini "barcha boshqa narsalardan tashqari ierarxik farqlarni xar qanday ravishda aniq vo'llab-quvvatlashning oldini oluvchi, madaniy uslublar aralash, birlashib ketgan va egiluvchan jamiyat", sifatida ta'riflaydi. Postmodern madaniyat - refleksiv va o'yinga oid - xayot usullari va madaniyatlarining mtandartlashtirilishiga qarshi turadi.

Postmodernistik nazariyachilar fikriga ko'ra oliy madaniyat va quyi madaniyat o'rtasidagi (va o'z navbatida, oqsuyaklar va omma o'rtasidagi) an'anaviy chegaralar parchalana boshladi".

Zigmunt Baumanning ta'kidlashicha, postmodern vaziyatning eng ahamiyatli jixatlari **"institutionallashtirilgan plyuralizm, xilma xillik, tasodifiylik va ambivalentlik"** xisoblanadi¹¹². Mazkur jixatlar modernga xos bo'lgan **"universallik, bir turlilik, bir ko'rinishlilik va aniqlikka"** intilishlarga diametral ravishda qarama-qarshi bo'lgan. Zamonaviylikdan keyingi vaziyatning boshqa bir muxim jixati - **"refleksivlik"** va **"o'z-o'zini anglash"** xisoblanadi. Ijtimoiy-madaniy muxitning qo'nimsizligi, o'zgaruvchanligi, ko'p turliligi xolatida

ijtimoiy arboblarning refleksivligining ahamiyati tobora ortib boradi. Xech narsa berilmagan va to'laqonli ravishda aniqlanmagan, xech narsa shaxsan aniqlik tabiatiga ega emas. Xar bir individuum atrofdagi borliqqa, xech bir nuqtai nazar absolyut, deb tan olinishi mumkin emasligini bilgan xolda aniqlik kiritishga majbur bo'ladi.

Postmodern muxit refleksivlikning uzluksiz oqimidir. Ushbu postmodern muxitning tuzilmalashtirilgan va abadiy bo'lmagan shakllari, ularning o'zaro munosabatlari va izchilligi uchun mas'ul bo'lgan ijtimoiylilik, - bu diskursiv faoliyat, ta'riflash va qayta ta'riflash faoliyatidir...

Baumanning ta'kidlashicha, "postmodern "modernning me'yoriy xolati"dan og'ishga o'tish emas"... Aksincha, bu o'z-o'zidan ishlab chiqariluvchi, pragmatik jixatdan o'z-o'zini qo'llab-quvvatlovchi va mantiqiy jixatdan o'z-o'zini ta'minlovchi, o'zining shaxsiy ajratib turuvchi xislatlariga ega bo'lgan ijtimoiy vaziyatdir.

Zamonaviylikdan keyingi jamiyatning to'laqonli konstepstiyasini ishlab chiqqan mualliflardan biri marksistik qarashlar yo'nalishida tadqiqotlar olib borgan amerikalik tadqiqotchi Frederik Djeyms (Djeymson) bo'ladi. Biz Djordj Ritster tomonidan taqdim qilingan ta'rifga asoslangan xolda uning qarashlarini bayon qilamiz.

Frederik Djeyms postmodernizmni madaniyatning kechki kapitalizm tomonidan vujudga keltirilgan yangi mantiq'i sifatida o'rganadi. Djeyms zamonaviylik va zamonaviylikdan keyingi davr o'rtasidagi izchillikni ko'ruvchi va "postmodernizm" atamasi avvalambor madaniyatga tegishli, deb xisoblagan mualliflar sirasiga kiradi.

Zamonaviylikdan keyingi davr jamiyati, uning nazdida, bu kapitalizmning nisbatan erta shakllariga xos bo'lgan muxim madaniy o'ziga xosliklarga ega bo'lgan kapitalistik jamiyat bo'lgan.

Djeyms zamonaviylikdan keyingi davrning quyidagi jixatlarini ajratib ko'rsatadi (aniqroq aytadigan bo'lsak, ushbu jamiyat madaniyatlarini):

- chuqurlikning mavjud emasligi, dunyoga yuzaki qarash;
- xissiyotlarning kuchsizlanishi;
- tarixiylikning yo'qolishi;
- ishlab chiqaruvchi emas, balki ovozlashtiruvchi texnologiyalarning ustunligi.

Zamonaviylikdan keyingi davrga xos bo'lgan *chuqurlikning mavjud emasligi* san'atda yaqqol namoyon bo'ladi.

Zamonaviylikdan keyingi davr san'ati murakkab mavzulardan qochadi, o'z qaxramonlarining tabiati va psixologiyasini taxlil qilishga moyil emas. Tashqi xodisalar, sarguzashtlar almashinuvi o'rnini chuqur muammolarni ochib berish bosadigan ko'ngilochar syujetlar ustun turadi. Tasairiy san'at asarlari faqatgina nusxa oladi yoki xattoki voqelikni ko'chirib oladi. Ko'plab asarlarning tashqi g'ayrioddiyligi va ko'zga tashlanuvchanligi ortida xech qanday ma'no yashirinmagan - aniqrog'i, ularning "ma'nosi" ular ko'rsatayotgan narsaga to'liqligicha sig'ib ketadi.

Xissiyotlarning kuchsizlanishi zamonaviylikdan keyingi davr jamiyatlari uchun xos bo'lgan turmush tarzi - bo'laklarga ajratilgan xayot bilan bog'liq. Bo'laklarga ajratish, Djeymsonning fikriga ko'ra, Marks va uning ko'plab izdoshlari tomonidan ta'riflangan begonalashish o'rniga keladi. Begonalashish Marks tomonidan inson va boshqa odamlar, inson va uning shaxsiy mohiyati o'rtasidagi aloqalarning uzilishi sifatida tushunilgan. Kapitalistik jamiyatda inson o'z mehnatining natijalaridan manfaatdor bo'lganligi sababli ishlashga, shakllangan munosabatlar, jumladan, unga tushunarsiz bo'lgan iqtisodiy mantiqqa bo'ysunishga majbur, o'zi yashab qolish uchun doimiy ravishda boshqa odamlar bilan raqobatlashishga majbur. Ushbu omillarning barchasi begonalashish xodisasini keltirib chiqradi. Begonalashishning o'rnini bosuvchi fragmentastiya ijtimoiy muxit va insonning o'zi qismlarga parchalanganda, yaxlitlik xususiyatidan ajralib qolganida, insonning zamonaviylikdan keyingi jamiyatda mavjud bo'lishi mantig'i sababli vujudga keladi. Inson qismlarga ajralar ekan, uning xissiyotlari

xam parchalanadi, uning shaxsini to'liq qamrab olmaydi. Chuqur xissiyotlar o'rniga Djeymson "jo'shqinlik" deb atagan doimiy xayajon keladi. U jumladan, ko'ngilochar mashg'ulotlarni izlashda, nimadir yangi narsa bilan band bo'lishda namoyon bo'ladi.

Tarixiylikning yo'qotilishi zamonaviylikdan keyingi davr insoni o'zining o'tmishini bilishga urinishlardan bosh tortishida namoyon bo'ladi. O'tmish faqatgina u xaqidagi cheksiz ravishda izoxlanuvchi matnlar to'plami sifatida namoyon bo'ladi. Boshqa tomondan, tarixiy syujetlarga berilib ketish, "o'tmishning barcha usullarini tartibsiz ravishda singdirib olish" kuzatiladi. Tarixiy davr xaqidagi yaxlit tasavvurlar o'rniga tarixiy mavzularga oid qandaydir "poppuri" mavjud bo'ladi. (Mazkur jixatdan bugungi kunda ommabop bo'lgan "tarixiy detektiv" janrini namuna sifatida ko'rsatsa bo'ladi).

Ishlab chiqaruvchi emas, balki qayta tasvirlovchi texnologiyalarning ustunligi. Mazkur jixatni ajratib ko'rsatar ekan, Djeymson zamonaviy davrdan keyingi jamiyatda turli ko'rinishdagi axborotni tarqatish - televidenie, kompyuterlar bilan bog'liq bo'lgan texnologiyalar katta axamiyatga ega ekanligini nazarda tutadi. Ushbu texnologiyalar nisbatan ertaki, maslan avtomobillarni yig'ish konveyeri kabi texnologiyalardan farqli ravishda "ishlab chiqarmaydilar", balki tasvirlaydilar. Tasvirlovchi texnologiyalar madaniyatning mavjud bo'lishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi, "madaniy maxsulotning" - ko'p xollarda inson anglab olish imkoniga ega bo'lmagan obrazlar, belgilar, ramzlarnining cheksiz xilma xilligiga olib keladi.

Belgilarni qayta ishlab chiqarish, axboro portlashi muammosi - zamonaviylikdan keyingi davr bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar uchun markaziy muammo xisoblanadi. Xech bir muallif, garchi axborotning ortib borishi turlicha baxolansa-da, mazkur muammonicheklab o'tmaydi. Jan Bodriyar, fransuz tadqiqotchisi, zamonaviylik va zamonaviylikdan keyingi davr o'rtasidagi keskin uzilish g'oyalari tarafdori belgilar xajmining ortib borishiga katta axamiyat bergan. U zamonaviylikdan keyingi davrda inson belgilarning shunchalik ko'p soniga duch

keladi-ki, ular xatto voqelikni xam to'sib qo'yadilar. Bordiyar zamonaviylikdan keyingi davr kontekstida "real" va "noreal"ning farqlari xaqida gapirish ma'nosiz - u yo'qolib boradi, deb xisoblaydi. Belgilar ular ortida yashiringan qandaydir ob'ektlarni emas o'z-o'zini belgilaydi. Bordiyar quyidagicha yozadi:

Biz aslida *xech qanday ma'noni etkazib bermaydigan* obrazlarni ortiq darajada ishlab chiqaramiz. Bugungi kunda televidenie, rassmochilik, plastik san'at etkazib beradigan obrazlarning ko'pchiligi, audiovizual obrazlar yoki sintetik obrazlar - ularning barchasi bugungi kunda xech qanday ma'noga ega emas. Shu kabi xech bir ma'noga ega bo'lmagan belgilardan tashkil topgan voqelikni Bordiyar "gipervoqelik" deb nomlaydi. Gipervoqelikning rivojlanishida asosiy o'rinni albatta OAVlari egallab turadi. Aynan OAVlari inson uchun "dunyoga oyna" vazifasini bajaradi. Televizor ko'rsatayotgan barcha narsalar real. OAVlari e'tiboriga tushmagan narsalar, xuddi yo'qdek. Biroq ayni vaqtda televizor ko'rsatayotgan narsalar "aslida mavjud narsalar"ni aks ettirmaydi.

Siyosat, ijtimoiy xayot, va xattoki urush omma uni u yoki bu darajada loqaydlik bilan kuzatib turgan spektaklga aylanadi. "Ommaning xukmronligi Bordiyarga ko'ra - ijtimoiylikning odamlar orasidagi barqaror aloqalar muxiti sifatida yo'qolib borishi belgisidir, - va bu zamonaviylikdan keyingi davrning yana bir jixatidir. Qiymat va ma'noning yo'qolishi - bu xaqiqatning yo'qolishi demakdir. Zamonaviylikdan keyingi davr - bu xaqiqat xaqidagi savolning qo'yilishining o'zini xam inkor qiluvchi davrdir. Biroq nafaqat xaqiqat tushunchasi yo'qoladi. Eng kekin zamonaviylikdan keyingi davr tarafdorlarining nuqtai nazaridan voqelikning o'zi xam yo'qoladi. Inson faqatgina belgilarga duch keladi.

Zamonaviylikdan keyingi davrning boshqa apologet (maddox) - Jan-Fransua Liotar, postmodern xolatining asosiy xususiyati bilimning o'ziga xos, o'zgarib ketgan xolati xisoblanadi, deya ta'kidlaydi. O'zining "Postmodern xolati" nomli mashxur kitobida u jamiyatning postindustrial davrga, madaniyatning esa postmodern davriga kirishi bilim maqomining o'zgarishi bilan birga kechadi, deb yozgan.

Bilim maqomining o'zgarishi nisbatan avvalgi davrda bilimni legitimlash uchun xizmat qilgan "metanarrativlar"ga bo'lgan ishonchsizlik; bilimni operastionallashtirish, pragmatizastiyalash, texnologizastiyalash orqali legitimlashning yangi shakllarining paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Zamonaviylikdan keyingi davrda bilimni operastionallashtirish yangi axborot texnologiyalarining tarqalishi bilan bog'liq. Texnologiyalar bilimga qandaydir "texnologik", "mashinaga oid" tabiatni taqdim qilish, bilimni mashinalar vositasida tarqatish mumkin bo'lgan "axborot" tiliga o'tkazish zaruratini taqozo qiladilar. Liotar quyidagicha yozadi:

Texnologik o'zgarishlarning bilimga ta'siri... ko'rinib turganidek, ahamiyatli bo'lishi zarur. Ularga ikkita fundamental vazifa taqdim qilingan va taqdim qilinadi: ma'lumotlarni tadqiq qilish va etkazib berish. ...apparaturani me'yorlashtirgan, o'zgartirgan va tijoratlashtirgan xolda bugungi kunga kelib bilimlarni egallash, ularni tasniflash, zarur shakl va ekspluatasiya qilgan xolda o'zgartirib bormoqdalar. Axborot mashinalari sonining ortib borishi bilimlarni tarqatilishida, xarakat vositalari avval insonning (transport), so'ngra tovush va tasvirlarning o'rnini egallagani (media) kabi o'rinni egallaydi va egallashi mumkin, deb taxmin qilinishi tabiiy.

Bilim tabiatining bu kabi umumiy ravishda o'zgarishi o'zgarmas bo'lib qola olmaydi. Bilim boshqa kanallar orqali xam kelishi mumkin va faqatgina uning axborotning qandaydir miqdoriga o'tkazilishida operastional bo'lishi mumkin. Demak biz, belgilangan bilimda tarjima qilish mumkin bo'lmagan barcha narsalar chiqarib tashlanishini, yangi tadqiqotlarning yo'nalishlari esa extimoliy natijalarni mashinalar tiliga o'tkazilishi shartiga bo'ysunishini avvaldan ko'ra olish imkoniyatiga egamiz.

Bilim maqomining o'zgarishidagi boshqa muxim xolat - uning bilimga ega bo'lgan sub'ektga nisbatan "eksteriorizastiya"sidir. Texnologik, operastional bilim va uni egallash, jumladan mumtoz ta'lim g'oyasi nazarda tutganidek ongning rivojlanishi va shaxsning shakllanishi bilan bog'liq emas.

Bilim sotish uchun ishlab chiqarilgan va ishlab chiqariladi, u yangi maxsulotda qiymatga ega bo'lish uchun iste'mol qilingan va iste'mol qilinadi, va xar ikki xolatda xam u ayriboshlashga tayyor bo'lishi lozim. U shaxsiy maqsad bo'lishdan to'xtaydi.¹¹⁹.

Bilim "maxsulotga", "foydalanish predmetiga", vositaga va xokazolarga aylanadi. Biroq shu bilan birga u maxsulotga va ishlab chiqaruvchi kuchga aylanadi. Davlatlarning qudrati, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy faoliyatning boshqa sub'ektlarining qudrati kabi ular tomonidan operastional, texnologik bilim qanchalik samara bilan qo'llanilishiga bog'liq bo'ladi. "Texnologiyalashtirilmagan" va masalan falsafiy yoki estetik "foйда" olib kelish imkoniyatiga ega bo'lmagan bilim jamiyat, xech bo'lmaganda ko'pchilik tomonidan talab etilmaydigan, dolzarb bo'lmagan bilimga aylanib qolmaydi. Bilim maqomining o'zgartirilishi ta'lim tizimiga ta'sir ko'rsatadi, ilmiy izlanishlar yo'nalishini belgilab beradi, davr talablariga mos keladigan ko'nikmalarga ega bo'lgan muayyan mutaxassislarga bo'lgan talabni shakllantirgan xolda mexnat bozoriga ta'sir ko'rsatadi.

Bilim maqomining o'zgartirilishi xaqiqat tushnchasini muammolashtiradi. Uebster Liotar konstepstiyasini taxlil qilar ekan, quyidagi xulosani ilgari suradi:

samaradorlik va maxsulot mezonlarining qo'llanilishi xaqiqatni o'zgacha tushunilishiga olib keladi, u foydalilik tushunchasi orqali ifodalanishi zarur. Xaqiqat o'zining inkor qilinmaydigan maqomini yo'qotdi... uni jamiyat institutlarining amaliy extiyojlari ruxida izoxlay boshladilar. Shunday qilib, postmodernizmning belgilab beruvchi jixati vujudga keladi: XAQIQATning o'rnini "ko'plab xaqiqatlar" egallaydi, va endilikda ushbu ko'plik elementlari orasida barcha tomonidan qabul qilingan xech qanday tanlash usuli mavjud emas. Liotarning ta'kidlashicha, bugundan boshlab xaqiqat - tanlov masalasidir, faqatgina mazkur kontekstda xaqiqat deb xioblash qabul qilingan narsa qoladi.

Shunday qilib, zamonaviylikdan keyingi davr madaniyatining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- yangi texnologiyalarning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan axborotga to'liqlik;
- bilim tabiati va maqomining o'zgarishi;
- qarama-qarshilik va ko'p turlilik; aniqlikning mavjud emasligi;
- haqiqat va voqelikning o'zining problematizastiyasi;
- bilimning, axborotning - xar qanday madaniy belgilarni maxsulotga aylantirish tendensiyasi;
- gedonistik, iste'molchilik kayfiyatlarining ortib borishi; xayotning o'yinga, usulblashtirishga aylantirilishi;
- madaniy mohiyatlarning ierarxiya prinsipini rad qilishi;
- tanlov erkinligi berilgan sifatida, va u sababli vujudga kelgan noaniqlik va o'zini tutishning turli tumanligi.

Zamonaviylik davridan keyingi ijtimoiy nazariya

Fan, jumladan ijtimoiy fan xam - madaniyatning bir qismi xisoblanadi. Madaniy rivojlanish tendensiyasi unga daxl qilmasligi mumkin emas. Postmodernizmning intellektual oqim sifatida tarqalishi, zamonaviylikdan keyingi davrga kirib borishi yangi postmodernistik sosiologiyani yaratishga urinishlarga olib keldi. Buning tag zamini, zamonaviylikdan keyingi davr yangi tarixiy davr sifatida o'rganilishi va yangi tadqiqotchilik yondashuvi yordamida ta'riflanishi ekanligi xaqidagi fikrdir, chunki klassik sosiologiya boshqa davr - zamonaviylik davri vositasi sifatida vujudga kelgan va yangi sharoitlarda ishlamaydi. Zigmunt Baumanning nuqtai nazari xam shundan iborat.

Postmodern muxitida samarali va izchillik bilan mavjud bo'lish uchun sosiologiya o'zini... xech qachon yakunlanmaydigan o'z-o'zini anglash jarayonini qayta ta'riflashning ishtirokchisi sifatida qabul qilishi lozim (extimol, axborotga ega, nisbatan tizimli, o'yin qoidalarini yaxshiroq anglovchi - biroq baribir ishtirokchi), va u o'zining strategiyalarini aynan shundan kelib chiqqan xolda rejalashtirishi lozim. Extimol, amalda bu kabi vaziyat sosiologiya uchun "umumiy e'tiqodlar" baxo beruvchining nafsoniyatining o'rnini bosuvchi, xurofotlardan xalos qiluvchi yoki haqiqatning ta'riflovchi qoidalarini aniqlashtiruvchi va

muloqotga imkon yaratuvchi vositachi sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, qonun tuzuvchining orzusi ta'riflovchining amaliyoti bilan almashtiriladi.

Shuni aloxida ta'kidlash lozimki, barcha tadqiqotchilar xam mazkur fikrni yoqlamaydilar. Biroq ushbu nuqtai nazar keng tarqalgan. Postmodernistik ijtimoiy nazariyani postmodernning ko'rinishlaridan bir sifatida ta'riflovchi Djordj Ritster modernistik va postmodernistik ijtimoiy nazariya o'rtasidagi asosiy farqni quyidagicha ta'riflaydi:

Modernistik ijtimoiy nazariya o'zining jamiyatni taxlil qilish va tanqid qilishining universal, tarixga bog'liq bo'lmagan xolda, oqilona ravishda asoslashga intilgan... Postmodernistik tafakkur asosni bu kabi izlashni inkor qiladi va relyativizm, irrastionalizm va nigilizmga moyillikni namoyon qiladi. Nistshe va Fuko va ayrim boshqa mutafakkirlarga ergashgan xolda postmodernistlar bu kabi asoslarni, ular muayyan guruxlarni ustun xolatga qo'yadilar, boshqalarining axamiyatini esa pasaytiradilar; ayrim guruxlarga xukmronlik taqdim qilinadi, boshqalari esa tobe bo'lib qoladilar, deb xisblagan xolda shubxa ostiga oldilar¹²³.

Ayrim postmodernistik nazariyachilarning ijodini biz yuqorida ko'rib chiqdik.

Postmodernizmning sostiologiyadagi boshqa bir ko'rinishi, Djordj Ritsterga ko'ra, "ko'p madaniyatli nazariya" va "queer – nazariya"ning paydo bo'lishi bo'ldi (inglizchadan "queer" – g'ayrioddiy, shubxali). Polimadaniy nazariyalar ko'pincha klassik ijtimoiy nazariya tomonidan e'tiborsiz qoldirilgan madaniy ko'p turlilik faktiga asoslangan. Polimadaniy nazariyaning ibtidosi Ritster ijtimoiy-madaniy voqelikni erkaklar emas, balki klassik sostiologiyani yaratgan ayollar nuqtai nazaridan o'rganuvchi feministik nazariyalardir, deb xisoblaydi. Feministikalar ortidan kamchiliklarning boshqa guruxlari xam ularning ijtimoiy voqelikka bo'lgan qarashlarini e'tiborga olish zarurligi xaqida bayon qiladilar. "Queer – nazariyalar" polimadaniy nazariyaning davomi bo'ldi. Ular ijtimoiy turmushning muxim jixati sifatida jinsiy aloqa, ayniqsa bir xil jinslar orasidagi aloqalarga aloxida e'tibor qaratganlar. Polimadaniy nazariyalar orasida, "queer – nazariyalar" bilan bir qatorda Ritster afrostentristik nazariyani, maskulinlik nazariyasini, milliy amerika

nazariyasini xam ajratib o'tadi. Aslida ular juda ko'p bo'lishi mumkin, chunki o'zining shaxsiy nuqtai nazariga ega bo'lgan guruxlar soni zamonaviy jamiyatlarda faqat ortib bormoqda. Rossiya sostiologiyasida polimadaniy nazariya xali aniq namoyon bo'lmagan (feministik yo'nalishdagi tadqiqotlardan tashqari), biroq xech bo'lmaganda Rossiyaning etnik ko'pturliligini e'tiborga oladigan bo'lsak, bu kabi nazariyaning vujudga kelishiga oz fursat qoldi.

Djordj Ritster polimadaniy nazariyalarning quyidagi jixatlarini keltirib o'tadi:

- ular xokimiyat tepasidagilarni qo'llab-quvvatlash tendenstiyasiga ega bo'lgan universal nazariyalarni inkor qiladilar; polimadaniy nazariyalar axolining quyi tabaqalarining manfaatlarini aks ettiradilar;

- ular mazmunga ega bo'lish, qandaydir imkoniyatlardan mosuvo bo'lgan ko'plab guruxlar nomidan nazariyalarni taklif qilish uchun vositalarni izlaydilar;

- polimadaniy nazariyachilar xolisdirilar; ular ko'pincha ijtimoiy dunyoda ijtimoiy tuzilma, madaniyat va individlar uchun istiqbollarni o'zgartirish maqsadida ishlashlari uchun xokimiyatga ega bo'lmaganlar nomidan nazariyalashtiradilar;

- polimadaniy nazariyachilar nafaqat ijtimoiy, balki intellektual dunyoga xam ziyon etkazishga xarakat qiladilar; ular uni ochiq va turli-tuman qilishga intiladilar;

- nazariya va bayon qilishning boshqa turlari o'rtasida xam aniq chegara o'tkazishga urinadilar;

- polimadaniy nazariyaning odatiy eng chekka sarxadlari mavjud; u o'z-o'zini tanqid qilish kabi, boshqa nazariyalarni xam tanqid qilishdan, va eng muximi ijtimoiy dunyoni tanqid qilishdan iborat;

- polimadaniy nazariyachilar ularning faoliyati ular yashaydigan aloxida tarixiy, ijtimoiy va madaniy konteskt bilan chegaralangan.

Aftidan, polimadaniy nazariya ko'p turlilikka, xaqiqat tushunchasining muammolar majmuiga aylantirilishiga va postmodern madaniyatini ifodalovchi ierarxiyalarni inkor qilishning ko'rgazmali ko'rinishi xisoblanadi.

Nazorat savollari

1. Daniel Bell postindustrial jamiyat madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini izoxlang?
2. Zamonaviylik davridan keyingi ijtimoiy nazariyasini izoxlang
3. Postmodernizmning qisqacha ta'riflang?

9. MADANIYAT VA XULQ-ATVOR ME'YORLARI

XX asrning 60 yillari oxirida sosiologlar jamiyatda va madaniyatda yuz berayotgan jarayonlarni izoxlash uchun “kontramadaniyat” va “submadaniyat” tushunchalarini fanda qo'llaydilar. Mutaxassislar “kontramadaniyat”ga izox berar ekanlar, uni sosiolingvistika va publististika soxalarida keng ishlatish mumkinligini ta'kidlaydilar. Unga ko'ra jamiyat taraqqiyotida amal qilib kelayotgan umuminsoniy madaniyatga qarshi bo'lgan qadriyatlar kompleksini tushunish mumkin. Ayni kontramadaniyat negizida submadaniyat g'oyasi xam shakllandi va keyinchalik u ko'plab tadqiqotchilarning ilmiy izlanish ob'ektiga aylandi.

Submadaniyat (lotincha – *sub* – *osti*, *tagi*, *tevaragi* va *cultura* - *madaniyat*; madaniyat osti) sosiologiya, madadniyatshunoslik va sostiial antropologiya fanlarida madaniyatning bir qismini belgilovchi xulq-atvor me'yorlaridan biriga nisbatan ishlatilgan.²⁰ Submadaniyat asosan turli sostiial guruxlar madaniyati deb xam e'tirof etiladi. Ayrim tadqiqotchilar ushbu turga mansub a'zo (kishi)larni ijtimoiy xayotdagi etakchi madaniyatning nisbatan ilgarilab ketgan, saviyasi baland jixatlarini qabul qila olmaydigan kishilar, aniqrog'i yoshlar qatlamiga nisbatan ishlatadilar. Amalda xaqiqatdan xam shunday bo'lishi mumkinmi? Tabiiyki, bu munozarali savol bo'lib qoladi.

Nima uchundir o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi suxbatlar, bakalavr va magistr diplom ishlarida yoshlar submadaniyati to'g'risida gapiriladi yoki yoziladi. Vaxolanki, submadaniyat turli ijtimoiy qatlamlar, xususan, shaxarliklar, qishloq

²⁰ Волков Ю.Г., Добренёв В.И. и др. Социология молодежи. Ростов-на-Дону “Феникс”, 2001. – С.57.

axolisi, ishchilar, ziyolilar, migrantlar, xaydovchilar va xatto elita (saralangan) gurux a'zolariga xam tegishli bo'ladi. Gap shundaki, qaysidir bir submadaniyatga mansub kishilar faqatgina o'zlarining turmush tarzi va kayfiyatiga tegishli madaniyatni aloxida extirom bilan e'zozlaydilar. Masalan, shaxarliklar ichida xar doim xam e'tibor bermaydiganimiz, ammo o'ziga xos turmush tarzining egasi bo'lgan qushboqarlar, akvariumda baliq va boshqa dengiz jonivorlarini ko'paytiruvchi kishilar guruxining submadaniyati mavjud. Ularning biz o'zimizcha tasavvur qilgan aloxida shaxar madaniyatidan farq qiluvchi kiyinish, so'zlashish, jest va xatti-xarakatlari submadaniyatga negativ, ya'ni salbiy xolatda qarash xar doim xam to'g'ri emasligini anglatadi.

Axamiyatli jixati shundaki, umumiy qabul qilingan madaniyat doirasida ko'pchilikning ushbu turkum kishilariga begonadek qarashlariga, o'z navbatida submadaniyatga mansub kishilar xam atrofdagilarni tushunarsiz, zerikarli odamlar sifatida ko'rishlari bilan izoxlanadi.

Bevosita yoshlar submadaniyatiga to'xtaladigan bo'lsak, birinchi navbatda uning markaziy asosini musiqa tashkil etadi. Bunda pop, rok, jaz, xip-xop, rep va boshqa janrlarni kiritish mumkin.²¹ Xar bir xolat va vaziyat bir-biriga o'zaro bog'liq bo'lgani kabi, qiziqish doirasiga kirgan musiqaga bog'lovchi sifatida kiyinish, soch turmaklash, jest va mimikalar shakllanadi. Bu masalaning bir tomoni, uning ikkinchi va uchinchi, yoki to'rtinchi tomonlarini olib qarash mumkin. Bunda turli xildagi jozibador yoki aksincha bo'lgan rang va bo'yoqlarga e'tibor qaratish, masalan qizil yoki sariq rangdagi avtomobillarni minish, bilak xamda bo'yinga, ba'zida esa burun va quloqlarga (erkaklar nazarda tutilmoqda) turli xil taqinchoq buyumlar taqishlargacha borish mumkin. Bu xolat ayrim tadqiqotchilar tomonidan vaqtinchalik turmush tarzi sifatida ifodalanadi va unga o'tkinchi jarayon sifatida qarashlik kerakligini ta'kidlaydilar.

²¹ Умаров Э., Абдуллаев М., Хакимов Э. Культурология. Учебное пособие для студентов ВУЗов. Т.: «Янги аср авлоди», 2006. – С. 70.

Zamonaviy jamiyatda submadaniyatning bir qator ko'rinishlari shakllandi. Bular sirasiga Art (san'at), Internet xamjamoalari, sanoat va sport submadaniyat ko'rinishlarini kiritish mumkin. 1950 yili AQShlik tadqiqotchi Devid Rismen tomonidan muomalaga kiritilgan ushbu atama, jamiyatda ozchilikni tashkil etuvchi guruxlar tomonidan o'z xolida qabul qilib olgan usul va qadriyatlarga qat'iylik bilan amal qiluvchi kishilarga nisbatan ishlatiladi. Yana boshqa bir tadqiqotchi, angliyalik Dik Xebdidj umumqabul qilingan me'yor va qadriyatlardan qochuvchi, did va extirolari bir-biriga yaqin bo'lgan qishilar guruxiga nisbatan submadaniyat atamasini ishlatadi.

Qadriyattushunchasi madaniyatshunoslikning asosiy tushunchalaridandir. Ayrim tadqiqotchilar uni davrning extiyojini belgilaydi, ya'ni, tarixiy xususiyat kasb etadi deb xisoblasa, boshqa bir tadqiqotchi Rikert aksincha, qadriyat doimiy, universal xususiyatga ega deydi. T.Parsons qadriyati-me'yorni andoza deb aytadi. Mazkur turli xil, xatto qarama-qarshi fikrlardan qadriyatning ma'nosi ko'p qirrali ekanligi anglanadi.

Qadriyat – kishilar xayotida o'ta axamiyatli xodisadir. Uni madaniyat soxalari ro'yobga chiqargan xodisa sifatida bog'liqlikda anglash mumkin. Shunda xo'jalik, texnik, ijtimoiy, siyosiy, badiiy, ilmiy, axloqiy qadriyatlar ajraladi. Rasmiy nuqtai nazardan qadriyatni ijobiy va salbiy, o'ziga xos va doimiy, mustaqil va shartli tarzda farqlash mumkin. Moddiy nuqtai nazardan qadriyat xissiy (ya'ni oddiy xis qilish organ) – bu xayotiy, maishiy, texnik, qoniqish qadriyati va boshqa; va ma'naviy – ilmiy, axloqiy, estetik, diniy va boshqalarga bo'linadi. Ayrim qadriyatlar (xo'jalik, texnik, siyosiy) tarixiy xususiyat kasb etib, ya'ni madaniyat, davr o'zgarishi bilan ular xamo'zgarib turishini batafsilroqo'rganish chog'ida aniqlash qiyin emas; boshqa qadriyatlar esa doimiy, universal xususiyatga ega (axloqiy, badiiy).

Yuqorida ta'kidlanganidek qadriyat ijtimoiy faoliyatni tartibga solib, individlar, guruxlar va jamiyatning muxim yutuqlariga erishuvini belgilaydi. Ijtimoiy qo'lamdagi mazmun darajasi bo'yicha qadriyat uzviylikga ega. Qadriyaning dastlabki darajasi oddiylari orasidan ajralgan aniq narsalar, xolatlar,

xarakatlarning afzallari bilan bog'liq. Ikkinchi darajasi esa, ma'lum individga yaqin bo'lgan ijtimoiy guruxlar qiziqishga mos keluvchi obrazlar xarakati yoki faoliyatning tanlanishi bilan bog'liq. Uchinchi daraja – bu eng yuksak umuminsoniy maqsadlardagi tanlanish bo'lib, bunda ezgulik, xaqiqat, go'zallik, adolat, tartib, boylikka qarama-qarshi yovuzlik, yolg'on, xunuklik, betartiblik, qashshoqlik mujassamlikda namoyon bo'ladi yoki bu taqdir bilan bog'liqo'ta yuksak tanlash xisoblanadi (buddizmda nirvan, so'fiylikda fano singari).

Qadriyatlarning ierarxiyaga asoslangan murakkab tizimda individdagi singari turli toifadagi umumning xam o'ziga xosligi asosiy va takroriy, markaziy va chetdagi, ustunlik va xolatdagi tarzlarga ajratish mumkin. Qadriyatlar ro'yxati xar bir jamiyatning milliy va o'ziga xos stivilizastiyasi bilan bog'liqxolda keskin farqlanadi. xamma davrlarda barcha xalqlarda eng yuksak qadriyatlar ezgulik, xayot, mexnat, sevgi, xaqiqat, baxt singari mezonlarda ifodalangan.

Qadriyatlarning muayyan jamiyat yoki sinfga mansub kishilar turmushi va madaniyatining xaqiqiy yoki ideal ne'matlari bo'lgan tabiat va jamiyat xodisalarining moxiyatidir. Bu ne'matlarning qadriyatlar deyilishiga sabab kishilar ularni qadrlaydilar, chunki bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini boyitadi.

Qadriyatlar ichida eng asosiysi va umumiysi xayotdir. xayotdan maxrum bo'lish barcha qadriyatlardan foydalanishni yo'qqa chiqaradi, qolgan qadriyatlar aslida, xayot ne'matlarining moxiyatidir, madaniy qadriyatlardir.

Qadriyatning xayotdagi o'rni va axamiyati baxolash tufayli belgilanadi. Baxolash insonlarning extiyojlari, mafaatlari, maqsadlari, qiziqishlaridan kelib chiqadi. Ayrim xollarda extiyoj va manfaatlar bir-biriga zid kelishi mumkin. Muayyan ijtimoiy gurux, millat, sinflar uchun oliy qadriyat xisoblangan xodisalar boshqalar uchun qadriyat bo'lmasligi mumkin. Tabiat va jamiyat xodisalarini qadriyat turkumiga kiritish va kiritmaslik kishilarning extiyojlari, mafaatlari, orzu-istaklari, maqsadlari bilan belgilanadi.

Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruxlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat xodisalari majmui tushinilmog'i lozim.

Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Ular mohiyatiga ko'ra turlarga bo'linadi. Avvalo, inson va uning xayoti eng oliy qadriyat xisoblanadi. Inson ehtiyojlarini qondirishda tabiiy qadriyatlar: er va er osti boyliklari, boshqa tabiat ne'matlari katta ahamiyat kasb etadi.

Inson mehnati, aqli bilan yaratilgan moddiy boyliklar moddiy qadriyatlar xisoblanadi. Madaniy-ma'naviy qadriyatlarga ilmiy-texnikaviy va intellektual imkoniyatlar yaratgan boyliklar mansub. Shuningdek, jamiyat taraqqiyotida, inson xayotida ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar: erkinlik, tenglik, birodarlik kabilar xam o'rin tutadi. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar ichida istiqbol tufayli qo'lga kiritilgan barqarorlik, tinchlik, totuvlik aloxida ahamitgaega.

Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko'ra milliy, mintaqaviy va umuminsoniy turlarga bo'linadi. Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-ruxiy xodisa bo'lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlarini, an'alarini, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy xayotning barcha tomonlarini qamrab oladi. Mintaqaviy qadriyatlar iqtisodiyoti, madaniyati, tarixi, tili, dini, urf-odat va an'alarini mushtarak bo'lgan xalqlar manfaatlari xizmat qiladigan tabiiy va ijtimoiy xodisalar majmuasini tashkil etadi.

Umuminsoniy qadriyatlar mazmuni jixatidan chuqur va keng bo'lib, umumbashariy ahamiyat kasb etadi. Umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad intilishiga muvofiq keladi.

Milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar bilan qancha ko'p uyg'unlashgan bo'lsa, ularning taraqqiy etishiga shu qadar keng imkoniyat ochiladi.

Umuminsoniy qadriyatlar turkumiga insoniyat stilizastiyasining taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan umumbashariy muammolar kiradi. Bular: Er

yuzida ilm-fanni taraqqiy ettirish, tinchlikni saqlash, qirg'in qurollarini to'xtatish, tabiatni muxofaza qilish va xokazolar⁹.

Madaniy meros - bu o'tmishda qolgan qadriyatlar g'oyalar, tajriba, bilimlar ularni o'zlashtirish yo'llari, ya'ni kishilarning ijodiy faoliyat usullari va uni tashkil qilish xamda uning natijalaridir. O'zlashtirish yoki aniqrog'i madaniy meros jarayoni o'ta muxim bo'lib, madaniyatning xarakatdagi asosiy qonunlaridan biri xisoblanadi. Bu jarayon insoniyatning o'tmishi, buguni va kelajagini bir butun xolda birlashtirib, odatiy tarzda tayyor yutuqlarga aylanadi. Bor narsani izlash, ma'lum narsani ochish, qilingan kashfiyotni kashf qilish kerak bo'lmaganidek, o'tmish ajdodlar qilgan ishni takrorlash shart emas. Erishilgan yutuqlardan kelib chiqib, jamiyat o'z maqsadlarini amalga oshirishning qisqa yo'llarini tanlaydi. Bundan tashqari ma'naviy meros kishilarning saviyasini bexad kengaytiradi, ular xayotini aqliy va xissiy jixatdan boyitadi, bilimning tuganmas manbai bo'lib xizmat qiladi.

10. MAROSIMLAR, RAMZLAR, AFSONALAR

Marosimlar o'zbek xalqining bayram marosimlari xam ko'p. Ularda O'zbekistonda yashovchi butun axoli ishtirok etadi. Xususan, umumxalq bayramlarining eng azizi Mustaqillik bayramidir. 1991-yil 31-avgust kuni O'zbekiston mustaqil davlat deb e'lon qilindi. 1-sentabr Mustaqillik kuni deb belgilandi. 1991-yil 1-sentabrdan boshlab xar yili butun O'zbekiston mustaqil yurt sifatida o'zining ozodlikka erishganini nishonlab kelmoqda. Mamlakatning poytaxti Toshkentda, Qoraqalpog'iston poytaxti Nukusda, xamma viloyadar markazlarida, tumanlar markazlarida katta tantanalar uyushtirildi.

O'zbek xalqining eng qadimgi bayramlaridan bin Navro'z xisoblanadi. Navro'z - yangi kun ma'nosini ifodalaydi. Abu Rayxon Beruniy o'zining

“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida Navro’z bayrami Jamshidning taxtga o’tirgan kunidan boshlab nishonlangani xaqida ma’lumot beradi. Baxorgi kun va tunning teng kelish kunini 3-4 ming yil oldin kashf qilish, 21-martni yangi yil bayrami sifatida tantanali nishonlashning o’zi yurtimizda ilm taraqqiyoti qanchalar rivojlangani xaqida ma’lumot beradi. Quyoshning xamal burjiga kirishini aniq belgilash astronomiya fani kashfiyoti xisoblanadi. Firdavsiyning “Shoxnoma”, Umar Xayyomning “Navro’znoma”, Alisher Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” asarlarida bayramni o’tkazish tarixi, odatlari xaqida tafsilotlar bor. Masalan, Umar Xayyom Navro’z kuni bosh koxin podshox oldiga may toia oltin jom, uzuk, dirxam, dinor, arpa nixoli, qilich, o’q-yoy, dovot va qalamdan iborat sovg’a olib kelishini va tabriklar izxor qilishini yozadi²².

Afsona fors tilidan olingan bo’lib (-uuii) ma’no moxiyatida ikki tushuncha etakchilik qiladi: 1 - biror voqeani, lavxani xikoya qilish; 2 - bu xikoya uydirma, to’qimalardan iborat xoMishi. O’zbek tilining izoxli lug’atida so’zning bir necha ma’nolari ko’rsatilgan: “afsona bo’lmoq”, “afsona to’qimoq”, “afsonaviy” va boshqalar. Lekin asosiy ma’no tafak- kur fantaziyasi bilan bog’liq bo’lib, aql bovar qilmaydigan uydirma vo- qealami xikoya qilish va shu bilan shuxratga ega bo’lish tushunchasi etakchilik qiladi.

Afsona diffuzion jarayonda mif tarkibida paydo bo’lgan, keyinchalik aloxida janr sifatida ajralib chiqqan xalq og’zaki ijodidagi birinchi mustaqil epik tur namunasi xisoblanadi.

Maxmud Koshg’ariyning “Devonu lug’otit turk” asarida avvalgi saxifalarimizda esga olingan “caw” so’ziga murojaat qilamiz:

caw - otalar so’zi. Chunonchi cawda mundag¹Kelir -otalar so’zida shungdog¹ keladi.caw - qissa. Qadimgi voqealardan xabar berish.caw - xikoya. Biror voqeani aytib berish.caw - risola, xat, kichik kitobcha. caw - so’z, nutq. LJU_{caw} - ilgarigi xabarlar, yangiliklami etkazuvchi.

Bu janrga mansub asarlar fikriy, g’oyaviy ozuqani miflardan olgani uchun

²² Умар Хайём. Наврузнома. Таржимон Урфон Отажон. - Т.: Мехнат, 1990.

xayotning, insonning, osmon jismlarining paydo boiishi xaqida xam xikoya qilish an'anasini saqlab qolgan. Extimol, shuning uchun xam afsonalarda diray voqea-xodisalar tavsifi ko'proq uchraydi. Xalq ogV.aki ijodining xos xususiyatlarida qayd etilgan shartlilik belgisi afsonalarga xam xosdir. Afsona aytuvchi shaxs o'z xikoyasi qaysi mavzu va qaysi yo'nalishda bo'lishidan qat'i nazar aks ettirilayotgan lavxaga tinglov- chining to'liq ishonishini xoxlagan. Aytilayotgan xabardagi ayrim aniq ma'lumotlar esa muxokama qilish ortiqcha ekanini tasdiqlagan.

Afsonalar og'zaki ijodimizdagi eng ommaviy janrlardan biridir. Ifo- dadagi soddalik, voqealar sonining cheklanganligi, an'anaviy qism (bosh- lama)ning, yakuniy qismning mavjud emasligi, aytuvchidan maxsus tayyor- garlik va maxoratning talab etilmasligi bu janrdagi asarlar ijrosini oson- lashtiradi. Xikoya qilish jarayonida aloxida estetik extirosni inkor etadi. Shuning uchun afsonalami istagan xar bir millat vakili aytishi mumkin.

Afsonalar mazmunidagi eng qadimgi uydirma xodisalar, muayyan xudud nomini izoxlovchi toponimik ma'lumotlar beriladi. "Kuygan yor", "Ellik paysa", "Tuya cho'kdi", "Oshoba", "Qonqus" kabi namunalar ana shunday mavzulami o'zida aks ettiradi. Folklor ekspeditsiyasi davomida deyarli xar bir qishloq, buloq, tepalik, suv manbalari xaqida xayratomuz afsonalami yozib olish imkoniyatiga ega bo'lganmiz. Ertaklardan farqli oiaraq ularda syujet tizimining barqarorligi kuzatilmaydi. Ularning mavzu yo'nalishini uchga bo'lib taxlil qilish mumkin:

1. Sof mifologik afsonalar.
2. Tarixiy voqea-xodisalami izoxlovchi afsonalar.
3. Maxalliy xududlardagi geografik nomlar bilan bog'liq afsonalar.

Xazrat Xizr, Er Xubbi, Odami Od, Ilyos nomlari bilan bog'liq afsonalarda insonlaming xayotiga xomiylik qilish, o'rni kelganda, yo'l ko'r- satish, mushkulni oson qilish g'oyasi ilgari suriladi. Xizr xar bir odam- ning xayoti davomida bir necha marta uchraydi, degan aqida xalqimizda saqlaugan. Folklorshunos olimlar M.Jo'raev va Sh.Shomusarov "O'zbek mifologiyasi va arab folklori" kitobida shunday afsonani misol keltirishadi:

"Xo'jai Xizr xar kuni peshin namozini Buxorodagi Mag'oki Attoii masjidida o'qir

ekan

Afsonalarda xalqning xar bir ishni, yaxshilik va ezgulikni sidqidildan, tamasiz qilish kerak, degan o'ta muxim g'oya sing- dirilgan boiadi. Agar e'tibor bergan boisangiz, murid birinchi navbatda namoz o'qishini bir necha marta pisanda qildi.Ikkinchidan, u atayin Buxorodagi Mag'oki Attori masjidida namoz o'qiydi. Chunki u Xazrat Xizming aynan shu erda namoz o'qiganini eshitgano'z-o'zidan muridning namozni xam bejiz o'qimasligi, masjidni xam sababsiz tanlamagani ma'lum boiib qolmoqda. Shuning uchun xam taqdir uni g'aflat da qoldirdi.Qirq kun Mag'oki Attori masjidida kanda qilmay namoz o'qi- gan odamga Xizr uchraydi, degan aqida xaq boiib chiqdi.Lekin muridning toatida tama yashiringani bois u Xizrni uchratganini o'zi bilmay g'aflatda qoldi.Aslini olganda, afsonaning bosh g'oyasi - murid o'qigan xamma namozlar xam bekor bo'lib chiqqani ayonlashadi.Ya'ni toatni, xususan, birovga qilinadigan yaxshilikni beg'araz amalga oshirgandagina odam savobga ega boiadi, deb ta'kidlangan.

Afsonalar badiiy ijodning dastlabki namunasi sifatida odam qalbida ishonch tuyg'usini xosil qilishga, xar bir insonning o'z qobiliyati, xara- kati natijasida baxtini topishi mumkinligiga umid paydo boiishiga xiz- mat qilgan. Masalan, qadimdan taqdir tushunchasi odamlaming ongida mavjud bo'lgan. Xar bir ko'ngilsiz mushkulotni odam taqdir, deb qabul qilgan. Ammo shunday afsonalar borki, ularda inson taqdiri uning o'z qo'lida ekani ta'kidlanadi. Ya'ni inson xatti- xarakati, niyati, ayniqsa, keskin qarori bilan qismatida o'zgarish yasashi mumkinligi uqtiriladi

Rivoyatlar. Bu so'z arab tilidan olingan bo'lib xikoya, qissa ma'nolarini ifolaydi.Rivoyatlar afsonalardan xayotga yaqinligi bilan farq qiladi. Agar afsonalarda ro'y berishi mumkin bo'lmagan xodisalar xikoya qilinsa rivoyatlardagi voqealar, ko'pincha, tarixiy shaxslar, taniqli allo- malar, davlat arboblarning xayotlaridagi muayyan lavxalar yuzasidan xabar beradi.Ba'zan bir voqeani eshitganimizda, uning aynan ro'y beri- shiga to'liq ishonamiz, ba'zan aloxida fantastik tasvirdan xoli bo'lsa xam xikoyaga ishonmasligimiz mumkin.Shuning uchun afsona va rivoyat o'rtasida keskin farqni belgilash qiyin kechadi.Xar xolda

ko'p yillik tajribadan kelib chiqib aytish mumkinki, ishonilgan voqeani rivoyat, ishonish mumkin bo'lmaganini afsona deb qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki mazmun, syujet tizimi jixatdan afsona va rivoyatlarning farqi bo'lmaydi. Faqat rivoyatlar tarixiy dalil, isbot ildiziga ega xisoblanadilar. Chunki rivoyatlardagi voqealar, ko'pincha, uning ishtirokchisi, guvoni tomonidan yozib qoldiriladi yoki og'izdan og'izga o'tmishda ro'y bergan xayratomuz lavxa sifatida o'tib yashaydi, ajdoddan avlodga madaniy meros tarzida saqlanadi.

Rivoyatlar o'zida aks ettirgan voqea bayoniga ko'ra afsonalar kabi epik jinsga mansubdirlar. Ular xajm jixatdan qisqa bo'ladi. Matn xajmi qisqa, ifodalangan voqea lavxalari son jixatdan chegaralangan. Badiiy tasvirga ortiqcha urg'u berilmaydi, chunki ularda voqea bayoni ustuvor xisoblanadi. Mazmun yo'nalishiga ko'ra tarixiy voqealar, ularda ishtirok etgan shaxslar jasorati yoki xiyonati asosida yoki yurtimiz viloyatlaridagi o'rin-joylarning nomlanishini izoxlash maqsadida yaratilgan rivoyatlarga bo'linadi. Tarixiy rivoyatlarda To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur kabi yurti ozodligi va mustaqilligi uchun jonini qurbon qilgan el farzandlari mardligi, shu bilan birga o'zining o'tkinchi xirsiy nafi yo'lida vataniga xiyonat qilgan Dalvarzin, Guldursunga o'xshagan xiyonatkor shaxslar kirdikorlari xikoya qilinadi. Mard, jasurlarning ishlari xam, xoinlarning xiyonati xam unutilmaydi.

11. MADANIYAT VA KUNDALIK XAYOT

Kundalik xayotda "madaniyat" atamasini qo'llar ekanmiz, ongning oliy maxsullari bo'lgan san'at, adabiyoi, musiqa, rassomlik kabilarni nazarda tutamiz. Madaniyatning bu qirralari sostiologiya fani yuzasidan xam chuqur o'rganiladi. Sostiologiyada madaniyat tushunchasi ijodiy faoliyating biz yuqorida sanab o'tgan turlarinigina emas, yana boshqa ko'p xodisalarni xam qamrab oladi. U o'z ichiga kiyinish xususiyatlari, oilaviy xayot va nikox marosimlari, mexnat faoliyati va diniy rusumlar, bo'sh vaqtni qanday o'tkazish kabilarni xam qamrab oladi. Xo'sh, madaniyat sostiologiyasi o'zi nimani o'rganadi?

Albatta, yuqorida ko'rib chiqilga vaziyatni "anglash" faoliyatiga va Tomas teoremasiga yanada to'g'riroqxulosa berishi uchun uni qaytadan ko'rib chiqish va lozim bo'lsa qo'shimchalar kiritish kerak bo'ladi. Inson tomonidan avvaldan angalangan xar qanday vaziyat, shu vaziyatning asl ko'rinishini butunlay o'zgartirishga qodir emas. (Biz yuqorida nazariy faoliyat xisoblangan "anglash"ni jarayonini amaliy xisoblangan "faoliyat" jarayoniga tenglashtirgan edik. Lekin, shuni unutmaslik kerakki, xech qanday "anglash" jarayoni vaziyatning asl mohiyatini va ko'rinishini o'zgartirishga qodir emas). Ya'ni, unga ko'ra, inson bir vaziyatni anglashga urinar ekan shu vaziyatning asl mohiyatidan kelib chiqib unga xar safar o'zgacharoq baxo beradi va uni anglaydi, lekin aslo, bu vaziyatning o'zini tag-tubi bilan butunlay o'zgartirib yubora olmaydi. Inson xech qachon vaziyatning asl xolatini o'zgartirgan xolda unga umuman yangicha maqom berib, uni boshqacha tarzda anglamaydi. To'g'ri, inson, anglash jarayonida vaziyatning ayrim jihatlarini o'zgartirib anglashi mumkin, lekin bu uning vaziyatning o'zini tubdan o'zgartirib baxolaydi, oqni qora rangda anglaydi, degani emas. Inson anglash jarayonida vaziyatga "xaqiqat" bosqichidan kelib chiqib baxo beradi. U xaqiqatdan butunlay uzoqlashib keta olmaydi va bu bilan vaziyatning o'zining asl xolatini o'zgartirib yubora olmaydi.

Sostiologiya bilan qiziqib kelayotgan va E. Gusserl g'oyalarining davomchisi bo'lgan zamonamiz olimlardan biri Shyust o'zining sostiologik qarashlarini bayon etar ekan uni quyidagicha ta'riflaydi: "Dunyoviylik ya'ni, *"tiriklik, xayotlilik"*olamiga murojaat qilish – bu ijtimoiy olamga murojaat qilish, uning ichga YaShASh uchun kirib borishdan o'zga narsa emas".²³ Ilmiy tilda aytadigan bo'lsak, barcha empirik fanlarning premeti sifatida olam va odam, ularning o'zaro aloqasi va xodisalari keladi, lekin ushbu fanlarning o'zlari xam aynan shu olamning bir bo'lagi xisoblanadilar. Biz ongli mavjudot sifatida jamiyat va madaniyat ichida o'zimiz kabilar bilan birgalikda yashar ekanmiz istasak-istamasak shu jamiyat va madaniyatning bizga ko'rsatadigan ta'siriga bog'liqmiz. O'z navatida, biz o'zimiz xam istasak-istamamsak shu jamiyat va madaniyatga

²³Schütz A. Collected Papers. Hague: Nijhof. 1962. Vol. 1. 79 6.

ta'sir ko'rsatamiz. Jamiyat a'zolari mavjud ekan, ular ijtimoiy xarakatda bo'lishadi. Ularning ijtimoiy xarakatlari esa boshqa insonlarning ijtimoiy xarakatlariga va faoliyatlariga asoslanadi. Ayan shu qoida asosida kishilar o'rtasida o'zaro aloqalar mavjud bo'ladi, aynan shu qoida asosida jamiyatda ijtimoiy xatti-xarakatlar mavjud bo'ladi va aynan shu qoida asosida insonlar o'rtasida yangi munosabatlar qurilib ular ijtimoiylashganlig xususiyatini oladi. Jamiyatning ijtimoiylik xususiyati shundan kelib chiqadi. Biz shu bilan ijtimoiylashgan mavjudotmiz, biz shu bilan tirikmiz!

Shyustning, Gusserl g'oyalariga* asoslanib sostiologiya faniga kiritgan "tiriklik va xayotlilik olami" xaqidagi qarashlari ko'pgina olimlarning e'tiborini o'ziga tortdi. Natijada, vaqt o'tishi bilan sostiologiya fanida yaratilgan yangi konstepstiyalarda Shyust qarashlari ya'ni, "tiriklik olami": inson xayotiy faoliyatining olami sifatida – qat'iy bo'lgan va kishilar ijtimoiy xulqiga o'z tasirini ko'rsatayotgan ijtimoiy qonun-qoidalar "tizim"iga qarshi qo'yila boshlandi. Ilm-fan taraqqiy etib, kishilik jamiyati murakkablashib borayotgan davrda sostiologiya faniga xali xam ob'ektivizm sostiologiyasi asosida ya'ni, qat'iy ijtimoiy-tizimiy yondashuv (asosan tabiiy fanlarga tegishli bo'lgan) asosida ish ko'rish jamiyatning asl moxiyatini to'liq ochib bera olmaydi. Sostiologiyani faqat tabiiy fanlar qonuniyati asosida o'rganish natijasida bugungi kunga kelib bu fan "xayotiylikni, tirik bo'lishlik"ni sog'inishni boshladi.

"Oldinga etaklovchi (reprezentativ) madaniyat"ni va u bilan jamiyatning o'zaro bog'liqligini, sostiologiyaning asosiy rivojlanish bosqichlarini madaniy-taxliliy jixatdan taxlil qilib ko'rib chiqadigan bo'lsak, "Oldinga etaklovchi madaniyat"ning asosiy xususiyatlari bo'lmish – tasavvur, g'oya, dunyoqarash, yondashuv kabilar kishilar tomonidan aktiv yoki passiv qabul qilinganligiga qarab *faoliyatli* xisoblanadilar. Boshqacha aytganda, "oldinga etaklovchi (reprezentativ) madaniyat"ning bu xususiyatlari birgalikda xayotimizning *vaziyatini aniqlab* beradi. Agar, keltirilgan fikrlar va dalillar xaqqoniy bo'lsa, unda, sostiologiya

*Шюц давом эттирган "тириклик, хаётлилик олами" хақидаги ғояни биринчи бўлиб Гуссерль айтган.

fanining madaniy-taxlilii analiz jixati an'anaviy xisoblangan ob'ektivizm sostiologiyasiga nisbatan ancha kenroq va chuqurroq ekanligi ma'lum bo'ladi. Chunki u, ijtimoiy jarayon va xodisalarni kelib chiqishini nafaqat ob'ektivlik asosida, balki, ularning kelib chiqish xolatlarini, vaziyatlarini va ularning kelib chiqishiga turtki bo'lgan sabablarni ularning ichidan, ildizidan turib o'rganishni xam o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

12. MADANIYATDA IDENTIKLIK VA MENTALITET MASALALARI

“Sostiomadaniy identifikatsiya - bu shaxsning mavjud sostiiumda turli madaniy xususiyatlarni o'zida jamlaganligi va shuning asnosida undagi sostiial birliklarga tegishli ekanligini anglash, xis etishdir”.

Kichik sostiial guruxlar, sinflar, xududiiy birliklar, etnik va milliiy guruxlar, xalqlar, sostiial xarakatlar, davlatning o'zi xam va global sharoitda butun bir insoniyat xam kiradi. Bunda inson – sostiial munosabatlar tizimidagi madaniy sub'ekt, ya'ni agent (tashuvchi) sifatida o'zini idrok etadi, xis etadi va baxolaydi. Sostiiumda inson bir paytning o'zida o'zini bir necha sostiomadaniy birlik va guruxlar bilan identifikatsiyalashi mumkin.

Sostiomadaniy identifikatsiyaning individual jixatlari ozmi-ko'pmi chegaralangan tizimga ega bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlarini ierarxik tartibga solinganligi bilan xam izoxlash mumkin;

Bunda shaxs o'zini ayrim gurux va birliklarga ma'lum ma'noda yaqinlik nuqtai nazaridan “tegishli” deb xisoblaydi;

Jamiyatda etakchi va ustun xisoblangan sostiomadaniy identifikatsiya odatda, nafaqat shaxsni, balki avlodlarni xam o'zini xar tomonlama ijobiiy baxolashi yoki sostiial muxitga muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi bilan bog'liq sostiomadaniy nominatsiyalarni aks ettiradi.

U yoki bu identifikatsiyaning ijtimoiy strukturadagi o'rni sostiomadaniy kontekstning o'zgarishi ta'sirida almashishi mumkin.

Masalan, xar bir davrning boshqaruv apparatidagi o'zgarishlar yangi shaxslararo yoki avlodlararo identifikatsiyani paydo qilishi mumkin.

Jumladan, XX asrning 30-60 yillaridagi insonlar uchun non mukofot rolini bajarishi muqarrar edi.

Ammo bugungi kun avlodiga nonning qadrini android tizimidagi texnik vositalar (kompyuter, telefon, turli maishiy texnika buyumlari) qiymati bilan solishtirish mutlaqo tushunarsiz xolat xisoblanadi.

Milliy, etnik, fuqarolik, kasbiy, xududiy, diniy-konfessional, gender va boshqa turlarga bo'linib, u o'z qamrovidagi insonlarni iqtisodiy, siyosiy, maishiy, ma'naviy, madaniy, mental jihatdan xayot tarzida ma'lum stereotiplar xosil qilishi, fikrlash, xulq-atvor natijasida sostial gurux yoki qatlamlarni yaratishi bilan xarakterlidir

Lotincha (identus – aynanlik, mansublik, o'xshashlik) - shaxs tomonidan o'zining qaysi sostial guruxga mansubligi xamda shu sostial gurux doirasida ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, maishiy, axloqiy stereotiplarga amal qilinishi

Identiklik insonda “MEN kimman”, “MENING boshqalardan farqim nima” degan savollar asosida vujudga keladi va bunda inson o'z-o'zini anglash jarayonidagi murakkab yo'lni bosib o'tadi

Identiklik – ko'p tarmoqli, bir vaqtning o'zida “konglomerat” (ob'ekt, predmet, moxiyatning bir vaqtini o'zida jipslik xosil qiluvchi turli jins va jixatlardan iborat birlashmasi) xarakter kasb etib, murakkab tashkiliy tuzilmaga ega bo'lgan sostiomadaniy va psixologik funkstiyalarni bajaradi;

Arxitektura – konglomerat identiklik xisoblanadi.

Fuqarolik identikligidagi mazmuniy o'zgarishlarni; shaxsning kundalik yaqin sostial doira (oila, yaqinlar, o'z tengdoshlari, ish-xizmatdagi do'stlar) bilan identiklik rolining kuchayganini; fuqarolarning madaniy kompetentligining shakllanishidagi etnomilliy jixatning o'sganini; etnik identiklikdagi shaxs rolining kuchayganini (masalan, “men o'zbekman, chunki o'zimni shunday xis etaman”); identiklikdagi milliy-davlatchilik doirasining torayishini (“sovet” o'rnini “o'zbekistonlik” bilan almashinishi); jamiyat tomonidan ma'qullanadigan norasmiy va ta'minlangan xayot (turmush) qadriyatlarining oshganligini; davr

bilan bog'liq yirik sotsial birliklar bilan bir damlikning bo'shashishini qo'yish mumkin.

Mentalitet – (lot. “mens” aql, idrok) jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, xayot qonunlarini taxlil etish kuchi, qobiliyati.

- **U.Shekspir**. “Bu dunyo saxna va unda barchamiz aktyormiz”;
- Yozilgan va egallangan maqomlardan kelib chiqib ijtimoiy xayotda rollar o'ynaladi;
- Identiklik va “MEN” - konstepstiyasi o'yinida chuqurlashib ketmaslik lozim;

Xayot o'yinining tabiati va mexanizmini bilgan inson identiklik formulasining qayerida o'zini to'xtatishni biladi.

13. MADANIYAT VA IJTIMOIIY ISLOXOTLAR

Madaniyat – ijtimoiy o'zgarishlarning muxim omilidir. Biroq ijtimoiy, tuzilmaga oid o'zgarishlar madaniyatdagi o'zgarishlarga xam olib kelishi mumkin. Misol sifatida urbanizatsiya jarayonini keltirish mumkin. XIX – XX asrlarda sanoat inqilobini boshdan kechirgan jamiyatlar tezkor urbanizatsiya jarayoniga – shaxarlar va shaxar axolisi sonining o'sish jarayoniga kirib keldi.

Shaxarlar qadimda xam, o'rta asrlarda xam mavjud bo'lgan, biroq faqatgina zamonaviy jamiyatlar o'z ustunligi sababli shaxar jamiyatlari xisoblanadi, shaxar axolisining soni qishloq axolisi sonidan bir necha marotaba ustun turadi. Shaxarlar ko'plab tadqiqotchilarning e'tiborini jalb qilgan: Amerika sotsiologiyasining Chikago maktabi vakillari M.Veber, G.Zimmel, O.Shpengler – bu shaxarlar muammolari bilan qiziqqanlarning to'liq bo'lmagan ro'yxatidir.

Yirik zamonaviy shaxarlarning paydo bo'lishi odmlarning turmush tarzlaridagi yirik o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Shaxar xayotining eng ko'zga tashlanarli oqibatlari individualizm va anonimlik, odamlar o'rtasidagi aloqalarning kuchsizlanishi bo'ldi. Katta shaxarning o'z axolisining turmush tarzi, tafakkur va xulqiga jiddiy ta'sir ko'rsatishini G.Zimmel ta'riflab bergan.

Zamonaviylik ruxi tobora matematika bilan to'lib bormoqda. Tabiatshunoslik ideali, - dunyoni arifmetik masalaga aylantirish, uning xar bir qismini matematik formulaga kiritish, - amaliy xayotning pul xo'jaligidan kelib chiquvchi matematik aniqligiga muvofiq keladi; xuddi shu yo'l bilan u ko'plab odamlarning kunini o'lchash, sanash, songa oid ta'riflar, sifatga oid qadriyatlarni miqdoriy narsalarga o'tkazish bilan to'ldirib qo'yadi. Pullarning ushbu arifmetik tabiati xayot elementlari o'rtasidagi munosabatlarga muayyanlik, teng qadrililiklarning va farqlarni ta'riflashdagi aniqlik, shartnoma va sharoitlarning shubxasizligini olib kirdi; aynan shu arifmetik tabiati uchun soatlarning yalpi tarqalishini xam ko'rsatib o'tish lozim. Biroq xayotimizning mazkur jixatining sababi va natijasi sifatida katta shaxarda mavjud bo'lgan sharoitlarni ko'rsatish mumkin. Katta shaxar yashovchisining majburiyati va xayoti odatda o'ta xilma-xil va murakkab, va eng muximi, odamlarning bu kabi o'zgaruvchan qiziqishlariga ega bo'lgan odamlar ommasining bu kabi to'planishi o'ta muxim, ularning xayoti va faoliyati shu kabi ko'p sonli organizmiga birlashadi, va shartnomalarning o'ta aniqligi va ularning aniq bajarilmasligi xolatida ularning bari betartiblikka aylanib ketishi mumkin bo'lar edi. Agar Berlindagi barcha soatlar bir vaqtning o'zida, xech bo'lmaganda bir soat davomida turlicha vaqtni ko'rsatganida edi, u xolda mazkur shaxarning xo'jalik va boshqa xayoti uzoq muddatga buzilib ketgan bo'lar edi. Bunga yana bir ko'rinishidan ko'proq tashqi bo'lgan omil, katta masofalar omili qo'shiladi, ular tufayli bekor kutishlar va kechikib qilingan tashriflar o'rnini xech nima bilan to'ldirib bo'lmaydigan vaqt yo'qotish xolatlari vujudga keladi. Shunday qilib, katta shaxarlar xayoti texnikasini xar qanday faoliyatning va barcha o'zaro munoabatlarning vaqtning sub'ektdan tashqrida bo'lgan, aniq belgilangan sxemasiga ko'ra aniq taqsimlanishisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Biroq bu erda xam bir xolat mavjud..., xayot yuzasining xar bir bandidan qalbning eng chuqur sarxadlariga o'lchoq asbobini tushirish mumkin, xar qanday siyqasi chiqqan tashqi ko'rinishlar oxir-oqibat xayot moxiyati va uslubi masalasini xal etish bilan bog'liq bo'ladi.

Katta shaxar xayoti majbur qiladigan punktuallik, xisob-kitoblilik, aniqlik,

uning murakkabligi va kengligi nafaqat uning pulga oid-xo'jalik va intellektualistik tabiati bilan chambarchas bog'liq, balki shuningdek xayotning ichki mohiyatini xam to'ldirishlari va xayot shakllarini tashqaridan. Tayyor ko'rinishda olish o'rniga o'zlari mustaqil ravishda belgilashga moyil bo'lgan irrastional, g'ayriixtiyoriy xususiyatlar va impulslarni yo'q qilishga ko'maklashishlari lozim. Va garchi ular tomonidan ifodalanuvchi o'z ehtiyojini qoplashga etarli bo'lgan mavjudliklar shaxarda mavjud bo'lishi mumkin bo'lmagan narsani aks ettirsa-da, biroq ular baribir uning odatiy mavjudliklariga zid xolatda bo'lalilar, va bu Reskin va Nistshe kabi shaxslarning katta shaxarlarga bo'lgan kuchli nafratini izoxlaydi, ular uchun xayotning qadri aynan nosxematik, o'ziga xos, barcha uchun teng bo'lgan ta'riflarga mos kelmasligidadir, ular shunday shaxslarki, ularda ushbu nafrat paydo bo'lgan manbadan, shuningdek, pul xo'jaligi va xayotdagi intellektualizmga bo'lgan nafrat xam tug'iladi.

14. MADANIYAT VA IJTIMOIIY TUZILISH

Jamiyatdagi bog'lanishlarni tushunishimizga yordam beradigan muxim konstepstiya bu – ijtimoiy struktura (tuzilma) konstepstiyasidir.

Bizning atrofimizdagi ijtimoiy muxit voqea-xodisalarning betartib yig'indisidan iborat emas. Odamlarning xulq-atvorida, ularning o'zaro munosabatlarida chuqur muntazamlilik seziladi. Mana shu muntazamlilik bilan ijtimoiy struktura (tuzilma) g'oyasi bir-biriga bog'langan. Ba'zi jixatdan jamiyatninig strukturaviy (tuzilmaviy) tomonlarini binoga qiyoslab ta'riflash mumkin. Binoga muayyan shakl berib turadigan devorlari, poli va tomi bor. Ammo, bu bu qiyoslashni aynan tushunmaslik kerak, unda biz masalaning mohiyatidan uzoqlashib ketamiz. Ijtimoiy struktura (tuzilma) insonlarning xatti-xarakatlari va munosabatlari bilan belgilanadi: strukturalar (tuzilmalar) barqarorligi, mukammalligi ularning makonda va zamonda takrorlanib turishiga bog'liq. Shunday qilib, ijtimoiy ishlab chiqarish va ijtimoiy struktura (tuzilma) sosiologik yondashuv doirasida juda maxkam bog'langan. Shuning uchun xam biz kishilik jamiyatlarini binolar sifatida tasavvur qilishimiz mumkin va bu binolar xar

daqiqada o'z tarkibidagi g'ishtlardan qayta tiklanib turadi. Bizning barcha xatti-xarakatlarimiz o'zimiz yashayotgan jamiyatning strukturasi (tuzilma) ta'sirida shakllanadi va ayni paytda biz xam o'z xarakatlarimiz bilan bu strukturalarga (tuzilmalarni) ta'sir qilib (muayyan darajada o'zgaritirib xam) turamiz.

Bugungi kunga qadar ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy strukturaga berilgan ko'pgina ta'riflar mavjud. Bu ta'riflarni o'rganar ekanmiz ular orasidan eng xaqiqatga yaqinini va umumiy jixatga ega bo'lganlarini tanlab chiqdik.

Jamiyatdagi ijtimoiy kuchlarning o'zaro aloqadorligi orqali o'zgarib boruvchan tizimlar sistemasi bu – ijtimoiy strukturadir.²⁴

Ijtimoiy struktura – tushunchasi ijtimoiy jarayonlar va ularning o'zaro munosabatlari, o'zaro qaramliklari aloqalarni aks ettiradi.²⁵

Sostiologik lug'at va izoxli lug'atlarda xam ijtimoiy strukturaga berilgan ta'riflarning bir biriga yaqinligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, B Shefersning lug'atida quyidagi ta'rif keltiriladi:

Ijtimoiy struktura ostida ijtimoiy xayotning bir maromdagi qonuniyatlari ya'ni, ijtimoiy xulq, ijtimoiy qatlam kabilar tushuniladi.²⁶

Shunga o'xshash ta'rifni amerikalik zamonaviy sostiolog T. Xolt lug'atida xam beriladi:

Ijtimoiy struktura (a) ijtimoiy tuzum qatlamlari orasidagi mavjud bo'lgan bir maromdagi munosabatlarni, (b) o'z mavqei bilan boshqalardan ajralib turuvchi individual yoki jamoaviy pozistiyalarning tashkilotini bildiradi.²⁷

Ijtimoiy struktura keng ma'noda – turli ijtimoiy jamoalararo (qatlamlar, ijtimoiy birliklar, tashkilotlar) va ijtimoiy institutlararo aloqalarning yig'indisini anglatga, tor ma'noda – ijtimoiy rolni bajara olish uchun zarur xisoblangan va ma'lum bir xuquq va majburiyatlarga ega bo'lgan ijtimoiy pozistiyalarning o'zaro

²⁴Kap.: Fürstenberg F. Die Sozialstruktur der Bundesrepublik Deutschlang Opladen: Westdeutscher Verlag, 1978.

²⁵Kap.: Schäfers B. Sozialstruktur und Wandel in der Bundesrepublik Deutschlang. Stuttgart, 1966.

²⁶Kap.: Zapf W. Sozialstruktur // Grundbegriffe der Sozialogie / Hrsg. Von B. Scharfert. Opladen: Leske & Budrich, 1986.

²⁷Kap.: Houlst T. F. Dictionary of modern sociology. Totowa, New Jersey: Littlefield and Adams, 1974.

bog'langan yig'indisini bildiradi. Ijtimoiy struktura ijtimoiy tizimning normal ishlashini, uning turg'unligini ta'minlab beruvchi jamiyatning ichki tuzilmasidir.²⁸

Ijtimoiy struktura – ijtimoiy qatlamlar, guruxlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, mehnat taqsimoti, ijtimoiy institutlar xarakteri bilan belgilanadigan ijtimoiy tizim* tarkibiy qismlari o'rtasidagi turg'un aloqalar tarmog'idir. Iqtisodiy munosabatlar ijtimoiy strukturaning qolgan tarkibiy qismlari o'rtasida belgilovchi rolni o'ynaydi. Jamiyatda uning sinfiy tarkibi muxim ahamiyatga ega. Axolining ijtimoiy strukturasi uning kasbiy, milliy, jinsiy, yosh, madaniyat va bosh. belgilariga ko'ra bo'linishini xam qamrab oladi. Mustaqillik sharoitida mulkchilikka, umuman, iqtisodiy jarayonlarga demokratik yondashuv qaror topayotganligi tufayli ijtimoiy strukturada xam qator o'zgarishlar sodir bo'lmoqda.

Agar, ijtimoiy strukturaga berilgan yuqoridagi ta'riflarni barchasini umumlashtirilgan xolda berilsa, ikki xolat o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bular: tizimiy-tashkiliy va stratifikatsion xolatlardir. Bir tarafdin ijtimoiy struktura jamiyatni yagona butunlikda ushlab turgan turli tizimlar aloqasi bo'lsa, ikkinchi tarafdin esa, ijtimoiy struktura – ketma-ketlik tartibida joylashgan ijtimoiy mavqelar, guruxlar, jamoalar, kishilar turli qatlamlari, tabaqalari yig'indisidir.

Ijtimoiy struktura xaqida gap ketganda jamiyatdagi turli qatlamlar va ularning ketma-ketligi, ularning o'zaro bog'liqligi xaqida to'xtalmasdan iloj yo'q. Lekin nimagadir ijtimoiy strukturaga berilgan ko'pgina ta'riflarda (jumladan, yuqorida keltirilgan ta'riflarning xam ayrimlarida) ijtimoiy qatlamlarning ketma-ketligi masalasi kam yoritiladi yoki umuman tushib qoladi. Chuqurroq o'ylab qaralsa, aynan “tengsizlik” jarayonining mavjud bo'lishi ijtimoiy strukturani o'zgarish yoki rivojlanish tomon etaklaydi.

Zamonaviy jamiyatlarda tengsizlik vaziyatiga an'anaviy jamiyatlarga nisbatan umuman boshqacha tarzda yondashiladi va tengsizlik xolatiga o'zgacha baxo

²⁸Комаров М. Введение в социологию. М.: Наука, 1994. С. 300.

* Ижтимоий тизим – кишкilar ўртасида тарихий ташкил топган ижтимоий муносабатлар тизими. У муайян ижтимоий алоқалар ва муносабатлар тақозо қиладиган давлат шакли, жамиятнинг сиёсий структураси, ҳуқуқий муносабатлари тизими эканлиги билан характерларнади. Ҳар қанадай ижтимоий тизимнинг асосини ижтимоий муносабатлар ташкил этади. Ижтимоий муносабатлар тизимида иқтисодиёт, сиёсат, маънавият ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлади.

beriladi. (Ya'ni zamonaviy jamlarlarda tengsizlik xolatiga "ilohiyot aralashuvi natijasi yoki ilohiyotdan belgilangan xaqiqat" deb emas, balki kishilarning ijtimoiy muxitida, ijtimoiy munosabatlarida yuzaga kelgan xamda, o'zgartirilishi mumkin bo'lgan vaziyat, deb baxolanadi). Bugungi kunga kelib, tengsizlik klassifikastiyalari (turlari, shakllari) talablarining soni g'ayri tabiiy tarzda ko'payib bormoqda. Shunisi qiziqki, bu tengsizlik klassifikastiyalari bir-birlari bilan shu darajada chirmashib ketganki, ular o'zaro aloqada bo'lib o'rgimchak to'risimon murakkab tizimni xam tashkil qilishmoqda. Lekin, eng asosiysi – turli ko'rinishlarga ega bo'lgan tengsizlik shakllari, kishilar tomonidan ijtimoiy jarayonlar natijasi sifatida anglanibgina qolmay, balki "tenglik" nuqtai nazaridan qaraganda yanada mukamallashib bormoqda. Shuning uchun xam, ular jamoatchilik tomonidan ijtimoiy tengsizlikning yaqqol faktlari sifatida qabul qilinmoqdalar va ko'pgina baxs-munozaralarga xamda turli sinflararo yuzaga kelayotgan ziddiyatlarga sabab bo'lmoqdalar.

15. ShAXS VA MADANIYat

Kundalik hayotda "inson", "individ", "shaxs" tushunchalari yagona mazmunda qo'llaniladi. Ammo sotsiologiya fani doirasida mazkur tushunchalar sinonim sifatida talqin qilinmaydi, ular o'rtasida ma'lum farqlar va o'ziga xos xususiyatlar bor.

"Inson" tushunchasi yer yuzidagi barcha odamlarga xos bo'lgan xususiyatlarni anglatuvchi umumiy tushuncha sanaladi. Bunda insonning inson zotiga tegishli ekanligini bildirish asosiy maqsad sanaladi.

Butun insoniyat emas, balki ularning aniq bittasi to'risida gap borganida "individ" tushunchasi ishlatiladi. "Individ" tushunchasi aniq sotsial va psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan insonni anglatadi, "aniq bir inson".

Shaxs – bu insonning o'z jamiyati tizimiga oid bo'lgan sifatii belgisi bo'lib, uning ijtimoiy munosabatlarga kirishganidan darak beradi hamda birgalikdagi faoliyat va muloqotida o'z ifodasini topadi. Ikkinchidan, shaxs – bu sotsial

munosabatlarning sub'ekti va mahsuli sanaladi. Hozirgina dunyoga kelgan go'dak xali o'zida shaxsni mujassamlashtirmagan bo'ladi. U individ sanaladi. Shaxs bo'lishi uchun inson ma'lum rivojlanish va shakllanish bosqichlarini bosib o'tishi kerak bo'ladi. Mazkur rivojlanishning asosiy shartlari sifatida biologik, genetik meros bilan birgalikda sotsial muhitning mavjudligi muhim sanaladi.

Shaxsning sotsial strukturasi o'zgaruvchan bo'ladi. Chunki inson butun hayoti davomida yangi axborotlarni qabul qiladi va ulardan xulosa chiqargan holda rivojlanib, takomillashib boradi. Shunga ko'ra, u o'z faoliyatini o'zgartirishi, xatti-harakatlarini boshqacha turda amalga oshirishi, amallarining motivatsiyasini o'zgartirishi mumkin. Aynan shuning uchun shaxsning sotsiogen komponenti sotsiologlar tomonidan katta qiziqishlarga sabab bo'ladi.

Sotsiologiya shaxsni o'rganish davomida u yashayotgan jamiyatni ham inobatga oladi va shuning natijasida mavhum shaxs tipini yaratishga intiladi.

Mashhur sotsial antropolog *R.Lintonning* fikricha, istalgan jamiyatda shaxsning ikki asosiy tipi mavjud bo'ladi: *normativ* va *modal*. Normativ shaxs tipi deyilganida, jamiyatdagi norma, qadriyat va madaniyatga mos bo'lgan shaxs tushuniladi. Modal shaxs tipi esa mazkur jamiyatdagi norma va qadriyatlardan o'uvchi shaxslar ichida eng ko'p tarqalgan tipini anglatadi.

Shaxs strukturasi *biogen*, *psixogen* va *sotsiogen* komponentlarni ajratib ko'rsatish mumkin. *Psixogen komponent* o'z ichiga emotsiyalar, kechinmalar, iroda, xotira, qobiliyat va h.k.larni qamrab oladi.

Sotsiogen komponent esa quyidagilardan tarkib topgan:

- Shaxsning ob'ektiv sotsial ehtiyojlari (fiziologik, xavfsizlik, bandlik, do'stlik, amho'rlik, muhabbat, prestij ehtiyojlari)
- Ijodkorlikka, bilim va ko'nikmalarni olishga bo'lgan iqtidor;
- Jamiyat madaniy qadriyatlariga egallaganlik darajasi;
- Shaxs amal qilib yashaydigan ahloqiy normalar, tamoyillar.
- Shu o'rinda *shaxs faoliyati* tushunchasiga to'xtalish maqsadga muvoffiq.

Shaxs faoliyati deyilganida, shaxsning ichki va tashqi tendensiyalarining ijtimoiy

hayotda namoyon bo'lishi tushuniladi. Shaxsning ijtimoiy faolligi insonning shaxs sifatidagi darajasini ifodalaydi, bu uning qadriyatli ehtiyojlarining qondirilishi hamda sifat ko'rsatkichidir. Demak, ijtimoiy faollik shaxsning muhim sifatidir. Shaxs faolligi – insonning hayotini boshqarish bilan boliq bo'lgan qadriyatlarining namoyon bo'lishi. Shu jihatdan shaxs faoliyati sotsiologiyada keng va tor darajada o'rganiladi. Shaxsning bunday darajalarda o'rganilishi metodologik ahamiyat kasb etadi.

- Shaxs – o'ziga xos intellektual, emotsional, irodaviy-shaxsiy belgi va sifatlarga ega bo'lgan sub'yekt. Bu belgi va sifatlarni muayyan sotsial-iqtisodiy formatsiyaning mahsulidir. Shaxs o'tmish tarixiy tajribani, o'tmishdagi madaniy boyliklarni o'zida to'playdi. Shaxs – barcha ijtimoiy munosabatlarning yiindisidir. U jamiyatdan tashqarida shakllana olmaydi.

- Shaxsning shakllanishida uning rivojlanish davri, mazkur jarayonning natijasi hamda shaxsni maqsadga yo'naltirilgan tarzda tarbiyalanishi katta ahamiyat kasb etadi.

- Shaxsning *asosiy xislatlariga* onglilik; ma'naviy boylik; ijtimoiy munosabatlar; jamiyatga nisbatan nisbiy mustaqillik va javobgarlik kiradi.

- Shaxsning *asosiy sotsial sifatlari* aniq sotsial guruhlar, jamoalar faoliyati va munosabatidan tarkib topadi. Shu sababli shaxsning sotsial sifatlari 3ta kichik tizimdan iborat:

- 1. Shaxsning individualligi.
- 2. Shaxslararo munosabatlari.
- 3. Munosabatlar sub'yekti.

- *Shaxsning individualligi* undagi xarakter, iroda, dunyoqarash, faoliyat jarayonidagi ba'zi bir xususiyatlar bilan belgilanadi. Undagi individual xususiyatlar uning amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi.

- *Shaxsning shaxslararo munosabati* shaxsning shu munosabatlar tizimi elementlaridan biri ekanligini bildiradi. Shaxslararo munosabat shaxs rivojlanishining, uning komil inson sifatida tarkib topishining asosi sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun shaxsning shaxslararo munosabatlar shaxsda insoniylik,

poklik, rostgo'ylik, samimiylilik kabi xislatlarning shakllanishida va takomillashuvida alohida o'ringa ega.

- *Munosabatlar sub'yekti.* Shaxsning ijtimoiy munosabatlar sub'yekti sifatida mavjud bo'lishi uning shu munosabatlarda sub'yekt sifatidagi maqomini belgilaydi.

- Shaxs ma'lum sotsial xususiyatli hodisalarning oqibatigina emas, balki sababchisi hamdir. Har bir shaxsning sotsial sifatlari uning amaliy faoliyatining mazmun va xarakterini belgilaydi. Aynan faoliyat jarayonida kishi atrofda muhitning o'ziga xos xususiyatlarini ishlab chiqadi. Sotsial xususiyatlar shaxsning ichki holat ta'sirida uning faoliyatida o'rab turgan voqelikka shaxsiy munosabat sifatida namoyon bo'ladi. Sotsial xususiyatlar bu ma'lum sotsial muhit sharoitlarida individlar orasidagi o'zaro ta'sirlar jarayonida yuzaga kelgan aloqalar tizimidir. Shaxsning sotsial xususiyati kishining faoliyati, xatti-harakatida, uning sotsial sifati shaklida ko'rinadi. Shaxsning sotsial sifatlari tashkil etuvchi elementlarga (shaxs sotsial maqsadi):

- o'z faoliyati jarayonida amal qiluvchi norma va qadriyatlar;
- foydalanadigan belgilar tizimi;
- o'z rolini bajarish va tashqi dunyoga nisbatan erkin harakat qilish uchun yordam beruvchi bilimlar majmuasi: bilim va qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi kiradi.

Sotsiologiya va psixologiyada ko'plab shaxs masalasiga baishlangan nazariyalar mavjud. Ular bir-biridan metodologik yondashuvlari asosida farqlanadi. Misol uchun marksizmdagi shaxs nazariyasi, Ch.Kuli va Dj.Midning "ko'zgudagi men" nazariyasi, Z.Freyd, E.Eriksonning psixoanalitik nazariyalari; J.Piajening bilishning rivojlanishi nazariyasi, L.Kolbergning ahloqiy rivojlanish nazariyasi; R.Linton, M.Moreno, T.Parsonsnings shaxsning rolli nazariyasi va boshqalar.

Sotsiologiyadagi funksional yondashuv shaxsni o'rganishdagi status-rolli nazariyaning shakllanishiga sabab bo'ldi. Bunda shaxs jamiyat uchun xarakterli bo'lgan status va rollarning majmuasi sifatida ko'rib, uning bajarayotgan

vazifalari tahlil qilinadi. Bugungi kunda sotsiologiyada aynan **rolli nazariya** sotsiologik jihatdan eng maqbul sanalmoqda²⁹. Aytib o'tish kerakki, insonni akter sifatida qabul qilish an'anasi anchadan beri mavjud va xatto antik davr olimlarida ham uchraydi. Mazkur rolli nazariyaning asosiy tushunchalari "sotsial rol" va "sotsial status" hisoblanadi. Ular shaxsning jamiyatdagi o'rni va uning bajaruvchi vazifalarini uning jinsi, yoshi kabilar asosida belgilab beradi.

"Sotsial rol" tushunchasi XX asrda E.Dyurkgeym, M.Veber, keyinchalik, T.Parsons, T.Shibutani, R.Linton va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan. Keyinchalik u turli sotsiologik nazariyalarda, jumladan, funksionalistik va interaksionistik nazariyalarda ham o'z ifodasini topdi³⁰. Rossiya sotsiologiya fanida I.S.Kon va V.A.Yadov o'z asarlarida sotsial rol masalasini yoritgan.

I.S.Konning fikricha, "sotsial rol – bu o'ta shaxsiy masala bo'lib, hech kimning individualligi bilan boliq emas. U har bir insonda u yashovchi jamiyat kutishlari asosida shakllanadigan vazifalar bo'lib, uning sotsial tizimda egallagan o'rni bilan belgilanadi". Demak, sotsial rol – jamiyat sotsial tizimida ma'lum joyni egallagan shaxsdan talab qiluvchi qator talablar yiindisi (ma'lum xatti-harakatning bajarilishini kutish). Mazkur talablar qator sotsial normalarda o'z ifodasini topadi. Talablarning amalga oshirilishi sotsial sanksiyalar vositasida ta'minlanadi.

Hech bir sotsial rol qat'iy belgilangan xatti-harakatlar modeli sanalmaydi. Rolga tegishli bo'lgan xatti-harakatlar vaqt o'tishi bilan va turli vaziyatlar ta'sirida o'zgarishi mumkin. Garchi jamiyat shaxsdan uning rollariga tegishli bo'lgan vazifalarni bajarishni talab qilsada, faqatgina individning xarakteri va individual xususiyatlari uning qay darajada va shaklda mazkur vazifalarni bajarishini belgilab beradi.

²⁹ Социология: Основы общей теории: Учеб. пособ. для высш. учеб. заведений / [Г.В.Осипов, Л.Н.Москвичев, А.В.Кабыща и др.: Редколлегия Г.В. Осипов (отв.ред.), Л.Н.Москвичев (отв.ред.) и др.]. — М.: Аспект Пресс, 1996. С. 182.

³⁰ Социология: Основы общей теории: Учеб. пособ. для высш. учеб. заведений / [Г.В.Осипов, Л.Н.Москвичев, А.В.Кабыща и др.: Редколлегия Г.В. Осипов (отв.ред.), Л.Н.Москвичев (отв.ред.) и др.]. — М.: Аспект Пресс, 1996. С. 182

Sotsial status – individning jamiyatda egallagan o'rnini bo'lib, u bajarayotgan vazifalar, majburiyatlar va huquqlari bilan belgilanadi. O'qituvchining statusi faqat o'quvchi statusi bo'lganida amal qiladi.

“Sotsial status” tushunchasi (lotincha status — holat) ilk bora sotsiologik jihatdan ingliz tarixchisi G.D.S.Meyn tomonidan 1885yilda chop etilgan “Qadim huquq” asarida qo'llanilgan. Qadimgi Rimda mazkur tushuncha yuridik shaxsning huquqiy holatini belgilash uchun ishlatilgan. XIX asrning 30yillaridan R.Linton, F.Merill, T.Shibutani, R.Terner kabi olimlar tomonidan sotsial status nazariyasi ishlab chiqildi. Hozirgi kunda mazkur tushuncha sotsiologlar tomonidan ikki xil ma'noda qo'llaniladi.

- individning yoki guruhning sotsial tizimdagi o'rnini belgilab beradi;
- mazkur o'rinning rangi (toifasi) va prestijini ko'rsatib beradi.

Keng ma'noda sotsial status – individning jamiyatda tutgan o'rnini bo'lib, u ushbu o'rinni yoshi, jinsi, kelib chiqishi, kasbi, oilaviy holati kabi xususiyatlari orqali egallaydi. Olimlar tomonidan statuslar tuma (belgilangan) va erishilgan status turlariga ajratiladi. Tuma statuslarga shaxsning millati, sotsial kelib chiqishi, jinsi kabilar kiradi. Erishilgan statuslar esa ma'lumotlilik, malaka, ko'rsatgan xizmatlari kabilar kiradi.

Sotsial statusning belgilanishi jamiyatdagi qadriyatlar tizimi hamda madaniyatga bevosita bo'liq bo'ladi. Misol uchun zamonaviy AQSh jamiyatining stratifikatsion strukturasi o'rganish uchun quyidagi kriteriyalar qo'llaniladi: *mashulot turi, daromad miqdori, ma'lumotlilik darajasi, etnik kelib chiqishi.*

U.Tomas va R.Darendorfning roli nazariyasida 40 yillardan boshlab sotsial status tushunchasining o'rnini “pozitsiya” (holat) tushunchasi egallay boshladi. Ularning nazarida pozitsiya turli qadriyatlardan xoli tushuncha sifatida namoyon bo'ladi. Bunda sotsial struktura pozitsiyalar o'rtasidagi turli tipdagi munosabatlar sifatida namoyon bo'ladi. Sotsial status individ pozitsiyasining prestijini belgilab beruvchi sifatni anglatib, sotsial stratifikatsiya nazariyasining elementiga aylanadi.

Shu bilan birgalikda *sotsial status* va *shaxsiy status* tushunchalarini farqlash lozim. Agar sotsial status individning ma'lum guruhga bo'liqligini va mazkur

guruhning prestijini anglatga, shaxsiy status shaxsning birlamchi guruhdagi o'rnini, shaxsiy xususiyatlarini anglatadi. Aytib o'tish kerakki, status rolsiz, rol esa statussiz mavjud bo'la olmaydi.

So'nggi paytlarda sotsiologiyaning shaxsga bo'lgan qiziqishi ortib bormoqda. Chunki shaxsning kichik guruhlarda sodir bo'luvchi jarayonlardagi o'zaro munosabatlari va harakatlarining makrodarajadagi strukturaviy jarayonlarga ta'siri kuchayib bormoqda.

Shaxsni o'rganishdagi sotsial-psixologik yo'nalishning asoschisi *Zigmund Freyd* bo'lib, uning fikricha, shaxs doimo jamiyat bilan konflikt holatida bo'ladi. Freydning nazariyasiga ko'ra, insonning biologik ehtiyojlari (ayniqsa, jinsiy mayl) jamiyatdagi madaniyat normalariga qarshi bo'ladi. Sotsializitsiya esa mazkur qarshilikni jilovlash jarayonidir. U inson psixikasida uchta darajani ajratib ko'rsatgan: U, Men, Super-Men.

Rossiyalik sotsiolog *I.S.Kon* o'zining "*Shaxs sotsiologiyasi*" nomli (1967) asarida shaxs tushunchasining ko'plab ta'riflari borligini va u ko'pqirrali ekanligini ta'kidlagan. Uning yozishicha, shaxs tushunchasi bir tomondan "aniq individni, faoliyat sub'ektini ifodalab, uning sotsial rollari va betakror individual xususiyatlarini nazarda tutadi. Boshqa tomondan shaxs individning sotsial xususiyati sifatida qabul qilinadi, ya'ni unda mehnat hamda bilish jarayonida mujassamlashgan ijtimoiy xususiyatlarning birligi nazarda tutiladi. Mazkur ikkinchi yondashuv sotsiologik nuqtai nazardan muhim sanaladi. Chunki u shaxsni jamiyatning, sotsial qatlam, sotsial guruhning vakili va sotsial xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan ob'ekt sifatida o'rganadi".

Shaxs qator gumanitar fanlarning tadqiqot ob'ekti sanaladi. Misol uchun falsafa, psixologiya, sotsiologiya va h.k. Falsafiy jihatdan shaxs umumiy tarzda tarixiy-nazariy asosda o'rganiladi. Unga ko'ra, hayot mazmuni, shaxs mohiyati va uning biologik va sotsial mavjudot sifatidagi rivojlanishining umumiy qonuniyatlari tadqiq qilinadi.

Psixologiya shaxsni ongli faoliyat sub'ekti sifatida bir butunlik nuqtai nazaridan o'rganadi. *G.M.Andreevaning* ta'kidlashicha, sotsial psixologiyaning

asosiy maqsadi shaxsning guruh bilan bo'lgan munosabatlari sanaladi. Shu orqali jamiyatning shaxsga bo'lgan ta'siri, mikro va makro muhitning shaxs hayotidagi o'rni tadqiq qilinadi.

Sotsiologiya boshqa fanlardan farqli ravishda shaxsni o'rganishda sotsiallik xususiyatidan kelib chiqadi. Bunda “har bir inson shaxs sanaladimi?”, degan savol asosiy hisoblanadi³¹.

Sotsiologiyada shaxs masalasini o'rganish natijasida shaxs sotsiologiyasi yo'nalishi rivojlandi. Uning asosiy o'rganish doirasiga shaxsning shakllanishi, uning sotsial munosabatlardagi ishtiroki, ehtiyojlarining rivojlanishi, jamiyat va shaxsning o'zaro uzviy birligi, shaxs xulq-atvorining atrof-muhit ta'sirida tashqi tomondan va o'zini-o'zi nazorat qilishi kabilari kiradi.

Zamonaviy sotsiologiya fanida Ye.A.Anufrievning fikricha, shaxsni ikki jihatdan ta'riflash maqsadga muvofiq: *formal-mantiqiy va dialektik-mantiqiy*³².

Birinchi yondashuvni asosan psixologlar va pedagoglar yoqlab, unga ko'ra, shaxs individdagi xususiyatlardan tashqari qator ijobiy xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Mazkur ijobiy xususiyatlarga ega bo'lgan individlarga shaxs sifatida talqin qilinishi mumkin. Ijobiy xususiyatlar sotsializatsiya davomida o'zlashtiriladi. Mazkur yondashuv ratsional mohiyatga ega bo'lsada, chegaralangan hisoblanadi va kimni shaxs deb aytish mumkin emas, degan savolga aniq javob topib bo'lmaydi. Misol uchun bola nechi yoshdan so'ng shaxs? deb sanaladi yoki qanday jinoyatni sodir etgan jinoyatchini shaxs sifatida ko'rish mumkin emas va h.k.

Ikkinchi yondashuv yuqorida keltirilgan qarama-qarshiliklarni cheklash imkonini beradi. Bunda shaxs umumiy butunlikning yakka, betakror, sotsial elementi sifatida ko'riladi. Barcha insonlar ma'lum o'xshash biologik va sotsial

³¹ Социология: Основы общей теории: Учеб. пособ. для высш. учеб. заведений / [Г.В.Осипов, Л.Н.Москвичев, А.В.Кабыща и др.: Редколлегия Г.В. Осипов (отв.ред.), Л.Н.Москвичев (отв.ред.) и др.]. — М.: Аспект Пресс, 1996. С.165.

³² Социология: Основы общей теории: Учеб. пособ. для высш. учеб. заведений / [Г.В.Осипов, Л.Н.Москвичев, А.В.Кабыща и др.: Редколлегия Г.В. Осипов (отв.ред.), Л.Н.Москвичев (отв.ред.) и др.]. — М.: Аспект Пресс, 1996. С.165-166.

xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Ammo shu bilan birgalikda insonlarning o'ziga xos bo'lgan biologik va sotsial sifatlari mavjud bo'ladi. Shunga ko'ra, shaxs umumiy va xususiy sifatlarning yiindisi sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun mazkur yo'nalish tarafdorlari shaxs tushunchasini barcha insonlarga nisbatan qo'llash mumkin, degan fikrni ilgari surishadi. Chunki har bir inson o'zining umumiy va xususiy sifatlariga ega bo'ladi. Shaxs – betakror hosila sifatida bir qator o'ziga xos bo'lgan sifatlarni talab qiladi. Shunga ko'ra, uni rivojlangan yoki rivojlanmagan shaxs, ongli yoki ongsiz shaxs sifatida baholash va o'rganish mumkin.

Aytib o'tish kerakki, mazkur ikki yondashuv bir-birini inkor qilmaydi, balki to'ldiradi. Barcha sotsiologik tadqiqotlarning markaziy muammosi shaxs va jamiyat munosabatlari sanaladi. *A.G.Zdravomislovning* fikricha, sotsiologning diqqat markazida doimo jamiyat va shaxsiy manfaatlarning murakkab munosabatlari yotadi. Sotsiolog uchun ijtimoiy manfaatlar jamiyatdagi sotsial institutlar, tashkilotlar, tizimlarning manfaatlari shaklida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, olim sotsiologiyaning strukturasini sxema tarzida yaratgan. Unda jamiyat siyosat, iqtisod va ma'naviy sohaning natijasi hisoblanadi. Sotsiologiya esa shaxsning mazkur sohalaridagi faoliyatini o'rganadi.

Inson o'sishi barobarida turli sotsializatsiya kanallari orqali yangi bilim va normalarni o'zlashtiradi. Shu asosida o'zi uchun kerakli bo'lgan qadriyatlar tizimini yaratadi. Ammo inson shaxs sifatida shakllanganidan so'ng ham uning jamiyat bilan munosabatlari uzilib qolmaydi, u shakllanishda va takomillashishda davom etadi. Unga ikki tizim eng ko'p ta'sir ko'rsatadi: oila va mehnat jamoasi.

«Sotsializatsiya» tushunchasi XIX asr oxirida - paydo bo'lib, shaxsning o'z hayoti mobaynida o'zi mansub bo'lgan jamiyatning ijtimoiy me'yorlari va madaniy qadriyatlarini o'zlashtirish jarayonini anglatadi. Sotsializatsiya «shaxsni tarbiyalash», «shaxsni shakllantirish» tushunchalari bilan chambarchas boliq, biroq u kengroq tushuncha bo'lib, insonga nisbatan bo'lishi mumkin bo'lgan barcha ta'sirlarni qamrab oladi.

Inson shaxs bo'lib tuilmaydi, u shaxs bo'lib shakllanadi. Insonning shaxs bo'lib shakllanishi va qaror topishi sotsializatsiya jarayoni nomi bilan ataladi. Sotsializatsiya jarayoni go'daklikdan boshlanib, insonning so'nggi kunigacha davom etadi. Mazkur jarayon davomida inson jamiyatdagi madaniyat normalarini va sotsial rollarni egallaydi. Boshqacha qilib aytganda, u o'z "Men"ini topadi.

Bunda inson quyidagi jarayon va usullardan foydalanadi:

O'rganish – yangi bilimlarni qabul qilish, sotsializatsiyaning rudimentar shakli.

Tarbiyalash – sotsializatsiya agentlarining insonning ruhiy olami va xulq-atvoriga maqsadli ravishda ta'sir ko'rsatishi.

Shaxs sotsializatsiyasining asosini normalarni o'zlashtirish holati yotadi. Normalarga amal qilish jamiyatning madaniy darajasini aniqlab beradi.

Shaxs sotsializatsiyasi ikki bosqichni qamrab oladi:

1. *Adaptatsiya (moslashish)*. Bu individning sotsial sharoitlarga, funksiyalarga, sotsial normalarga, sotsial guruhlariga, tashkilot va institutlarga, ya'ni muhitga moslashishidir. Sotsial adaptatsiya jarayoni, asosan oilada boshlanadi va shakllanadi. Oiladagi har qanday munosabatlar shaxsning sotsializatsiyasida o'z aksini topadi. Shu boisdan individning shaxs sifatida shakllanishida oila asosiy rol o'ynaydi.

2. *Interiorizatsiya*, ya'ni sotsial norma va qadriyatlarning individ ichki dunyosiga kirishi jarayoni. Shaxs sotsial muhitga qorishib ketmaydi, balki unga mustaqil birlik sifatida kiradi. Ko'pgina nazariyalarda shaxsning sotsializatsiyasi, tashqi ta'sir ob'yekti sifatidagina qaraladi. Bu nazariyalarda asos qilib faqatgina sotsializatsiya yordamida sotsial o'zgaradigan insonning tabiiy mohiyati olinadi; shaxsning aktivligi va unga beriladigan biologik xususiyatlar hisobga olinmaydi.

Sotsializatsiya shunga asoslanadiki, odam ijtimoiy faoliyati sifatida o'zi ham ijtimoiy hayotining hamma sharoit va vaziyatlarini belgilovchi omildir. Shaxs sotsial ta'sirlanishning ob'yekti va sub'yektidir. Sotsializatsiya jarayonida belgilar tizimi muhim ahamiyatga ega. Belgilar yordamida jamiyat individlar faoliyatini boshqaradi. Indivd sotsial faoliyat ko'rsatish uchun sotsial jamoada qabul qilingan belgilar va ularni ishlatish usullarini o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

16. AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY JAMIYATLARNING XUSUSIYATLARI. MODERNIZATSIYA

Modernizatsiya - sotsiologiyaning an'anaviy jamiyatdan zamonaviylikka, "modern"ga o'tishini bildiruvchi asosiy tushunchalaridan biridir. Klassik davr sotsiologiyasi tomonidan taxlil qilinadigan asosiy muammo, zamonaviy jamiyatning o'ziga xosligi, uning ijtimoiy tashkillashtirishning o'tmishdagi turidan farqi muammosi bo'lgan.

E.Dyurkgeym uchun zamonaviy jamiyat - bu "organik birdamlikka ega bo'lgan", "anomiya (buzilgan xulq)" bilan og'rigan jamiyatdir; K.Marks uchun zamonaviy jamiyatning o'ziga xosligi kapitalistik tuzum bilan belgilangan; M.Veber modernning o'ziga xos xususiyatini rasionallikning ortib borishida ko'rgan. F.Tennis zamonaviylikka o'tishni "uyushma"ning "jamiyat" bila almashinuvi, ya'ni ijtimoiy aloqalar turining o'zgarishi sifatida ta'riflagan. G.Zimmel o'z e'tiborini inson munosabatlarini asoslovchi va ularni nisbatan maxumlashtiruvchi pullar kabi xodisaga o'z e'tiborini qaratgan.

Modernizatsiyaning XX asrda shakllangan klassik konstepstiyasida an'anaviy va zamonaviy jamiyatlar o'rtasidagi asosiy farqlar umumiy jixatlarda quyidagilardan iborat.

An'anaviy jamiyatlarning asosiy jixatlari:

- moddiy ishlab chiqarishda qishloq xo'jaligi va qo'l texnologiyalari ustun turadi, inson va xayvonlar quvvatidan foydalaniladi;
- qishloq axolisi shaxar axolisidan bir necha marotaba ko'p;

- ishlab chiqarish asosan bevosita iste'molga yo'naltirilgan, bozor munosabatlari kuchsiz darajada rivojlangan;

- stratifikatsiyaning sinfiy va urug'chilikka oid tizimi; past darajadagi ijtimoiy mobillik;

- yozilgan maqomlarning erishiladiganlardan ustun turishi;

- kengaygan patriarxal oila;

- shaxsning ijtimoiy muxitdan ajralmaganligi;

- ijtimoiy o'zgarishlarning past sur'ati, kelajakka emas, balki o'tmishga yo'naltirilganlik;

- diniy-mifologik dunyoqarashning xukmronligi;

- nisbatan bir xil qadriyatlar va me'yorlar;

- avtoritar, sakrallashtirilgan siyosiy xokimiyat.

Zamonaviy jamiyatlarga boshqa xususiyatlar xos:

- bug', keyinroq elektr va yadroviy energiyaning qo'llanilishiga asoslangan sanoat korxonalari va murakkab texnologiyalar;

- shaxar axolisi qishloq axolisidan ko'p;

- ishlab chiqarish ommaviy bozorga ixtisoslashtirilgan;

- tengsizlikning sinfiy tizimi; yuqori darajadagi ijtimoiy mobillik;

- erishiladigan maqomlar yozilganlaridan ustun turadi;

- ilmiy, dunyoviy dunyoqarashning xukmronligi, ommaviy ta'lim;

- ijtimoiy o'zgarishlarning yuqori sur'ati, asosan kelajakka intilganlik;

- individualizm;

- nuklear oila;

- noaniq, tushunarsizqadriyatlar va me'yorlar;

- rasmiy tashkilotlar, byurokratiyaning tarqalganligi;

- demokratik siyosiy tuzum.

Bu an'anaviy va zamonaviy jamiyatlar o'rtasidagi farqlarning faqatgina sxematik va soddalashtirilgan ta'rifidir, biroq u xam gap bir-biridan tamomila faqr qiluvchi ijtimoiy dunyolar xaqida borayotganligini ko'rish imkonini beradi. An'anaviy jamiyatdan zamonaviy jamiyatga o'tish oson xam, tez xam bo'lishi

mumkin emas. G'arbiy jamiyatlarga - modernizastiya pionerlariga mazkur jarayonni amalga oshirish uchun bir necha asr zarur bo'lgan. Sostiologik fanda modernizastiyaning ko'plab izoxlari mavjud, biroq bugungi kunga qadar xam umum qabul qilingan ta'rif mavjud emas. Gap asosan tarixiy voqealarning o'ziga xos tarzda kesishishi xaqida borishi lozim.

G'arbiy Evropa mamlakatlarining (vaAQShning) dastlabki modernizastiyasi birlamchi modernizastiya deb ataladi. U mazkur jamiyatlar rivojlanishining ichki mantig'i natijasida vujudga kelgan. Modernizastiya yo'liga G'arbning bevosita yoki bilvosita ta'siri ostida turgan nog'arbiy jamiyatlarning modernizastiyasi ikkilamchi modernizastiya, deb ataladi. U nisbatan qisqa tarixiy muddatlarda, madaniy asosda, Evropadan ancha farq qilgan xolda kechgan. Shu sababli ikkilamchi modernizastiya madaniy omillar tomonidan vujudga keltiriladigan ko'plab o'ziga xos qiyinchiliklar bilan birga kechadi.

Modernizastiya nafaqat tubdan tuzilmali o'zgarishlarni, balki chuqur madaniy o'zgarishlarni xam taqozo qiladi. Modernizastiyaning aynan madaniy jixati bizni birinchi navbatda qiziqtiradi. Madaniyat zamonaviylikka o'tishda qanday o'zgargan? Ushbu masalani g'arb jamiyatlari - "modernizastiya pionerlari" misolida ko'rib chiqamiz.

Modernizastiyaning madaniy jixatlari.

Sekulyarizastiya, rastionallashtirish, madaniy differenstiastiya

Aftidan, din rolining o'zgarishidan boshlash zarur. An'anaviy jamitlar madaniyati diniy-mifologik dunyoqarash bilan to'yingan. T.Parsons, an'anaviy jamiyatlar madaniyati dinga sinonim ekanligini ta'kidlab o'tgan. Tabiiy kabi, ijtimoiy tartib xam aynan din, afsonalar vositasida ta'riflanishi mumkin. Diniy dunyoqarashning xukmronligi jamiyatda din institutlarining, va tabiiyki, faoliyati diniy marosimlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan insonlarning usutnligini bildiradi.

Dinning moxiyati (Dyurkgeymga ko'ra), atrof dunyo - tabiiy kabi, ijtimoiy dunyoning "iloxiy", "sakral" va "dunyoqiy", "axloqsiz"ga ajralishidan iborat.

Xar qanday ob'ekt, voqelikning xar qanday elementi "iloxiy" yoki "axloqsiz" bo'lishi mumkin. Makon: cherkov joyi - muvaddas, shaxar ko'chasi esa - yo'q. Vaqt xam "muqaddas" yoki "axloqsiz" bo'lishi mumkin. Muqaddas vaqt masalan, bayram vaqti bo'lishi mumkin. Kundalik tashvishlar va mexnat bilan bog'liq bo'lgan vaqt muqaddas xisoblanmaydi. Atrofdagi dunyoning ob'ektlari yoki ayrim odamlar "sakral (muqaddas)" bo'lishi mumkin. Shox, xukmdor, ruxoniy xam sakral bo'lishi mumkin. Biroq jinoyatchi, iloxiy ko'rsatmalarni buzgan osiy xam muqaddas bo'lishi mumkin. Aloxida iloxiy kuchga ega bo'lgan narsa "muqaddas" xisoblanadi. "Iloxiy" "dunyoviy"ga ma'no beradi. Faqat iloxiy tufayligina dunyoviy mavjud bo'lishi mumkin. Sakral bilan muomalada bo'lish extiyotkorlikni talab etadi, u xamma uchun xam ochiq emas. An'anaviy madaniyat odami sexr va sirlarga to'liq dunyoda yashaydi, istalgan vaqtda u undan cheksiz darajada ustun bo'lgan kuchlar bilan uchrashib qolishi mumkin. "Sakral" va "axloqsizlik" xaqidagi tasavvurlar uning faoliyati va tafakkurni tuzilmalashtiradi.

Xristianlik - o'rta asr Evropa stivilizastiyasining diniy poydevori "butparastlar" xudolarining va tabiiy ofatlarni va ibtidoni aks ettiruvchi iblislarning xaqiqiyiligini tan olmagan, faqatgina dunyoga xos bo'lgan Yaratuvchi-Xudoning yagonaligiga ishonishni ta'kidlagan. Biroq shunga qaramasdan Cherkov va diniy marosimlar vositasida inson doimiy ravishda mavjudlikning iloxiy ibtidosi bilan birga bo'lgan. O'rta asr davrida diniy bayramlar bir yilda odatiy ish kunlari qancha bo'lsa, shuncha bo'lgan. Shayton va uning askarlarining qiliqlari xaqiqat sifatida qabul qilingan. Bundan tashqari, butparstlik dunyoqarashining qoldiqlari savlanib qolgan. "Iloxiy" narsalar "dunyoviy" narsalarni oziqlantirish va asoslashda davom etadi.

Katolik cherkovining ta'sirining Qayta islox qilish va xristianlikning yangi yo'nalish - Cherkov va ruxoniylarning qutqaruvchi va iloxiy rolini inkor qidluvchi protestantizmning paydo bo'lishida namoyon bo'lgan kuchsizlanishi, Evropa madaniyatining sekulyarizastiyasi yoki "yakkalanib" qolishining ibtidosi bo'ldi. Protestantizm o'z-o'zidan "yakkalanib qolish"ni bildirmagan. Aksincha, protestantlarning asosiy maqsadi, ular tomonidan diniy burch va Xudoga xizmat

qilish, dub tushuniladigan oddiy mexnat faoliyatini xam "sakral"ga aylantirishdan iborat bo'lgan.

K.Marks protestantizmning asoschisi Martin Lyuter poplarni dunyo kishilariga, dunyo kishilarini poplarga aylantirgan, deya aniq ta'kidlagan.

Ruxoniylikni bekor qilgan xolda protestantlar deyarli xar bir kishini ruxoniyga tenglashtirganlar. Biroq mazkur ruxoniy katolik ruxoniylari kabi Xudo bilan Inoyat va sirlar orqali sexrli aloqaga ega bo'lmagan. Inson va Xudo munosabatlarini axloq kengligiga olib o'tgan xolda, mazkur munosabatlarning iloxiy elementlarini minimumna keltirgan xolda protestantizm bilvosita ravishda Evropa dunyosining diniy ruxini shamolga uchirib yuborish va "sexrlarni yo'qotish"ga (M.Veber atamasi) imkoniyat yaratgan.

Protestantizmning madaniy oqibatlari bu bilan yakunlanmadi. M.Veberning fikriga ko'ra, protestantizm uning mexnat faoliyatini diniy jixatdan anglashi va ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning ruxni qutqarishga tenglashtirilishi, yangi ta'limot tarafdorlarining iqtisodiy faolligining oshib ketishiga va Evropada kapitalizmning zamonaviy ko'rinishining shakllanishiga imkoniyat yaratdi. Shuni ta'kidlash lozimki, an'anaviy madaniyatlarda mexnat, xo'jalik faoliyati xech qachon etarli axamiyatga ega bo'lmagan. Zamonaviy jamiyatning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, aynan xo'jalik, iqtisodiyot atrofida ijtimoiy dunyo paydo bo'ladigan o'zakka aylanib bormoqda.

Evropa madaniyatida sekulyarizastiya yo'nalishining kelajakdagi ortib borishini ilmiy bilimlarning rivojlanishi, va ayniqsa, XVIII asr Maorifining xarakati bilan bog'lash zarur. Mazkur xarakatning moxiyati, avvaldan ma'lum bo'lishicha, inosn ongining voqelikni anglash va o'zgartirishdagi cheksiz imkoniyatlariga ishonchi, shuningdek turli ko'rinishdagi xurofotlarni tanqid qilishdan iborat.

An'anaviy din xam xurofot soxasiga tegishli bo'lgan. Cherkov qoloqlik va jaxolatparastlik tayanchi sifatida qabul qilingan. Diniy e'tiqodlarini saqlab qolgan ma'rifatparvarlar deizm (xudoni tan oluvchi) – ya'ni dunyoni yaratgani bilan uning ishlariga aralashmaydigan Yaratuvchi-Xudoni tan olgan ta'limotning tarafdorlari

bo'lganlar. Turli eskirgan an'analar xam, va "eski tuzum"ning o'zi xam tanqid qilingan – mazkur atama ostida xayotning o'rta asrga xos tarzi va uning XVII – XVIII asrlarga qadar xam saqlanib qolgan sarqitlari, jumladan tabaqaga oid tengsizlik xam tushuniladi. "Eski tuzum"ning rastionalistik tanqidi yangi, tuturiqsiz xurofot va eskirgan an'analarga emas, balki ongli asoslarga tayangan yangi tartibni yaratishni nazarda tutgan. Inson ong xaqiqatlariga tayangan xolda ijtimoiy-siyosiy tartibni takomillashtirish qobiliyatiga ega bo'lgan faol ijodiy ibtido sifatida tan olina boshladi. Tafakkurdagi mazkur burilish Evropada eski siyosiy tuzumni parchalab yuborgan siyosiy inqilobni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratib berdi.

Ilmiy bilimning rivojlanishi va dinning ta'sir kuchining susayishi bilan inson aqli imkoniyatlariga ishonchning rivojlanishi Yangi davrga xos tarzda dunyoni qabul qilishning ajralmas qismi bo'lgan taraqqiyotga ishonchni paydo qildi. Taraqqiyotga bo'lgan ishonch vaqtini qabul qilishni va o'zgarishlarga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirishni anglatdi. Shu vaqtdan boshlab Evropa jamiyatlari o'tmishga emas, balki kelajakka qaray boshladi. Kelajak tarixiy rivojlanishning o'zgartirib bo'lmaydigan qonuni sababli inson jamiyatini takomillashtirishni va'da qildi. Umri tugagan an'analar va bid'atlar bilan tenglashtiriladigan o'tmish taqlid qilish uchun namunalar manbai sifatida qabul qilinmay qo'ydi.

Modernizastiyaning eng muxim jixati chuqurlashib ulgurgan madaniy differenstiastiya – "madaniy koinot" ichidagi turli "qiymat soxalari"ning avtonomlashuvi bo'ldi. Madaniy differenstiastiya o'rta asr ma'naviyati ommaviyligini parchalaydi va o'zining shaxsiy qadriyatlarini tasdiqlashga intilayotgan, mustaqillikka erishishni istayotgan aloxida "madaniy dunyo"larni ajratib ko'rsatilishiga imkoniyat yaratadi. Madaniy differenstiastiya ijtimoiy differenstiastiyaning, o'rta asr davrining gomogen ijtimoiy-madaniy organizmidan mustaqil soxalarni tanlab olishning ma'naviy korrelyati bo'lgan.K.Manxeym ushbu jarayonlar xaqida quyidagicha yozgan:

Xar bir muxit (masalan, san'at, fan, shuningdek, iqtisodiy va boshqa jamiki

sof xissiy xayot)asosiy xayotiy qadriyatdan mavjud bo'lish uchun ruxsat olgan va o'ziga xos moxiyatini kasb qilgan umumiy aloqa tizimidan ozod bo'lganidan so'ng mustaqil ma'noga ega bo'lgan, shaxsiy qadriyat sifatida qayta tiklanishga intiladi. Va bunda mustaqillikka erishish jarayoni avval xayotda g'alaba qozonadi, so'ngra nazariya... ntarixiy jarayon tomonidan erishilgan atijalarni eski muddat bilan qayd qilgan xolda yuqori bosqich rolida namoyon bo'ladi. Misol sifatida aytish mumkinki, fan va falsafa teologiyaning xizmatkori maqomidan ozod qilinganidan so'ng ... ongning mustaqilligi xaqidagi nazariya vujudga keladi. San'atning mustaqilligi xaqidagi nazariya o'xshash tarzda, o'z ifodasini, san'at renessans davrida din zanjirlaridan ozod bo'lgandan so'ng qayta shakllangan estetikada o'z ifodasini topgan xolda, faqatgina izdosh rolida namoyon bo'lish imkoniyatiga ega bo'ldi...

Modernizastiya jarayonida faoliyatning ilmiy anglash, siyosat va xo'jalik kabi soxalari din va bir-biridan nisbatan mustaqil bo'ladilar. Ularning O'rta asr davrida o'z o'rniga ega bo'lmaganligiga sabab jamiyatning barcha jabxalariga chuqur kirib borgan diniy e'tiqodlar va qadriyatlarning ta'siri bilan bog'liq bo'lgan. Biroq Cherkov (shaxarlarning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar; ilmiy bilining o'sishi; texnologiyalarning takomillashtirilishi va qator boshqa omillar bilan bir qatorda) ta'siri va nufuzining cheklanishi, ijtimoiy xayotning mazkur soxalari sekin-astalik bilan din ta'siri ostidan chiqishiga va shaxsiy "qiymatlar soxasi", qadriyatlari va me'yorlarini shakllantirishlariga olib keldi. Xo'jalik faoliyati, xuddi siyosat kabi sekin-astalik bilan diniy ta'sirdan ozod bo'la boshladi. Ilmiy bilim diniy e'tiqodlardan mustaqil ravishda, aloxida rivojlana boshladi. Xalq orasida mashxur bo'lgan afsonaga ko'ra, Galiley (Cherkov bilan bo'lgan ziddiyatlarga qaramasdan butun xayoti davomida dindor bo'lib qolgan) quyidagi so'zlarni aytgan: "Injil Samoga qanday ko'tarilishni o'rgatadi, samoning qanday tuzilganligini emas". Shunday qilib, u din va fan manfaatlari soxalarini; diniy e'tiqod va ilmiy tadqiqot asoslangan prinstiplarni ajratgan va ta'riflab bergan.

Madaniyat soxasi diniy bo'lgan, ijtimoiy amaliyot esa faqatgina diniy g'oya va prinstiplarni xayotga tadbiiq qiladigan an'anaviy madaniyat va an'anaviy

tafakkur doirasida bu kabi ajratishni amalga oshirish imkoni mavjud bo'lmagan.

“...bu kabi jamiyatlarda odamlarning odatiy ijtimoiy xayoti Koinotning fundamental tartibi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Ijtimoiy institutlar (masalan, qarindoshlik instituti) iloxiy voqelikning imitastiyasi va xattoki emanastiyasi sifatida o'rganiladi. Ijtimoiy rollar (qirol yoki ruxoniy roli) iloxiy mavjudotlarning vakillari yoki xattoki inkarnastiyasi (o'zgarishi) sifatida tushuniladi. Xuddi shu kabi, infon faolligining belgilangan patternlari (jinsiy munosabatlar, qishloq xo'jaligi yoki urush kabilar) xudolar dunyosida amalga oshiriladigan xarakatlarning o'xshashi yoki mashqlari sifatida tushuniladi. Bu kabi jamiyatda din nafaqat jamiyatning birligini tutib turuvchi voqelikka bo'lgan qarashlarning to'silishi, biroq shu bilan birga ijtimoiy xayotning xar bir bo'g'ini uchun to'liq legitimastiyasini xam ta'minlaydi”. Evropa jamiyatlarining modernizastiya jarayonida aynan shu birlikka nuqta qo'yildi.

Shunday qilib, **modernizastiya sekulyarizastion yo'nalishlarning ortib borishi, madaniy differenstiyasi va rastionalizmning ortib borishi bilan kuzatilgan.** Turmushning “muqaddas” jixati o'z axamiyatini yo'qotib bormoqda. Dunyo – tabiiy kabi, ijtimoiy dunyo xam – to'laqonli ravishda “tushunarsiz” bo'lib bormoqda. Unda sexrli kuchlar, xudolar, ruxlar va shaytonlarga kamroq o'rin qoldi. Faqat ongli insongina borliqning yagona faol ibtidosi bo'lib qoldi. Ushbu faollik barcha narsalarda – san'atdan siyosiy o'zagrishlarga qadar namoyon bo'lishdan to'xtamayapti.

Din ta'sirining pasayib ketishi faqatgina “inson ongining bid'atlardan ozod bo'lishini” anglatmagan. **U ijtimoiy tuzilmalar va Evropa jamiyatlari** institutlarining legitimlashtirilishini keng ko'lamli inqirozini anglatgan. Mazkur jamiyatlarning siyosiy tizimining o'zgarishi yaxshi misol bo'lishi mumkin. Ayn'anaviy madaniyatlar, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, siyosiy xokimiyatning sakrallashtirilishiga moyil. Xukmdor nafaqat xokimiyatga, balki sakral maqomga xam ega bo'ladi, yoki xudoning avlodi, yoki uning vakili va xizmatkori maqomiga ega bo'ladi. Xukmdor vazifalari o'z fuqarolarini boshqarish vazifalari bilan yakunlanmaydi. U dunyoning sakral barqarorligini ta'minlab turadi.

O'rta asr davri Evropa monarxlari xam shuningdek, sakral shaxslar bo'lganlar. Faqatgina diniy e'tiqodlarning kuchsizlanishigina angliya va franstiya burjuaziya revolyustiyalarining qirollarini qatl qilish imkonini berdi. Biroq siyosiy xokimiyat sakral moxiyatini yo'qotishi bilanoq uning mafkuraviy asoslanishi muammosi vujudga keldi. Birinchisi unga xos bo'lgan zodagonlik va rastionallikni aks ettiruvchi, davlatning o'rni va rolini tushunish xos bo'lgan liberalizmdan iborat siyosiy mafkuralarning vujudga kelishining asosiy zaminlari shu kabi shakllandi. 18-20 asrlarning inqilobiy xodisalaridagi muxim safarbar qiluvchi kuch bo'lgan siyosiy mafkuralarning paydo bo'lishi kabi madaniy xodisalar xaqida gapirmaasa xam bo'ladi.

Dinni ijtimoiy xayotning bir chekkasiga surib qo'ygan xolda Evropa jamiyatlari rastionalizm prinstiplariga asoslangan yangi dunyoqarashlarga muxtoj bo'lgan. Yuqorida aytib o'tilganidek, siyosat soxasida siyosiy mafkuralar dunyoqarashga aylandi. Tabiiy kabi ijtimoiy dunyolarning izoxlanishi, ilmiy bilimning vazifasi sifatida tan olingan. Tabiiy fanlarning rivojlanishi gumanitar fanlarning rivojidan oshib ketgan va ularning yo'nalishi bo'lib xizmat qilgan. Ma'lumki, Ogyust Kont – sostiologiya yaratuvchisi, yangi fanni tabiat xaqidagi fan namunasiga ko'ra qurishga chaqirgan.

Fanning tez sur'atlar bilan rivojlanishi faqatgina bilimga bo'lgan intilishning ortishi bilan bog'liq bo'lmagan. Bilim an'anaviy madaniyatlarda xam ulkan qadriyat xisoblangan. Biroq modernizastiya bilim vazifalarining qayta baxolanishi. Uning tabiatining o'zagrishi bilan birga kechgan.

XX asrning boshida nemis faylasufi va M.Sheler xukumronlik uchun xalos etuvchi, ta'limga oid va xukmronlik uchun bilim kabilarni ajratib ko'rsatgan xolda bilimlar tipologiyasini taklif qildi. Xalos etuvchi bilim insonning turmushning ma'naviy asoslari bilan aloqasiga tegishli bo'lgan. Ta'limga oid bilim shaxsning shakllanishiga imkoniyat yaratgan. Xukmronlik maqsadida olingan bilim tabiiy kabi, ijtimoiy dunyo ustidan xukmronik qilish maqsadida bilim egallashni anglatadi. Ilmiy bilim, Sheler tipologiyasiga muvofiq, aynan xukmronlik maqsadidagi bilimlarga kiradi. Bilimlarning u yoki bu turining ustunligi qadriyatlar

tizimi bilan bog'liq. Diniy qadriyatlarni inkor qilgan faollikka oid dunyoviy dunyoqarashlar, bilimni birinchi navbatda dunyo va insonni o'zgartirish quroli sifatida tushunganlar.

Qadriyatlar tizimini o'zgarishi va “burjuaziya xislatlari”

Madaniy modernizastiyaning moxiyatini tashkil etuvchi va diniy qadriyatlardan erdagi baxt va farovonlik, erkinlik. Faol “dunyoviy” faoliyat kabi dunyoviy qadriyatlarga burilishni ta'minlagan dunyoqarashga oid burilish an'anaviy ijtimoiy ierarxiyaning o'zagrishlari bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar tizimidagi “siljish”lar bilan kuzatilgan.

Yangi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi jamiyatda farovonligi tadbirkorlik faoliyatiga bog'liq bo'lgan qatlamlari ta'sirining kuchayib ketishiga olib kelgan. Gap avvalambor burjuaziya xaqida boradi. Burjuaziya ta'sirining mustaxkamlanishi saxiylik, namoyishkorona bekorchilik, vijdon, g'arbiy qaxramonlik, sadoqat, estetizm, dabdaba kabi aristokratik qadriyatlarni sekin-astalik bilan siqib chiqargan “burjuaziya xislatlari”ning axamiyatining ortishiga olib keldi. Odatiy burjuaziya xususiyatlari orasidan mexnatsevarlik, tejamkorlik, praktistizm, extiyotkorlik, rejalilik, dabdababozlik va isrofgarchilikni yoqtirmaslik, ishga oid adolat kabilarni ajratib ko'rsatish mumkin. Mexnatning tubdan qayta baxolanishi o'ziga e'tiborni tortadi. O'rta asr Evropa jamiyatida mexnat dastlabki gunoxlar uchun jazo sifatida qabul qilingan. Mexnat qilmaslik imkoniyati yuqori tabaqalarning eng muxim imtiyozi bo'lgan. Burjuaziya "qatlami" uchun esa mexnat – asosiy qadriyatdir.

M.Veber mexnatga bo'lgan munosabatning o'zgarishini, mexnatni diniy xizmat ko'rsatish, va bilvosita, ruxni qutqarish vositasiga aylantirgan protestantlik etikasi bilan bog'lagan. Dastlabki protestantlarni ularning mexnat faoliyatiga rag'batlantirgan diniy ruxning “uchib ketishi” bilan ularning mexnat axloqi baribir saqlanib qolgan, va u kapitalizmning ma'naviy poydevorini tashkil etgan.

Polshalik tadqiqotchi ayol M.Osovskeya burjuaziya qadriyatlarining tasdiqlanishining boshqa versiyasini taklif qildi. U “burjuaziya” yoki “meshchanlik” etosi avval boshdanoq mavjud bo'lgan (tadqiqotchi anitik

misollarni xam keltiradi), biroq jamiyatning “quyi qatlamlari”ga xos bo’lgan. U zodagonlarning ustun qadriyatlari, “bekorchilar” sinfi tomonidan bostirib kelingan. Zodagonlar ta’sirining G’arb jamiyatlari xayotining an’anaviy tartibining buzilishi bilan bog’liq ravishda tushib ketishi yangi davrga mos bo’lgan eng axamiyatli “burjuaziya”, “meshchanlik” qadriyatlarining keng tarqalishiga va legallashtirilishiga olib keldi.

Biroq xar qanday olatda xam zodagonlarning qadriyatlari (diniy qadriyatlar bilan bir qatorda) modernzastiya davomida xaqiqatan xam o’z ta’sirini yo’qotdi. G’arb jamiyatlarida belgilangan kapitalizm burjuaziya xislatlarini qadriyatlar va o’zini tutish me’yorlarining ustun tizimiga aylantirdi. Sanoat inqilobi bilim foyda olib kelish qobiliyatiga ega ekanligining amaliy isboti xisoblanadi. Sanoat korxonalarining uning shakllanish yillarida unga soya solganligiga qaramasdan moddiy boylkilarning ulkan miqdorini yaratish imkonini berdi, davromad olib keldi, boylklarini orttirdi. Sanoat inqilobi ulkan ijtimoiy va madaniy oqibatlariga ega bo’lgan.

Sanoat korxonalarining shakllanishi g’arb jamiyatlarining keng ko’lamli urbanizastiyasining xayotga kirib kelishiga sabab bo’ldi, an’anaviy ijtimoiy aloqalarni parchalab yubordi, yashash joylari yirik shaxarlar bo’lgan mustaqil va yashirish individlardan iborat bo’lgan"ommaviy jamiyat"ning shakllanishiga olib keldi.

Sanoat korxonalari insonning tabiatga kuchli xujumiga asos bo’ldi, bu esa o’z navbatida zamonaviy ekologik inqirozga va sanoat davriga qadar bo’lgan jamiyatlarda tabiiy manbalarning tugab borish muammosiga olib keldi. O’z tarixining jamiki davri davomida inson tabiatdan xamoyalanishga sabab bo’ldi. Bugungi kunda u tabaitni uning o’zining xujumlaridan ximoya qilish majburiyati oldida turibdi. Va bu xam - madaniyatdagi axamiyatli burilishdir.

Sanoat korxonasi g’arb sanoat jamiyatlarini mexanizm, aniqrog’i - fabrika ko’rinishga olib kelib qo’ydi. A.Toffler "Ikkinchi to’lqin" jamiyatini ta’riflar ekan. bizning nazdimizda muvaffaqiyatli tarzda mazkur jamiyatlar xayotining o’ziga xos jixatlarini ajratib ko’rsatdi. Bu satndartlashtirish, ixtisoslashtirish, sinxronlashtirish,

mujassamlashtirish, maksimallashtirish (orttirish) markazlashtirish demakdir. Mazkur jixatlarni nisbatn batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Standartlashtirish

Sanoat korxonalari standart, bir turli maxsulotlarning ulkan miqdorini yaratadi. Biroq faqatgina ishlab chiqarish maxsulotlarigina standartlashtirilmaydi. Mexnat faoliyati shakllari (teylorizm, fordizm) xam, standartlashtiriladi, texnologiyalar xam, maktabdagi ta'lim dasturlari xam, xar qanday ixtisoslik mutaxassislarini tayyorlash xam, bo'sh vaqtini o'tkazish usullari va dam olish shakllari xam standartlashtiriladi. Va nixoyat, tizimli ravishda avval maktabda, so'ngra ishlab chiqarishda - standartlashtirilgan ommaviy axborot vositalari, yagona turdagi radio va televidenie, gazeta dasturlari, ko'p tirajli standart namunalar va g'oyalar yordamida odamlarning tafakkuri standartlashtiriladi. "Ommaviy madaniyat" deb nomlanuvchi, jamiyatdagi turli guruxlar o'rtasidagi madaniy farqlarni yo'qotib yuboruvchi jamiyat shakllanadi.

Ixtisoslashtirish.

Sanoat (industrial) jamiyat - mexnatning chuqur taqsimlanishiga eag bo'lgan jamiyatdir. U "universal aqllar"ga muxtoj emas, biroq muayyan soxalardagi tor doira professionallarini talab etadi. Ixtisoslashtirish faoliyatning samaradorligini oshirish imkonini beradi, va ayni vaqtda uni kambag'allashtiradi. Mexnat muxim bo'lsin, biroq aynan bitta vazifani bajarishga bog'lanadi. Ixtisoslashtirish nafaqat jismoniy, balki aqliy mexnatga xam xosdir. Tobora kamroq odamlar turli soxalarga tegishli bo'lgan bilimlarni o'zlashtirish qobiliyatiga egadirlar. Jamiyatdagi madaniy ma'lumotning doimiy ravishda ortib borayotgan xajmi va individ o'zlashtira olishi mumkin bo'lgan ma'lumot o'rtasidagi jarlik tobora ortib bormoqda. (G.Zimmel ushbu xodisani "ob'ektiv" va "sub'ektiv" madanitya o'rtasidagi uzilish, deb nomlagan). Ijtimoiy kabi, madaniy differenstiastiya tobora chuqurlashib bormoqda.

Sinxronlashtirish.

Ixtisoslashtirilgan urbanizastiyalashtirilgan jamiyatlar o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan odamlarning ulkan ommalarining faoliyatini muvofiqlashtirish

zaruratiga duch keladilar. Odamlarning faoliyatini vaqt davomida tartibga solish, sinxronlashtirish zarur. Odamlar, guruxlar, tashkilotlarning o'zaro munosabatlari grafiklar va jadvallarga, aniq vaqt tartibiga bo'ysunadi. Millionlab odamlar ishni bir vaqtda boshlaydilar va bir vaqtda tugatadilar. Transportlar xam jadvalga ko'ra yuradilar va muassasalar xam jadval asosida ishlaydilar. Televidenie va radio ommaviy auditoriyaning "kun tartibi"ni e'tiborga oluvchi dasturlar tartibiga ega bo'ladilar. Ilk bolalikdanoq inson jadval bo'yicha yashashga, vaqtni kuzatib borishga o'rganishi lozim, maktab ta'limi xam mazkur yo'nalishga yo'naltirilgan. Vaqtni aniq qayd qilish a'anaviy jamiyatlar uchun xos bo'lmagan. Inson o'zini va faoliyatini xo'jalik faolligining maromini xam belgilab bergan tabiat maromi bilan o'lchagan.

Mujassamlashtirish.

Industrial jamiyat ishlab chiqarish kabi, odamlar ommasini xam, o'uningshdek manbalarning barcha turlarini mujassamlashtiradi. Ishlab chiqarish korxonalarga mujassamlanadi, odamlar - korxonalarda, muassasalarda, ulkan ko'p millionli shaxarlarda mujassamlanadi, sarmoya esa - banklarda mujassamlanadi. Tijorat tashkilotlari ulkan ishlab chiqarish, odamlarga oid va axborot resurslarini mujassamlantirgan xolda yiriklashish imkoniyatiga ega. Bolalar maktablarda to'planadi, bemorlar "kasalxonalarda", jinoyatchilar - qamoqxonalarda to'planadi va x.k. Bilimlar ensiklopediyalarda, darsliklarda, ma'lumotnomalarda, ma'lumotlar bazasida mujassamlanadi. Ilmiy faoliyat - ilmiy-tekshirish markazlarida mujassamlanadi. Sanoat davriga qadar bo'lgan jamiyatlarda mujassamlashtirishga bo'lgan yo'nalish nisbatan kuchsizroq bo'lgan. Xo'jalik faoliyati asosan individual bo'lgan, yoki kichik jamoalar tomonidan amalga oshirilgan. Manbalar - moddiy kabi axborot resurslari xam ahamiyatli ravishda tarqoq bo'lgan. Shaxarlarda odamlar ko'p bo'lmagan.

Maksimallashtirish.

Sanoat jamiyatlari "katta qiymatlar"ga maftun bo'lgan. U o'sishga intiladi, o'sish esa taraqqiyot bilan tenglashtiriladi. Ishlab chiqarish kuchayyadi,

maxsulotlar xajmi, bilim va ma'lumotlar xajmi, farovonlik, xayot darajasi ortadi. Barcha "eng katta" narsalar xurmatga sozovor bo'ladi - eng ko'p axolili shaxar, eng baland bino, eng tezkor avtomobil. Barcha narsa maksimal darajada unumdor bo'lishi lozim. Industrial jamiyatning tezkor sur'atlarda o'sishga intilishi ko'plab muammolarga sabab bo'ldi - va, avvalambor, tabiiy resurslarning tugab borishi, ekologik inqiroz kabi muammolar vujudga keldi. "O'sish chegarasi", "o'sish nolga tengligi" konstepstiyalari paydo bo'ldi, biroq ular vaziyatni tuzata olmadi.

Markazlashtirish.

Markazlashtirish - odamlarning ulkan ommalari va zamonaviy jamiyatlarda sodir bo'layotgan murakkab jarayonlarni boshqarishga bo'lgan intilish. Boshqaruvni markazlashtirish (yuqorida sanab o'tilgan boshqa prinstiplar bilan birgalikda) byurokrtiyalarni, tarmoqlarga ega bo'lgan qudratli tashkilotlarni, M.Veberning iborasiga ko'ra, xayotning deyarli barcha jabxalarida odamlarning faoliyatini tartibga soluvchi "inson mashinalari"ni vujudga keltiradi. Boshqaruvni markazlashtirish davlat vazifalarini kengaytirishda, tobora turli usullar yordamida jamiyat ustidan nazoratni kuchaytirishda o'z ifodasini topadi.

Ko'rsatilgan jixatlarni ajratib ko'rsatar ekan Toffler "madaniyat" tushunchasidan foydalanmaydi. Biroq shunga qaramasdan, biz ularga industrializm davriga kirib kelgan jamiyatlarga xos bo'lgan, uning mavjudligining o'ziga xos shakllarining ajralmas xususiyatlari sifatida qarashimiz mumkin. Bu bugungi kun tomonidan vujudga keltirilgan, turli industrial jamiyatlarning turmush tarzini nimasi bilandir o'xshash xolatga keltirgan "madaniy universaliya"lardir. Industrializmning bir xillashtiruvchi ta'sirini e'tiborga olish lozim, biroq ularni ortiqcha baxolash mumkin emas. Umumiy jixatlar ortida baribir madaniy xilma-xillik saqlanib qoladi.

An'anaviy jamiyatlarning madaniyati yorqin ifodalangan "tabaqalashtirish" tabiatiga ega bo'lgan. Turli ijtimoiy qatlamlar (tabaqalar, toifalar va xokazo) madaniy jixatdan bir-biridan axamiyatli darajada farq qilgan. O'rta asr Evropada yashagan shaxarlik, dexqon va zodagonning turmush tarzi, kundalik xulqning,

o'yin-kulgu qilish usullarining, oshxonadagi o'ziga xos xususiyatlarning, tarbiya, kiyinish va boshqalarning turli me'yorlarini taqozo qilgan. U yoki bu tabaqaga mansublikni osonlik bilan aniqlash mumkin bo'lgan. Oliy tabaqalar vakillari an'anaviy jamiyatlarda muayyan madaniy imtiyozlarga ega bo'lganlar: masalan, Xindistonda muqaddas yozuvlar - Vedani faqatgina yuqori tabaqa vakillari o'rganishlari mumkin bo'lgan. Yozuv madaniyatini o'rganishga xam odatda, faqatgina oliy tabaqa vakillari xaqli bo'lganlar (biroq xar qanday xolatlarida istisnolar mavjud bo'lgan). Turli tabaqalarning madaniy o'ziga xos xususiyatlari avloddan avlodga o'tib kelgan, bunga an'anaviy jamiyatlarning stratifikastion tizimlarning yopiqligiga og'ishi sabab bo'lgan.

XX asrning boshlaridayoq zamonaviylik davriga qadam qo'ygan jamiyatlarda tabaqalar va sinflar o'rtasida axamiyatli darajadagi madaniy farqlar kuzatilgan. ""Ishchi va "burjua", dexqonlar va avvalgi ta'sirini yo'qotgan zodagonlar o'zlarining madaniy xususiyatlarini qisman saqlab qolganlar. Biroq modernizastiya, zamonaviy iqtisodiyotning shakllanishi, industriallashtirish, urbanizastiya, ta'limning tarqalishi, siyosiy xayotning demokratiyalashtirilishi ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi aniq chegaraning sekin-asta yo'qoli borishiga olib kelmoqda. An'anaviy jamiyatlardagi stratifikastiya tomonidan "ajratilgan" madaniyat o'rniga ommaviy madaniyat keldi.

Ommaviy madaniyat kundalik o'zaro munosabatlar jarayonida betartib ravishda shakllanmaydi va avloddan avlodag o'tmaydi. Ommaviy madaniyat "professionallar", ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan yaratiladi. Uning namunalari axolining eng keng qatlamlari tomonidan "ist'mol" qilishga mo'ljallangan, u demokratik va asosan o'yin-kulgu qilishga, bo'sh vaqtning o'rnini to'ldirish uchun mavjud. Inson an'anaviy merosni qabul qilishi yoki ta'lim olishi natijasida ommaviy madaniyatning "tashuvchisi"ga aylanmaydi. Ommaviy madaniyat namunalari (kitob, qo'shiq, kinofilm, sport tomoshalari va x.k.) inson tomonidan ko'ngil ochish, xissiy qoniqish, ruxiy zo'riqishni "yo'qotish", bo'sh vaqtini to'ldirish maqsadida erkin tanlanadi. Ommaviy madaniyat zamonaviy jamiyatlarning butun moxiyatini batamom anglab ololmaydi, biroq mazkur

madaniyatning ahamiyatli "bo'g'inini" aks ettiradi. Ommaviy madaniyat bilan bir qatorda zamonaviy jamiyatlarda madaniy an'ana elementlari ham saqlanib qoladi (zamonaviy jamiyatlarda an'analarning mavjud bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari haqida biz avvalroq gapirib o'tgan edik. 3-mavzuni qarang), turli submadaniyatlar, "oliy" yoki "elitar" madaniyat va boshqalar mavjud.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, "oliy madaniyat" tushunchasi aniq tushuncha emas. Amalda "oliy" va "ommaviy" madaniyat o'rtasida aniq chegara o'tkazish murakkab vazifa. Ularga muvofiq ravishda madaniy namunalarning tenglashtirilishi amalga oshiriladigan qadriyatlar zamonaviy jamiyatdagi aniqlik bilan ajralib turmaydi. Bundan tashqari, madaniyat namunalarining tenglashtirilishi, bilishimizcha, nafaqat mazkur ob'ektlarning ob'ektiv qadri bilan, balki ular haqida kim fikr bildirish xuquqiga egaligi bilan bog'liq. Biroq shuni ta'kidlash mumkinki, "elitar", "oliy" madaniyatni o'zlashtirish uchun odatda muayyan tayyorgarlik, to'plangan "madaniy kapital" zarur. Dastlabki ta'limsiz, masalan, falsafiy asarni tushunish mumkin emas. Dastlabki estetik tarbiyasiz va "musiqiy ta'b"ni shakllantirmasdan turib Shnitke musiqasini qabul qilish mumkin emas. Ommaviy madaniyat namunalari esa "iste'molchi"dan maxsus tayyorgarlikni talab etmaydi va deyarli har bir kishiga muvofiq keladi. Biroq ushbu mezon ham etarli darajada shartli.

Ommaviy madaniyat – bugungi kun bilan yaratilgan va bir turli baxolash imkoni bo'lmagan murakkab xodisadir. Ommaviy madaniyat muammosiga mamlakatimiz kabi xorijiy ilmiy va publististik adabiyotlarning ko'plab miqdori bag'ishlangan. Mazkur adabiyotlar oqimi bitmas-tuganmas va o'quv qo'llanmasi doirasida uning to'liq bayon qilish imkoniyati mavjud emas. Biz materialni bayon qilish usuli bo'yicha u yoki u ismlarni va nuqtai nazarlarni keltirishimiz mumkin.

Ommaviy axborot xodisasi XX asrga kelib keng ko'lamda tarqala boshladi. Bu madaniy namunalarni tirajlashtirish imkonini beruvchi ommaviy jamiyatning vujudga kelishi va texnologiyalarning rivojlanishi kabi omillar bilan bog'liq.

Ommaviy jamiyat nimani aks ettiradi? "Ommaviy jamiyat" atamasi, "ommaviy madaniyat" kabi bir turli emas. U tmonian bnlgilangan xodisa ko'plab

ta'dqiqotchilar tomonidan salbiy ma'noda ifodalanadi. "Omma" ko'pincha "olomon", "avom" bilan tenglashtiriladi. Omma odami xurofotlarga, urfga va siyosiy doxiylarga ko'r-ko'rona ergashishga moyil bo'lgan shaxssiz individuum sifatida namoyon bo'ladi. Biroq ommaviy jamiyat – bu avvalambor, sostiumning avvallari aniq ajratib qo'yilgan ijtimoiy qatlamlar vakillarining amorf insoniy ommalarini aralashtirib yuborgan va an'anaviy uyushmalarni parchalab yuborgan industrialashtirish va urbanizastiya jarayonlari sababli vujudga kelgan muayyan xolatidir. Va u baxolanishi emas, balki ob'ektiv jixatdan o'rganilishi lozim.

An'anaviy jamiyat barqaror tenglikka, qat'iy madaniy an'anaga ega bo'lgan ijtimoiy guruxlardan iborat. Qarindoshlar jamoasi, jexqonlar uyushmasi, xunarmandlar stexi, shaxar uyushmasi, tabaqalar – o'rta asr Evropa jamiyatlarining ushbu barcha guruxlari u kim, ijtimoiy ierarxiyada u qanday o'rinni egallab turadi, u o'zini qanday tutishi zarur, u qanday xuquqlarga ega ekanligi xaqida aniq tasavvur xosil qiladi. Ko'pincha inson o'zining butun xayoti davomida aynan bir xil guruxlarga mansub bo'lgan.

Zamonaviy jamiyatda esa biz narsalarning boshqa xolatiga guvox bo'lamiz. Individning ijtimoiy guruxlar bilan aloqasi nisbatan o'tkinchidir. Boshqa tomondan guruxlar tobora ortib bormoqda, odamlar orasidagi aloqalar esa kuchayib borayotgan ijtimoiy va madaniy differenstiasiya tufayli xilma-xil bo'lib bormoqda. Inson osonlik bilan guruxlarga qo'shiladi va ulardan osonlik bilan chiqib ketadi – ish joyini va mashg'ulotlar turini o'zgartiradi, oilasini tark etadi va yangi oilani yaratadi, do'stlik aloqalarini o'rnatadi va uzib yuboradi, u yoki bu ijtimoiy xarakatlarga qo'shiladi va ulardan chiqib ketadi. Ommaviy jamiyat insoni kommunikastiyalar va o'zaro munosabatlarning keng tarmog'iga an'anaviy jamiyat insonidan ko'ra ko'proq jalb qilingan. Biroq ommaviy jamiyatda ijtimoiy aloqalar nisbatan kamroq barqaror va mustaxkam xisoblanadi. Ommaviy insonning o'zi xaqidagi tasavvuri juda kam xollarda guruxga tegishlilik bilan va "men" xissi bilan to'liq belgilanadi. Zamonaviy jamiyat aniq belgilangan, barqaror guruxlardan emas, balki muayyan qiziqishlar va talablar bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy aloqalarga kirishuvchi, atomlashtirilgan individlar ommasidan "tashkil topgan".

Guruxga mansublik individga buyurilmaydi (ayrim istisnolardan tashqari). Zamonaviy jamiyatlarda madaniy an'ana – avloddan avlodga o'tkaziluvchi muayyan jamiyat tajribasi sifatida deyarli o'z axamiyatini yo'qotadi. An'ana va barqaror guruxga oid o'xshashlikni yo'qotgan xolda individ o'z aqli va o'z tajribasiga amal qilishga majbur bo'ladi. Mana shu boshqa ijtimoiy aloqalar va barqaror madaniy an'analarga ega bo'lmagan atomlashtirilgan jamiyat, ommaviy jamiyat xisoblanadi. Sof miqdoriy jihatni qo'shish xam o'rinlidir: axolining soni, shuningdek uning mujassamlanganligi, zichligi. Ommaning eng afzal "yashash joyi" (va uning vujudga kelish joyi) – yirik zamonaviy shaxarlardir.

Amerikalik sosiolog Edvard Shils ommaviy jamiyatning quyidagi jihatlarini ajratib ko'rsatgan:

- ichki jihatdan bir turli bo'lmagan axolining katta miqdori;
- xukumat tomonidan iloxiy maqomning yo'qotilishi va xukumat oldidagi qo'rquvning kuchsizlanishi;
- an'analarning ta'sirini kuchsizlanishi, ularning turlicha izoxlanishi imkoniyati, bu esa odamlarning o'zini tutishidagi farqlarga va individning obro'-e'tibori xamda xuquqlarining axamiyatini oshirishdagi farqlarga olib keladi;
- ko'p sonli nizolar va ziddiyatlarni, odamlar orasidagi aloqalarning betartibligini kelib chiqishiga sabab bo'luvchi, aniq ifodalangan ma'naviy birlikning mavjud emasligi;
- sanoat ishlab chiqarishi va texnologiyalar, ommaviy jamiyatning turli "qismlari" o'rtasidagi aloqalarni amalga oshirish imkonini beruvchi transport va aloqa vositalarini rivojlantirish;
- texnologiyalar insonni og'ir jismoniy mehnat yukidan ozod qiladilar va xissiyotlarning yangi manbalarini ochish imkoniyatini beradilar;
- individuallikning gullab-yashnashi, yangi tajribalarni egallashga tayyorlik, "xissiyot va xislarning" gullab-yashnashi; tanlash erkinligi, an'analardan va nufuzlilardan tomonidan aniq qoidalarning o'rnatilmasligi;
- axoli o'yin-kulguni qadrlash, boshqalarning shaxsini xurmat qilishga o'rgandi.

Shilz, axolining bir qismi ommaviy jamiyat insonga taqdim qilgan imkoniyatlardan foydalanmagan xolda, “o’sishdan qotib qolishi” tarzida yashamoqda. Shilz tomonidan ommaviy jamiyatning ta’riflanishi birmuncha apologetik (ko’r-ko’rona maqtash tarzida). Ushbu jamiyat shaklining salbiy jixatlarini Shilz to’liq o’rganib chiqmagan. Biroq Shilz tomonidan ajratib ko’rsatilgan xar bir “ijobiy” jixat salbiy tomonlarga xam ega.

Masalan, individga taqdim qilingan tanlash erkinligi barcha erlarda yo’nalishlarning buzilishi bilan kuzatiladi. “Lazzatlarga bo’lgan moyillik” xar doim xam rasmiy va salomatlikka ziyon etkazuvchi usullar bilan qondirilmaydi, ko’p xollarda muloxazasiz gedonizm va iste’molchilik bilan kuzatiladi. Individuallik va boshqalar bilan munosabatlardagi erkinlik yolg’izlik va ajralib qolish, va xokazolarga olib kelgan. Biroq xar qanday ijtimoiy xodisa o’zining salbiy va ijobiy tomonlariga ega, va ommaviy jamiyat xam bundan mustasno emas.

Ommaviy jamiyatning kengaytirilgan, bizning nazdimizda, (aniqrog’i, omma xodisaning o’zining) aniq ta’rifini G.Blumer beradi.

Omma qator ajratib turuvchi jixatlariga ega. Birinchidan, uning a’zolari jamiyatda turli ijtimoiy maqomga ega bo’lishlari, jamiyatning eng turli qatlamlaridan kelib chiqqan bo’lishlari mumkin; u eng turli ko’rinishdagi sinfiy o’rinlarni egallab turgan, bir-biridan kasbiy jixati, madaniy darajasi va moddiy xolatiga ko’ra farq qiluvchi kishilarni qamrab olishi mumkin... Ikkinchidan, omma anonim gurux xisoblanadi, aniqrog’i, anonim individlardan tashkil topgan... Uchinchidan, omma a’zolari o’rtasida o’zaro munosabatlar mavjud emas... To’rtinchidan, omma o’ta noaniq tarkibga ega bo’ladi

Unda (ommada) xech qanday ijtimoiytarkibiy qism, xech qanday urf-odat va an’analar, qoida yoki marosimlarning xech qanday aniq belgilangan to’plami, maqomga oid rollarning xech qanday tuzilmasi mavjud emas... U faqatgina ajratib qo’yilgan, anonim, va shu sababli bir turli bo’lgan individlar konglomeratidan tashkil topgan.

Ommaviy xulq shakli paradoksal tarzda kelishilgan xarakat bilan emas, balki faoliyatning individual chiziqlaridan tashkil topadi. Mazkur individual faoliyatlar

birinchi navbatda, tanlovlar shaklida, - masalan, yangi tish pastasini, kitobni, pesani, partiya platformasini, yangi urflarni, falsafa yoki diniy e'tiqodlarni tanlash, - ommaviy manfaatlar ob'ekti tomonidan vujudga keltiriluvchi noaniq intilish va xissiyotlar bo'lgan tanlovlar...

Blumer tomonidan ta'riflangan omma xodisasida ommaviy madaniyat katta ahamiyatga ega. Ommaviy madaniyat – ushbu chidamsiz konglomeratni mazkur “o'xshashlik”ka ayrim yo'nalishlarni beruvchi uyushmalarning ayrim o'xshashi bilan bog'lovchi mexanizmalardan biridir. Blumer tomonidan omma uchun odatiy bo'lgan xulq shakli sifatida ajratib ko'rsatilgan individual tanlov va o'zini tutish liniyalarining bir-biriga mos kelishi faqatgina extimoliy qiziqishning qandaydir ob'ekti ommaga ma'lum bo'lganidagina bo'lishi mumkin. Va bu faqatgina omma reklama yordamida ma'lumotga ega bo'lishi mumkin bo'lgan maxsulotlar emas. Shuningdek, bu taqlid qilish yoki ulug'lash ob'ektlariga aylanishi mumkin bo'lgan ommaviy san'at, kitoblar, filmlar, musiqiy asarlar xamdir. Bu xatto ommaviy matbuot va televidenie tomonidan bir necha marta takror ilgari suriladigan g'oyalar va e'tiqodlar, ideallar va qadriyatlar xam bo'lishi mumkin. Shunday qilib, ommaviy madaniyat, gurux tajribasi va madaniy an'anaga tayanish imkoniyatiga ega bo'lmagan ommaviy inson uchun yo'nalishlar manbai, ommaviy individuallashtirgan jamiyatni rivojlantiruvchi omil bo'lishi mumkin.

Ommaviy madaniyatning vazifalari va o'ziga xos xususiyatlari

Ommaviy madaniyat texnik taraqqiyotsiz mazkur vazifalarni bajara olmagan va xattoki mavjud xam bo'la olmagan bo'lar edi. Aynan texnikaning – bosma stanokdan aloqa va kommunikastiyaning ultrazamonaviy aloqa vositalariga qadar rivojlanishi; televizor, radiopriyomnik, magnitofon, kompyuterlarning paydo bo'lishi madaniy namunalarning ko'paytirilishi va ularning zamonaviy jamiyatning xar bir a'zosigacha etkazib berilishi uchun imkon tug'diradi. Texnikaning rivojlanishi madaniy namunalarning faqatgina axolining keng qatlamlariga etib borishiga olib kelmaydi. Texnikaning yangi turlarining paydo bo'lishi madaniy faoliyatning, jumladan, san'atning xam yangi ko'rinishlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Bunga yorqin misol sifatida kinoni keltirishimiz mumkin. Ommaviy

madaniyatning bu kabi o'ziga xos turi shuningdek, muayyan texnika asosida paydo bo'lgan. Kompyuter texnologiyalari rivojlanishi bilan san'at va madaniy faoliyatning boshqa turlari paydo bo'lmoqda.

Ommaviy madaniyatning axamiyatli jixati – uning sanoat va tijoratga oid tabiatidir. Madaniy namunalarning ishlab chiqilishi oqimga qo'yiladi. FAqat bittagina noyob film suratga olinmaydi: maxsulotni ushbu turini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Uni ishlab chiqarishning ma'lum texnologiyasi ishlab chiqilgan. Serial yaratuvchilari “ijodkor” so'zining to'laqonli ma'nosiga ega bo'lgan ijodkorlar emas. O'tmishda san'at asarlari o'ziga xos, betakror bo'lgan. Ommaviy madaniya namunalariga mazkur atamalarni qo'llab bo'lmaydi. Ommaviy madaniyat asarlari avval boshdanoq mazkur maxsulotning ommaviy iste'molchisiga mo'ljallangan maxsulot sifatida tayyorlanadi. Bitta muvaffaqiyatli namuna ommaviy taqlidga sabab bo'ladi. Zamonaviy jamiyatda barcha qatlamlar va guruxlar ommaviy madaniyat iste'molchilari xisoblanadi. Ommaviy madaniyatning asosiy vazifasi – ko'ngil ochish va chalg'itishdan iborat. Zamonaviy jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi nima bilandir to'ldirilishi lozim bo'lgan bo'sh vaqtning ajratilishiga imkon yaratdi, shuningdek turmush darjasini oshirdi. Odamlar ularni vaqtini chog' qilishlari uchun pul to'lash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Boshqa tomondan, zamoanviy jamiyat – etarli darajada stressogen (ruxiy zo'riqishlar) muxitdir: ijtimoiy o'zgarishlarning tezkor sur'ati va ularning avvaldan aytib berish mumkin emasligi, odamlarning ijtimoiy axvolining beqarorligi, ijtimoiy aloqalarning mustaxkam emasligi, ma'lumotlardagi qarama-qarshiliklarning xaddan tashqari ko'pligi – bularning barchasi vaqti-vaqti bilan “o'chib qolish”, “o'zini bo'sh qo'yish”ni talab etadi.

Ommaviy madaniyat doimiy ravishda tanqid qlinadi – xam tadqiqotchilar tomonidan, xam talablari yuqori bo'lgan va ta'sirlanuvchan jamoatchilik tomonidan. Tanqidga ko'pincha eng sodda talablar va istaklar bilan bog'liq bo'lgan, iste'molchilarning ma'naviy rivojlanishiga intilmaydigan “madaniy industriya” maxsulotining past sifati sabab bo'ladi. Tanqidning boshqa bir yo'nalishi – ommaviy madaniyatning tijoratga oid tabiati, madaniyatning

maxsulotga aylantirilishidir. Falsafiy refleksiyaga eng moyil bo'lgan mualliflar ommaviy madaniyatd, odamlarni jamiyatning xaqiqiy muammolaridan chalg'ituvchi va yolg'on, va voqelik xaqida yolg'on, buzilgan, "pardoz berilgan" tasavvurlar xosil qiluvchi, odamlarga iste'mol ideallarini singdiruvchi o'ziga xos giyoxvand moddani ko'radilar.

Ommaviy madaniyatning ushbu barcha salbiy tomonlari xaqiqatan xam mavjud. Va shunga qaramasdan, ommaviy madaniyatni faqatgina salbiy jixatdan o'rganish to'g'ri bo'lmaydi. Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, uning vujudga kelishi jamiyatdagi muxim tuzilmaga oid o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan va u mazkur jamiyatda muayyan vazifalarni bajaradi. Shuni qo'shmcha qilish mumkinki, ommaviy madaniyatning barcha namunalari xam avval boshdanoq past sifatga ega emas. Agata Kristi va Jorj Simenonlarning detektiv romanlari – shubxasiz, ommaviy madaniyat namunalaridir. Biroq shunga qaramasdan, ular "janrning klassikalari" sifatida tan olingan va shubxasiz, tengsiz badiiy qimmatga ega. "Bitlz" musiqasi – ommaviy san'atning yorqin misolidir. Biroq bugungi kunda xatto musiqashunoslar xam ushbu guruxni yangi musiqiy janrning asoschilari, deb tan oladi. Bundan tashqari, ommaviy madaniyat oliy madaniyatni, garchi uning iste'molchilari va talabgorlari kam bo'lsa xam, yo'q qilmaydi. Biroq barcha greklar xam Aflotun va Arastuni o'qiganmi? Va axir jamiki rus xalqi A.S.Pushkin xayot davrida uning she'rlarini yoddan o'qiganmi? Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin.

E.Shilz madaniy xilma-xillikni va ommaviy jamiyat madaniyatining ko'p turliligini aloxida ta'kidlagan, undagi mavjud madaniyatning turli "daraja"larini ajratib ko'rsatgan:

Ommaviy jamiyatning "noroziligi"ning ko'rinishlaridan biri sifatida uning madaniyatining sifatning kamida uchta darajasiga ajratilishi namoyon bo'ladi... Bu "oliy" yoki "nafis", "o'rta" yoki "o'rtamiyona", va "past" yoki "soxtalashtirilgan" madaniyatdir.

"Oliy" madaniyatning ajratib turuvchi jixati tanlanayotgan asosiy mavzuning va o'rganilayotgan muammolarning jiddiyligi, xodisalarning moxiyatiga kirib

borish, qabul qilishlarning kelishilganligi, ifodalangan xissiyotlarning nafisligi va boyligi xisoblanadi... "Oliy" madaniyat ijtimoiy mavom bilan xech qanaqasiga bog'liq emas. Bu degani, undagi mukammallik yaratuvchilarning yoki madaniyat ob'ektlari iste'molchilarining ijtimoiy maqomi bilan emas, balki mazkur ob'ektlarning adolatliligi va go'zalligi bilan belgilandi.

"O'rtacha" madniyat toifasi, ularning yaratuvchilarining intilishlaridan qat'iy nazar, "oliy" madaniyat asarlari baxosi mezonini qo'llanilishi mumkin bo'lmagan asarlarni qamrab oladi. "O'rtamiyona" madaniyat "oliy" madaniyatdan ko'ra kamroq darajada o'zgacha bo'lishi mumkin, u ko'p jixatdan reproduktiv va garchi "oliy" madaniyat qamrab olgan janrlarni qamrab olsa-da, shuningdek o'zini "oliy" madaniyat soxasiga kirib bormagan janrlarda xam namoyon qiladi...

Uchinchi darajada "quyi" madaniyat turadi, uning asrlari sodda. Ularning ayrimlari "o'rta" va xattoki "oliy" madaniyat (tasviriy san'at, musiqa, she'r, romanlar, xikoyalar) shakllariga xam ega, biroq bunga bevosita ifodaliligi va minimal darajadagi ichki moxiyatga ega bo'lgan o'yinlar va tomoshalar (boks, poyga) kiradi. Madaniyatning ushbu darajasida kirib borish chuqurligi deyarli xar doim juda kam, nafislik umuman yo'q, xissiyotlar va qabul qilishning umumiy soddalashtirilganligi (beadabligi) - unga xos bo'lgan xususiyatdir...

Ommaviy jamiyat xar qanday boshqa davrdagidan ko'ra madaniyatning axamiyatli darajadagi katta miqdorini yutib yuboradi... "O'rtamiyona" va "quyi" madaniyatlar eng keng tarqalgan, "oliy" madaniyatning proporsional zaxirasi esa keskin kamyib ketdi. Bu kabi xodisaning shak-shubxasiz ko'rinib turgan sabablari - kirib borishning o'ta engilligi, mexnat sarfini kamaytirish, bo'sh vaqtning va ko'pchilik odamlarning moddiy boyliklarini oshirish, savodxonlikni keng tarqatish, ochiq gedonizm xisoblanadi. Bunda quyi va o'rta sinflar zodagonlardan ko'ra ko'proq narsalarga ega bo'ldilar...

"Oliy" madaniyatni iste'mol qilish xam garchi kam miqdorda bo'lsin, biroq baribir ortib bordi. Yuqorida aytib o'tilgan voqelikni "o'zgartirish" va iste'mol ideallarini shakllantirishga keladigan bo'lsak, bu bilan bog'liq ravishda qandaydir paradoksni ta'kidlab o'tish mumkin. Ommaviy madaniyat, qaysidir ma'noda,

"barcha narsani qabul qilaveradi", bu esa o'z navbatda uning tajoratga oid tabiati bilan bog'liq. Agar jamiyatda mavjud tartibni tanqid qilishga "talab" mavjud bo'lsa, shu zaxotiyoz mazkur talabga javob beruvchi asarlar paydo bo'ladi. Intellektual adabiyotlarning zamonaviy ommaviy bozorida "tanqid" yo'nalishiga oid kitoblarning - ilmiy va publististik kabi, badiiy adabiyotlarning ulkan miqdorini topish mumkin. Ommaviy madaniyat tarbiyalamaydi - u turli-tuman maxsulotlarni taklif qiladi. Iste'molchining vazifasi tanlash: Dj.Oruellaning "1984" ayollar romani yoki zamonaviy ommaviy jamiyat faylasufi va sostiologi Gerbert Markuzening "Bir o'lchamli inson" nomli mashxur tanqiqdiy tadqiqoti. (To'g'ri, G.Markuzening asarini baribir elitar yoki "oliy" madaniyat asarlariga kiritish lozim, chunki uni tushunish muayyan tayyorgarlikni talab etadi).

Ommaviy madaniyatning xatto tijoratlashtirish kabi shubxasiz jixati xam qandaydir ijobiy oqibatlarga ega. Shaxssiz tijorat, bozor munosabatlari vp istaklarining qondirilishi uchun pul to'lashga tayyor bo'lgan odamlarning o'zgarib ketgan extiyojlari ijodkor insonga yaratuvchilik faoliyatini amalga oshirish uchun ulkan imkoniyatlarni ochib beradi (ushbu imkoniyatlar qay tarzda qo'llanilishi boshqa masala). O'tmish jamiyatlarida ijtimoiy amaliyot sifatidagi aloxida muxit sifatidagi ijodiy faoliyat deyarli mavjud bo'lmagan. Araxaik (sanat taraqqiyotining qadimiy, ilk bosqichi) jamiyatlarda san'at kundalik faoliyatga chambarchas bog'lanib ketgan. Qadimgi davr va o'rta asrning an'anaviy stivilizastiyalarda ijodiy faoliyat bilan band bshlgan insonlar odatda kamchilikni tashkil etgan va asosan zodagonlarning badiiy talablarini qondirish uchun ishlaganlar, va moddiy jixatdan to'laqonli ravishda ularga tobe bo'lganlar. Eng yaxshi xolatda ijodiy faoliyat bo'sh vaqtini o'tkazish shakllaridan biri bo'lgan. Biroq bu xolatda rassom unga erkin "ijod" qilish uchun imkonini beruvchi mavjudlik uchun mablag'larga ega bo'lishi lozim bo'lgan. Bugung kunda biz rassomlar deb atayotganlarning ko'plari xunarmand xisoblangan va aloxida xurmatga sazovor bo'lmagan. Tiklanish davri Evropa madaniyatida ijodiy faoliyatning erkinlikka chiqish davri boshlanadi. Bugungi kun jamiyatidagi kabi "ijodiy kasb" egalari bo'lgan odamlarning bu kabi ko'p miqdori xech qachon va xech qaerda bo'lmagan, chunki jamiyatda ularga

extiyoj bo'lmagan.

Shunday qilib, ommaviy madaniyat – bu muayyan ijtimoiy va madaniy siljishlar tomonidan vujudga keltirilgan va qator etarli darajada muxim bo'lgan vazifalarni bajarishi tuayli vujudga kelgan zamonaviy xodisadir. Ommaviy madaniyat salbiy kabi, ijobiy jixatlarga xam ega. Uning maxsulotlari salbiy kabi, ijobiy jixatlarga xam ega. Uning maxsulotlarining uncha yuqori bo'lmagan darajasi va tijorat, asosan asarlar sifatini baxolash mezoni, ommaviy madaniyat insonga avval ko'rmagan ramziy shakllar, obrazlar va ma'lumotlarni taqdim qilishining aniq ko'rinib turgan dalillarini inkor qilmaydi, dunyoni qabul qilishni ko'p turli qiladi, bunda u “iste'mol maxsuloti”ni tanlash xuquqini iste'molchida qoldiradi. Afsuski, iste'molchi xar doim xam eng yaxshi narsani tanlay bilmaydi.

An'anaviy va zamonaviy madaniyatning qiyosiy ta'riflari

Yuqorida aytilganlarga xulosa qilar ekanmiz, an'anaviy va zamonaviy jamiyatlar o'rtasidagi farqni qisqacha ko'rsatib o'tamiz.

An'anaviy madaniyat	Zamoanviy madaniyat
Madaniyat va ijtimoiy tuzilmaning u yoki bu darajadagi muvofiqligi	Madaniyat va ijtimoiy tuzilmaning ajratib yuborilishga ko'rinib turgan urinishlar
Dinning ma'naviy soxadagi so'zsiz ustunligi	Rastionalistik, sekulyar dunyoqarash ustunlikka ega.
Diniy; tabaqaga oid qadriyatlar va me'yorlar.	Asosan dunyoviy qadriyatlar, individning qadriyatga oid qarashlari va uning ijtimoiy tegishliligi o'rtasidagi aloqa aniq kuzatilmaydi.
Ijtimoiy tartibning diniy jixatdan belgilab berilishi	Ijtimoiy tartibning qat'iy belgilanmasligi

Dunyoqarashga oid, diniy bilimlarning – “qutqaruvchi bilimlarning” ustunligi (Sheler)	Amaliy, ilmiy bilimning ustunligi va doimiy raishda o’sib borishi, “xukmronlik uchun bilim olish”(Sheler).
Ustun bo’lgan dini dunyoqarashga asoslangan madaniyatning gomogenligi	Madaniyatning defferenstiyalanganligi, o’zaro zid bo’lgan qadriyatlar, me’yorlar, dunyo xaqidagi tasavvurlarning ustunligi
O’tmishga, an’anaviylikka sodiqlik.	Kelajakka intilish, o’tmish taqlid qilish uchun namunalar manbai emas.
Ijtimoiy qatlamlar o’rtasida aniq namoyon bo’lgan madaniy farqlar	Sinflar va tabaqalar o’rtasidagi madaniy farqlarning yo’qotilishiga intilish va boshqa asoslarda paydo bo’lgan madaniy farqlar ahamiyatini oshirish. “Ommaviy madaniyat” xodisasi.
Qo’l mexnati texnologiyalari, ularning o’ta sekin tarzda takomillashti-rilishi.	Murakkab mashina texnologiyalari, ijtimoiy va madaniy o’zgarishlarning muxim omillaridan biri sifatidagi doimiy texnologik taraqqiyot; yashash muxiti va turmush tarzining "texnologiyalashtirilishi".
“O’zgacha”ga bo’lgan murosasizlik, tolerantlikning madaniy gomogenlikka asoslangan past darajasi.	Madaniyatning differenstiyalanganligi bilan bog’liq bo’lgan tolerantlik, “o’zgachalik” va “erkin fikrlash” xuquqining tan olinishi

Zamonaviy madaniyatning tipologik o’ziga xos xususiyatlari muxim antropologik oqibatlarga olib keladi, individning madaniyatdagi mavjudligi usulini tubdan o’zgartiradi. An’anaviy madaniyat – bu ko’p jixatdan tanlash imkoniyati

mavjud bo'lmagan madaniyatdir. Ustun dunyoqarash va barqaror an'anavalar individga ma'naviy va xulqqa oid qarashlarning aniq tizimini taqdim qiladi. Boshqa so'zlar bilan aytganda, uning muammolarini aniqlash sodir bo'lmayapti.

Zamonaviy madaniyat o'zining chuqur differentsiastiyalanganligi va ichki ziddiyatlari sababli insonni doimiy noaniqlik vaziyatiga tushirib qo'yadi va uning oldiga dunyoqarash va o'zini tutish strategiyalarini tanlash muammosini qo'yadi. Ommaviy tarzda qabul qilingan dunyoqarashning mavjud emasligi atrof dunyoni muammoli qilib qo'yadi, uni barqarorlik va aniqlikdan maxrum qiladi. (Bu kabi vaziyat, aslida, madaniyat xaqidagi fanlarning namoyon bo'lishiga, "madaniyat" xodisasining mavjudligi xaqidagi fikrning o'zini anglashga olib keldi). Shuningdek, zamonaviy madaniyatni an'anaviy madaniyat bilan qiyoslaydigan bo'lsak, uning axborotga to'liqligini xam ta'kidlab o'tish lozim. Zamonaviy madaniyat ma'lumotlarning shunchalik ko'pki, xech bir odam uni to'liq o'zlashtirib olish imkoniga ega emas. Shu bilan birga ma'lumot xajmi doimiy ravishda ortib boradi va yangilanib turadi. An'anaviy jamiyatda intellektual sinfga mansub bo'lgan individ, aslida, jamiyatda mavjud bo'lgan barcha axamiyatga ega bo'lgan madaniy boyliklarni o'zlashtirish imkoniga ega bo'lgan. Zamonaviy davrda esa bunga xech kim qodir emas. "Ob'ektiv" va "sub'ektiv" madaniyat o'rtasidagi farq zamonaviy jamiyatda xavfli tabaitga ega bo'ladi. Zamonaviy "yovvoyi" turi - axborotga to'liq bo'lgan muxitda yashovchi, misli ko'rilmagan madaniy boyliklarni egallash imkoniyatiga ega bo'lgan, biroq ommabop teleko'rsatuvlardan va bevosita, muqarrar tarzda cheklangan xayot tajribasidan oladigan madaniy mohiyatlarning minimumidan qoniqish xosil qilgan individ paydo bo'ladi. Yuqorida sanab o'tilgan barcha yo'nalishlar jamiyatning bugungi kundan o'tish xolatiga o'tishida yanada kuchayib ketadi.

Nazorat uchun savollar

1. An'anaviy va zamonaviy madaniyatning qiyosiy ta'rifini keltiring
2. Ommaviy madaniyatning vazifalari va o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Maksimallashtirish va markazlashtirish tushunchasiga izox bering.

4. Qadriyatlar tizimini o'zgarishi va "burjuaziya xislatlari"ni izoxlang

17. *GLOBALLASHUVNING MADANIY JIXATLARI*

Zamonaviy nazariyachilardan biri Entoni Giddens globalizastiyani etarli darajada oddiy - zamonaviy insoniy stivilizastiyani tashkil etuvchi jamiyatlarning o'zaro bog'liqligini kuchaytirish sifatida ta'riflaydi. Bugungi kunda globalizastiya ijtimoiy va madaniy xayotning barcha jixatlariga ta'sir ko'rsatadi, shakllanib ulgurgan tasavvurlar va qadriyatlarni o'zgartiradi, odatiy turmush tarzini parchalaydi, turli madaniyatlar vakillarini doimiy dialogga jalb qiladi, milliy iqtisodiyotlar, davlatlar va madaniy dunyolar o'rtasidagi chegaralarni yo'qotadi, boshqa tomondan esa, yangi chegaralarni chizishga imkoniyat yaratadi. Globalizastiya ijtimoiy xayotga avvallari kuzatilmagan ko'lam va murakkablik taqdim qilgan xolda uning tabiatini to'liq o'zgartirib yuboradi.

Insoniyat tarixining ko'p qismi davomida jamiyatlar u yoki bu xolda ajratilgan tarzda mavjud bo'lgan. Biroq yopiqlikni engib o'tish tendenstiyasi xam etarli darajada avval namoyon bo'lgan. Qabilalarning birlashtirilishi, qadimgi davlartlarning shakllanishi, savdo almashinuvi - bularning barini turga oid, qabilaga oid, etnik o'ziga xosliklarni engib o'tish tomonga qo'yilgan qadamlar sifatida ko'rish mumkin.

Turli millatlarning aloxida mavjud bo'lishlarini engib o'tishning eng aniq misoli sifatida qadimgi va o'rta asr imperiyalarini ko'rish mumkin. Biroq o'tmishning xar qanday, xattoki eng ulkan imperiyasi xam inson yashaydigan kengliklarning barini qamrab olmagan, va bu kabi imperiyalarning birligi axamiyatli ravishda shartli bo'lgan. Xududlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga kommunikastiya, transport va aloqa vositalarining past darajada rivojlanganligi to'sqinlik qilgan. Bundan tashqari, tabiiy xo'jaliklarning ustunligida, deyarli xar bir axoli punkti o'zini o'zi ta'minla yoladigan iqtisodiy birlikni aks ettirgan.

Dunyo dinlari, va avvalambor butun xristianlik va imlomning keng tarqalishi, qabila va etnik yopiqlikni engib o'tish yo'lida qo'yilgan muxim qadamni aks ettirgan. U mazkur dinlarga e'tiqod qiluvchi xalqlarning muayyan madaniy

uyushmalarining shakllanishiga olib keldi.

Na siyosiy, na diniy omillar "yagona dunyo", "yagona stivilizastiya"ning paydo bo'lishiga olib kelmadi. Buning uchun xaqiqiy asos iqtisodiyot va texnologiyaning rivojlanishi bilan shakllantirilgan. Zamonaviy global iqtisodiyotning barcha afzalliklari va kamchiliklari bilan birgalikdagi yo'l Buyuk geografik kashfiyotlar davrida boshlandi. Mazkur kashfiyotlar ortidan kirib kelgan Evropa mustamlakachiligi Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining ko'plab jamiyatlarining farovon xayotiga yakun yasadi. Arzon, deyarli "tekin" manba va xom ashyolar, arzon ish kuchi, yangi maxsulotlar, keyinroq - Evropa maxsulotini sotish bozori: bularning barchasi rivojlanayotgan evropa iqtisodiyotining ulkan qadriyatiga aylandi. Industrial jamiyatga tezkor sur'atlarda o'tish, ayrim tadqiqotchilarning (jumladan, I.Vallerstayn) fikriga ko'ra "nog'arbiy" jamiyatlarning manbalaridan foydalanish sababli axamiyatli ravishda sodir bo'ldi. Industrial jamiyatning shakllanishi dunyoda iqtisodiy va siyosiy ustunlikni to'liq mustaxkamladi. G'arb davlatlarining mustamlakachilik siyosati noevropa jamiyatlarini xalqaro iqtisodiy aloqalar va siyosiy munosabatlar tizimiga qamrab olinishiga olib keldi. Mustamlakachilik ekspansiyasi ob'ektlariga aylangan ko'plab jamiyatlar shaxsiy davlat tuzumlariga ega bo'lmaganlar. Mazkur tuzilmalar evropaliklar tomonidan yaratildi, bu esa o'z navbatida ko'plab xududiy va etnik nizolarga olib keldi, masalan, Afrikada.

Mustamlakachilik ekspansiya o'z ortidan nafaqat mustamlakalarning shakllanib borayotgan xalqaro iqtisodiy tizimga qamrab olinishini (I.Vallerstaynning atamashunosligida "kapitalistik dunyo-iqtisodiyotga"), balki Evropa madaniyati va stivilizastiyasining mustamlakachilik davlatlari axolisi orasida tarqatilishiga sabab bo'ldi. Mustamlaka ob'ektlariga aylangan jamiyatlarda modernizastiya jarayoni aynan mustamlakachilikdan boshlandi.

Mustamlakachilik, bugungi kunda xam namoyon bo'layotgan ko'plab salbiy oqibatlariga qaramasdan yagona insoniy stivilizastiyaning shakllanishi uchun iqtisodiy va madaniy zaminlar yaratdi. Xaqiqatan xam, birlik ostida manfaatlar va maqsadalarining uyg'unligi emas, balki qarama-qarshilik va nizolarni inkor qiluachi

emas, balki ularni qabul qiluvchi o'zaro bog'liqliklar yotadi (E.Giddensning ta'rifini yodga olaylik).

Globalizastiya - bu, avvalambor, - o'z ortidan keng ko'lamli siyosiy, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarni olib kelgan iqtisodiy jarayondir. Iqtisodiyotning globallashuvi - bu iqtisodiyotning milliy davlatlar sarxadlaridan chiqib ketishdir. D.Bell quyidagicha ta'kidlaydi:

Oxirgi ikki yuz yil davomida xalqaro iqtisodiyot mavjud bo'lgan... Global iqtisodiyot xalqaro iqtisodiyotdan tubdan farq qiladi. Sarmoya, valyuta va maxsulotlar bozorlarining birlashtirilishi, shuningdek... ishlab chiqarishning tarqalib ketishi xo'jalikning yagona tizimidir. Ya'ni iqtisodiyotning globallashuvi - bu nafaqat tezkor xalqaro iqtisodiy almashinuv, balki milliy iqtisodiyotlarning yagona - milliydan ustun, transmilliy iqtisodiy tizimga birlashishi xamdir.

Qator tadqiqotchilarning (jumladan A.Utkinning) fikriga ko'ra, globallashuv ikki bosqichni bosib o'tgan. Birinchi bosqich - XIX - XX sarxadlari - "imperializm"ning rivojlanish davri, xalqaro iqtisodiy aloqalarning faol rivodlanishi davridir. O'sha davrdayoq ayrim g'arb tadqiqotchilari, erkin savdo yalpi iqtisodiy o'sish va farovonlikka sabab bo'lish, siyosiy nizolar uchun zaminni parchalab yuborish imkoniyatiga ega ekanligi xaqida gapirganlar. Biroq bu davr yagona farovon dunyoga bo'lgan umidni ko'mgan birinchi jaxon urushining boshlanishi bilan yakunlandi.

Globallashuvning ikkinchi bosqichi XX asrning 70-yillarida boshlangan. U transmilliy korporastiyalarning (TMK) - bir mamlakatda joylashgan, biroq boshqa davlatlar xududlarida ko'plab bo'linmalarga ega bo'lgan tijorat korxonalarining vujudga kelishi bilan bog'liq. 70-yillarda 10ta etakchi transmilliy korporastiyalar mavjud bo'lgan¹²⁷. Bugun ularning soni yuzlab, va ular orasida nafaqat amerika, balki yapon, shveytariya, britaniya va boshqa davlatlar korporastiyalari xam mavjud. Transmilliy korporastiyalar o'z korxonalarini butun dunyo bo'ylab yoyilib ketadi va sekin-asta aniq "milliy tegishliligi"ni yo'qotadi. TMKlarda eng turli millatlarga mansub bo'lgan xodimlar faoliyat yuritadilar.

Nafaqat TMKlarning rivojlanishi, balki "sostialistik lager"ning parchalanishi

xam globallashuvga imkoniyat yaratgan. Sobiq sostiolistik iqtisodiyotlarkapitalistik tizimga o'zgarishga, bugungi kunda deyarli universalga aylanib borayotgan yangi o'yin qoidalarini qabul qilishga majbur bo'lgan.

Globallashuvning ikkinchi bosqichida axborot va kommunikation texnologiyalarning rivojlanishi katta rol o'ynadi. Doimiy ravishda jadal sur'atlarda ma'lumot almashish, shuningdek samarali transport vositalarining xarakatisiz global iqtisodiyot mavjud bo'lmagan bo'lar edi.

Globallashuvning madaniy jixatlari

Globallashuv jarayoni insoniyat uchun muxim madaniy oqibtalar olib keladi. Tarixda birinchi marotaba xaqiqatan xam global madaniyat yaratiladi, biroq mazkur jarayon yakundan uzoq va bir turli bo'lmagan, qarama-qarshi baxolarga sabab bo'ladi. Ko'pincha shakllanib borayotgan global madaniyatni global "g'arblashish", aniqrog'i boshqa madaniyatlarning "amerikalashishi" sifatida ifodalaydilar. "Amerikalashish" ostida avvalambor, amerika ommaviy madaniyatining eng zo'r bo'lmagan namunalari va amerika turmush tarzining ayrim elementlari tushuniladi. Globallashuv tanqidchilaridan ayniqsa koka-kola, bir zumda taomlar restoranlari tarmog'i "McDonald's" va amerika jangarilarining ko'p "kaltak" eydilar. Bularning bari "an'anaviy turmush tarzini buzib yuboradi", "madaniy o'xshashlikni" parchalaydi, "madaniy unifikastiyaga" imkoniyat yaratadi va xokazo. Madaniy globallashuv tomonga otilgan bu kabi tanqidlar aniq dalillarga asoslanadi. Biroq, shunga qaramasadan, madaniy globallashuv moxiyatini faqatgina shu xolatga bog'laydigan bo'lsak, uni juda soddalashtirib qo'ygan bo'lar edik. Xatto eng shubxali amerika ta'siri xam koka-kola, djinsi va seriallar bilan yakunlanmaydi. Ushbu ta'sir shuningdek, kopyuter, mobil telefonlar va odamlarga ko'plab imkoniyatlarni taqdim qiluvchi boshqa muxim va foydali kashfiyotlarning tarqalishini nazarda tutadi.

Madaniy globallashuv - murakkab va chuqur jarayondir. Bu faqatgina G'arb yoki AQShning qolgan dunyoni madaniy ("makdonallashtirish", "koka-kolallashtirish") mustamlakaga aylantirishi emas. Bu nafaqat inson jamiyatlari o'rtasida xar doim xam o'zaro tenglikda amalga oshirilmasa-da, zamonaviy

dunyodagi kommunikatsiya vositalarining tengsiz darajada rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan jadal almashinuv, balki shuningdek, dunyo bo'ylab odamlarning ulkan ommalarining doimiy (rasmiy va norasmiy) ko'chib o'tishlaridir. Madaniyatlarning aralashib ketishi va o'zaro munosabatlari bugungi kunda, sanoqsiz shaxsiy, turli madaniy an'analar tashuvchilarining bevosita muloqotlarida - ishlab chiqarish jarayonida, turistik safarlarda, universitetlarda, Internet tarmoqlarida, yashash joyida va xokazolarda real ravishda o'zini namoyon qiladi. U shuningdek, "begona madaniyat" namunalarining faqat o'z madaniyatining ma'naviy maydonida qamalib qolmagan odamlar ommasining keng qatlamlari uchun etishish oson bo'lganligi bilan xam ifodalanadi.

Jamiyatlar o'rtasidagi xududiy chegaralar tobora yuqilib bormoqda. Madaniy "sarxadlar" umuman yo'q bo'lib ketmoqda. Global madaniyat tomonidan shakllantirilgan, g'arb adaniyatining "ibtidosi"ni demokratik va bozor qadriyatlari, shuningdek, texnologiyalarning ustunligi sharoitida turli madaniy an'analarning elementlarini qamrab oluvchi "tashuvchisi" va "yaratuvchisi" jamiki insoniyat xisoblanadi.

P.Berger madaniy globallashuvni xarakteratga keltiruvchiasosiy kuchlari xaqida

Madaniy globallashuv amalda qay tarzda amalga oshiriladi? *Piter Bergerning fikriga ko'ra, madaniy globallashuvni xarakteratga keltiruvchi asosiy kuchlar sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: til, ishbilarmonlar, "intellektuallar klubi", ijtimoiy xarakteratlar va ommaviy madaniyat.* Mazkur omillarni batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Til. Bugungi rivojlanish davrda butun dunyodagi tobora ko'proq odamlar ingliz tilini (ko'pincha uning amerikacha variantida) o'rganishga xarakterat qilmoqdalar. Ushbu tilni bilish muvaffaqiyatli karerani ta'minlovchi eng ahamiyatli omillaridan biri xisoblanadi. Ingliz tilini erkin bilish turli mallatlarga mansub bo'lgan professionallarga nafaqat o'z mamlakatlarida, balki xorijda xam muvaffaqiyatli ishlash imkoniyatini beradi, ijtimoiy mobillik va xayot darajasini

oshirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Ingliz tilini bilish muxim madaniy axborotga ega bo'lishning zarur shartiga aylanib bormoqda. Internetdagi 80%dan ortiq ma'lumotlar ingliz tilida yaratiladi. Ilmiy jurnallarning asosiy qismi xam ingliz tilida chop etiladi. Bugungi kun olimi uchun yangi g'oyalar bilan tanishish va shaxsiy g'oyalarning keng tarqatilishi dunyo intellektual etakchilarining xaqiqiy tiliga aylanib bormoqda. Bu kabi vaziyat ellinizm davrida, ma'lumotga ega bo'lgan odamlar grek tilini bilgan davrda, shuningdek, o'rta asr davrida, ya'ni butun Evropa "olimlar"ining muloqot tili lotin tili bo'lganda kuzatilgan. Nafaqat muvaffaqiyatli karera, balki zamonaviy jamiyatlar tomonidan taqdim qilinayotgan ayrim ne'matlardan foydalanish xam ingliz tilini bilishga bog'liq bo'ladi. Ommabopligi doimiy ravishda ortib borayotgan turizm sifatidagi bo'sh vaqt va dam olish turi shuningdek, ingliz tilida erkin muloqot qiluvchilarga ko'proq xuzur bag'ishlaydi. Turistik biznes professionallari uchun esa ingliz tili (boshqa tillar bilan bir qatorda) o'ta zarur xisoblanadi.

Biroq til - oddiygina odamlarga bir-birini tushunish imkoniyatini beruvchi muloqot vositasi emas. Til muayyan madaniy moxiyatga egadir. Til bilan tanishish dunyoning unda kodlashtirilgan manzarasini nazarda tutadi. P.Bergerning quyidagicha ta'kidlaydi:

...chet tilidan foydalanish odamlar uchun izsiz yo'qolib ketmaydi. Xar qanday til o'z ostida bilishga oid, me'yoriy va xattoki xissiy konnotastiyalarga ega bo'lgan madaniy qatlamga ega. Xatto amerika OAVlari tomonidan tarxib qilinayotgan qarashlar va qadriyatlarga qaramasdan amerika tiliga nisabtan xam shu fikr asosli xisoblanadi. Xech bo'lmaganda, religious preference (diniy qarashlar) va sexual orientation (jinsiy qarashlar) kabi beg'araz iboralar xaqida o'ylab ko'ring...

Keltirilgan stitataga zamonaviy rossiya xayotidan keltirilgan misolni qo'shish mumkin. Rossiya uchun yangi iqtisodiy va siyosiy realiyalarga, shuningdek, texnologiyalarga tegishli bo'lgan so'zlarning ko'pchiligi ingliz tilidan kelib chiqqan. Rus tilida ularning o'rnini bosuvchi so'zlar aslo mavjud emas.

"marketing", "menedjment", "broker", "audit", "akstiya", "vaucher", "merchendayzing" va xokazo so'zlar, mamlakatimiz ijtimoiy-madaniy maydonida yaqinda paydo bo'ldi, shu bilan birga bu so'zlar o'zlari belgilagan narsalar bilan bir vaqtda kirib keldi. Mamlakatimiz iqtisodiyotining "ma'noviy fazosi", shunday qilib, belgilab beruvchi g'arb ta'siri ostida shakllanadi. Yangi atamashunoslikni tushunmaydigan odamlar - bu odatda bozor munosabatlaridan uzoq bo'lgan, ularda faol ishtirok etmaydigan, va ko'pincha ularni umuman tushunmaydigan odamlardir. Muayyan terminologiyani bilish yoki bilmaslik ijtimoiy tengsizlikning madaniy korrelyati, xattoki parchalanishiga sabab bo'ldi. Bozor munosabatlariga qamrab olinmagan odamlar odatda, zamonaviy jamiyatning iqtisodiy sharoitlariga moslashmagan, daromadlarning past darjasiga ega bo'lgan odamlardir. (Rossiya iqtisodiy tezaurusiga kiritilgan "o'ziga xos xissa" bo'lgan bezorilar (ko'cha) tilini qayd qilish qiziqarli. Uning keng tarqalishi rossiya kapitalizmi shakllanishining o'ziga xos xususiyatini aks ettiradi va shakllangan yangi iqtisodiy tizimning tabiati xaqida ko'p narsani aytib beradi).

Chet tilini o'zlashtirish dunyoni "yangicha" ko'rishga, dunyoni yangi til qiymatlari prizmasi orqali ko'rishga o'rgatadi. Bu o'z ortidan shaxsyi til va unda kodlashtirilgan madaniy an'ana bilan avtomat ravishda uzilishga olib kelmaydi. Aksincha, madaniy sarxadlarni kengaytirish, yangi imkoniyatlarni ochish, madaniy moxiyatlarning yangi qudratli manbasiga kirib borish xaqida gapirish lozim.

"Amerika ingliz tili"ning bugungi kundagi ustunligi narsalarning bu xolati abadiy saqlanib qoladi, degani emas. U yoki bu tilning ustunligi - bu iqtisodiy, siyosiy va madaniy ustunlikning aksidir. Kuchlarning boshqacha taqsimlanishi qandaydir boshqa tillarning o'rganilishini dolzarb qilishi mumkin.

Ishbilarmon oliy tabaqalar. Yuqorida globallashuvning asosiy xarakterga keltiruvchi kuchi iqtisodiyotning rivojlanishi, uning milliy sarxadlardan chiqib ketishi xisoblanadi. Iqtisodiyot globallashadi, uning sub'ektlari, jumladan, ishbilarmon oqsuyaklar xam globallashadi.

Global iqtisodiyotda samarali ishtirok etish muayyan iqtisodiy madaniyatni, ma'lum me'yorlar va qadriyatlarni egallashni anglatadi. Va ushbu me'yor va

qadriyatlar milliy madaniyatlardan ko'ra ko'proq aynan iqtisodiyot xarakatlanishining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq.

Bugungi kun bozor iqtisodiyoti - g'arb kashfiyoti, va muvofiq ravishda ishbilarmon oqsuyaklar madaniyati - bu o'z kelib chiqishiga ko'ra ishbilarmon madaniyatdir. Globallashib borayotgan dunyoning ishbilarmon tabaqasi uchun tor milliy va madaniy doiralar bilan cheklanmagan dunyoda mavjud bo'lish tabiiy va istalgan xolat bo'lib qolmoqda. Uning faoliyat olib borish doirasi potentsial ravishda butun dunyo xisoblanadi.

P.Berger ushbu xodisani quyidagicha ta'riflaydi:

Paydo bo'layotgan global madaniyat oliy tabaqa vakillari kabi axolining keng qatlamlariga xam mo'ljallangan tarqatish vositalariga ega. Extimol, oliy tabaqa uchun eng muxim vosita Samyuel Xantington muvaffaqiyatli ravishda davos madaniyati (xar yili yuqori darajadagi iqtisodiy maslaxatlar amalga oshiriladigan shveystariya tog' kurortining nomidan kelib chiqqan xolda) deb atagan vosita - ya'ni dunyoning etakchi ishbilarmon va siyosiy doiralarning xalqaro madaniyati xisoblanadi. Uni xarakatga keltiruvchi asosiy kuch - aynan iqtisodiyot va texnik globallashuvni boshqaruvchi xarakatga keltiruvchi kuchdir. Biroq mazkur madaniyat faqatgina Davosga taklif qilinadigan kamchilikning madaniyatidir, deb o'ylash xato; u erga taklif qilinishni istagan va sostiologlarda ogoxlantiruvchi ijtimoiylashtirish deb qabul qilingan xolatda turgan millionlar xam mavjud.

Dunyoda biznes va o'z mamlakatlarida paydo bo'lgan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanayotgan shuxratparast yoshlar uyushmalarining butun bir tarmog'i mavjud... xuddi yo'q erdan paydo bo'lgan "yappi-xalqaroachilar", ularning a'zolari ingliz tilida gapiradilar, tegishli ravishda kiyinadilar va o'zlarini tutadilar, ishlaydilar va o'yin-kulgu qiladilar - va qachondir ular xam oliy tabaqa sammitlari ishtirokchilariga aylanishni orzu qiladilar. Biroq ushbu tashqi qobiq ularning xayotining barcha tomonlarini qamrab oladi, deb taxmin qilishda extiyot bo'lish lozim. Birlari to'g'risida gapiradigan bo'lsak, shunday: ezgulik maqsadida yoki baxtga qarshimi bilmadim, biroq ular - barcha jixatdan kosmopolitlardir. Boshqalar

esa qandaydir tarzda ikkita turli dunyolarda mavjud bo'la olishlari mumkin: bir tomondan, global ishbilarmon madaniyatdan tashqarida qolishni istamaydilar, shaxsiy xayotda esa tamomila boshqacha madaniy qadriyatlarga ergashadilar.

Jamiyatlarning "ishbilarmon oliy tabaqa"lari o'z madaniy muxiti uchun globallashtiruvchi muxim sub'ekti sifatida, va ayni vaqtda - g'arb mamlakatlarining ishbilarmon oliy tabaqasi tomonidan globallashtiruvchi madaniy ta'sir ob'ekti sifatida namoyon bo'ladilar.

"Intellektuallar klubi" - P.Berger g'arb ziyolilarining madaniy uyushmasini, va nafaqat ularni, balki orasida milliy-madaniy tor sarxadlar doirasidan chiqib ketuvchi g'oyalar va qarashlar, me'yorlar va qadriyatlar shakllanuvchi jamiyatlarni xam shunday nomladi. Intellektuallar o'z g'oyalarini iqtisodiyot kabi sekin-astalik bilan "globallashtirib" borayotgan ta'lim tizimlari vositasida xam ishlab chiqadilar va tarqatadilar. G'arb (va nafaqat g'arb) intellektuallari turli mamlakatlarning ta'lim muassasalari kabi, chek-chegarasi bo'lmagan zamonaviy OAVlarining (ayniqsa, Internetning) global madaniy maydonida xam o'quv, ilmiy va publististik faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin.

"Intellektuallar klubi"ning madaniy ta'siri shuningdek, turli Jamg'armalar, ko'ngilli nodavlat tashkilotlar, va nixoyat shaxsiy aloqalar orqali tarqalib boradi. "Intellektuallar klubida" xuddi "ishbilarmonlar oliy tabaqasi"da xam (mazkur uyushmalar o'rtasidagi chegaralar aniq emas) amerikalashgan g'arb qadriyatlari: shaxsning erkinlik qadritidan tortib sog'lom turmush tarzi qadriyatiga qadar bo'lgan qadriyatlar ustun turadi.

"Nog'arbiy" jamiyatlar uchun intellektuallar va ishbilarmon oliy tabaqa - G'arbning belgilab beruvchi madaniy ta'siri ostida shakllanayotgan moxiyatlar va qadriyatlar tizimi, global madaniyatning muxim namunasi sifatida xizmat qiladi. Biroq shu bilan birga madaniy globalizastiya g'arb jamiyatlariga xam ta'sir ko'rsatishi mumkin ekanligini esdan chiqarmaslik lozim: ular nafaqat qolgan dunyo uchun moxiyatlarni ishlab chiqadilar, biroq o'z navbatida aks madaniy ta'sirga uchraydilar. Bu ayniqsa din soxasida aniq namoyon bo'ladi. Madaniyati xristianlikning belgilab beruvchi ta'siri ostida shakllangan zamonaviy g'arb

jamiyatlari (jumladan, amerika jamiyatlari xam) bugungi kunda doimiy ravishda boshqa xududlardan, asosan Xindiston va Xitoy (yaxudiylik, buddistlik, dosizm) kirib kelgan diniy ta'limot va tashkilotlar bilan to'qnash kelmoqdalar. Eng so'nggi yillarda amerikalik va evropaliklarning islomga bo'lgan qiziqishlari ortib bormoqda. Intellektuallar - bu jamiyatning ma'naviy faoliyatning yangi turlariga bo'lgan qiziqishlarni namoyon qilishga moyildir.

Intellektuallar o'rtasida nafaqat madaniyat globallashuvi tarafdorlarini, balki uning eng faol dushmanlarini xam, "qadimiy" an'analarni saqlash va tiklash tarafdorlarini xam ko'rish mumkin. paradoks shundan iboratki, o'z kuchlanishlarini birlashtirish uchun ular xam "millatlardan ustun" aloqalarni yaratishlari zarur. Buning uchun Internet keng imkoniyatlar ochadi. Global kompyuter tarmog'i xam teng samara bilan "madaniy globalistlarga" xam, "madaniy antiglobalistlarga" xam xizmat qiladi. Bu esa bizning nazdimizda globallashuvning qaytmas jarayon ekanligi tasdiqlaydi.

Ijtimoiy xarakatlar xam bugungi kunda shuningdek global madaniyat agentlari sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur xarakatlar, Berger ta'kidlashicha, ko'pincha "intellektuallar klubi" bilan bog'liq - masalan ekologik yoki xuquqni ximoya qiluvchi xarakatlar. Faoliyat tabiati va tarqalishiga ko'ra global xodisalar bugungi kunda xayriya, shuningdek o'z kelib chiqishiga ko'ra g'arbiy kabi, sharq diniy xarakatlar global xisoblanadi. Sharqiy kelib chiqishga ega bo'lgan global diniy xarakatlarga misol qilib, o'zining dastlabki ixlosmandlarini AQShda topgan, kelib chiqishi Xindistonlik bo'lgan Bxaktiaedant Svama Prabxupada tomonidan asos solingan "Krishnani anglash xalqaro jamiyat"ni ko'rsatish mumkin. Bugun ushbu xarakat derli butun dunyoga, shuningdek, Rossiyaga xam tarqalgan. G'arb diniy xarakatlardan eng faoli ellikchilikdir. Mazkur protestantlik denominastiyasi tarafdorlari bugungi kunda nafaqat AQSh, Evropa va Rossiyada, balki Afrika, Janubiy Amerika va Osiyoda xam keng tarqalgan. Intellektuallar bilan bo'lgani kabi, global ijtimoiy xarakatlar to'laqonli ravishda "globallashuvga qarshi" yo'naltirilgan va an'anaviy turmush tarzining qayta tiklanishi uchun kurashishlari xam mumkin. Bu kabi "global globallashuvga qarshi xarakat"ga misol qilib

tarafdorlari g'arb stivilizastisi bilan dushmanlashgan xolda, aynan u tomonidan yaratilgan texnik va axborot imkoniyatlardan global ko'lamdagi faoliyatini, g'oyalar almashinuvini, vositalar to'plashni muvofiqlashtirish uchun saamarali ravishda foydalanuvchi islom fundamentalizmini keltirish mumkin. (Qurol kabi "madaniy artefakt" xaqida gapirmasa xam bo'ladi).

Biz muxokamani globallashuvining madaniy jixatlarining global tarqalishidan boshlagan *ommaviy madaniyat* uning eng axamiyatli ko'rinishi xisoblanadi. Ommaviy madaniyatning amerika modeli eng turli madaniy kontekstlarga ajoyib tarzda moslashuvni namoyon qiladi. Biroq amerika ommaviy madaniyati tomonida nafaqat uning qiziqarli va tushunish oson bo'lgan moxiyati, balki uning texnik ustunligi xam bo'lgan. Ommaviy madaniyat asosan OAVlari yordamida tarqatiladi, va Amerika OAVlari dunyoda ustunlikka ega.

Muetazam ravishda amerika seriallarini, shuningdek, madaniy moxiyatni aks ettiruvchi musiqali kliplarni va reklamalarni ko'ruvchi odamlarning turmush tarzi xaqiqatan xam o'zgarishlarga duch keladi. Biroq begona g'oya va qadriyatlarni passiv tarzda qabul qilish xaqida gapirish shartmikan. Amerika ommaviy madaniyati ta'siri ostida shaxsiy madaniy merosini elementlarini kirib keluvchi madaniyat elementlari bilan biriktiruvchi "maxalliy" ommaviy madaniyat shakllanadi. Teleserial janri bugungi kunda ko'plab: rossiya, yapon, franstuz, braziliya va xokazo madaniy yo'nalishlarda mavjud. Ommaviy madaniyatning xar qanday "bo'g'ini" xaqida shu gapni aytish mumkin. Ommaviy madaniyatning globallashuvi g'arb namunalarini mexanik ravishda boshqa ko'rinishga o'tkazish bilan bir qatorda ko'plab iste'molchilarni qoniqtiruvchi "begona" va "o'ziniki"ni qandaydir sintez qilishga olib keladi.

Madaniy globallashuvning yana bir qiziqarli jixatiga - moddiy "madaniy artefaktlar"ning yagona, global dunyosini - "qishloq" joyda emas, balki u yoki bu darajadagi katta shaxar markazida (yoki bevosita bu kabi shaxarning yaqinida) yashovchi, ko'pincha ishga oid yoki ko'ngilochar safarlarni amalga oshiruvchi zamonaviy insonni o'rab turgan predmetga oid muxitning shakllanishiga to'xtalib o'tish shart. "Predmetga oid muxit" (ayniqsa ijtimoiy yo'naltirilgan bo'lsa) aniq bir

xillashtiriladi. Aeroportlar, mexmonxonalar, avtomobillar, restoranlar, supermarketlar, vokzallar, transport, kompyuterlar, mobil telefonlar, televizorlar, zamonaviy osmono'par binolar - bularning barchasi va boshqa ko'plab narsalar inson qaysi mamlakatda bo'lmasin, deyarli bir xil. Predmetga oid muxitni unifikatsiya qilish, butun dunyo xamma erda bir xildek tasavvur xosil qiladi, ushbu dunyoda ko'chib yurgan odamlar esa xam uyida - xam xech qaerda emas.

Madaniy globallashuv va madaniy lokalizatsiya.

Global madaniyatning ko'pincha g'arb (amerika) madaniy andozasining tarqalishi sifatida o'rganiluvchi shakllanishi paradoks tarzda "maxalliy" madaniy farqlarning kuchayishi bilan birga kechadi. Ushbu fakt ko'plab tadqiqotchilarni bir vaqtning o'zida "globallashuv", xamda madaniyatning "maxalliyashtirilishi" xaqida gapirishga majbur qiladi. Masalan, globallashuvning iqtisodiy jixati - TMK faoliyati muxim madaniy tarkibiy qismga ega. TMK oldida ko'pincha quyidagi muammo paydo bo'ladi: yangi madaniy muxitga qanday qo'shilib ketish mumkin? McDonald'sning maxalliy madaniy o'ziga xos xususiyatlar bilan bog'liq bo'lgan aloxida qiyinchiliklarini zamonavi xind tadqiqotchisi Tulasi Shrinivas ta'riflaydi:

...McDonald's, maxsulotlari Xindiston kabi mamlakatlarda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, va yumshoq nonda bir bo'lak mol go'shti g'oyasi induizmga e'tiqod qiluvchi ko'plab xindistonliklar uchun, xatto ularning evropalashganlari uchun xam zo'r g'oya bo'lib ko'rinmadi...

McDonald's kompaniyasi vegeterian va go'shtli maxsulotlarning aralashi ketishining oldini olish maqsadida xar bir restoranda ikki xil oshxona taomlarini yaratish uchun ko'p vaqt va mablag' sarf qildilar. Soflik va xarom xindiste'molchilari uchun juda muxim. McDonald's, ning barcha xarakatlariga qaramasdan iste'molchilar uni uning firma belgisidagi rasm - ichiga mol go'shti solingan yumshoq non bilan bog'laydilar. Delining janubida biz oilalarning katta yoshli a'zolari McDonald's tarelkalarida go'shtli taom berilgan berilmaganligini aniqlash uchun ularni xidlab ko'rganlar; nisbatan tajovuzkor mijozlar esa barcha idish tovoqlar aloxida saqlanayotganligiga ishonch xosil qilish uchun xar ikki oshxonani xam ko'rib chiqishni talab qiladilar. Boshqalari esa xizmatchilardan

go'shtli maxsulotlarni vegetarian oshxonalardan uzoqroq saqlash uchun qanday choralar ko'rilishini so'rab bilib olishga intiladilar.

Bundan tashqari, McDonald's o'z menyusini maxalliy sharoitlarga moslashtirishga, ya'ni xindistonlashtirishga xarakat qilib ko'rdi. Kompaniya menedjerlari o'z gamburgerlaridagi yozuvlarni odatiy big-makdan maxaradjamakka o'zgartirdilar - ayrim vegetarianlik tarkibiy qismlariga ega bo'lgan xind gamburgeri shu kabi nomalandi. Biroq ko'p mijozlarni go'shtdagi ziravorlarning etarli emasligi qochirib yubordi... Xind iste'molchisini dunyoning boshqa qismlarida ko'plab iste'molchilarni jalb qiluvchi gamburger, kartofel fri va bir stakan koka-koladan iborat bo'lgan menyu xam jalb qila olmadi...

McDonald's va boshqa amerika transmilliy korporastiyalar amerika standartlashtirish ideali va avvaldan aytib berish qobiliyatiga asoslangan; xar qanday ko'p millatli oziq-ovqat kompaniyasiyaning filiallari standartlashtirishning mazkur mo'jizasini butun dunyo bo'ylab tarqatish imkoniyatiga ega bo'lishlari lozim.

Va kompaniya iste'molchilariga bu kabi standartlashtirish yoqadi. Biroq xind iste'molchisi oziq-ovqat maxsulotlarini bu kabi standartlashtirishni xoxlamaydi. Mamlakatning etnik xilma xilligi tufayli xindlar bitta kichkina geografik maydon doirasida turli xil ovqatlarga o'rganib ketadilar, ya'ni yagona xind oshxonasi mavjud emas... Mazkur oziq-ovqat maxsulotlarini standartlashtirish va gomogenlashtirishga xarakat qilish - xind iste'molchisining talablarini noto'g'ri tushunish demakdir.

Global madaniyat ta'sirining ortib borishi vaziyatida maxalliy o'ziga xosliklarga bo'lgan qiziqish ortib boradi, o'zida global va lokal ("gibridlashtirish") xususiyatlarni biriktiruvchi madaniy shakl va namunalarning "sintetik" ko'pligi vujudga keladi. Mazkur sintez shaxsiy xayot va iste'mol madaniyati darajasida xam, "oliy" va "ommaviy" madaniyat darajasida xam, turli kasbiy soxalarda xam namoyon bo'ladi. Yuqorida keltirilgan Xindistondagi McDonald's xolati global va lokalning ziddiyatli o'zaro munosabatlariga misol bo'lib xizmat qilishi mumkin. Boshqa misollar xam mavjud.

Xitoylik tadqiqotchi Yansan Yan g'arb ishbilarmon madaniyatini an'anaviy xitoy qadriyatlari bilan birlashtirishga xarakat qilayotgan zamonaviy xitoy tadbirkorlarining o'ziga xos ishbilarmonlikka oid madaniyatini ta'riflab beradi:

...ko'plari "konfustiy savdogari", yoki Xitoy imperatori davridagi olim-amaldorlarni yodga soluvchi muvaffaqiyatga erishayotgan olim-biznesmen bo'lishga intiladilar. Bu erda "konfustiy savdogari" atamasi quyidagini nazarda tutadi: biznesmen biznesmenligi bilan bir qatorda an'anaviy xitoy madaniyati moxiyatini xam egallagan va endilikda o'zini o'z bilimlarini amalda qo'llashga bag'ishlaganva siyosiy etakchilar bilan yaxshi aloqalar o'rnatgan olim xamdir. Mazkur sinfning mashxur vakili Pekinlik Chjen Tyanshenning fikriga ko'ra, "konfustiy savdogarini" biznesmen bo'lib qolgan oddiygina olim sifatida ta'riflash noto'g'ri. Insonning o'zini tutishi konfustiyga ko'ra o'zini tutish me'yorlari va xushmuomalalik, adolat, odob, muloxaza va samimiylk kabi axloqqa mos bo'lishi muxim axamiyatga ega.

"Alternativ globallashuvlar"

P.Berger "G'arb sarxadlaridan tashqarida paydo bo'luvchi va unga tobora kuchli ta'sir ko'rsatayotgan madaniyatga qarshi global xarakatlarni" belgilash uchun "alternativ globallashuv"atamasini taklif qildi. Ushbu xarakatlar globallashuvni inkor qilishni emas, balki uning shakllarining ko'pligini nazarda tutadi. "Alternativ globallashuv" xodisasi "G'arb" nafaqat boshqa madaniyatlar uchun "donor" va "moxiyatlarni etkazib beruvchi" sifatida, balki o'zi xam javob ta'siriga duchor bo'ladi. Yana Tulusi Shrinivasga yuzlanamiz. U Xindistonning zamonaviy G'arbg madaniy ta'sir xaqida yozadi:

...men madaniy globallashuvni ikki tomonlama jarayon sifatida o'rganmoqchiman va asosiy e'tiborni g'arb mamlakatlari emas, avvalambor Xindiston olib kirayotgan madaniy globallashuv jarayoniga asosiy e'tiborni qaratmoqchiman. Agar Xindistonga madaniy globallashuv kuchlari kirib kelsa, Xindistondan madniyatning tobora ko'proq andozalari chiqib ketadi. Uni odatda o'ziga meditastiyani, yogani, ma'naviy sog'lomlashtirishni, massaj va tantrizmni qamrab olgan yangi avlod (New Age), mashqlari deb nomlanuvchi xodisa bugungi

kunda G'arbda o'ta mashxurlikka ega. Dipak Chopra va Shri Satya Sai Baba kabi gurular (yoki xayot o'qituvchilari) Nyu-York, Santyago va Myunxenda ko'plab izdoshlarga ega. Kasselda (Germaniya) ayurveda restseptlari bo'yicha ovqatlanish, o'tli choylar, uqalash va individual davolash, davolovchi issiq manbalarda cho'milishni talab etuvchi averyudaning sog'lomlashtiruvchi sakkiz kunlik kursini o'tish mumkin. Birmengemda (Angliya) xaqiqiy masala dosa va karri jo'jasini tatib ko'rish mumkin.

Xindiston madaniyati elementlarini butun dunyoda ko'rish va olish mumkin: ipak sarilar va choyshablar, xind qimmatbaxo buyumlari va kiyim-kechaklar, badanga xinadan chizilgan rasmlar, xind choyi navlari... - bularning barchasini amerikaliklar va evropaliklar ularni xar kuni sotib oladilar. Ushbu maxsulotlar ayrim xollarda amerika savdo tarmog'i orqali tarqatiladi, biroq ularning madaniy kelib chiqishiga shubxa yo'q.

G'arb dunyosiga o'z davrida "yapon menedjmenti", garchi u g'arb madaniy zaminiga qiyinchilik bilan singib borgan bo'lsa-da, axamiyatli ta'sir ko'rsatgan. Ko'plab "xaqiqat izlovchilar" uchun "ma'nolar" manbai sifatida buddizm (va uning yaponcha varianti - dzen) va daosizm, Afrika va Lotin Amerikasining majusiylikka oid marosimlari xizmat qilgan. Turli xalqlarning an'anaviy san'atiga bo'lgan qiziqish doimiy ravishda o'sib bormoqda.

Shunday savol paydo bo'lishi mumkin: global madaniy dialogda Rossiyaning o'rni qanday? Rossiyaning dunyo madaniyatiga qo'shgan xissasi shubxasiz, biroq shuni ta'kidlash lozimki, xronologik jihatdan ushbu xissa asosan o'tmishga tegishli. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida rus san'ati va adabiyoti, shubxasiz dunyo madaniy merosining "oldin fondi"ga tegishli. Nisbatan kechroq bosqich esa nisbatan unumsiz bo'lgan, garchi u xam ko'plab mashxur nomlarni vujudga keltirgan. Bugungi kunda extimol, vatanimiz madaniyatining umumiy ta'siri xaqida emas, balki aloxida buyuk kishilarning dunyo madaniyatiga qo'shgan xissasi xaqida gapirish joizdir. Rossiya musiqachilari, rassomlari, qo'shiqchilar, ijodiy faoliyatning boshqa turlarining vakillari dunyo "madaniy bozori"da katta talabga ega. Rossiya an'anaviy madaniyatining ayrim elementlari, masalan –

pravoslavlik xam, garchi mashxurliuda Sharq ta'limotidan ancha ortda qolayotgan bo'lsa xam G'arbda keng tarqalib bormoqda. Rossiyada bugungi kunda ijod qilayotgan ko'plab yozuvchilarning asarlari bugungi kunda chet tillarga tarjima qilinmoqda (bu xattoki o'ta nozik didli bo'lmagan zamonaviy ijodkorlarga xam tegishli). Rossiyaning dunyodagi madaniy ta'siri bugungi kunda uncha kuchli emasligi mamlakatning inqirozli xolati va uning intellektual elitasining qandaydir o'zini yo'qotib qo'yganligi bilan bog'liq, biroq bu Rossiya global madaniy dialogning faol ishtirokchisi bo'la olmaydi, u "dunyoga xech nima bera olmaydi", degani emas.

Nazorat uchun savollar:

1. Globallashuvning madaniy jixatlarini izoxlang
2. "Alternativ globallashuvlar" xaqida ma'lumot bering?
3. Madaniy globallashuv va madaniy lokalizastiya nima?

18. MADANIY IJODNING SOQIAL SUB'EKTLARI

Xar bir kishi va xar qanday ijtimoiy jamoa qaysidir darajada madaniy ijod sub'ekti xisoblanadi. Xattoki banditlar guruxlari xam o'ziga xos submadaniyatni shakllantiruvchi qadriyatlar tizimi va me'yorlarini shakllantiradi. Xar bir uy bekasi yangi taom resteptin o'ylab topishi mumkin, va bu xam madaniy ijodning bir namunasidir. Biroq turli ijtimoiy guruxlarning va shaxslarning madaniyatning shakllanishiga qo'shadigan xissalari bir xil emas. "Madaniy ijod sub'ektlari" xaqida gapirar ekanmiz, biz faoliyati umuman jamiyat uchun yangi g'oyalar, ramzlar, qadriyatlar, me'yorlarni yaratishga yo'naltirilgan ijtimoiy guruxlar, uyushmalar va tashkilotlar xaqida gapiramiz. Ushbu bo'limda biz madaniy ijodning ijtimoiy sub'ektlari sifatida ziyolilarni, ijtimoiy xarakatlarni, "madaniy sanoatni", shuningdek, OAV nazarda tutamiz.

Ziyolilar

"Ziyolilar" tushunchasi ("intellektuallar") aniq va omma tomonidan qabul qilingan ta'rifga ega emas. Bunga sabab mazkur tushuncha yordamida

ifodalanadigan shartli ijtimoiy qatlamning o'ta xilma xilligidir. Agar intellektual mexnat bilan band kishilarni "ziyoli"larga tegishli, deb xisoblaydigan bo'lsak, u xolda menedjerlar, vrachlar, xuquqshunoslar, vazirlar, jurnalistlar, kutubxonachilar, sanoat texnologlarining barchasini bitta guruxga kiritishga to'g'ri keladi. Ro'yxatni cheksiz davom ettirish mumkin: zamonaviy jamiyatda ularning vakillari doimiy ravishda "narsalar" bilan emas, balki g'oyalar bilan ishlashlarini taqozo qiluvchi "intellektual kasblar" soni doimiy ravishda ortib bormoqda. Shu bilan birga o'qituvchi va menedjer, vrach va prokuror, jurnalist va bank xodimining faoliyat turi bir-biridan tamomila farq qiladi. Ularning ko'pchiligining faoliyati asosan bir xil tarzda kechadi, va ijoddan ko'ra ko'proq konformizm va xattoki ritualizmni nazarda tutadi.

Madaniy ijod sub'ektlari sifatida esa bir o'zi va bevosita o'zining atrofida uchun emas, balki boshqa guruxlar va umuman jamiyat uchun nimadir ishlab chiqarayotganlar tan olinishi lozim. *Ziyolilar madaniy ijod sub'ekti sifatida - bu odamlarning kasbga oid darajadagi ishla chiqarish va g'oyalarni, qoidalarni, nufuzli fikrlarning tarqatilishi bilan band bo'lgan etarli darajadagi amorf uyushmasidir.* Yuqorida sanab o'tilgan kasb vakillarining xar biri yangi g'oyalar yaratishga urinib ko'rsa va ularni tarqatishga intilsa, ziyolilar sirasiga kiritilishi mumkin.

Intelligenstiya va uning jamiyatdagi o'rni xodisasini birinchilardan bo'lib o'rgangan tadqiqotchilardan biri K.Mangeym xisoblanadi. Mangeymning fikriga ko'ra, intellegenstiyaning moxiyati uning "madaniyatga bo'lgan o'ziga xos munosabatidir". Intellegenstiya uchun xar qanday davrda xam uning bevosita pragmatik manfaatlari va extiyojlari soxasidagi xayotdan ko'ra ko'proq moxiyatga oid voqelik sifatidagi "madaniyatdagi xayoti" katta axamiyatga ega bo'lgan. Intelligenstiyaning erkinligi, ularning axolining boshqa ijtimoiy qatlamlaridagidan ko'ra kengroq dunqarashi aynan shu xolat bilan bog'liq. Aynan o'zining bevosita xayotiy muammolardan erkinligi tufayli intelligenstiya madaniy ijod bilan shug'ullanishi mumkin.

Mangeym uchun intelligentning "madaniy inson" sifatidagi xayoti, ushbu

o'ziga xos ijtimoiy guruxning vujudga kelishining o'zi bir nechta "bo'limlar" yoki "farqlar" bilan bog'liq.

1. Ijtimoiy rivojlanishning, ijtimoiy differenstiasining muayyan bosqichida amalga oshishi mumkin bo'lgan jismoniy va aqliy mexnatning ajratilishi. Shuni aloxida ta'kidlash lozimki, aqliy mexnat ko'pincha jismoniy mexnatdan ko'ra faxrliroq xisoblangan, biroq bu kabi baxo universal emas.

2. "Erkin kasblar" va "xaq to'lanadigan professional mashg'ulotlar" o'rtasidagi farq. Erkin kasblar ("kasb" so'zi xodisaning moxiyatini etkazib bera olmaydi, extimol "mashg'ulot" so'zi nisbatan aniqroq bo'lgan bo'lar edi) badiiy yoki intellektual - ya'ni moddiy manfaat uchun emas, balki ushbu faoliyatning o'zi uchun faoliyatni nazarda tutadi. Yashash uchun mablag'i bo'lgan odam "erkin kasblar" bilan shug'ullanishi mumkin ekanligi tushunarli. Kasbiy mashg'ulotlar, ular nimadan iborat bo'lmasin, mexnat uchun mukofotni nazarda tutadi. Biroq barcha jamiyatlarda xam bu kabi farq yaqqol ko'zga tashlanmaydi. Ular mavjud joyda "erkin kasblar" - u bilan shug'ullanayotganlar egallab turgan nufuz, oliy maqom ko'rsatkichi xisoblanadi.

3. "Oliy ma'lumotga ega" va "ma'lumotga ega bo'lmagan" odamlar o'rtasidagi farq. "Oliy ma'lumotga ega"lik o'z-o'zidan muloxazalarga muayyan og'irlik taqdim qiladi. Boshqalarni "o'qitish" va "o'rgatish"ga da'vogarlik qilayotgan shaxs, ulardan ko'ra mas'uliyatliroq bo'lishi lozim. Oliy ma'lumotga egalik ta'lim xodisasining o'zi paydo bo'ladigan va uning qadri to'liq anglangan jamiyatlardagina muloxazalarning nufuzliligining zarur asosi sifatida qabul qilinadi.

Shuni aloxida ta'kidlash lozimki, ommaviylik, zamonaviy jamiyatda ta'limning barcha uchun ochiqligi, oliy ma'lumotga ega kishilarning "tanlanganlik maqomi"dan maxrum bo'lishlari ko'p jixatdan oliy ma'lumotning muloxazalar nufuzliligining asosi sifatidagi qiymatini tushirib yuboradi.

Ietelligenstiyaning ta'siri va maqomi, shuningdek uning soni turli jamiyatlarda va turli davrlarda turlicha. Intelligenstiyaning ommaviyligi va nufuzliligi - zamonaviy jamiyatni aks ettiruvchi jixatidir, shu sababli biz aynan zamonaviy

intelligenstiyaning o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy vazifalarini ta'riflashga e'tibor qaratamiz.

Intelligenstiyaning ommaviy qatlamini shakllanishiga va uning madaniy ta'sirining ortib borishiga nima sabab bo'ldi? Birinchi navbatda, jamiyatning sekulyarizastiyasining axamiyatini aloxida ta'kidlash lozim. Dinning madaniyatdagi nufuzli o'rnini yo'qotishi to'ldirish uchun "ma'nolar va qadriyatlar"ning yangi yaratuchilari o'rnini to'ldirishlari lozim bo'lgan "ma'noviy bo'shliq"ning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Boshqa bir omil industriallashtirish va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini bilan bog'liq bo'lgan fan va ta'limning rivojlanishi bo'ldi. Olimlar va oliy ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassis-profesionallar tobora jamiyatning ko'p sonli va nufuzli guruxiga aylanib bormoqdalar. Va nixoyat, shuni aloxida ta'kidlash lozimki, tarixining ibtidosi chop etish (bosma) stanogining kashf qilinishiga borib taqaluvchi OAV va ommaviy madaniyatning paydo bo'lishini aloxida ta'kidlash lozim. G'oyalar va fikrlarning zamonaviy yaratuvchilari o'rtasida mashxur yozuvchilar, jurnalistlar va publististlar muxim o'rin egallab turadi. Jumladan, olimlarni shartli ravishda "so'z ustalari" deb atagan xolda, aloxida ajratib ko'rsatish mumkin.

Olimlar yangi bilimlarni yaratadilar, bu esa o'z navbatida insonning texnologik imkoniyatlarini oshirish, mavjudlikning moddiy sharoitlarini yaxshilash imkonini beradi. Mazkur guruxning boshqa guruxlar va umuman jamiyatga intellektual ta'siri to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bilvositadir. Texnik yangiliklar, yangi dori-darmonlar jamiyat uchun ulkan oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin, biroq ular moddiy artefaktlar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu artefaktlar ortida turgan "g'oyalar" esa ko'plab odamlarga nomalum va tushunarsiz. Ixtisoslashtirilgan ilmiy bilimning murakkabliligi va etishib bo'lmasliligi xamda u taqdim qiladigan xaqiqiy qudrat ko'pincha oddiy odamda fan oldidagi qandaydir qo'rquvni keltirib chiqaradi. Ommaviy tafakkur olimlarga g'ayritabiiy imkoniyatlar taqdim qiladi, bu esa o'z navbatida ommaviy madaniyatda keng tarqalgan "telba olim-badkirdorlar" xaqidagi syujetlarda, yoki aksincha, stivilizastiyani o'z intellekti tufayli muqarrar xalokatdan qutqaruvchi "yaxshi

olim"lar aks ettirilgan syujetlarida o'z aksini topadi. Shuni aloxida ta'kidlash lozimi, inqilob tabiatiga ega bo'lgan ayrim kash fiyotlar davr madaniyatiga bevosita va chuqur ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega. Bunga nafaqat amaliy, balki dunyoqarashga oid axamiyatga ega bo'lgan Ch.Darvinning evolyustiya nazariyasi va A.Eynshteynning nisbiylik nazariyasi misol bo'la olishi mumkin.

Publistist, yozuvchilar va jurnalistlar tomonidan ishlab chiqariladigan g'oya va fikrlar (olimlar, agar ular o'z fikrlarini ilmiy jamoa doirasidan tashqarida targ'ibot qilsalar, ularni xam shu guruxga kiritish lozim) - odamlarning fikriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadilar, ushbu fikrlarni shakllantiradilar. Bunda yangi g'oyalarni targ'ib qilish oqibatlari ilmiy kashfiyotlar va texnik ixtirolardan axamiyatliroq xisoblanadi. Intelligenstiyaning mazkur guruxini gumanitar intelligenstiya deb nomlash zarur, bu xolatda birinchilari ilmiy ietelligenstiya xisoblanadi.

Zamonaviy intelligenstiyaning mazkur ikki guruxining roli, vazifalari va kelib chiqishi turlicha. Gumanitar intelligenstiya tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, ilmiy intelligenstiyadan avvalroq paydo bo'lgan. uning vakillari sirasiga biz Volte va D.Didro, V.Belinskiy va N.Chernishevskiylarni, shuningdek, adabiy ijod va publististika bilan shug'ullangan ko'plab tarixiy personajlarni kiritishimiz mumkin. Ilmiy intelligenstiya (aloxida yakka-entuziastlar emas, balki aynan ijtimoiy qatlam nazarda tutiladi) fanning jamiyatning "ishlab chiqarish kuchi"ga aylantirilish natijasida shakllangan, va bu XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida sodir bo'lgan.

Ilmiy intelligenstiya faoliyati pragmatik maqsadlarning amalga oshirilishi bilan bog'liq. Biroq shu bilan birga ilmiy izlanishlarning o'zi ko'pincha mazkur gurux vakillari tomonidan shaxsiy maqsad sifatida qabul qilinadi. Atom bombasining yaratuvchilarini birinchi navbatda ularning kashfiyotlarining amaliy oqibatlari emas, balki yangi bilimlar va qiziqarli texnik muamolarni xal etish imkoniyatlarini topish qiziqtirgan.

Ilmiy intelligenstiya vakillari, odatda shakllangan ilmiy tuzilmaga kirishib ketgan va aniq vazifalarni xal etadilar: mexnatni tashkillashtirishni takomillashtiradilar, grippga qarshi vakstina samaradorligini oshiradilar, yangi qanotli raketalarni yo'naltirish aniqligini oshiradilar va xokazo. Ilmiy

intelligenstiya umuman olganda, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar bilan qiziqmaydi, biroq ular o'zlarining kasbiy faoliyati tufayli mazkur o'zgarishlarga imkoniyat yaratib berishi mumkin. Ijtimoiy fanlar vakillarini, agar ularning manfaatlari ilmiy izlanishlar soxasiga va aniq muammolarni xal etishga taalluqli bo'lsa, intelligenstiyaning aynan shu guruxiga qo'shish mumkin.

Biroq, agar ilmiy intelligenstiyaning vakili birdan dunyoqarashga oid muammolar bilan shug'ullanishni boshlasa va anchayin ko'p sonli auditoriyaga murojaat qilsa, u xolda shartli qilib aytadigan bo'lsak, u gumanitar intelligenstiya vakiliga aylanib qoladi. Tabiiyki, ilmiy va gumanitar intelligenstiya vakiliga "aylanib qoladi". Tabiiyki, ilmiy va gumanitar intelligenstiya o'rtasidagi farq – tipologik, va intellektuallarni ushbu "kichik guruxlari" o'rtasidagi o'tib bo'lmas chegaralarning mavjud bo'lishinitalab etmaydi.

Gumanitar intelligenstiya pragmatik, utilitar maqsadlar bilan bog'liq bo'lmagan g'oya va ma'nolarni ishlab chiqarish va tarqatish uchun mavjud. U mavjud ijtimoiy tuzumni izoxlaydi va tanqid qiladi, ma'naviy, axloqiy, dunyoqarashga oid muammolarni ommaviy tarzda muxokama qiladilar. (Shuni ta'kidlash lozimki, gumanitar intelligenstiyaning faoliyati tufayli bu kabi muammolarning mavjudligining o'zi anglanishini aloxida ta'kidlash lozim). Bunda uning "kritistizmi" ko'pincha ommaviy auditoriyaning xam, "establishment" vakillarining, shuningdek, rasmiy fan vakillarining xam g'azabini qo'zg'otadi. A. Gelen, D. Bell, Y. Shumpeter, X. Shelski kabi mashxur tadqiqotchilarni misol keltirish mumkin. Ushbu mualliflar g'arb fanida ulkan rezonansga ega bo'lgan zamonaviy intelligenstiyani tanqid ostiga olganlar. Rossiya intelligenstiyasining ijtimoiy o'rni va tafakkur usulini mamlakatimiz inqilobiy xarakatini "xarakatga keltiruvchi kuch" sifatidagi o'ziga xos xususiyatlarining yorqin taxlilini N.A.Berdyaevning "Rus kommunizmining sarchashmalari va moxiyati" kitobida ko'rish mumkin.

Gumanitar intelligenstiyaning ijtimoiy o'rni uni qisman mustaqilga aylantiradi xamda shakllangan ijtimoiy tuzumga nisbatan avtonom qilib qo'yadi. Uning vazifasi – ishlab chiqarish va boshqarish emas, balki gapirish va fikrlashdan iborat.

U ega bo'lgan "madaniy kapital" unga o'zini malakali muloxazalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Bevosita amaliy faoliyatga qamrab olinmagan bevosita kuzatvchi vaziyati ietelligenstiyaga g'oyalarni "sinovdan o'tkazish", shuningdek, ko'p xollarda "material qarshiligi"ni – ijtimoiy va madaniy muxitni e'tibordan qochirmagan xolda ularning o'zgartirishga qodir bo'lgan qudratiga ishonish imkonini beradi. Gumanitar intelligenstiyaning jamiyatga ta'sirini etarli darajada baxolamaslik noto'g'ri. J.J.Russo va K.Markslar tarixiy rivojlanishga atom energiyaini o'zlashtirishdan kam xissa qo'shmaganlar.

Gumanitar intelligenstiya "muxofaza qiluvchi" xam bo'lishi mumkin, ya'ni an'ana va asoslar, mavjud ijtimoiy tuzumning ximoyachisi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Ushbu ma'noda u xar doim yuqorida aytib o'tganimizdek, o'zining xukmronligini asoslash va "status quo"sini saqlab qolish uchun xukumat tomonidan talabga ega bo'lgan. Tanqidiy va gumanitar intelligenstiya vakillarining "intellektual yakkama-yakka olishuvlari" Yangi davr evropasi va Rossiyasi madaniyat tarixida katta rol o'ynadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ilmiy intelligenstiyaning vazifasi amaliy, utilitar jixatdan g'oyalarni ishlab chiqish va ularni qo'llash xisoblanadi, gumanitar intelligenstiyaning vazifasi esa - o'zi mavjud bo'lgan jamiyatning "shaxsiy tafakkuri" bo'lish, dunyoqarashga oid va me'yoriy noaniqlik sharoitida umumiy ma'naviy yo'nalishlarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Intelligenstiyaning o'ziga xos guruxi faoliyat soxasi san'at bo'lgan badiiy intelligenstiya xisoblanadi. Mazkur guruxga bo'lgan munosabat tarixdan o'zgaruvchan. Rassomlar xar doim xam qadrlanmagan. San'atning go'zal asarlaridan baxra olish, ularning yaratuvchilarini qadrlash zarur ekanligini anglatmagan. Rassom qul, xunarmand bo'lishi yoki zodagonlar oilasida "xizmatda" bo'lishi mumkin. Badiiy ijod qadriyat sifatida tan olingan, biroq rassom faqat Evropa tiklanish davriga kelibgina aloxida nufuzga ega bo'lgan. Biroq nisbatan kechroq davrlarda xam jamiyatda rassomlarga bo'lgan munosabat turli xil bo'lib qolavergan. Chezare Loibrozo o'z davridayoq doxiylikni telbalikning bir turi

sifatida ifodalagan, "ommaviy tafakkur" esa bugun xam rassomdan "ijodiy izlanishlar", "ijodiy inqiroz" va xokazolar ko'rinishidagi u yoki bu turdagi xulqiy og'ishlarni kutadi.

San'at asarining tafakkurga, shuningdek insonning xissiy soxasiga ta'siri ulkandir. Rassom tomonidan muvaffaqiyatli ravishda topilgan obraz individual va ommaviy tafakkurga so'zdan ko'ra ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir bir onli ta'sir emas, balki "uzoq vaqt davom etadigan" ta'sirdir. Mashxur asarlar o'z ta'sirini o'n yillar va xatto yuz yillar davomida saqlab turadi. Badiiy ijod soxasida ko'pincha jamiyatda shakllanib ulgurgan tafakkur va xulq andozalarini o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'lgan xissiyotga boy g'oyalar va obrazlar vujudga keladi. Zamonaviy evropa uchun odatiy bo'lgan va Evropaga yo'naltirilgan madaniyatlarning romantik sevgi kabi qadriyatlari tom ma'noda baxodir ristarning Go'zal Xonimga sevgisini madx etgan o'rta asr sayyor qo'shiqchilari va shoirlari tomonidan o'ylab topilgan. Ushbu ideal zodagonlar orasida, nisbatan kechroq esa boshqa ijtimoiy qatlamlar (ayniqsa adabiyot tufayli) orasida keng tarqaldi. Tiklanish davrining gumanistik ma'naviy inqilobi uchun rassomlar faylasuflardan ko'p xissa qo'shgan bo'lsa qo'shganki, ammo kam emas. Xar qanday xolatda xam ommaviy tafakkur Tiklanish davrini Piko della Mirandolo emas, balki aynan Leonardo de Vinchi davri sifatida saqlanib qolgan.

OAVlarining tarqalishi "namunalar" yaratuvchilarini zamonaviy jamiyatning madaniy jixatdan ta'sir kuchi eng yuqori bo'lgan guruxga aylantiridi. Ommaviy madaniyat asarlari qaxramonlari buguengi kunda millonlab odamlar uchun taqlid qilish uchun namuna sifatida, so'ndirilgan istaklarni, xissiyotlar va qo'rquvlarni ifodalovchisi sifatida namon bo'lmoqdalar. Biroq bunda ommaviy madaniyatning xarakatlanish mantig'ining o'zi badiiy ijodni standartlashtirilgan ishlab chiqarish jarayoniga aylantirib qo'ydi. "Rassom – ijodkor" o'rniga ijtimoiy va individual psixologiya va yangi texnologiyalar xaqidagi bilimlar bilan qurollangan, aniq maqsadli tarzda ommaga sotish uchun belgilangan xususiyatlarga ega bo'lgan "badiiy maxsulot"ni yaratuvchi "professional" keldi. O'z mavjudligini go'zalikka xizmat qilishda ko'rgan "badiiy intelligenstiya" bugungi kunda ommaviy

tafakkurga televizion seriallar yaratuvchilaridan ko'ra kamroq ta'sirga ega.

Ijtimoiy xarakatlar

E.Giddens ijtimoiy xarakatni "umumiy manfaatlarni jamoaviy tarzda amalga oshirishga urinish yoki umumiy maqsadga o'rnatilgan institutlar doirasidan tashqaridagi jamoaviy xarakat vositasida erishish" sifatida ta'riflaydi. Ijtimoiy xarakatlar madaniy va ijtimoiy o'zgarishlarning eng ahamiyatli omillaridan biri xisoblanadi. Aynan ijtimoiy xarakatlar ko'pincha, tamomila yangi narsa yaratish, dunyoga yangicha qarashni shakllantirishga intilgan xolda eski g'oyalar va qadriyatlarning, ularga asoslangan ijtimoiy tuzumning inqirozga yuz tutishiga sabab bo'ladilar. Ijtimoiy xarakatlar turli tuman, ular maqsadlari, ta'sir darajasi, xamda xarakat usuli bilan xam farq qiladilar. Biroq bizni barcha ijtimoiy xarakatlar emas, balki o'zida madaniy izga ega bo'lgan ijtimoiy xarakatlarga qiziqtiradi. Shu sababli, tinchlik uchun yoki mehnat shartlarini yaxshilash uchun kurashuvchi bu kabi ijtimoiyxarakatlar o'rganish predmeti bo'lib xizmat qilmaydi.

Ijtimoiy xarakatlarning turli tipologiyalari mavjud. Gerbert Blumer, masalan, *umumiy, o'ziga xos, ekspressiv, aralash ijtimoiy xarakatlarni, shuningdek, qarshilik ko'rsatish xarakatlarini* taklif qilgan. Bu xarakatlarning barchasining tarkibiy qismi madaniy ijoddir.

Umumiy ijtimoiy xarakatlar Blumer "madaniy oqimlar", deb atagan "qadriyatlarning chuqur o'zgarishiga" asoslanadi. Madaniy oqimlarning paydo bo'lishi odamlarning odatiy tafakkuridagi o'zgarishlarni anglatadi. Ushbu o'zgarishlarning sababi tafakkur tarzi va turmush tarzi o'rtasidagi keskin farqdir. Ijtimoiy beqarorlikijtimoiy bezovtalikni, mavjud turmush tarzidan qoniqmaslikni, kelajakka ishonchsizlikni, ijobiy o'zgarishlarni istashni keltirib chiqaradi va yangi g'oyalarga beriluvchanlik uchun zamin yaratadi.

Umumiy ijtimoiy xarakatning ta'siri asosan yangi g'oyalarni tarqatishda namoyon bo'ladi. Yangi g'oyalar odatiy tasavvurlar odamlarni ehtiyojlarini qondirishdan to'xtaganlarida vujudga keladi va tarqala boshlaydi. Umumiy xarakatlarning ijtimoiy faollik shakllari odatda past darajadagi tashkillashtirilganlik, kuchlanishlarning parchalanib ketganligi va maqsadlarning

aniq shakllantirilmaganligi bilan farq qiladi. Ular yangi g'oyalarning adabit yoki publististika vositasida tarqalishini, "qiziquvchilar guruxlarining" norasmiy shakllanishi, nafaqat odamlarni boshqaruvchi, balki taqlid qilish uchun namuna va yangi g'oyalar manbasi sifatida xizmat qiluvchi etakchilarning paydo bo'lishini nazarda tutadi.

Umumiy xarakatlar barqaror tashkiliy shakllarni yaratuvchi, "xarakatlar strategiyasini" ishlab chiquvchi va aniq maqsadlar qo'yuvchi *o'ziga xos xarakatlar* vujudga kelishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'ziga xos xarakatlar jamoaviy kuchlanishlarni tashkil etuvchi etakchi-raxbarlarning tug'ilishiga sabab bo'ladi. O'ziga xos ijtimoiy xarakatning muvaffaqiyati Blumerning fikriga ko'ra, beshta bir xil bo'lmagan omillarga bog'liq: 1) tashviqot; 2) "jamoaruxini" shakllantirish; 3) axloqning rivojlanishi; 4) mafkuraning shakllanishi; 5) ish taktikasining rivojlanishi.

Tashviqot potentsial tarafdorlarni "dinga kiritish" bilan bog'liq bo'lgan faoliyatni nazarda tutadi. "Jamoaviy rux"ning rivojlanishi – "Biz-o'xshashmiz" xarakati a'zolarida birlik xissini shakllantirish demakdir. "Ma'naviyatning rivojlanishi" uning uchun qurbonlikka borish mumkin bo'lgan xarakatlar maqsadlarining "to'g'riligiga" ishonchga asoslangan shaxsiy axloqiy kodeksning ishlab chiqilishini nazarda tutadi. "Ish taktikasini rivojlantirish" – tarafdorlarni jalb qilishning, xarakat g'oyalarini tarqatishning, va yakunida qo'yilgan maqsadga erishishning samarali usullarini izlash demakdir. "Mafkura omili"ga batafsilroq to'xtalib o'tamiz, chunki aynan mafkura xarakat xayotga tadbiiq qilishni istagan "yangi g'oyalar"ni qamrab oladi. Blumer quyidagicha yozadi:

Xarakat mafkurasini ta'limot, e'tiqod va miflarning muayyan birligidan iborat bo'ladi. Aniqrog'i u...quyidagi tarkibiiy qismlarga ega: birinchidan, xarakat yo'nalishi, maqsadi va asoslarini aniqlab olish; ikkinchidan, mavjud tizimning tanqidi va xarakat xujum qilayotgan va o'zgartirishga xarakat qilayotgan ushbu tizimga hukmni qamrab oluvchi fikrlar majmui; uchinchidan, xarakat va uning maqsadlarini oqlovchisi sifatida xizmat qiluvchi ximoyalanish ta'limoti; to'rtinchidan, xarakat siyosati, taktikasi va amaliy faoliyatiga tegishli bo'lgan

fikrlar majmui; beshinchidan, xarakat miflari.

...mafura ikki turli tabiatga ega. Bir tomondan, undagi ko'p narsalar ilmiy va fanga oid tabiatga ega. Bu xarakat intellektuallari tomonidan shakllantiriladigan shakldir... U odatda xarakatdan tashqarida bo'lgan, va o'zining ta'limotiga salobatlilikni taqdim qilishga va yuqori olimlik va oliy intellektual qadriyatlarning ushbu dunyosida ximoyalanish uchun qulay vaziyatga erishishga intilayotgan intellektuallar tomonidan amalga oshirilgan tanqidga javoban vujudga keladi. Mafura...bundan boshqa ommaviy tabiatga xam ega. Mazkur ko'rinishda u ma'lumotga ega bo'lmaganlar va ommaga murojaat qiladi. O'zining mashxurlik ko'rinishida mafura xissiy belgilar, stereotiplar, tekis va namunali iboralar va oddiy xalq sabablari shakliga kiradi...

Xarakat mafkurasini xarakatning shaxsiy falsafasini va psixologiyasini ta'minlovchi narsa sifatida tushuniladi. U qadriyatlar, fikrlar, tanqidiy muloxazalar, tanqidiy dalillar va ximoya usullari to'plamini qamrab oladi. ... u xarakatni yo'nalish, oqlash, xujum qilish quroli, ximoya quroli, rag'batlantirish va umid bilan ta'minlaydi. Mazkur jixatdan samarali bo'lish uchun mafura salobatlilik va nufuzga, ya'ni birinchi navbatda unga xarakat intelligenstiyasi tomonidan xabar qilinuvchi jixatlarga ega bo'lishi lozim. Ushbu munosabatlarda samarali bo'lish uchun mafura salobat va nufuzga, ya'ni birinchi navbatda unga intelligenstiya tomonidan xabar qilinadigan jixatlarga ega bo'lishi lozim. Biroq bundan xam muximrog'i – bu mafkuraning odamlar azoblari, istaklari va umidlariga javob qaytarish zarurati.

O'ziga xos xarakatlar rejalashtirilayotgan o'zgarishlarning ko'lamiga ko'ra ikki turga bo'linadi. Inqilobiy xarakatlar mavjud tartibni buzishga va yangi qadriyatlar asosida yangi tuzumni yaratishga intiladi. Isloxotga oid xarakatlar mavjud tuzumni qisman yaxshilashni taqozo qiladi. Maqsadlardagi farqlar xarakatlar taktikasi, ijtimoiy bazasidagi farqlarni keltirib chiqaradi.

Mazkur xarakatlarning *ijtimoiy vazifalari* xam tubdan farq qiladi. Reformistik xarakatlarning asosiy vazifasi Blumerga ko'ra mazkur jamiyatning ideal qadriyatlarini tasdiqlashdan iborat (ularni takomillashtirish va to'ldirish yo'li

bilan, deb qo'shib qo'yamiz). Inqilobiy xarakatlarning asosiy vazifasi yangi, "deyarli diniy" qadriyatlarni tasdiqlashdan iborat.

Ekspressiv xarakatlar. Ekspressiv xarakatlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularning ishtirokchilari mavjud ijtimoiy tartibni o'zgartirishga xarakat qilmaydilar. Ular boshdan kechirayotgan norozilik va bezovtalik shaxsiy xulq va dunyoga bo'lgan munosabatning o'zgarishida o'zini namoyon qiladi.

Ekspressiv xarakatlarga o'ziga xos misol sifatida diniy xarakatlarni - yangi diniy ta'limot va fikrlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan xarakatlarni keltirish mumkin. Blumer ekspressiv xarakatlar sirasiga shuningdek, "urf bo'lgan" xarakatlarni kiritadi. Yuqorida keltirilganlar bilan bir qatorda Blumer o'zida bir nechta o'ziga xos xarakatlarni birlashtirgan va aralash "tabiat"ga ega bo'lgan ijtimoiy xarakatlarni ajratib ko'rsatgan. Aralash xarakatlarga "tiklanuvchi xarakatlar" misol bo'lishi mumkin. Bu yo'qotilgan yoki kuchsizlangan an'anaviy qadriyatlar va me'yorlarni "tiklash"ga urinishlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan xarakatlardir. 90-yillarning oxirlarida Rossiyada kazaklikni qayta tiklash xarakati aniq misol bo'la olishi mumkin. Boshqa bir misol sifatida Rossiya kabi, xorijda xam keng tarqalgan neomajusiylikka oid xarakat va guruxlarni ko'rsatish mumkin. Tiklanish xarakati sifatida fundamentalistik xarakatlarni xam ko'rsatish mumkin. Tiklovchi xarakatlarda ishtirok etuvchi odamlar o'tmishni xurmat qiladilar, o'tmishning o'z tafakkurlarida shakllangan qandaydir ko'rinishini e'zozlaydilar, zamonaviy xayotni ushbu ideal manzaraga tenglashtirishga xarakat qiladilar. Bu kabi xarakatlar shubxasiz, frustratsiya vaziyatiga javob sifatida izoxlanadi. Bu vaziyatda odamlar o'zlariga bo'lgan o'z xurmatlarini yo'qotadilar. Kelajak ularga o'zlari xaqida o'zlari uchun etarli bo'lgan nufuzni taklif qilmas ekan, ular uni shakllantirish maqsadida o'tmishga murojaat qiladilar.

Tafakkurning o'ziga xos xususiyatlarini va ijtimoiy xarakatning odatiy faol ishtirokchisi xulqini izoxlar ekan, boshqa bir tadqiqotchi - Erik Xoffer xarakat diniy yoki dunyoviy tabiatga egaligidan qat'iy nazar, "xaqiqiy e'tiqod qiluvchi" atamasini qo'llaydi. Faqatgina ommaviy qo'zg'olish va entuziazm sharoitidagina yangi qadriyatlar - ular xox dunyoviy, xox diniy bo'lsin, axolining etarli darajadagi

ko'p qatlamlari orasida mutaxkamlanib qolishi mumkin. Xotirjam va muloxazali inson xech kimni dinga kirita olmaydi.

Barcha ommaviy xarakatlar o'z izdoshlarida o'zini qurbon qilish va birlashtirilgan kuchlar bilan xarakat qilishga tayyorlik xissini tarbiyalaydilar; barcha ommaviy xarakatlar o'zlarining dasturi va ta'limotlaridan qat'iy nazar, fanatizm, entuziazm, qaynoq umidlar, nafrat, murosasizlikkabi xissiyotlarga sabab bo'ladi; ularning barchasi xayotning muayyan soxalarida faollikning qudratli oqimiga sabab bo'lishi mumkin; ularning barchasi ko'r-ko'rona ishonch va muloxazasiz sodiqlikni talab etadi.

Garchi ashaddiy xristianin, o'ta taqvodor musulmon o'rtasidagi farqlar yoki ashaddiy kommunist va ashaddiy nastist o'rtasidagi farqlar shubxasiz, biroq ularning mutaassibligida shubxasiz umumiy nimadir bor...

Xoffer tomonidan ta'riflangan jixatlar xar doim xam ijtimoiy xarakatlarda bir xil sur'atga ega emas. Biroq, mazkur jixatlarning umuman xech biriga ega bo'lmagan xarakatlar mavjud emas. Tankerlarga damli qayiqlar bilan xujum qilish uchun ("Grinpis" faollari buni ko'plab marotaba amalga oshirganlar) ulkan g'ayrat talab etiladi. O'zini va atrofdagilarni "Ollox nomi bilan" portlatish va "g'ayridin"larning ustidan g'alaba qozonish uchun yanada kuchliroq ishtiyoq talab etiladi. Xattoki tabiiy mo'ynadan foydalanmaslikka targ'ib qiluvchi xayvonlar xuquqlarini ximoya qiluvchilar xam o'z g'oyalari ta'siri ostida etarli darajadagi eksstentrik xarakatlarni amalga oshirish imkoniga egalar.

Biroq shuni aloxida ta'kidlash lozimki, entuziazm va o'zini qurbon qilish xarakatga kurashning faol bosqichida zarur bo'ladi. Xarakat barqarorlashib ijtimoiy tuzilmaning bir qismiga aylanganida esa entuziazm talab etilmaydi, "xaqiqiy e'tiqod qiluvchilar" o'rniga esa funkstionerlar keladi. Pravoslav yoki katolik cherkovlarning zamonaviy ruxoniysi apostol Pavelga o'xshaydi. Biroq xarakatning institustionallashtirilishi - bu uning aynan xarakat sifatidagi mavjudligining yakunlanishidir. Xarakatning institustionallashtirilishi uning o'z maqsadiga erishganligini anglatadi, va yangi qadriyatlar odatiy turmush tarzining

bir qismiga aylanib qoldi.

XX asr 60-70 yillaridagi Kontrmadaniyat xarakati

Qadriyatlarning ustun tizimini o'zgartirgan ijtimoiy xarakatga misol sifatida yoshlar Kontrmadaniyat xarakatini keltiramiz. Blumer tasnifiga rioya qilgan xolda ushbu xarakatni aralash turga kiritish mumkin. Yuqorida aytib o'tganimizdek, "kontrmadaniyat" tushunchasini Teodor Rozzak kiritgan. Mazkur atama bilan 60-70 yillardagi amerika jamiyatida shakllangan (asosan yoshlar orasida), va boshqa g'arb mamlakatlarining yoshlari tomonida o'zlashtirilgan qator, bir biriga yaqin bo'lgan g'oyaviy oqimlarni belgilash qabul qilingan.

Kontrmadaniyatning g'oyaviy dominantasi - amerika turmush tarziga va "o'rta sinf" iste'molchilik qadriyatlariga qarshi norozilikdir. Kontrmadaniyatning sarchashmalari - 50-yillar, amerika axolisi darajasining keskin oshib ketish davriga borib taqaladi. tarixda birinchi marotaba ko'plab amerikaliklar o'z bolalariga yaxshi ta'lim berish imkoniyatiga ega bo'lgan xolda etarli darajada ta'minlangan xolda yashay boshladilar. Amerika jamiyatida iste'mol kulti, moddiy qadriyatlar ortidan quvish, total konformizm ("barchadek bo'l", "boshqalardan yomon bo'lma") o'rnashib bordi. Kontrmadaniyat yoshlarning mazkur qadriyatlarga javobi bo'ldi. Yoshlar (odatda, boy qatlamlarga mansublar) katta avlod qadriyatlarini inkor qildi, vaxolanki inkor qilish turli shakllarga ega bo'ldi va bir nechta bosqichlarni bosib o'tdi.

"Inkor qiluvchilar"ning birinchi avlodi - "bitnik"lar avlodi "bogema" uslubidagi turmush tarzini amalda sinab ko'rdi: alkogol, giyoxvand moddalar, erkin jinsiy aloqa, shaxsning o'z-o'zini namoyon qilishning asosiy shakli sifatidagi badiiy ijod (prioritet san'atning avangard shakllariga taqdim qilingan), "otalar"ning diniy (protestant) an'analarini inkor qilish, Sharq dinlariga, ayniqsa dzen-buddizmga ("inqilobiy-dzen" qiziqish). Mazkur davrning adabiy portreti - Dj.Keruakaning "Dxarma darvishlari" romani.

Ikkinchi avlodi - bu "xippi" - "gullar bolalari". Bitniklar va xippilar o'rtasidagi chegara etarli darajada shartli: kechki davr bitniklari - bu birinchi xippilardir. "Xippi" - bu isyonchi yoshlarning nomi emas, balki nisbatan kechroq

yoshlarning o'zi tomonidan xam tan olingan, jurnalistlar tomonidan taqdim qilingan laqabidir. Xippilarning ko'pchiligi - o'rta sinfga mansub bo'lgan, ularning ijtimoiy o'rni taqozo qiluvchi xayot dasturi va turmush tarzidan kechgan yoshlar bo'lgan. Uzun sochli va o'ziga xos uvadalarga kiyinib olgan xippilar obrazi, - 60-yillar Amerikasi ramzidir.

Xippilar Amerika bo'ylab "avtostop" usulida ko'chib yuruvchi darvishona turmush tarzini kechirishgan, an'anaviy oilaga qarshi tarzda "kommuna"lar yaratganlar, erkin jinsiy aloqalarni sinab ko'rganlar (puritan Amerikada ayniqsa isyonga oid ravishda namoyon bo'lgan). Xippilar "tabiiy turmush tarzi"ni kechirishni qayta tiklashga, tabiatga qaytishga intilganlar va texnik stivilizastiyani inkor qilganlar. Xippilar davri - AQShning Vetnamdagi urushi davri.

Xippilar yorqin namoyon bo'lgan pastifizm tarafdorlari bo'lganlar, ularning shiori: "Urush bilan emas, balki jinsiy aloqa bilan shug'ullan". Xippilar qadriyatlarini va turmush tarzining musiqiy aksi rok bo'ldi. Xippilar bitniklar kabi faol diniy izlanishlar olib borganlar, ular sharq ta'limotlarida xaqiqat izlaganlar, biroq xristianlikka bo'lgan intilishlar xam namoyon bo'lgan. Xippilarni ayniqsa tasavvufga asoslangan tajriba, transtendent ibtido bilan qo'shilib ketish tajribasi, o'z shaxsiy "Men"i sarxadlaridan tashqariga chiqib ketish o'ziga jalb qilgan. Xippilarning mazkur izlanishlari bilan "psixologik inqilob", ya'ni ruxiy qo'zg'otuvchi (psixodeliklar, avvalambor LSD) vositalarni iste'mol qilish keng tarqaldi.

LSD yordamida tafakkurni kengaytiruvchi "tasavvufga oid tajriba"ga deyarli xar bir kishi erishishi mumkin. LSDga boshi bilan sho'ng'ib ketish va "kislota"ni qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan baxtsiz xodisalar, AQShda LSDni man qilinishiga va giyoxvand moddalarni tarqatish uchun qonun tomonidan ta'qib usullarining qat'iylashtirilishiga sabab bo'ldi. Xippilarning Kontrmadaniyat g'oyalari Ken Tomas Vulf ijodida, "Beparvo chavandoz", "Zabriski poynt" filmlarida o'z ifodasini topdi.

"Xippizm" 70-yillarda o'zining faol faoliyatini yakunladi. Xippilarning tashqi atributi bo'lgan estetika ommaviy madaniyat tomonidan o'zlashtirildi va

keng tarqala boshladi.

Kontrmadaniyat siyosiy tarkibiy qismga xam ega bo'lgan. U nafaqat tinchliksevar xippilarni, balki marksizm, trostkizm va maoizmlarning turli variatlariga sig'inuvchi va o'zi xaqida siyosiy xarakatlar yordamida ma'lum qiluvchi qator radikal siyosiy oqimlar va tashkilotlarni xam qamrab olgan. Ushbu jixatdan eng yorqin siyosiy xodisa - bu 1968 yilda Parijda sodir bo'lgan talabalar inqilobidir.

Kontrmadaniyat xarakatining g'arb jamiyatlari uchun axamiyatini ortiqcha baxolab yuborish mumkin emas. Eng muxim madaniy oqibatlarni ko'rsatib o'tamiz:

- iste'mol jamiyatini tanqid qilish;
- shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish qadriyatini anglash va keng tarqatish;
- ekologik problematikani anglab etish;
- an'anaviy jinsiy aloqa axloqini liberallashtirish;
- yangicha musiqiy va estetik usullarning paydo bo'lishi;
- diniy izlanishlarni faollashtirish, "yangicha ma'naviyatga" burilish.

Xuddi shu kabi siyosiy oqibatlar, jumladan, yoshlarning siyosiy xuquqlarini kengaytirish, AQShning irqiy strategiyasining kuchsizlanishi kabi xolatlar xam vujudga keldi. Kontrmadaniyat iqtisodiy xayotga xam o'z ta'sirini o'tkazdi. Bo'sh vaqtni o'tkazish industriasining "yoshlar bo'g'ini" vujudga keldi: yoshlar musiqasi, shlar modasi. S.Levikovaning fikriga ko'ra yoshlarning o'zi tomonidan emas, balki "yoshlar uchun" yaratiladigan "tijorat yoshlar madaniyati" shakllandi va iste'mol qadriyatlariga qarshi norozilik bildirgan, biroq oxiri iste'molning yangi modellarini yaratgan yoshlar Kontrmadaniyatining qisman mag'lubiyatini ko'rish mumkin.

"Madaniy ishlab chiqarish" va "ijodiy (madaniy) industriyalar"

"Madaniy ishlab chiqarish" - madaniyat sostiologiyasi va madaniyatshunoslikda keng tarqalgan tushuncha. Ushbu tushuncha zamonaviy jamiyatlarda madaniy qadriyatlar mavjudligining o'ziga xos xususiyatlari kabi,

madaniy ijodning o'ziga xosligini xam aks ettiradi.

Zamonaviy jamiyatlarda madaniy namunalarni - g'oyalar, obrazlar, ramzlar, moddiy "madaniy artefaktlar"ni saqlash, tarqatish va ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi ixtisoslashtirilgan madaniy muassasalar va tashkilotlarning keng tarmog'i shakllangan. Bu muzeylar, kutubxonalar, teatrlar, badiiy studiyalar, ko'rgazma zallari, kinostudiyalar, ommaviy axborot vositalari va xokazolardir.

"Ishlab chiqarish" atamasining madaniy qadriyatlarni yaratishga nisbatan qo'llanilishi ijod tushunchasining o'ziniyoq qayta anglanishini anglatadi. "Madaniy ishlab chiqarish" "moddiy ishlab chiqarish" bilan birlashib ketadi. "Madaniy maxsulot" (g'oya, qo'shiq, kitob, kompyuter o'yinlari, surat va xokazolar) maxsulotga, iste'mol ob'ektiga aylanadi. "Madaniy maxsulot"ning ishlab chiqarilishi xuddi moddiy ne'matlarning ishlab chiqarilishi kabi bozorga yo'naltirilgan. Ijodiy faoliyat iqtisodiy munosabatlar tarkibiy qismiga aylanadi va ushbu munosabatlar mantig'ini qabul qiladi.

"Madaniy ishlab chiqarish" tushunchasi bilan bir qatorda "madaniy industriya" tushunchasi, yoki ko'plikdagi "madaniy (ijodiy) industriyalar" tushunchasi xam o'llaniladi. Aslida, "madaniy industriya" xaqida birinchi bo'lib Teodor Adorno gapirib o'tgan. Uning qarashlari kontekstida ushbu tushuncha salbiy ma'noga ega bo'lgan va XX asrning o'rtalari va ikkinchi yarmida g'arb jamiyatlarida madaniyatni standartlashtirish, ommaviylashtirish va tijoratlashirish bilan bog'langan. "Madaniy (ijodiy) industriyalar" tushunchasi nisbatan kechroq tarqala boshladi. M.Gnedovski "ijodiy industriyalar" atamasi Buyuk Britaniyada XX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelganligini aytib o'tgan. Oxirgi yillarda "ijodiy industriyalar"ning rivojlanishi britaniya milliy sisatining eng muxim yo'nalishlaridan biriga aylandi, "ijodiy industriyalar" konstepstiyasining o'zi rivojlangan jamiyatlarida keng tarqaldi. 2004 yilning fevralida madaniy siyosat Instituti ishtirokida Rossiyada ijodiy industriyalarning rivojlanishi bo'yicha Muvofiqlashtirish kengashi tashkil etildi¹⁴⁵.

"Ijodiy industriyalar"ning keng tarqalishi faoliyatning reklama, urf, dizayn, arxitektura, dasturlashtirish, kinomaxsulotlarni va kompyuter o'yinlarini yaratish,

nashr ishi va xokazolar kabi turlarini qamrab oluvchi "iqtisoditning ijodiy bo'g'ini"ning shakllanishini anglatadi (Faoliyatning ko'plab turlari, garchi xammasi bo'lmasa-da, "ommaviy madaniyat"ni ishlab chiqarish bilan bog'liq ekanligini anglash qiyin emas). Postindustrial jamiyatlarda "ijodiy industriyalar"ning axamiyati ortib bormoqda, ular yanada ko'proq daromad olib keldi va odamlarning etarli darajadagi katta qismini ish bilan ta'minlaydi (va nafaqat bevosita ijod bilan shug'ullanuvchilarni emas).

"Ijodiy industriyalar"ning rivojlanishini ta'minlovchi odamlar "ijodiy sinf" deb atalishi mumkin (ushbu atamani amerikalik tadqiqotchi Richard Florida taklif etgan). Postindustrial jamiyatlarda "ijodiy sinf"ning ta'siri doimiy ravishda ortib bormoqda. Aynan "ijodiy sinf" vakillari shakllanib borayotgan global madaniyatning "oldingi safi"ni tashkil etadilar. "Ijodiy sinf" va "ijodiy industriyalar" asosan, madaniyatning nob va o'ziga xos asarlarini "madaniy maxsulotlar"ga aylantirgan va "madaniy ishlab chiqarish" uchun texnologik asos yaratgan media texnologiyalarining gullab-yashnashi sababli rivojlanadi. Postindustrial jamiyatlarda "madaniy ishlab chiqarish" sanoat ishlab chiqarishdan kam axamiyatga ega bo'lgan iqtisodiy bo'g'inga aylandi.

Industriallashtirilgan "madaniy ishlab chiqarish"ning zamonaviy jamiyatlar xayotidagi axamiyatini oshishi bilan bog'liq ravishda madaniyat sostiologiyasi mazkur xodisani o'rganishga katta qiziqishni namoyon qilmoqda. Madaniy ishlab chiqarishni (yoki "ramziy ishlab chiqarish"ni) o'rganishga, masalan, ushbu turli "madaniy ishlab chiqarish maydonlarida" - fan, ta'lim, adabiyotda shakllanadigan munosabatlar mantig'i kabi o'ziga xos fenomenning vujudga kelish sharoitlarini, shuningdek, ushbu mantiqning xukumat munosabatlari bilan aloqasini o'rganuvchi P.Burde ulkan xissa qo'shdi. "Madaniy ishlab chiqarish" bilan bog'liq bo'lgan problematikaga biz keyingi bobda qaytamiz.

Ommaviy axborot vositalarining zamonaviy jamiyat madaniyatiga ta'siri

"Madaniy ishlab chiqarish"ning zamonaviy jamiyatlardagi muxim bo'g'ini OAVlari xisoblanadi.

Biz o'z jamiyatimiz va o'zimiz yashayotgan dunyo xaqida biladigan barcha narsalarni biz massmedia orqali bilamiz. Bu nafaqat jamiyat va tarixni bilishga, balki tabait xaqidagi bilimlarimizga xam tegishli. Biz stratosfera xaqida Platon Atlantida xaqida bilgani kabi bilamiz: "odamlar bu va bu xaqida gapirishmoqda"... Boshqa tomondan, massmedianing o'zi xaqida biz ushbu manbaga ishonmasligimiz uchun etarli bo'lgan narsalarni eshitganmiz. Biz ularning ta'siriga qarshilik qilishga urinamiz, xuddi ular bizni boshqarayotgandek, biroq aslida bu xech nimani o'zgartirmaydi, chunki massmedia orqali olgan bilimlarimiz xuddi o'z-o'zidan shakllanayotgandek, uning elementlari bir-birini mustaxkamlaydi.

N.Lumanning ushbu so'zlari bugungi kunda aksioma sifatida qabul qilinmoqda. OAVlarining madaniyatga va tafakkurga ta'siri buvgungi kunda turlicha baxolanmoqda, biroq barcha tomonidan tan olinmoqda. Eng radikal nuqtai nazar shundan iboratki, ommaviy axborot vositalari tomonidan ishlab chiqarilatgan voqelik to'laqonli ravishda xaqiqiy voqelikning o'rnini egalladi va siqib chiqardi.

Ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi tufayli zamonaviy inson turli tuman ma'lumotlar bilan to'lib-toshgan dunyoda yashaydi. Uning dunyoqarashi "axborotga qadar" bo'lgan davrda yashagan insonning dunyoqarashidan ancha keng, o'z jamiyatining madaniy kontekstiga kamroq darajada bog'lanib qolgan. Ommaviy axborot vositalari zamonaviy inson uchun boshqa madaniyatlarning rang barang dunyosini, abiat dunyosini va inson o'tmishini ochib beradi, unga boshqa malakatlarda sodir bo'layotgan xodisalar xaqida ma'lumot taqdim qiladi, tomoshabinni birlaxzada xodisalar markaziga "ko'chirib o'tkazgan xolda" uning ishtirokchisiga aylantiradi, bunda u ma'lumot olish uchun uchraydigan to'siqlar sifatidagi vaqt va makonni yo'qotadi.

Ommaviy axborot vositalari zamonaviy inson uchun nafaqat voqelik xaqidagi ma'lumotlarning tuganmas manbasi, balki "kumirlar", "taqlid uchun namunalar", "qadriyatga oid yo'nalishlar va afzalliklar"ni ishlab chiqaruvchi fabrika vazifasini xam bajaradi. Mashxur teleboshlovchilar va ularning suxbatdoshlari o'z auditoriyasi uchun "fikrlar" va "baxolar"ning manbasiga aylanadi. Mashxur filmlar qaxramonlari taqlid qiluvchilar olomonini va ommaviy

urf bo'lgan narsalarga ommaviy kirib ketishni vujudga keltiradilar. Ularning iboralari, reklama roliklaridagi shiorlar ("sloganlar") kabi zamonaviy "folklorga" kirib boradi. Bolalar o'zlari sevib qolgan qaxramonlariga aylanib o'ynay boshlaydilar.

OAV zamonaviy inson ustiga yog'dirilayotgan turli tuman ma'lumotlar ko'pincha xech bir tartibga solinmagan, mantiqiy aloqaga ega emas va qismlarga bo'lib tashlangan. Bu esa o'z navbatida OAVlari auditoriyasi tomonidan dunyoni qabul qilish usulini xam belgilab beradi. Dunyoqarash o'zining "yaxlitlik" xususiyatini yo'qotadi va turli tuman qiymatlar va obrazlar betartibligiga aylanib boradi.

Bugungi kunda inson dunyo xaqidagi ma'lumotning katta qismini aynan ommaviy axborot vositalari orqali oladi, aynan nima ommaviy axborot vositalari e'tiboriga tushishi va auditoriyaga "muxim" va "axamiyatli" sifatida taqdim qilinishi masalasi ulkan axamiyat kasb etadi. Shunday qilib, ommaviy axborot vositalari nafaqat axborot taqdim qiladi, balki uni tartibga solishdan xam iborat. OAVlari e'tiboriga kamdan kam xollarda fan va "yuqori san'at" soxasidagi yangiliklar tushadi (agar ular shov-shuv bo'lmasa va odamlarning tasavvurini lol qoldirmasa), kundalik turmush va insonning kundalik majburiyatlari bilan bog'liq bo'lgan syujetlar deyarli mavjud emas. Biroq jinoyatlar va xalokatlar xaqidagi xabarlar muntazam raishda berib boriladi. Axborot-yangilik dasturlari qator etakchi davlatlarda sodir bo'layotgan xodisalarni yoritib boradilar, bunda qolgan mamlakatlar xuddi ommaviy axborot vositalari uchun, va o'z navbatida ularning auditoriyalari uchun xam mavjud emasdek – axir zamonaviy sharoitlarda ommaviy axborot vositalari uchun mavjud bo'lmagan narsalar xuddi umuman mavjud emasdek. U tomoshabinga nima muxim (e'tiborga loyiq), va nima muxim emasligini "ko'rsatadi". Ko'pincha aynan inson uchun xaqiqatan xam muxim axamiyatga ega bo'lmagan narsalar "muxim" narsa sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, "Oskar" mukofotining taqdim qilinishi doimo shov-shuvga sabab bo'ladi. Ushbu "buyuk" xodisa millionlab odamlarning e'tiborini qozongan, va bu faqatgina AQShda emas. "Oskar" xaqidagi suxbatlar soyasida boshqa barcha

xabarlar va ma'lumotlar ikkinchi darajali bo'lib qoladi. Bu xodisa va voqealarning axamiyatini noto'g'ri baxolashning, avvalambor "tomoshaga oid" va "shov-shuvli" voqealar muxim bo'lgan ommaviy axborot vositalari faoliyatining mantig'i bilan bog'liq bo'lgan faqatgina bitta misolidir. Biroq ushbu telba teskari mantiq ko'pincha auditoriya tomonidan xam qo'llab-quvvatlanadi.

Ommaviy axborot vositalari ma'lumotni muayyan tarzda, o'z shaxsiy faoliyati mantig'idan kelib chiqqan xolda "o'zgartiradi", tanlab oladi. Ommaviy axborot vositalari tomonidan tarqatilayotgan ma'lumotning ko'p qismi yangiliklar va ko'ngilochar dasturlar tomonidan taqdim qilinadi. Yangiliklar "shov-shuvli" – noan'anaviy, xayotning oddiy oqimidan boshqacha bo'lishi zarur (bu odatda, "yomon" yangiliklar, chunki ular doimo ko'pchilikning e'tiborini tortadilar). Ma'lumotning aniqligi – bu uning asosiy ustunligi emas. Ommaviy axborot vositalari ko'pincha tekshirilmagan ma'lumotlar, miflar, stereotiplarning tarqatilishiga imkon yaratadi. Zamonaviy mamlakatimiz televideniesining NUJlar kabi "sir va topishmoqlar"ga, jonli efirda maslaxatlar beruvchi turli sexrgar va jodugarlarni "reklama" qilishga bag'ishlangan ko'plab dasturlarni yodga olishning o'zi kifoya.

Ommaviy axborot vositalari tomonidan berib boriladigan ko'ngilochar dasturlar ko'plar uchun yaratilgan bo'lishi va shu sababli o'ta nozik ta'b bilan tayyorlanmasligi xam mumkin. Ushbu kontekstda sport musobaqalari adabiy dasturlardan ko'ra afzalroq xisoblanadi, teleseriallar esa – fan muammolariga bag'ishlangan dasturlardan ustunlikka ega. "Shov-shuvli ma'lumotlar ortida quvish" va "ko'ngilochar maxsulotlar"ning uncha yuqori bo'lmagan darajasi ommaviy axborot vositalarining eng ko'p tanqid qilinadigan mavzulari sifatida namoyon bo'ladi. Axborotning muxim tarkibiy qismi reklama xisoblanadi. Reklama yolg'on ideallarni o'tkazganligi, odamlar xulqini boshqarishga va xokazolarga bo'lgan urinishlari uchun tanqid ostiga olingan. Biroq mazkur muammolar engib bo'lmas muammo xisoblanmaydi: yangiliklarni yoritish va axborotni taxlil qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy televidenie (masalan, Buyuk Britaniyadagi VVS) tajribasi mavjud, ko'plab ixtisoslashtirilgan kanallar mavjud –

bugungi kunda inson unga qaysi turdagi ma'lumotlar mos ekanligini tanlab olishi mumkin.

Ommaviy axborot vositalari faoliyatining unchalik aniq bo'lmagan madaniy oqibatlarini anchayin muximroq. Ular orasida – yuqorida aytib o'tilgan voqelikni qismlarga ajratish va ma'lumotni tartibga keltirish faoliyati ham mavjud. Shuningdek, shuni ta'kidlash lozimki, axborot va uni qabul qilish usullarining o'zining ham o'zgarishini alohida ta'kidlash lozim. Televidenie (zamonaviy ommaviy axborot vositalarining eng keng tarqalgan turi) nafaqat so'zlar bilan, balki ko'rgamlai obrazlar bilan ham amallar bajaradi. Bu kabi ma'lumotlarni qabul qilish aql faoliyatini talab etmaydi. Inson faqatgina passiv tarzda ma'lumotni “iste'mol” qiladi. Aql, tafakkur emas, balki avvalambor xissiy soxa faoliyat olib boradi. Bu kabi vaziyatda axborotni tanqidiy anglash uchun imkoniyatlar tushib ketadi. Inson ko'rayotgan narsasini rost ma'lumot sifatida qabul qiladi. Shuningdek, “mavjudlik xissi” ishga tushadi – insonga qandaydir xodisalarni “o'z ko'zi bilan ko'rgandek”, xayajonli guvoxlarining xikoyasini “o'z quloqlari bilan eshitgandek” tuyuladi. Shu bilan birga u faqatgina atayin tanlab olingan qator obrazlarni ko'rgan, va inson atayin “guvox” roliga tanlab olingan odamning xikoyasini eshitadi. Televideniy xar bir zamonaviy shaxs xayotida ulkan o'rin tutadi. Teledasturlarni ko'rish – bo'sh vaqtni o'tkazish usullaridan biri xisoblanadi. Inson dunyoni ekran orqali ko'rishg odatlanib qoladi. Ushbu ekranda sodir bo'layotgan xodisalar, - bu avvalambor “ko'rsatuv”, “spektakl”dir. Ular o'zlarining shaxsiy mohiyatini sto'qotadi. Xarbiy xarakatlar zonalaridan yoki tabiiy ofatlar sodir bo'lan xududlardan tayyorlangan reportajlar badiiy filmlarga o'xshab namoyish qilinadi. “Voqelik” va “spektakl” o'rtasidagi chegara yo'qolib ketadi – barcha narsa “spektakl”ga aylanadi. Ushbu qarashlar masalan, to'qib chiqarilgan narsani rost ifatida va aksincha qabul qilishga moyillikda namoyon bo'ladi. Maxsus adabiyotlarda xayajonlangan va qattiq ta'sirlangan tomoshabinlar o'z sevimli filmlari qaxramonlariga xat yozgan, yoki film syujetlarini xaqiqiy xodisa sifatida qabul qilgan xolatlari to'g'risida ham yozib o'tilgan.

Voqelikni spektaklga aylantirishga yorqin miso sifatida siyosiy xayotni

ko'rsatish mumkin. Bugungi kunda etakchi siyosatchilar siyosiy dasturni batafsil ishlab chiqishdan ko'ra ko'proq o'z "imidj"larini yaratish va o'z shaxsiga bo'lgan qiziqishni so'ndirmaslikka intiladilar. Bugungi kunda nafaqat rossiyaliklar, balki boshqalar xam "yurakdan tanlaydilar". Siyosatchilarning bugungi kundagi asosiy vazifasi "jamoat fikri"ga to'g'ri yo'nalishda ta'sir ko'rsatish, aniqrog'i – "jamoat fikrini shakllantirish"dan iborat bo'lib qolmoqda. Yu.Xabermas ta'kidlaganidek. ommaviy axborot vositalari tarqalishining salbiy oqibati – mustaqil jamoat fikri shakllanishi mumkin bo'lgan ommaviy munozaralar uchun maydonning yo'qolib ketishi bo'ldi. Bugungi kun bosqichida jamoat fikri ko'pincha ommaviy axborot vositalari tomonidan taqdim qilingan g'oyalarni aks ettirmoqda xolos. Ommaviy axborot vositalarining odamlar ongiga ta'siri ularni "to'rtinchi xokimiyat"ga aylantirib qo'ymoqda. Jamoat fikrini shakllantirish muammolari bilan nafaqat siyosatchilar, balki ommaviy axborot vositalari shuningdek odamlarning ongiga ta'sir ko'rsatishning samarali mexanizmiga aylanayotgan, ularning talablari va iste'molchi ideallarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatayotgan biznes vakillarini xam tashvishga solmoqda.

Ommaviy axborot vositalarining eng yoshi Internet kompbyuter tarmog'i xisoblanadi. Internet an'anaviy ommaviy axborot vositalarining – radio va televideniening ko'plab kamchiliklarini engib o'tish imkonini beradi. Televidenie va radio auditoriyasi passiv. Qabul qilinayotgan ma'lumotga nisbatan o'z faolligini namoyon qilishning faqatgina ikkita imkoniyati mavjud: televizor yoki radiopriemnikni o'chirib qo'yish, yoki boshqa dasturga olib tashlash. Auditoriya uning uchun kimlardir tanlagan va belgilab qo'ygan ma'lumotlar bilangina cheklanib qolishga majbur. Global tarmoq foydalanuvchisi esa zarur ma'lumotni o'zi izlaydi va tanlab oladi – Internet deyarli bitma-tuganmas ma'lumot manbaidir. Tarmoq foydalanuvchilari o'zaro suxbatga kirishishi, fikr va ma'lumotlar bilan almashinishi mumkin. Xar bir foydalanuvchi o'zining shaxsiy saytini yaratishi – va uncha katta bo'lmasin, shaxsiy ommaviy axborot vositasining yaratuvchisiga aylanishi mumkin, shu bilan birga u o'z xamfikrlari bilan faol suxbatga kirishishi mumkin.

Tarmoqda Xabermas yo'qolib borayotganligi xaqida aytib o'tgan "ommaviy munozara"lar uchun maydon qayta tiklanmoqda. Internet ommaviy axborot vositalaridan arqli o'laroq madaniy va xududiy chegaralarni yuqori darajadagi osonlik bilan engib o'tish imkonini beradi, bunda foydalanuvchining o'zai ushbu jarayonda ishtirok etadi, ayni vaqtda televizion auditoriya vakili o'rniga esa buni boshqalar amalga oshiradilar. Kompyuter tarmog'ining virtual maydoni umumiy e'iqod va qiziqishlarga ega bo'lgan yangi uyushmalarning paydo bo'lish maydoniga aylanib bormoqda, bunda yangi uyushmalar potentsial ravishda chegaralarga ega emas va qo'shni ko'chada yashovchi insonlar kabi, umuman boshqa qit'ada yashovchi insonlarni xam qamrab olishi mumkin.

Internet insonlarga o'zlarini shartlar, rolga oid kutishlar, madaniy stereotiplar bilan to'lib-toshgan kundalik muloqotdan ko'ra erkinroq namoyon qilish imkoniyatini taqdim qiladi. Tarmoqda xar bir foydalanuvchi o'zining shaxsiy obrazi o'z istagiga ko'ra shakllantiradi, agar istasa – xattoki bir nechta obrazlarni shakllantirishi mumkin.

Biroq Internetning ijobiy tomonlari salbiy tomonlari bilan "muvozanatlashib" ketadi. Ko'pincha virtual dunyodagi sermazmun xayot real dunyodan ketish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Suxbatdoshlar bilan faol aloqalar tarmoqda virtual emas, balki real ijtimoiy muxit bilan ijtimoiy aloqalarning kuchsizlanishi bilan birga kechishi mumkin. Bundan tashqari, individ tarmoqda topgan ma'lumot – ko'pincha xilma xil va ko'pincha yolg'on yoki zararli bo'lishi mumkin. Internet manbalaridan unumli foydalanish uchun dastlabki tayyorgarlik, bilimlarning muayyan darajasi zarur. An'anaviy ommaviy axborot vositalari tomonidan etkazib berilayotgan ma'lumot kabi, son-sanoqsiz kompyuterlar xotirasida saqlab qolingan ma'lumotlar qismlarga bo'lingan va mozaika ko'rinishida bo'ladi. Boshqa tomondan esa u asosan matn shaklida berilgan, va shu sababli o'qishni va anglashni, tafakkur faoliyatini talab etadi, va u shunisi bilan ko'rgazmali obrazlarni passiv ravishda qabul qilishdan farq qiladi.

Foydalaniladigan darslik va o'quv qo'llanmalar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1. M.Bekmurodov, N.Yusupova. Madaniyat sotsiologiyasi. -Toshkent: Nishon-Nashr, 2010.
2. Kulturologiya. –Tashkent, 2004.
3. Madaniy va ma'rifiy ishlar. Lug'at. Toshkent, 1996.
4. Sostiologiya: o'quv qo'llanma. Mualliflar jamoasi.-Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2002.
5. Umarov E. Kulturologiya. Toshkent, 2006.
6. Xolbekov A., Ildirov U. Sostiologiya. Toshkent, 1999.
7. Ionin L.G. Sostiologiya kultury. Moskva: Logos, 1996.
8. Sostiologiya. Основы общей теории. –М., 1998.
9. Frolov S. Sostiologiya. – Moskva, 1999.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Ashirov.A, Atadjanov Sh. Etnologiya: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2007.
2. Ashirov.A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent , 2007.
3. Buddizm: istoriya i kultura. – Moskva:Nauka, 1989
4. Djabbarov I., Dresvyanskaya G. Duxi, svyatyё, bogi Sredney Azii. – Tashkent: Uzbekistan, 1993.
5. Jabborov I. O'zbek xalq etnografiyasi. Toshkent: O'qituvchi, 1994.
6. O'rolov A., Xojixonov M. Temuriylar ma'naviyati va madaniyati. Sug'diyona, 1996.
7. Veber M. Izbrannyye proizvedeniya. Moskva: Progress, 1990.
8. Galkin A.A., Krasin Yu.A. Kultura tolerantnosti pered vyzovami globalizastii // J. Sostiologicheskie issledovaniya, №8, 2003
9. Klayv Erriker. Buddizm. – Moskva:Grand, 1999
10. Kulturologiya. XX vek: antologiya. Filosofiya i sostiologiya kulture. – Moskva: INION,1994
11. Levi-Stros K. Pervobytnoe myshlenie. – Moskva: Respublika, 1994
12. Mamajonova M. Yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashda madaniy merosning ahamiyati. Ijtimoiy fikr. Inson xuquqlari. 2002. № 1.
13. Toporov V.N. Mif. Ritual. Simvol. Obraz. Issledovaniya v oblasti mifopoeticheskogo. – M.: Progress-Kultura,1995
14. Sokolov V.M. Tolerantnost: sostoyanie i tendentsii//J. Sostiologicheskie issledovaniya, №8, 2003
15. Teylor E. Pervobytnaya kultura. M., 1999
16. Terin D.F. Kategoriya stivilizastii i osnovnaya dixotomiya sostialnoy teorii // J. Monitoring obshchestvennogo mneniya: ekonomicheskie i sostialnye peremёny, №1, 2004
17. Щyust A. Struktura povsednevnogo myshleniya // J. Sostiologicheskie issledovaniya, 1986, .№ 1
18. Rudnev V.P. Slovar kulture XX veka. – M.,1997

19. Arapov A. Istoriya i kultura // Obщestvennoe mnenie. Prava cheloveka. 1998. №4.
20. Pugachenkova G. Buduщee nachinaetsya vchera // Obщestvennoe mnenie. Prava cheloveka. 1998. №4.
21. Shpengler O. Zakat Evropy: Oчерki morfologii mirovoy istorii. – M.: Мысль, 1993
22. Klassicheskaya nauka Sredney Azii i sovremennaya mirovaya stivilizastiya. – Tashkent: Fan, 2000.
23. Shermuxamedova N. Vostok: prikosnovenie k istine // Obщestvennoe mnenie. Prava cheloveka. 2001. №1.
24. Islam v jizni naseleniya Uzbekistana. – Tashkent: Ijtimoiy fikr, 2003.

Internet saytlari.

25. <http://xammer.nm.ru/soc/index.html>
26. <http://socioworld.narod.ru>
27. <http://www.soc.pu.ru:8101/publications/vestnik>
28. <http://www.nir.ru/socio/scipubl/socjour.htm>
29. <http://www.nir.ru/socio/scipubl/nauchn.htm>
30. <http://socium.fom-discurs.ru>

